

*Russiatilinen kirjallisuus*

V. S. Grossman



HAYOT VA  
QISMAT



Rus adabiyoti durdonalari

---

VASILIY SEMYONOVICH  
GROSSMAN



HAYOT  
VA  
QISMAT

*Romandan parchalar*

TOSHKENT  
«O'ZBEKISTON»  
2021

UO'K 821.161.1-31  
KBK 84(2Ros=Rus)  
G 79

## Rus tilidan **Muhammadali QO'SHMOQOV** tarjimasi

**Grossman, Vasiliy Semyonovich**

G 79 Hayot va qismat [Matn]: romandan parchalar / V.S. Grossman.  
Rus tilidan Muhammadali Qo'shmoqov tarjimasi – Toshkent:  
«O'zbekiston» NMIU, 2021. – 160 b.

ISBN 978-9943-7606-4-6

Taniqli rus yozuvchisi Vasiliy Semyonovich Grossman (1905–1964) adabiy faoliyati qatorida harbiy jurnalistika bilan ham shug'ullangan. Shu bois uning ijodida urush mavzusi ustunlik qiladi. Zotan, u qo'lga qurol olib, vatan himoyasiga otlangan o'g'lonlar hamda front orti zahmatkashlari haqida ham qator asarlar yaratdi. Xususan, yozuvchi qalamiga mansub «Hayot va qismat» romanida Stalingrad jangiga u yoki bu darajada daxldor odamlarning taqdirini hikoya qiladi. Oddiy insonlarning mashaqqatli sinovlar davridagi qahramonliklari katta mahorat ila yorqin bo'yoqlarda tasvirlangan ushbu asar keng kitobxonlar ommasiga manzur bo'ladi, degan umiddamiz.

UO'K 821.161.1-31  
KBK 84(2Ros=Rus)

ISBN 978-9943-7606-4-6

© V.S. Grossman, 2021  
© M. Qo'shmoqov (tarj.), 2021  
© «O'ZBEKISTON» NMIU, 2021



*Onam Yekaterina Savelyevna  
Grossmanga bag'ishlanadi.*

## HAYOT VA QISMAT

### 1

Yerga tuman tushgan. Shosse bo'ylab cho'zilgan yuqori kuchlanishli simlarda avtomobil faralarining shu'lasini tovlanadi.

Yomg'ir yog'gani yo'q, lekin tongga borib yer namlanib, taqiqlovchi yo'lchiroq yaroq etganda, nam asfaltda chaplanib ketgan, qizg'ish dog' paydo bo'lardi. Lager nafasi necha kilometr naridan sezilardi – simlar, shosse va temir yo'llar bir-biriga tobora yaqinlashib, u tomonga tortilib borardi. Bu to'ppa-to'g'ri yo'nalishlar bilan to'ldirilgan yerni, kuzgi osmonni, tumanni kesib bo'laklagan to'g'ri burchaklar va parallelogrammlar makoni edi.

Olisda cho'ziq va past ovozda sirenalar yangradi.

Shosse temir yo'lga yondashib, sement to'la qog'oz qoplar yuklangan avtomashinalar bo'linmasi uch-kechi yo'q tovar esheloni bilan allaqancha vaqt bir xil tezlikda birga yurdi. Harbiy shineldagi haydovchilar yonma-yon ketayotgan vagonlarga, insoniy qiyofalardan iborat rangpar dog'larga qayrilib qarashmadi.

Tuman ichidan lager to'siqlari – temirbeton ustunlar o'rtasiga tortilgan sim qatorlari chiqib keldi. Baraklar keng, to'g'ri ko'chalarni hosil qilib, cho'zilib borardi. Ularning bir xilligida ulkan lagerning shavqatsiz qiyofasi aks etardi.

Rus qishloqlaridagi necha millionlab uylarning ichida ikkita bir-biridan farqlanmaydigan o'xshashi yo'qlari bo'lishi ham mumkin emas. Neki tirik – betakror. Ikki kishining, ikki na'matak butasining bir xilligini tasavvur qilib bo'lmaydi. O'ziga xosligini, qaytarilmas xususiyatlarni zo'ravonlik yo'q qilishga intilgan joyda hayot so'nadi.

Sochi oqargan mashinistning sinchkov va beparvo ko'zi beton ustunlar, projektorlar aylanib turgan baland machtalar, shisha fonar ko'tarib, turel pulemyoti yonida turgan qo'riqchi qaqqayib ko'rinayotgan beton minoralar lip-lip o'tishini kuzatardi. Mashinist yordamchiga ko'zi bilan imo qildi, parovoz ogohlantiruvchi signal berdi. Elektr yoritgan qorovulxona, tushirib qo'yilgan yo'l-yo'l ko'tarma g'ov oldidagi mashinalar, yo'lchiroqning buqanikiday qizil ko'zi ko'rinib o'tdi.

Uzoqdan qarama-qarshi tarafdin kelayotgan poyezdning gudogi quloqqa chalindi. Mashinist yordamchiga:

– Sukker kelyapti, men uni shovqinli ovozidan taniyman, yukini qoldirib, Myunxenga qarab surib boryapti, – dedi.

Yuksiz vagonlar taraqa-turuq qilganicha, lager tomon ketayotgan eshelon bilan uchrashdi, havo chirsillab ketdi, vagonlar o'rtasida kulrang shu'lalar pirpiradi, kutilmaganda bo'shliq va kuz tongining yog'dusi qo'shilib, qiyqim-siyqimlikdan qutulib, qaytadan, bir tekis chopib borayotgan yaxlit matoga aylandi.

Mashinist yordamchisi cho'ntagidan oynani chiqarib, kir-chir bo'lib ketgan aftini siladi. Mashinist qo'li bilan ishora qilib, undan, oynasini so'radi.

Yordamchi hayajonli ovozda:

– Eh, genossi Apfel, so'zimga ishoning, agarda shu, vagonlar dizinfeksiyasi oyoq ostidan chiqmaganida, tush vaqtida qaytib ulgurardik, tonggi to'rtgacha sudralib, tinka-madorimizni quritib yurmasdik. Xuddi o'z joyimizda dezinfeksiya qilishning iloji yo'qday, – dedi.

Dezinfeksiya haqida tinmay chynalaverish cholning joniga tegdi.

– Qani, ishning bo'laridan kel, – dedi u, – bizni zaxiraga qo'yishmaydi, yuk tushiriladigan asosiy maydonga to'ppa-to'g'ri o'tkazishadi.

## 2

Nemis lagerida Mixail Sidorovich Mostovskoy Kominternning Ikkinchi Kongressidan keyin birinchi marta o'zining chet tillar bo'yicha bilimni qo'llashiga to'g'ri keldi. Urushgacha, Leningradda yashar ekan, hadeb ajnabiylar bilan gaplashishga to'g'ri kelmasdi. Endi London va Shveysariyadagi muhojirlik davri esiga kelmoq-



da, u yerda inqilobchilar jamoasida Yevropaning ko'plab tillarida so'zlashar, bahslashar, kuylar edilar.

Bu lagerda ellik olti millatga mansub odamlar yashaydi, deb aytdi Mostovskoyga kat qo'shnisi, italyan ruhoniysi Gardi.

Lager baraklaridagi o'n minglab yashovchilarning taqdiri, yuzining rangi, kiyimi, holsiz qadam tashlashi rus asirlari «baliq ko'zi» deydigan bryukva<sup>1</sup> va sun'iy yormali sho'rvaga kuni qolgani – shularning barchasi bir xil edi.

Boshliqlar lagerdagi kishilarni raqamlari va egnidagi kiyimiga tikilgan mato rangiga qarab farqlardi: qizil – siyosiy mahbus, qora – to'sqinchi, yashil – o'g'ri va qotil.

Odamlar tillari boshqa bo'lgani sababli bir-birlarini tushunmas, lekin ularni yagona qismat bog'lab turar edi. Molekular fizika va qadimiy qo'lyozmalarning bilimdonlari o'z nomini yozib qo'l qo'yolmaydigan italyan dehqonlari va xorvat cho'ponlari bilan yonmayon katlarda yotar edilar. Bir vaqtlar oshpaziga nonushta buyurganlar va ishtahasi yomonligi tufayli xo'jalik bekasiga aziyat yetkazganlar ham, sho'r baliq yeganlar ham bir safda, yog'och poshnalarini taqillatib, bloklardagi ruslar «kostriqlar» deb nomlagan Kosttrager – bochka tashuvchilar kelmayaptimi, deb g'amgin qarab qo'yib, ishga borardilar.

Lager kishilari taqdiridagi bir xillik tafovutdan kelib chiqardi. Italyan tuprog'ining changini burqsitib yastangan yo'l yoqasidagi bog', Shimol dengizining vahimali shovqini yoki Bobruysk deparasidagi boshliqlar uyidagi chiroqning to'q sariq qog'oz qalpog'i bilan bog'liq kechmish xayolotlari chirmashib ketardimi – barcha mahbuslarning o'tmishi beistisno go'zal edi.

Kishining lagergacha bo'lgan hayoti qanchalik og'ir bo'lsa, u shunchalik astoydil aldardi. Bu yolg'on amaliy maqsadlarga xizmat qilmasdi, u ozodlikni sharaflashga xizmat qilardi: lagerdan tashqaridagi odam baxtsiz bo'lishi mumkin emas...

Bu lager urushgacha siyosiy jinoyatchilar lageri deb atalardi.

Siyosiy mahbuslarning natsional-sotsializm yaratgan xili – jinoyat sodir etmagan jinoyatchilar paydo bo'ldi.

Mahbuslarning ko'pchiligi do'stlar davrasida gaplashib o'tirib, gitlercha idora usuli haqida tanqidiy mulohaza bildirgani, siyosiy

<sup>1</sup> Bryukva – sholg'omsimon sabzavot.

mazmundagi latifa aytgani uchun lagerga tushgan edi. Ular varaqalar tarqatmagan, yashirin partiyalar ishiga qo'shilmagan. Ularni bular shularning hammasini qilishi mumkin edi, deb ayblashgan.

Urush davrida harbiy asirlarni konsentratsion – maxsus siyosiy lagerlarga qamash ham fashizmning yangi tartibi bo'ldi. Bu yerda Germaniya hududlarida urib tushirilgan ingliz, amerika uchuvchilari va Qizil Armiyaning gestapo ilinj bilan qarayotgan komandirlari hamda komissarlari bor edi. Ulardan ma'lumotlar, maslahatlar berish, hamkorlik qilish, har turli deklaratsiyalarga imzo qo'yish talab etilardi.

To'sqinchilar – ishga sababsiz kelmaganlar, harbiy zavodlarda va qurilishlarda xizmat joyidan ruxsatsiz ketib qolganlar lagerga tashlangan edi. Ishchilarni yomon ishlagani uchun maxsus lagerlarda hibsdan saqlash ham natsional-sotsializmning ibratlaridan hisoblanardi.

Lagerda nastarinrang qiyqim tikib qo'yilgan kiyimdagi kishilar: fashistlar Germaniyasidan ketib qolganlar – nemis muhojirlari ham uchrardi. Bu ham fashizm yangiliklaridan edi: Germaniyani tark etganlar xorijda o'zini qanchalik xolis tutsalar-da, siyosiy dushman bo'lib qolardilar.

Kiyimida yashil yo'li bor kimsalar – kisavurlar va qulfbuzar o'g'rilar siyosiy lagerning har tomonlama yengillikka ega qismi edi; komendatura siyosiy mahbuslarni nazorat etishda shularga tayanardi.

Siyosiy tutqunlarning jinoyatchilik izmiga topshirib qo'yilishida ham natsional-sotsializm topqirligi namoyon bo'ladi.

Lagerda o'ziga xos shunday bir ko'rgilik changaliga tushganlar nazarga ilinardiki, ularning kiyimidagi parcha-mato uchun bu qismat neligiga javob beruvchi rang topilmagandi. Ammo natsional-sotsializm ilon o'ynatuvchi hindga, Tehrondan olmon tasviriy san'atini o'rganishga kelgan forsga, talaba-fizik xitoyga katda o'rin, suyuq yovg'on sho'rva dekchasi, zarur joyda o'n ikki soatlik ish hozirlab qo'ygandi.

O'lim lageri, maxsus lager tomon kecha-yu kunduzi eshelonlar harakati tinmasdi. Havoni g'ildiraklar taqir-tuquri, parovozlar o'kirigi, ishga ketayotgan – kiyimida besh raqamdan iborat ko'k tUSDagi tartib yorlig'i bor yuz minglab lagerchilar etiklarining tapir-tupuri to'ldirardi. Lagerlar Yangi Yevropaning shaharlari bo'lib





qolgandi. Ular o'z rejalanihiga ko'ra, torko'chalari va maydonlari, kasalxonalari, eski-tuski bozorlari, krematoriylari va stadionlari bilan birgalikda o'sib, kengayib borardi.

Bu lager-shaharlar bilan qiyoslaganda, krematoriy pechlari ustidagi aqldan ozdiruvchi to'q qizil-qora shu'lalar bilan qiyoslaganda, shahar chekkasida joylashgan ko'hna qamoqxonalar qanchalik jo'n va hatto qadimgi zamonlardagidek xushfe'l bo'lib ko'rinadi.

Qatag'on qilinganlar hadsiz darajada ko'p ediki, ular tartibini tutib turish uchun poyloqchilar, nazoratchilarning katta, qariyb millionlab armiyasi zarurga o'xshardi. Lekin bu shunday emasdi. Baraklar ichida SS libosidagi kishilar haftalab ko'rinmasdi. Lager shaharlarida politsiya o'rniga qo'riqlashni mahbuslar o'z zimmalariga olgan edilar.

Mahbuslarning o'zlari baraklardagi ichki tartibni nazorat qilardilar, o'zlarining dekchalariga faqat irigan va sovuq urgan kartoshka kelishiga, yirik, saralanganlari esa armiya oziq-ovqat omboriga borishini ham nazorat qilardilar.

Mahbuslar qamoq kasalxonalarida shifokorlar, bakteriologlar, qamoq yo'lkalarini supurib-sidiruvchilar edilar, ular qamoq nurini, qamoq issig'ini, qamoq mashinalari jihozlarini butlovchi injenerlar edilar.

Shafqatsiz va shiddatkor lager politsiyasi – chap qo'liga enli sariq bog'ich taqqan kapo, lagerelterlar, blokelterlar, shtubenelterlar lager hayotini to'laligicha – to umumlager ishlaridan to tunda katlarda ro'y bergan xususiy hodisalargacha o'z nazoratiga olgan edi. Mahbuslar lager davlatining sir tutiladigan faoliyatida hatto tergovdagilarning dunkelkamera – beton panellarda aqlini kiritish ro'yxatini tuzishda qatnashishlariga ruxsat etilardi. Mahbuslar – agar boshliqlar g'oyib bo'lib qolsa – tarqalib ketmay, ishlayverish uchun simlardagi yuqori kuchlanishli tokni saqlab turadigandek edi.

Bu kapo va blokelterlar komendantga xizmat qilardi, ba'zan esa krematsiya pechiga kimlarni haydab borganlarini eslab, yig'lardilar... Biroq ikkilanishlari oxiriga yetmas, ular o'z ismlarini seleksiya ro'yxatiga qo'shmas edilar. Mixail Sidorovich: shu narsa, ayniqsa, dahshatli shumlik, deb o'ylardiki, natsional-sotsializm lagerga monokl bilan kelmas, yunkerlarcha qo'rslik bilan, xalqqa yotligini bildirmasdi. Natsional-sotsializm lagerlarda o'zini yaqin olib yashar,

oddiy xalqdan ajralib turmasdi, hazillari xalqchil – uni eshitganlar kulishardi, u plebey edi va o'zini sodda ko'rsatar, u o'zi ozodlikdan mahrum etganlarning tilini ham, ko'nglini ham, aqlini ham a'lo darajada bilar edi.

### 3

Nemislar Mostovskoyni, Agrippina Petrovnani, harbiy shifokor Levintonni va haydovchi Semyonovni – Stalingrad atrofida, avgust tunida qo'lga tushurganlaridan keyin piyodalar diviziyasi shtabiga olib borishdi.

So'roqdan so'ng Agrippina Petrovnani qo'yib yuborishdi, dala jandarmeriyasining xodimi ko'rsatmasiga binoan, tarjimon uni bir buxanka no'xot non va ikkita qizil o'ttiztalik bilan ta'minladi; Semyonovni Vertyachiy xutori viloyatidagi shtalagga qarab ketayotgan asirlar safiga qo'shib qo'yishdi. Mostovskoyni va Sofya Osipovna Levintonni armiya guruhi shtabiga eltishdi.

Sofya Osipovnani Mostovskoy o'sha yerda – changib yotgan hovlining o'rtasida – pilotkasiz, farqlovchi belgilari yulib tashlangan holda turganida oxirgi marta ko'rdi va u Mostovskoyni ko'zi va yuzidagi g'amgin, g'azabnok ifodasi bilan qoyil qoldirdi.

Uchinchi so'roqdan keyin Mostovskoyni eshelonga g'alla ortilayotgan temir yo'l stansiyasi tomonga piyoda haydadilar. O'nta vagon Germaniyaga ishga safarbar qilingan qizlar va yigitlarga ajratilgan edi – Mostovskoy, eshelon jo'nayotganda, ayollarning dod-faryodlarini eshitdi. Uni qattiq o'rindiqli vagonning tor xizmat xonasiga qamashdi. Uni kuzatib borayotgan askar qo'pol emasdi, lekin Mostovskoy biron savol so'rasa, kar-soqov qiyofasiga kirardi. Shunda sezilardiki, u faqat birgina Mostovskoy bilan butunlay band edi. Zoologiya bog'ining tajribali xizmatchisi temir yo'l bo'ylab sayohat qildirilayotgan – quti ichidagi yovvoyi hayvon shitir-shitiri, qimir-qimirini shu tarzda – avvaldan oxirigacha miq etmay, butun diqqat-e'tiborini yig'ganicha, kuzatib boradi. Poyezd polyak general-gubernatorligi hududlaridan o'tib borarkan, kupeda yangi yo'lovchi – sochlari oqargan, ko'zlari fojeiy va og'zi bo'z bolalarnikiday lo'ppi, baland bo'yli, kelishgan odam – polyak yepiskopi paydo bo'ldi. U o'sha ondayoq Mostovskoyga Gitler polyak ruhoniylarini qanday jazolagani haqida hikoya qila boshladi. U ruscha gapirganda, so'zlarni kuchli o'zgachalik bilan talaffuz qilardi.



Mixail Sidorovich katoliklikni va papani qattiq koyiganidan so'ng u tindi va Mostovskoy savollariga qisqa, polyakcha javob berdi. Bir necha soatdan keyin uni Poznanda tushurishdi.

Mostovskoyini Berlinni chetlab o'tib lagerga keltirishdi... Gestaponi juda ham qiziqtirgan mahbuslar blokda saqlangan yillar o'tgandek edi. Maxsus blokda ishchi lageriga nisbatan hayot to'qroq kechardi, ammo bu laboratoriyadagi jabrdiyda maxluqlarning yengil hayoti edi. Navbatchi bir odamni eshik oldiga chaqiradi, qarangki, tanishi unga har ikkalasiga foydali tarzda tamakini yegulikka almash-tirishni taklif etadi va haligi kishi ko'ngli ochilib, miyig'ida kulib, o'z katiga qaytadi. Boshqa bironi ham xuddi shunday chorlashadi va u so'zini bo'lib, eshikka qarab ketadi, suhbatdoshi esa uning hi-koyasi davomini kutganicha qolaveradi. Bir kundan keyin kapo kat-larga yaqin kelib, navbatchiga lash-lushlarni yig'ishni buyuradi va kimdir shtubenelter Keyzedan: bo'shagan katni egallasam, maylimi, deb, yolvorib so'raydi. Seleksiya, mayitlarning krematsiyasi va lager futbol komandalari haqidagi gaplarning g'alati qorishmasi odat tusi-ga kirdi, yaxshisi, plantaj – *moorsoldaten*<sup>1</sup>, silen revir, oshxonadagi mardona hujum, polyak komandasi «pratsefiks» himoyaga ega emas. Yangi qurol haqidagi, natsional-sotsializm yo'l boshchilari o'rtasidagi nizolar to'g'risidagi o'nlab, yuzlab ovozalarga ko'nikib ketildi. Bu ovozalar hamisha yaxshi va aldamchi, lager xalqining afyuni edi.

#### 4

Tongga yaqin qor yog'di va tushgacha erimay yotdi. Ruslar qu-vonch va qayg'uni his qildilar. Rossiya ular tarafga nafasini ufurdi, u – onayi zor, ularning horg'in oyoqlari ostiga boshidagi ro'molini tashladi, baraklarning tomlari oqardi va ular olisdan uyni, qishloqni eslatadigan tusga kirdi.

Ammo yarq etgan bir damlik shodlik g'am bilan almashdi va unga g'arq bo'ldi.

Navbatchi, ispan soldati Andrea Mostovskoyning yoniga keldi va fransuz tilini buzib, qiynalib so'zlarkan, bir kotib tanishi rus qariyasi haqidagi qandaydir qog'ozni ko'rganini, lekin o'qishga ulgurmaganini, idora boshlig'i uni o'zi bilan olib ketganini aytdi.

<sup>1</sup> Balchiq soldatlari (nemischa).

«Mana, mening hayotimga hukm – shu qog'ozda», – deb o'yladi Mostovskoy va o'zining xotirjamligidan kayfiyati ko'tarildi.

– Biroq hechqisisi yo'q, – dedi shivirlab Andrea, – hali bilish mumkin.

– Lager komendantidanmi? – deb so'radi Gardi va g'ira-shirada uning katta-katta ko'zlari ayyorona chaqnadi. – Yoki shaxsan Markaziy xavfsizlik boshlig'i Lissning o'zidanmi?

Mostovskoyini kunduzgi va tungi Gardi orasidagi farq hayron qoldirdi. Kunduzi ruhoniylar sho'ruva haqida, yangi kelganlar haqida so'zladi, qo'shnilar bilan yeguliklar almashtirish to'g'risida kelishdi, achchiq, sarimsoq solingan italyan taomini esladi.

Harbiy asir qizilarmiyachilar uni lager maydonchasida ko'rganlarida, «tuti kaputi» sevimli matali ekanini bilganlari uchun uzoqdan unga qarab: «Otaxon Padre, tuti kaputi», deb qichqirardilar, xuddi bu so'zlar umid bag'ishlaganday, jilmayardilar. Ismi «Padre» deb o'ylab, uni «otaxon Padre» derdilar.

Bir kuni kechki mahal maxsus blokda asoratda saqlanayotgan sovet komandirlari va komissarlari Gardiga hazil-mutoyiba qilib, u nikohsizlik qasamyodini buzgan yoki buzmagani aniqlashga urinib, o'smoqchiladilar.

Gardi fransuz, nemis va rus so'zlarining aralashmalarini hech kulmasdan tingladi.

Keyin u tilga kirdi. Mostovskoy uning gaplarini tarjima qildi. Rus inqilobchilari g'oyani deb surgundan va jallod kundasidan hayiqmagan, axir. Nima uchun uning suhbatdoshlari diniy g'oya deb kishi ayol bilan yaqinlikdan voz kechishiga shubha qiladilar? Axir buni hayotni qurbon qilish bilan solishtirib bo'lmaydi.

– E, asti gapirmang, – deb qo'ydi brigada komissari Osipov.

Kechasi, lagerdoshlar uxlaganlarida, Gardi boshqa odamga aylanardi. Go'yoki, uning jazavali ko'zlarida, bularning baxmalday va ravshan qoraligida surgun shahrining butun azob-uqubatlari cho'kib ketishi mumkin edi. U baayni ishlayotgandek, jigarrang bo'ynidagi tomirlari zo'riqib, uzun, hafsalasiz yuzi qayg'uga botgan baxtiyorlik sabot-matonati timsoliga do'nardi. U uzoq ibodat qilardi va Mixail Sidorovich italyanning sekin, ravon shivirlashi ostida ko'zi ilinardi. Mostovskoy, odatda, bir yarim-ikki soat uxlab, uyg'onardi, bu paytda Gardi uyquga ketgan bo'lardi. Italyan gurkirab uxlardi, uyqusida

o'zining ikki – kunduzgi va tungi hayoti mag'zini bir po'st ichra yalakat etib birlashtirganday bo'lardi, xurrak otardi, lablarini lazzatlanib yamlardi, tishini g'ijirlatardi, oshqozon gazlarini momaqaldiroqday chiqarardi va to'satdan Xudovand va Bibi Maryamning mehribonligi haqidagi duoning go'zal so'zlarini cho'zib aytardi.

U hech qachon keksa rus kommunistiga: xudosizsan, deb ta'na qilmasdi, ko'p vaqt Sovet Rossiyasi to'g'risida so'rab-surishtirardi.

Italyan, Mostovskoyning so'zlariga quloq solar ekan, yopilgan cherkovlar va monastirlar haqidagi, Sovet davlati Sinoddan tortib olgan katta yerlar, mulklar to'g'risidagi hikoyalarni ma'qullagandek bosh silkirdi.

Uning qora ko'zlari keksa kommunistga g'amgin boqardi va Mixail Sidorovich achchig'lanib so'rardi:

– *Vousmecomprenez<sup>1</sup>?*

Gardi o'zining odatdagi, kundalik suhbatlarida – qovurma va pomidor qaylasi to'g'risida jilmayib gapirganidek jilmaydi.

– *Je comprends tout ce que vous dites, je ne comprends pas seulement, pourquoi vous dites cela<sup>2</sup>.*


Maxsus blokdagi rus harbiy asirlari ishdan ozod etilmagandi, shuning uchun Mostovskoy ular bilan kechki va tungi soatlarda so'zlashardi. General Gudz va brigada komissari Osipov ishga bormasdi.

G'alati, yoshini taxminlab bo'lmaydigan odam – Ikonnikov-Morj ko'pincha Mostovskoyning hamsuhbati bo'lardi. U barakdagi eng yomon joyda – bir vaqtlar bu yerda qopqog'i jangiraydigan, katta quloqli chan – bir tomoni ochiq yog'och bochka turgan kirish eshigi oldida uxlardi, unga sovuq yelvizak urilib turardi.

Rus mahbuslari Ikonnikovni «parashutchi chol» deyishardi, devona deb, jirkanish-achinish bilan munosabatda bo'lishardi. U o'ta chidamli edi, faqat jinni va telbalar shunday bo'lishlari mumkin. Kuzgi yomg'ir ivitib yuborgan kiyimini yechmasdan uxlashga yotardi, lekin hech qachon shamollab qolmasdi. Haqiqatda bunday jarangdor va yorqin ovoz bilan faqatgina telba so'zlashi mumkindek tuyilardi.

<sup>1</sup> Siz meni tushunayapsizmi? (fransuzcha.)

<sup>2</sup> Siz nima desangiz, hammasini tushunayapman, men faqat shuni tushunmayapmanki, bularni nima uchun aytayapsiz? (fransuzcha.)



U Mostovskoy bilan shunday tanishdi: Ikonnikov-Morj Mostovskoyga yaqinlashdi va uning yuziga uzoq tikilib, sukut saqlab turdi.

– O‘rtoq ne ezgulikni aytadi? – deb so‘radi Mixail Sidorovich va Ikonnikov qiroat bilan:

– Ezgulikni aytilish? Nima?.. Ezgulik bormi? – deganda, Mostovskoy kulimsirab qo‘ydi.

Bu so‘zlar Mixail Sidorovichni bolalik chog‘lariga qaytardi, o‘shanda, seminariydan kelgan akasi otasi bilan ilohiyot mavzularida bahslashgandi.

– Almisoqdan qolgan masala, – dedi Mostovoy, – uning to‘g‘ri-sida buddaviylar va ilk xristianlar bosh qotirishgan. Uni hal qilish uchun markschilar ham ozmuncha zahmat chekishmagan.

– Yechishdimi? – deb Mostovskoyning kulgisini qistatgan bir ohangda so‘radi Ikonnikov.

– Mana, Qizil Armiya, – dedi Mostovskoy, – hozir uni hal qilayapti. Sizning gap ohangingizda esa kechirasiz, popchilikmi, tolstoychilikmi – nimadir, qandaydir chuchmallik bor.

– Boshqacha bo‘lishi mumkin emas, – dedi Ikonnikov, – axir men tolstoychi edim.

– Ana xolos, – dedi Mixail Sidorovich. Bu alomat odam uni qiziqtirib qoldi.

– Ko‘rayapsizmi, – dedi Ikonnikov, – men, aminmanki, bolsheviklar inqilobdan keyin cherkovga qarshi ta‘qiblar o‘tkazgani xristian g‘oyasi uchun foydali bo‘ldi, chunki cherkov inqilob qarshisida g‘arib ahvolga tushdi.

Mixail Sidorovich ochiqko‘ngillik bilan dedi:

– Siz borib turgan dialektiksiz. Mana, menga ham qariganimda, injiliy mo‘jizani ko‘rishimga to‘g‘ri keldi.

– Yo‘q, – deb yubordi Ikonnikov xo‘mrayib. – Chunki sizning maqsadingiz vositani oqlaydi, sizning vositangiz esa rahm-shafqatsizdir. Siz menda mo‘jizani ko‘rmaysiz – men dialektik emasman.

– Shunday, – dedi birdaniga asabiylashib Mostovskoy, – lekin sizning menda necha pullik ishingiz bor?

Ikonnikov «rostlan» buyrug‘ini olgan harbiy holatida turib, dedi:

– Mening ustimdan kulmang! – uning qayg‘uli ovozi fojeiy yangradi. – Yoningizga hazil-mazax qilish uchun kelmadim. O‘tgan yili

o'n beshinchi sentabrda yigirma ming yahudiyning – ayollar, bolalar va chollarning qatl etilganini ko'rdim. O'sha kuni men tushundimki, Xudo bunday ishga yo'l qo'yolmasdi va menga ayon bo'ldiki, u – yo'q. Bugungi zulmatda men sizning kuchingizni ko'rayapman, u dahshatli yovuzlik bilan kurashayapti...

– U holda, – dedi Mixail Sidorovich, – gaplashamiz.

Ikonnikov lagerga yondosh yerlarning botqoq qismida – daryo va bulg'anch irmoqlarning pasttekislikni botqoqlantiruvchi shoxobchalarini burib yuborish uchun katta quvurlar tizimi betonlashtirilib o'rnatilayotgan plantajda ishlardi. Shu joydagi ishchilar «moorsoldaten» deb atalardi, odatda, bu yerga boshliqlarning iqi suymay qolgan odamlar tushib qolardi.

Ikonnikovning qo'llari kichkina, barmoqlari ingichka, tirnoqlari bolalarnikiday edi. U ishdan loyga botib, ivib qaytgach, Mostovskoy katiga yaqin borar va so'rardi:

– Oldingizda o'tirishga ijozat etasizmi?..

U o'tirar va tabassum qilardi, suhbatdoshiga qaramay, peshonasini qo'li bilan silardi. Peshonasi qandaydir ajoyib – uncha keng emas, do'ng, rangi ochiq, shunday rangi ochiqki, xuddi loy sachragan qulog'i va tirnoqlari singan qo'li, qoramtir-jigarrang bo'ynidan alohida mavjudday edi.

Sovet harbiy asirlariga, soddagina tarjimayi holli kishilarga u mujmal va qorong'ilikdagi odam bo'lib tuyilardi.

Ikonnikov ajdodlari Buyuk Pyotr zamoni ruhoniylari bo'lganlar, ularning zurriyotlari bu yo'lni avlodma-avlod davom ettirganlar. Faqatgina Ikonnikovlarning keyingi avlodi boshqa yo'ldan ketdi, – Ikonnikovning barcha aka-ukalari, otasining ixtiyoriga ko'ra, dunyoviy ta'lim oldilar.

Ikonnikov Peterburg texnologiya institutida ta'lim oldi, lekin tolstoychilikka qiziqib qoldi, so'nggi bosqichda o'qishni tark etdi va Perm guberniyasining shimoliga xalq o'qituvchisi bo'lib bordi. U qishloqda sakkiz yilcha yashagach, janubga ko'chib o'tdi, Odessada yuk kemasining mashina bo'limida chilangarlik qildi, Hindistonda, Yaponiyada bo'ldi, Sidneyda yashadi. Inqilobdan keyin Rossiyaga qaytdi, dehqonlarning ziroatchilik kommunasiga qo'shildi. Bu uning azaliy orzusi edi, zero qishloq xo'jalik kommunistik mehnati yer yuzida Xudo Saltanatiga olib borishiga ishonardi.

U yalpi kollektivlashtirish davrida eshelonlarga quloq qilinganlarning oilalari tiqib tashlanganining guvohi bo'ldi. U holdan toygan kishilar qorga qanday qulaganini va qaytib o'rmdan turmaganini ko'rdi. U «yopiq», deraza va eshiklari mixlab tashlangan, huvullab yotgan qishloqlarni ko'rdi. U soqchilar qo'rqinch bilan qarab turgan: mehnatkash qo'llari qoramtir, bo'yin tomirlari o'ynab chiqqan, juldurvoqi – hibsdagi dehqon ayolni ko'rdi: ochlikdan aqldan ozib, o'z bolalarini yer edi.

Bu vaqtlarda u kommunani tark etmay, Injilni targ'ib eta boshladi, zavolga uchrayotganlarni qutqarishini tilab, Xudoga yolvordi. Ish shu bilan tugadiki, uni qamadilar, lekin o'ttizinchi yillar falokatlaridan miyasi aynigani bilindi. Qamoqxonaning ruhiy kasalliklar shifoxonasida bir yil majburiy davolanganidan keyin erkinlikka chiqdi va Belorussiyada, akasi – biolog-professor panohida qo'nim va texnik kutubxonada xizmat o'rmini topdi. Ammo qayg'uli voqealar unda haddan tashqari og'ir taassurotlar qoldirgan edi.

Urush boshlanib, nemislar Belorussiyani zabt etganida, harbiy asirlar tortgan azob-uqubatlarni, Belorussiya shaharlari va boshqa joylarida yahudiylar qatl qilinganini ko'rdi. Uning tag'in jazavasi qo'zidi va tanish-u notanishlarga yalinib, yahudiylarni yashirishlarini o'tindi, o'zi yahudiy bolalari va ayollarini asrashga urindi. Tez orada buning chaquvi yetkazildi, u qandaydir omadi chopib, dorga osilmay, lagerga kelib tushdi.

Ust-boshi dabdala va kir-chir «parashutchi»ning miyasida alg'ovdalg'ov hukmron edi, u sinfdan tashqari – bo'lmag'ur va kulgili axloqni da'vo qilardi.

– Qayerda zulm bo'lsa, – deb tushuntirdi Ikonnikov Mostovskoyga, – kulfat podsholik qiladi. Men dehqonlarning mislsiz g'amalamlarini ko'rdim, kollektivlashtirish esa ezgulikni ko'zlab qilinmoqda edi. Men ezgulikka ishonmayman, men ezguga ishonaman.

– Sizning maslahatingizni qo'llab, ezgulikni quvvatlab, Gitler va Gimmlerni osib o'ldirib, vahimaga solamiz. Bas, mensiz vahimaga solavering, – deb javob berdi Mixail Sidorovich.

– Gitlerdan so'rang, – dedi Ikonnikov, – bu lager ham ezgulik haqi qurilganini izohlaydi.

Mostovskoy Ikonnikov bilan bahslashgan vaqtida uning mantiqining ishi meduza bilan kurashayotgan pichoqning behuda zo'r berishiga o'xshashi sezilayotgandek edi.



– Dunyo oltinchi asrda yashagan suriyalik xristian tomonidan aytilgan haqiqatdan yuqoriga ko'tarilmadi. «Gunohni sharmisor et va gunohkorni kechir».

Barakda yana bir keksa rus – Chernetsov bor edi. Uning bir ko'zi ko'r edi. Qorovul uning sun'iy, shisha ko'zini urib sindirgan va rangpar yuzidagi bo'm-bo'sh, qizil ko'z chanog'i qaraganning kayfini uchirardi. Gaplashganida, o'yilgan, farishtasiz ko'z chanog'ini kafti bilan berkitardi.

Bu 1921-yili Sovet Rossiyasidan qochib ketgan menshevik edi. U yigirma yil Parijda yashagan, bankda hisobchilik qilgan. U bank xizmatchilarini yangi nemis ma'muriyatining farmoyishiga bo'ysunmaslikka chaqirgani uchun lagerga tiqilgan. Mostovskoy u bilan duch kelib qolmaslikka intilardi.

Chamasi, bir ko'zi ko'r menshevikni Mostovskoyning mashhurligi tashvishga solardi – ispan soldati ham, yozuv qog'ozi sotiladigan do'kon egasi – norveg ham, belgiyalik advokat ham keksa bolshevikka talpinar, uni gapga solishardi.

Bir kuni rus harbiy asirlari o'rtasida jo'raboshilik qilib yurgan mayor Yershov Mostovskoy katiga kelib o'tirdi, Mostovskoyga biroz suyanib, qo'lini uning yelkasiga qo'yganicha, tez va qizg'in so'zlashdi.

Mostovskoy ilkidan o'girildi, uzoqdagi katdan ularni Chernetsov kuzatib turardi. Mostovskoy xayoliga keldiki, uning ko'radigan ko'zidagi hasrat urib chiqarilgan ko'z chanog'idagi qizil o'radan ko'ra dahshatliroq edi.

«Ha, og'ayni, ahvoling quvonarli emas». – deb o'yladi Mostovskoy ichiqoralik qilmay.

Albatta, biron vaj emas, ehtiyoj belgilaganki, Yershov hamma-ga hamisha kerak. «Yershov qayerda? Yershni ko'rmadilaringizmi? O'rtoq Yershov! Mayor Yershov! Yershov aytdi... Yershovdan so'ra...» Uni axtarib boshqa baraklardan kelishadi, uning kati atrofi doimo olag'ovur.

Mixail Sidorovich Yershovga laqab qo'ydi: donishmand. Donishmandlar bo'lgan edi – oltinishchilar, saksonchilar. Narodniklar bo'lgan edi, Mixaylovskiy bor edi, yitdi. Gitler konslagerida ham o'z donishmandi bor! Bu lagerda bir ko'zi ko'rning yolg'izligi fojeiy timsoldek edi.

Mixail Sidorovich birinchi marta chor qamoqxonasida o'tirganidan beri bir necha o'nlab yillar o'tdi: hatto o'shanda asr ham boshqa – o'n to'qqizinchi edi. Partiyaning ba'zi rahbarlari o'zining amaliy ish olib borish layoqatiga ishonmaganlaridan ranjiganini hozir xotirladi. U kuchli ekanini his qilardi, har kuni so'zini general Gudz va brigada komissari Osipov, hamma vaqt ma'yus, g'amgin mayor Kirillov asosli deb qabul qilayotganlarini ko'rib anglardi.

Urushgacha ko'ngliga shu narsa tasalli berardiki, u amaliyotdan uzoqlashtirilgani sababli, o'zida e'tiroz va norozilik uyg'otgan – partiyada Stalinning yakkahokimligi, muxolifatning qonli jarayonlari, partiyaning keksa gvardiyasiga munosib hurmat ko'rsatmaslik holatlari bilan kam to'qnash kelardi. U o'zi yaxshi bilgan va juda sevgan Buxarin qatl etilganida, ich-ichidan o'rtanib, kuyib ketdi. Lekin bilardiki, bu masalalarning istalganida o'zini partiyaqa qarshi qo'ysa, u, o'z ixtiyoridan tashqari, hayotini bag'ishlagani – Lenin ishiga qarshi chiqqan hisoblanardi. Ba'zida uni gumonlar qiynardi, balki zaiflik, qo'rqqoqlik qilib jim yurgandir, noroziligi sababchilariga qarshi bosh ko'tarmayotgandir. Urushgacha bo'lgan hayotda ko'p narsa borib turgan dahshat, axir! U marhum Lunacharskiyni bot-bot yodga olardi, uni yana ko'rgisi kelardi, Anatoliy Vasilyevich bilan gaplashish shu qadar o'ng'ay edi, bir-birlarini tez, bir og'iz so'zidan anglab olishardi.

Endi, dahshatli nemis lagerida, u o'zining qat'iy va kuchli ekani-ni sezardi. Faqat tinkani qurituvchi bir his uni tark etmasdi. U lagerda navqiron, ravshan va butun hisni qaytara olmadi: o'z orasida o'z, yot orasida yot.

Bu yerda gap bir kuni ingliz zobiti Rossiyada g'ayrimarkscha qarashlarni bildirish taqiqlangani uning falsafa fani bilan shug'ullanishiga xalaqit qilmadimi, deb so'raganida emasdi.

– Bu, ehtimol, kimlargadir xalaqit berar. Menga, markschiga esa zarar yetkazmaydi, – dedi Mixail Sidorovich.

– Men siz keksa markschi ekaningizni nazarda tutib, shu savolni berdim, – dedi ingliz. Garchi Mostovskoy bu so'zlar qo'zg'agan alamli tuyg'udan peshonasi tirishgan bo'lsa-da, inglizga javob qila oldi.

Bu yerda gap Osipov, Gudz, Yershov kabi odamlar, garchi g'oyat yaqin bo'lsalar-da, ba'zan uni malollantirishlari ustida borayotgani yo'q. Ko'ngilsizlik shunda ediki, ruhidagi ko'p narsa uning o'ziga

begona bo'lib qoldi. Shunday bo'lardiki, u tinchlik zamonlarida eski do'sti bilan quvonib ko'rishardi, uchrashuv oxirida esa unda begonalikni ko'rardi.

Lekin bugungi kunga begonalik odamning o'zida yashasa, uning uzviy bir qismi bo'lsa, nima qilish kerak... O'zing bilan aloqani uza olmaysan, uchrashuvni bas qila bilmaysan.

Ikonnikov bilan gaplashganlarida u achchig'lanardi, qo'pol, is-tehzoli bo'lib qolardi, unga tyurya<sup>1</sup>, ammamning buzog'i, atala, landovur degan laqablarni taqardi. Lekin kalaka qilardi-yu, baribir uzoq vaqt ko'rmasa, qo'rsardi.

Yoshlikda qamoqxonada o'tkazgan yillari va hozirgi kunlari o'rtasidagi asosiy o'zgarishlar shunda edi.

Navqiron paytlarida do'stlari va maslakdoshlaridagi hamma narsa unga yaqin, tushunarli edi. Dushmanining har bir fikri, har bir qarashi begona, bema'ni edi.

Endi-chi, u beixtiyor ravishda begonaning fikr-mulohazalarida o'ziga o'nlab yillar ilgari aziz bo'lgan narsani tanirdi, do'stlarining qarashlari va so'zlarida esa goho tushunarsiz tarzda begonalik yuz ko'rsatardi.

«Bu, men dunyoda nihoyatda uzoq yashayotganimdan bo'lsa kerak», – deb xayol surdi Mostovskoy.

## 5

Amerikalik polkovnik maxsus barakning alohida xonasida yashardi. Unga kechki mahallar barakdan erkin chiqishiga ruxsat etishardi, ayrim tushlik bilan boqishardi. Aytishlaricha, Shvetsiyadan u to'g'risida so'rov yuborilgan – prezident Ruzvelt shved qiroli orqali u haqda iltimos qilgan.

Bir kuni shu polkovnik bemor – rus mayori Nikonovga bir bo'lak shokolad olib bordi. Uni maxsus barakdagi rus harbiy asirlari eng ko'p qiziqtirardi. U ruslar bilan ko'rishganda, gapni nemis jang usullariga qarab burishga intilardi.

U aksar Yershov bilan gaplashishga urinardi, rus mayorining aqlli, ayni vaqtda jiddiy va quvnoq ko'zlariga boqar ekan, bu odam inglizchani bilmasligi yodidan ko'tarilardi.

<sup>1</sup> Tyurya – suv, kvas kabilarga to'g'ralgan piyoz va nonni ovoat nomi. ↗ Tari.

Nazarida, koʻrinishidan juda aqlliligi yaqqol bu kishi uning fikrini ilgʻamayotgani, ayniqsa, ikkovlarini ham kuchli toʻlqinlantiradigan mavzudagi gaplarni tushunmayotgani ajabtovur edi.

– Nahotki, siz hech narsani anglamayapsiz? – deb ranjib soʻradi u.

Yershov unga ruschalab javob qaytardi:

– Bizning hurmatli serjantimiz chet tillardan boshqa hamma tillarni biladi.

Lekin bari bir lagerdagi rus kishilari tillari har xil oʻnlab millatlarning vakillari bilan: tabassumlar, nigohlar, yelkasiga asta-asta urib qoʻyishlar, oʻnta-oʻn beshta buzib aytilayotgan rus, nemis, ingliz va fransuz soʻzlaridan iborat tilda oʻrtoqlik, hamdardlik, yordam, uyi, xotini, bolalariga mehr-muhabbat haqida suhbatlashardilar.

«Kamrad, gut, brot, zupe, kinder, arbayt», yana lagerda tugʻilgan bir toʻp nemischa soʻzlar: revir, blokelterste, kapo, fernixtungslager, appel, appelplats, vaxraum, flyugpunkt, lagershutse. – lagerdagi kishilar sodda va chigal hayotining eng zarur narsalarini ifodalash uchun yetarli edi.

Rus soʻzlari ham – rebyata, tabachok, tovarish, – bor ediki, ulardan turli millatlarga mansub mahbuslar foydalanar edilar. Oʻlim oldidagi lagerchining holatini belgilovchi rus soʻzi – «doxodyaga» barcha uchun umumiy boʻlib qoldi, lagerdagi jami 56 millat tilidan oʻrin egalladi.

Ulugʻ nemis xalqi oʻn-oʻn besh soʻz yigʻindisi bilan ulugʻ rus xalqi yashayotgan shahar va qishloqlarga bostirib kirdi, millionlab rus qishloqlarining ayollari, chollari, bolalari va millionlab nemis askarlari «matka, pan, ruki vverx, kurka, yayka, kaput» degan soʻzlar bilan gaplashishdi. Bundan biror ezgu natija chiqmadi. Lekin ulugʻ nemis xalqiga Rossiyada qilgan ishlari uchun bu soʻzlar yetarli edi.

Chernetsov sovet harbiy asirlari bilan til topishishga urinishidan ham hech narsa chiqmadi, garchi u yigirma yillik muhojirlikda rus tilini unutmagandi, ruscha nutqi ajoyib edi. U rus harbiy asirlarini tushuna olmadi, ular bu odamdan begonasirashdi.

Shuningdek, sovet harbiy asirlari ham kelisha olmadilar, birlari, oʻlimga rozi edilar, lekin xiyonat yoʻliga kirmasdilar, boshqalari vlasovchilar qoʻshiniga kirishni moʻljallardilar. Qanchalik koʻp ga-

pirishsa va bahslashishsa, bir-birlarini shunchalik kam tushunardilar. Keyin esa ular bir-biridan nafratlanib va jirkanib, soʻzga ogʻiz ham ochmaydigan boʻldilar.

Bu soqovlarning gʻudranishida va koʻrlarning biyronligida, bu dahshat, umid va gʻam birlashtirgan kishilarning quyuq qorishmasida, bir tilda soʻylaydigan odamlar oʻzaro nafratlari tufayli bir-birlarini fahmlamasliklarida yigirmanchi asrning musibatlaridan biri fojeiy mujassamini topgan edi.

## 6

Pagʻa-pagʻa qor yogʻgan kuni rus harbiy asirlarining kechki suhbatlari, ayniqsa, qaygʻuli boʻldi. Hatto hamisha xayoli joyida, ruhiy quvvatga toʻla polkovnik Zlatokriles va brigada komissari Osipov qovogʻi soliq, kamgap boʻlib qoldilar. Hasrat hammani ezdi.

Artileriyachi mayor Kirillov yelkalarini tushirib, boshini ohista tebratib, Mostovskoyning katida oʻtirardi. Xuddi uning qora koʻzlari, balki butun ulkan gavdasi gʻamga toʻla edi.

Koʻzdagi bunday ifoda saraton kasali bilan ogʻrib, hayotdan umidini uzgan bemorlarda uchraydi – ana shunday koʻzlarga boqib, hatto eng yaqin odamlar ham achinganidan: sen tezroq oʻla qolsang edi, deb oʻylaydi.

Sargʻish yuzli va hozir-nozir Kotikov Kirillovni koʻrsatib, Osipovga shivirlab dedi:

– Yo osilish, yo vlasovchilik payida.

Mostovskoy, oq dagʻal tukli yuzini artib, gap ochdi:

– Quloq solinglar, kazaklar. Toʻgʻrisi, yaxshi, axir. Nahotki, tushunmaysiz? Proletarizm yaratgan davlat hayotining har kuni fashizm toqatini toq qiladi. Unga boshqa yoʻl yoʻq: yo bizni yeydi, barbod qiladi, yoki oʻzining boshiga yetadi. Chunki fashizmning bizga nisbatan nafratida xalq tanlagan yoʻlning toʻgʻriligi sinovdan oʻtadi. Yana bir gap, bu – hazilakam emas. Tushuninglar, fashistlarning bizga boʻlgan nafrati qanchalik kuchaysa, biz oʻzimizning haq ekanimizga shunchalik ishonishimiz kerak. Shunda biz yengamiz.

U Kirillov tomonga ilkis burilib, dedi:

– Sizni nima jin urdi? Gorkiyni eslang, u qamoqxona hovlisida yurganida, qandaydir gruzin shunday deb qichqirgan: «Nimaga sen tovuqdek hurpayib yuribsan, boshingni tepaga qaratib yur!»

Hamma kulib yubordi.

– To‘g‘ri, to‘g‘ri, qani, boshlar tepaga qarasin, – dedi Mostovskoy. – Siz o‘ylab ko‘ring – ulkan, ulug‘ Sovet davlati kommunistik g‘oyani himoya qiladi! Gitler u bilan ham, bu bilan ham kuch sinashib ko‘rsin. Stalingrad qilt etmaydi, chidami yetadi. Urushdan oldin, ba‘zida o‘ylab qolardik: gaykalar ni qattiq, ayamay burab yubormadikmi? Darhaqiqat, endilikda ko‘rlarga ham ayon – maqsad vositani oqladi.

– Ha, bizda gaykalar mahkam buralgan. Siz buni to‘g‘ri aytdingiz, – deb qo‘ydi Yershov.

– Kam burashgan, – dedi general Gudz. – Yanada mahkamroq bo‘lganidami, o‘shanda Volgagacha yetmas edi.

– Bizga Stalinni o‘qitishga yo‘l bo‘lsin, – dedi Osipov.

– Xo‘sh, endi, – dedi Mostovskoy. – Qamoqxonalarda va zax shaxtalarda o‘lishga to‘g‘ri kelsa, qo‘lingdan hech narsa kelmaydi. Biz bu haqda o‘ylamasligimiz kerak.

– U holda, nima haqida o‘ylash zarur? – deb baland ovozda so‘radi Yershov.

O‘tirganlar bir-birlariga qaradilar, o‘girildilar, sukut saqladilar.

– Eh, Kirillov, Kirillov, – dedi birdan Yershov. – Otaxonimiz to‘g‘ri aytdi: fashistlar bizni yomon ko‘rganidan quvonishimiz darkor. Biz ularni, ular bizni. Tushunayapsanmi? Sen endi o‘ylab ko‘r, o‘z odamlaringning lageriga qasd qilsang, o‘z-o‘ziga qo‘lga tushsa. Bu yerdagi ahvol ne bo‘pti! Biz mustahkam kishilarmiz, hali nemisga hayot nimaligini ko‘rsatamiz.

## 7

62-armiya qo‘mondonligida kun bo‘yi qismlar bilan aloqa bo‘lmadi. Ko‘p shtab radiopriyomniklari ishdan chiqdi, hamma joyda simli aloqalar buzildi.

Shunday daqiqalar bo‘lardiki, odamlar oqayotgan, mayda mavjlar bilan qoplangan Volgaga qarab, qirg‘og‘ida titroqli zamin chayqalayotgan bu daryoni bir joyda qotib turibdi, deb o‘ylab qolardilar. Yuzlab sovet og‘ir qurollari Zavoljedan o‘t ochardi. Mamay qo‘rg‘onining nemislar o‘rnashib olgan janubiy yonbag‘irida tuproq palaxsalari va loy chaplamlari shopirilardi.

Tuproq o‘ramlarining bulutlari tortishish kuchi yuzaga keltirgan g‘aroyib, ko‘rinmas g‘alvirdan o‘tib, sochqilar hosil qilardi –

og'ir guvalalar, loylar yerga yog'ilardi, yengil narsalar<sup>1</sup> esa ko'kka ko'tarilardi.

Har kuni bir necha marta qulog'i bitib, ko'zlari qizarib yurgan qizil armiyachilar nemis tanklari va piyodalarini kutib olardilar.

Qo'shinlardan uzilib qolgan qo'mondonlik uchun kun toliqti-ruvchi, oxiri ko'rinmaydigan darajada uzun bo'ldi.

Chuykov, Krilov va Gurov bu kunni to'ldirish uchun nimalar qilmadi – ko'zga ko'rinarli ish sharoitini yaratishdi, xat yozishdi, dushmanning, ehtimol, tutilgan siljishlari haqida tortishishdi, hazil-lashishdi, gazakli yoki gazaksiz aroq ichishdi, tashlanayotgan bom-balarning gumburlashini eshitib, jim o'tirishdi. Blindaj atrofida temir quyun girdobiga tortardi, butun jonlini, yer yuzasida bir dam ko'ringan boshni o'rib tashlardi. Shtab falajlangan edi.

– Kelinglar, podkidnoy<sup>2</sup> o'ynaymiz, – dedi Chuykov va chekib tashlangan papirosga to'la, katta kuldonni stol burchagiga surib qo'ydi.

Hatto armiya shtabining boshlig'i Krilovga xotirjamlik pand ber-di. U stolni barmoqlari bilan taqillatar ekan, shunday dedi:

– Mana shunaqa kutishdan yomoni yo'q: o'zimizni ovutish be-foйда.

Chuykov qartalarni tarqatdi, «Cherva kozir», deb e'lon qildi, ke-yin dabdurustdan bir dasta qartani aralastirar ekan, og'zidan shu so'zlar chiqib ketdi:

– Quyunchalarday bo'ylaymiz, yana qarta ham o'ynaymiz. Bas, sabrim yetmaydi!

U o'yga botib o'tirdi. Yuzidan shunchalik g'azab va alam yog'ilardiki, u qo'rqinchli ko'rinardi.

Gurov, baayni o'z taqdirini avvaldan bilayotgandek, o'ychanlik bilan qaytardi:

– Ha, bunday kundan keyin yuragi yorilib o'lish ham mumkin.

So'ngra u kulib, dedi:

– Diviziyada kunduzi hojatxonaga kirish dahshatli, tasavvur qilib bo'lmaydigan ish! Menga aytib berishlaricha, Lyudnikovdagi shtab boshlig'i blindajda o'zini tappa tashlab, qichqiribdi: «Ura, bolalar,

<sup>1</sup> Vzves, suspenziya – biror moddaning boshqa suyuq modda ichida mayda zarra yoki tomchi holida suzib yuradigan eritmasi. – Tarj.

<sup>2</sup> Qarta o'yinlaridan biri. – Tarj.

meni ichim o'tib qoldi!» Qarasa, blindajda o'zi yaxshi ko'radigan doktor ayol o'tiribdi.

Qorong'i tushgach, nemis aviatsiyasi hujumlari to'xtatildi. Ehtimol, kechasi gumbur-gumbur va qars-qursga to'la Stalingrad tomon qirg'og'iga kelib qolgan kishi: g'ayir taqdir Stalingradga meni hal qiluvchi hujum vaqtida ro'baro' qildi, deb o'ylashi mumkin edi, lekin pishib ketgan harbiylar uchun bu soqol qirtishlash, kir-chirni yuvish, xat yozish, frontdagi chilangarlar, tokarlar, kavsharlovchilar, soatsozlar uchun esa zajigalka, mundshtuk, zambarak o'qlari gilzalariga shinel movutidan pilik qo'yib, chiroqlar yasash, devor soatlarni tuzatish fursati edi.

Uzilishlarning miltillagan olovi qirg'oq qiyaligini, neft baklarini, zavod quvurlarini yoritardi va bu qisqa lop etib yonishlarda sohil bo'ylari va shahar vahimali bo'lib tuyilardi.

Qorong'ilikda armiya aloqa uzeli jonlandi, jangovar axborotlarning nusxalarini ko'paytiruvchi yozuv mashinkalari chiqilladi, surilgichlar vizilladi, morzyanka taqirladi, telefonchilar yo'nalishlar bo'yicha yo'qlamaga kirishishdi – diviziyalar, polklar, batareyalar, rotalar qo'mondonlik nuqtalarini tarmoqqa qo'shishdi... Armiya shtabiga kelgan aloqachilar sipolik bilan yo'talib qo'yishar, aloqazobitlari tezkor navbatchilarga ma'lumotlarni yetkazishardi.

Armiya artilleriyasi qo'mondoni qariya Pojarskiy, hayot-mamot kechuvlari boshlig'i injener general Tkachenko, ko'k askar shinelidagi yangi kelib qo'shilgan Sibir diviziyasi komandiri Gurtev, Mamay qo'rg'oni yaqinida turgan – Stalingradda ko'p vaqtdan beri xizmat qilayotgan podpolkovnik Batyuk Chuykov va Krilovga axborot berishga shoshilardi. Armiya Harbiy kengashi a'zosi Gurovga berilgan siyosiy axborotlarda Stalingradda dong taratib, mashhur bo'lganlar – minomyotchi Bezdidko, merganlar – Vasiliy Zaytsev va Anatoliy Chexov, serjant Pavlov va ular bilan bir qatorda, Stalingraddagi birinchi kunlari harbiy shuhrat keltirgan, ilk marta Stalingradda tilga tushgan – Shonin, Vlasov, Brisin degan odamlarning nomlari yangradi. Oldingi qismlarda esa pochalyonlarga tengyonli uchburchak qog'ozlarni tutqazardilar – «uch, varaq, g'arbdan sharqqa... salom bilan uch, javobini olib qayt... kuningiz, balki, tuningiz xayrli bo'lsin...» Oldingi qismda halok bo'lganlarni ko'mishardi va o'lganlar o'z mangu uyqusining birinchi kechasini o'rtoqlari xat yozayotgan, soqolini



olayotgan, non yeb, choy ichayotgan, qo'lbola hammom qurib yuvinayotgan blindajlar va pana joylar oldida o'tkazardi.

## 8

Stalingrad himoyachilari uchun eng qiyin kunlar keldi.

Shahardagi janglar, hujumlar va qarshi hujumlar tartibsizligida, «Mutaxassis uyi», tegirmon, Davlat banki binosi, yerto'lalar, hovlilar, maydonlar uchun bo'lgan kurashlarda nemis kuchlarining ustunligi shubhasiz bo'lib qoldi. Stalingradning janubiy qismida – Lapsinlar bog'i, Kuporosnoy Balka va yelshankada qoqilgan nemis ponasi kengaydi, naq suv bo'yida biqingan nemis pulemyotchilari Volganing chap sohilini, Krasnaya Slobodaning janubini o'qqa tutdi. Tezkor xodimlar har kuni jabha yo'nalishini xaritalarda aks ettirib borarkanlar, ko'k belgilar og'ishmay o'rtnalayotganini ko'rardilar, sovet mudofaasining qizil chizig'i va Volga moviyiligi o'rtasidagi oraliq tobora erib, ingichkalashardi.


Bu kunlarda tashabbus, urushning joni nemislar qo'lida edi. Ular olg'a intilardi, intilardi, sovet qarshi hujumlarining butun shiddati ularning sekin, ammo jirkanchli shak-shubhasiz harakatlarini to'xtata olmasdi.

Osmonda esa kun chiqishidan to botishigacha nemis sho'ng'uvchi samolyotlari g'am-hasratli zaminni portlovchi bombalar bilan ilmatshik qilardi. Yuzlab boshlarda ertaga, bir haftadan keyin, sovet mudofaa tasmasi ipcha bo'lib qolib, nemis hujumining temir tishlarida qiymalanib ketsa, nima bo'ladi, degan tig'dor, qahrli fikr yashardi.

## 9

General Krilov kechasi, allamahalda o'z blindajida koykaga cho'zildi. O'nlab papiroslarni beto'xtov chekkan – tomirlari lo'qillar, tomog'i qaqrardi. Krilov tili bilan quruqqina bir tamshanib oldi-yu devor tomonga ag'darildi. Mudroq Krilov xotirasida Sevastopol va Odessa janglarini, hujum qilayotgan rumin piyodalarning urholarini, tosh to'shalgan, pechak bosgan Odessa saroylari-yu Sevastopolning matrosilarcha kelishgan qiyofasini aralastirib yubordi.

Nazarida yana Sevastopolda komanda punktida turgandek edi; uyqusiragan tumanda general Petrov pensnesining oynasi yaltiraydi va minglab akslardan jilvalanib yarqiraydi; dengiz chayqaladi, nemis



zambarak o'qlari uvalatib o'tgan qoya toshlarining kulrang changi dengizchilar va piyoda askarlar, Sapun-tog' ustini qoplaydi.

Kater yon devoriga urilgan to'lqinning behol shaloplashi, g'avvos-dengizchining: «Sakra!» – degan qo'pol ovozi quloqqa chalindi. Sezgilar ilg'adiki, u to'lqinga sakradi, lekin o'sha onda oyog'i suvosti qayig'ining sirtiga tegdi... Va so'nggi nigohi Sevastopolga, osmondagi yulduzlarga, qirg'oqdagi yong'inlarga tushdi...

Krilov ko'zi ilindi. Urushning qorabosdisi uyqusida davom etdi. Suvosti qayig'i Sevastopoldan Novorossiyskka ketdi... U uvushgan oyoqlarini yig'di, ko'kragi va beli terdan ivigandi, dvigatelning shovqini chakkalarini zirqiratdi. Ilkidan motor o'chdi – qayiq sekin tubga ko'chdi. Dimlikka chidab bo'lmasdi, parchinlangan nuqtali chiziqlar bilan to'rtburchaklarga bo'lingan metall gumbaz siqardi...

U ko'p ovoqli o'kirikni, shovullashni eshitdi, qa'rda bomba portladi, uni koykadan itqitib yubordi. Krilov ko'zlarini ochdi: atrofni olov qoplaganda, blindajning qiya ochiq eshigidan otilib chiqqan gulxan oqimi Volga tomon qochardi, odamlarning chuvvoslari, avtomatlarning tirillashlari har yoqqa tarqalardi.

– Shinel, boshingni shinel bilan yop! – deb baqirdi, shinel uzatib notanish qizil armiyachi. Ammo Krilov qizil armiyachidan chetlanib, qichqirdi:

– Qo'mondon qani?

U daf'atan fahmladi: nemislar neft baklariga o't qo'ygan va neft yonib, Volgaga quyilmoqda edi.

Bu yonayotgan olov oqimidan omon chiqishning iloji yo'qdek edi. Alanga neftidan tars-turs qilib ajralib, o'ra va o'yiqlarni to'ldirib, aloqa yo'llarini jizg'inak etib borarkan, guvullardi. Yer, loy, tosh neftga to'yinib, burqsirdi. Neft yondiruvchi o'qlar teshib o'tgan saqlagichlaridan qora, yaltiroq oqim bo'lib toshardi, bu ulkan o't va tutun o'ramlari mahkam berkitilgan sistemalardan otilayotganga o'xshardi.

Yuz millionlab yillar avval yer yuzida tantana qilgan hayot, ibtidoiy afsonaviy maxluqlarning qo'pol va qo'rqinchli hayoti mozor ichidan chiqib kelib, qaytadan bo'kirdi, atrofida nima uchrasa, oyoqlari bilan toptab, g'ajib yedi, uvladi. Olov necha yuzlab metr yuqoriga ko'tarildi, baland osmonda portlagansimon – lop etib o't olib,

yonar bug\* bulutini sudrab ketdi. Guldiramazonning azamati shunchalik katta ediki, havo quyuni guvullayotgan uglerodli molekularga kislorod yetkazib ulgurmasdi va silkinayotgan qora qubba kuzning yulduzli osmonini kuyayotgan zamindan ajratdi. Bu quyilayotgan quyuy jirli va qora ko'k gumbaziga pastdan qaralsa, vahimaga solardi.

Osmonga o'rayotgan olov va tutun ustunlari ba'zi onlarda umidsizlik va qahrga to'la tirik jonlar bo'lib gavdalanar, goho esa tebrana-yotgan teraklar, titrayotgan tog\*teraklar tusiga kirardi. Qora va qizil o't quroqlari raqsi aro singishib, hurpaygan qora va malla qizlardek aylanardi.

Alangalayotgan neft suv yuzasida yoyilib ketar va oqim o'ziga qo'shib olgach, vishillar, tutar, jabrlanganday bilanglardi.

Qizig'i, shu daqiqalardayoq juda ko'p jangchilar sohilga qanday qilib o'tib olishni bilardilar. Ular: «Bu yoqqa, bu yoqqa, manavi so'qmoqdan yugur!» – deb chaqirardilar; ba'zi kishilar lovullayotgan blindajga ikki-uch marta chiqib kelishga, shtabdagilarga qirg'oqdagi, olovli oqimlarning Volgaga taqalgan quyilishida, omon-eson qolganlarning bir to'pi turgan do'nggacha yetib olishlariga yordamlashdilar.

Paxtali kiyimdagi kishilar armiya qo'mondoni va shtab zobitlari sohilga borib ulgurishlariga ko'maklashdilar. Bu odamlar allaqachon o'lgan deb hisoblangan general Krilovni olov ichidan qo'llarida ko'tarib chiqdilar va kuygan kipriklarini titratib, qaytadan, qizil na'mataklar chakalakzori orqali shtab blindajlariga zo'rg'a o'tdilar.

62-armiya shtabi xodimlari Volganing shundoqqina yoqasidagi kichkina do'nglikda tonggacha turdilar. Ular yuzlarini qizigan havodan to'sib, egnilaridagi uchqunlarni urib tushirib, armiya qo'mondoniga o'girilib qarardilar. U Qizil Armiya shinelinei yelkasiga tashlab olgan, furajkasi ostidan sochlari peshonasiga tushib turardi. U qovog'i soliq, g'amgin bo'lsa-da, xotirjam va o'ychan ko'rinardi.

Gurov turganlarni ko'zdan kechirib:

– Ayon bo'ldiki, biz o'tda ham yonmas ekanmiz...– dedi, shinelineining issiq tugmalarini ushlab ko'rdi.

– Ey, belkurakli jangchi, – deb chaqirdi injenerlik xizmati generali Tkachenko, – tezda shu yerdan ariqcha qazing, anov tepalikdan olov oqib kelmasin yana!

U Krilovga dedi:

– Hammasi ayqash-uyqash bo‘lib ketdi, o‘rtoq general, olov suvday oqayapti, Volga esa o‘tda dog‘lanayapti. Omadni qarangki, kuchli shamol yo‘q, aks holda, hammamizni kuydirib yuborardi.

Volgadan shabada esganda, olovning zil-zambil chodiri silkindi, burildi va odamlar jizg‘inak qilguvchi o‘tdan o‘zlarini olib qochdilar.

Bir xillar sohilga yaqinlashib, etiklariga suv urib ho‘lladilar va u qizib turgan qo‘njdand bug‘lanib ko‘tarildi. Ba‘zilar ko‘zini yerga qadaganicha, sukut saqlardilar, boshqalar alanglardi. uchinchi bir xillari tanglikni yengib, hazillashardilar: «Bu yerda gugurt ham kerak emas, Volgadan ham, shabadadan ham papirosni tutatib olish mumkin», to‘rtinchi xil kishilar tasmalaridagi metall to‘qaning issig‘ini sezib, boshlarini sarak-sarak etib, o‘zlarini paypaslab ko‘rardilar.

Bir necha portlashlar sadosi keldi, bu batalyon qo‘riqlash shtabining blindajida yorilgan qo‘l granatalari edi. Keyin pulemyot lentalaridagi patronlar qarsillay boshladi. Olov ichidan nemis minasi vizilladi va Volgadan uzoqlarda portladi. Tutun orasida qirg‘oqdagi, olis kishilarning qoralari ko‘zga chalindi, chamasi, kimdir olovni qo‘mondonlik punktidan chetlashtirmoqchi edi, bir damdan so‘ng esa hammasi tutun va olovdan ko‘rinmay ketdi.

Krilov, atrofda quyilayotgan olovga nazar solib, hech narsani eslamayoq, qiyoslamayoq qo‘ygan edi... Nemislar yong‘inga hujumni qo‘shib yuborishni o‘ylamaganmidi? Nemislar armiya qo‘mondonligi qanday vaziyatdaligini bilmaydi, kechagi asir armiya shtabi o‘ng qirg‘oqda ekaniga ishonmadi...Aftidan, bu – ayrim harbiy harakat, demak, tonggacha omon qolishning imkoniyati bor. Faqat shamol turmasa, bas.

Krilov o‘z yonida turgan Chuykovga qaradi, u guvullayotgan yong‘inga tikilardi; uning qurum bosgan yuzi qizdirilgandek, misdek edi. U furajkasini olib, qo‘lini sochi ustidan o‘tkazdi va terlagan qishloq temirchisiga o‘xshab qoldi; uchqunlar uning jingalak sochi uzra sachrardi. Ana, u yuqoriga – shovqinli olov gumbaziga boqdi, Volgaga o‘girilib, nigohini tikdi – u yerda, ilonday bilanglayotgan olov o‘rtasidan qorong‘ilik yorib o‘tayotgan edi. Krilovning xayoliga keldiki, armiya qo‘mondoni ham uning o‘zini tashvishlantirayotgan – nemislar kechasi keng miqyosli hujum boshlaydimi, degan masalani zo‘r diqqat bilan yechardi... Ertalabgacha tirik qolinsa, shtabni qayerga joylashtirish kerak?

Chuykov shtab boshlig'ining nigohini his qilib, unga jilmaydi va qo'li bilan boshi tepasida keng aylana o'tkazib:

– Bu shayton chiroyli, qoyil-a? – dedi.

Yong'in alangalari Zavoljeda, Stalingrad fronti shtabi joylashgan Go'zal Bog'da yaxshi ko'rinib turardi. Shtab boshlig'i Zaxarov yong'in haqidagi ilk ma'lumotni olishi bilan, Yeremenkoga axborot berdi va qo'mondon, Zaxarovdan: aloqa shoxobchasiga shaxsan o'zi borib, Chuykov bilan gaplashib olishini iltimos qildi. Zaxarov, harsilab nafas olganicha, so'qmoqdan shoshilib borardi. Adyutant chiroq tutib, yoritib, ahyon-ahyonda: «Ehtiyot bo'ling, o'rtoq general», – deb, so'qmoq ustida osilib turgan olma shoxlarini qo'li bilan nari surardi. Olisdagi shu'la daraxtlar tanalarini yoritar, yerga qizg'ish dog' bo'lib to'kilardi. Bu mujmal nur ko'ngilga xavotir solardi. Atrofnii qoplagan – soqchilarning past ovozdagi chaqiriqlarigina buzadigan sukut tilsiz tussiz olovga qandaydir juda ham ezuvchi kuch bag'ishlar edi.

Aloqa shoxobchasida navbatchi qiz og'ir nafas olayotgan Zaxarovga boqib, dedi: Chuykov bilan aloqa yo'q – telefon ham, telegraf ham, simsizi ham...

– Diviziyalar bilan-chi? – deb so'radi Zaxarov gapini bo'lib-bo'lib.

– O'rtoq general-leytenant, hozirgina Batyuk bilan aloqa bog'langan edi.

– Ulang, tez!

Hozir generalning og'ir va serzarda fe'li aynib qolishiga ishonib, Zaxarovga qarashga cho'chib turgan navbatchi birdan quvonib:

– Bo'ldi, marhamat, o'rtoq general, – deb go'shakni Zaxarovga uzatdi.

Zaxarov bilan diviziya shtabi boshlig'i gaplashdi. U ham, xuddi aloqachi qiz kabi, front shtabi boshlig'ining og'ir nafasi va keskir ovozini eshitib, dovdirab qoldi.

– Sizlarda ahvol qanday? Axborot bering. Chuykov bilan aloqa bormi?

Shtab boshlig'i neft bazasida ro'y bergan yong'in, armiya komanda punktiga olov po'rtanasi yopirilgani, diviziyada armiya qo'mondoni bilan aloqa yo'qligi, chamasi, u yerda hamma halok bo'lmagani, chunki olov va tutun orqali sohil bo'yida turgan odam-

lar ko'zga chalinayotgani, ammo ular oldiga na quruqlikdan va na qayiqda Volgadan o'tib borishning imkonsizligi – Volga yonayotgani to'g'risida axborot berdi. Batyuk shtabning qo'riqlash rotasini olib, olov oqimini chetga burib yuborish va qirg'oqdagi odamlar yong'indan chiqib olishiga ko'maklashish maqsadida, qirg'oq bo'ylab, o't chiqqan tomonga ketgan edi.

Zaxarov shtab boshlig'ini tinglagach, shunday deb yubordi:

– Chuykovga yetkazinglarki, agar tirik bo'lsa, Chuykovga yetkazinglarki... – va jim turib qoldi.

Aloqachi qiz, uning uzoq to'xtalishidan taajjulanib, generalning xirildoq ovozi g'uldurashini kutib, Zaxarovga xavfsirab qaradi – u ko'ziga dastro'molini bosganicha turardi.

Bu tunda blindajga bosib kelgan olovda qirqta shtab komandiri halok bo'ldi.

## 10

Krilov Stalingradga kelganida, neft saqlagichda yong'in bo'lganidan keyin hech qancha vaqt o'tmagan edi.

Chuykov komanda punktini Batyuk diviziyasi tarkibiga kiruvchi o'qchilar polki egallagan – Volgaga yondosh qiyalik yaqinidan tanladi. Chuykov polk komandiri kapitan Mixaylov blindajiga kirib, yog'ochlari ko'p qavat qilib yotqizilgan keng yerto'lani ko'rib, ma'qullagandek bosh silkib qo'ydi. Sariqdan kelgan, sepkildor kapitaning ranjli yuziga qarab, unga armiya qo'mondoni quvnoqlik bilan dedi:

– O'rtoq kapitan, o'zingizga martabangizdan ortiqroq blindaj quribsiz.

Polk shtabi, o'zining bor-yo'q jihozini olib, bir necha o'nlab metr nariroqqa – Volga daryosi oqimi yo'nalishida – joylashdi u yerda, o'z navbatida, sariq Mixaylov batalyon komandirini butunlay siqishtirdi.

Joysiz qolgan batalyon komandiri o'ziga tepalikda yangi yerto'la qazishga buyurdi – rota komandirlarini bezovta qilmadi (ular tor joyda juda tiqilishib yashashardi).

Krimov 62-armiyaning komanda punktiga kelganida, u yerda sapyorlik ishlari qizigan edi. Shtab bo'limlari, ko'chalar va tor ko'chalarni – siyosiy bo'lim, tezkor xodimlar va artilleriyachilar aholisini birlashtiruvchi axborot yo'llari o'tkazilmoqda edi.

Krimov armiya qo'mondonini ikki marta ko'rdi – u qurilishni ko'zdan kechirishga chiqqan edi.

Dunyoning hech qayerida uy-joy qurilishiga Stalingraddagidek jiddiy qaralmagan bo'lsa kerak. Stalingrad blindajlari issiq va avlodlarga ibrat uchun qurilgan emas. Tong va tushlikkacha yetish ehtimoli blindaj qavatlarining qalinligiga, axborot yo'li chuqurligiga, hojatxonaning yaqinligiga, blindajning havodan ko'rinar-ko'rinmasligiga bog'liq edi.

Biron odam haqida gapirishsa, uning blindaji to'g'risida ham so'zlardilar.

– Mamay qo'rg'onida Batyuk bugun minomyotlarini qoyillatib ishlatdi... Darvoqe, blindajining eshigi emandan, qalin. U senatdagi-dek aqlli odam...

Ba'zan boshqa birov ustida shular aytilardi:

– Nima deysiz, u kechasi tang ahvolga tushdi, muhim o'rnini boy berdi, qo'l ostidagi bo'limlar bilan aloqasi uzulib qoldi. Komanda punkti havodan ko'rinib turadi, eshik o'rnida yopinchiq-chodir<sup>1</sup> – chivindan saqlaydi, deysiz. Puch odam, eshitdimki, urushgacha, xotini ketib qolgan.

Stalingradda blindajlar va yerto'lalar bilan bog'liq – ko'p va turli xil voqealar yuz bergan. Bir hikoya: Rodimsev shtabi quvurda yashagani, birdan sharillab suv bosib, uning butun idorasi qirg'oqqa suzib chiqqani, hazilkashlar Rodimsev shtabi Volgaga oqib tushgan yerni xaritada belgilab ham qo'yishgani haqida. Boshqasi: Batyuk blindajidagi ovozasi yoyilgan eshiklar urib tushirilgani to'g'risida. Buni: Traktor zavodida Joludiyev butun shtabi bilan pinakka ketgani borasida.

Stalingraddagi ketma-ket va zich blindajlar qurilgan sohil yonbag'ri Krimovga bir bortida Volga, boshqasida dushman olovi-ning mustahkam devori ortilgan harbiy kemani eslatdi.

Krimov siyosiy boshqarmadan Rodimsev diviziyasi o'qchilar polki komandiri va komissari orasi qanday buzilganini aniqlash yuzasidan topshiriq olgan edi.

Rodimsev huzuriga jo'nar ekan, u shtab komandirlariga ma'ruza qilganidan so'ng janjalli ishning tagiga yetmoqchi edi.

<sup>1</sup> «Plash-palatka» ma'nosida qo'llandi. – Tarj.

Armiya siyosiy bo'limi xat-xabar tashuvchisi uni Rodimsev shtabi o'rnatgan keng quvurning tosh og'ziga boshlab bordi. Navbatchi front shtabining batalyon komissari kelganini bildirdi va kimningdir yo'g'on tovushi yangradi:

– Uni bu yoqqa chaqir, xavf-xatarni ko'p ko'rmagan – odatlanmagan: kelguncha ishtoniga suzma qilib qo'ygandir.

Krimov pastgina gumbaz ostiga kirgach, shtab xodimlari ko'z uzmay kuzatib turganlarini his qilgan holda, soldatcha paxtalikda, konserva yashigi ustida o'tirgan to'la gavdali polk komissariga o'zini tanishtirdi.

– Ma'ruza tinglash juda ko'ngilli, yaxshi ish, – dedi polk komissari. – Xabaringiz bordir, Manuilskiy va yana kimlardir chap qirg'oqqa kelishibdi, bizlarning Stalingrad tomonga esa hech hafsala qilishmayapti.

– Bundan tashqari, menga, siyosiy boshqarma boshlig'i: o'qchilar polki komandiri va komissari o'rtasidagi ishni tahlil qilish bo'yicha topshiriq bergan, – dedi Krimov.

– Bizda shunaqa ish bo'lgan edi, – deb javob qildi komissar. – Kecha uning surishtiruvchi o'tdi: polk komanda punktiga tonnalik bomba tushdi – o'n sakkiz kishi, ular orasida polk komandiri va komissari ham o'ldi.


U sirli bir soddalik bilan shularni ham aytdi-qo'ydi:

– Ularda hamma narsa, hatto ko'rinishlari bir-biriga teskari edi: komandir – do'lvar odam, dehqon o'g'li, komissarning esa qo'lida – qo'lqop, barmog'ida – uzuk. Endi ikkisi yonma-yon yotibdi.

U kayfiyatga bo'ysunishga emas, o'zining va o'zgalarning kayfiyatini boshqarishga odatlangan kishi sifatida, gap ohangini keskin o'zgartirib, quvnoq tovush bilan dedi:

– Diviziyamiz Kotluban yaqinida edi, shunda, moskvalik ma'ruzachi Pavel Fyodorovich Yudin mashinamda frontga olib borishimga to'g'ri keldi. Harbiy kengash a'zosi menga: «Bir tola sochi to'kilsa, sening boshingni olaman», – dedi. Uni deb, holdan toydim. Samolyot ko'rindimi – uchib tushib, yo'l chetidagi ariqqa berkinamiz. Asradim. Boshini yo'qotish yoqmaydi odamga. Lekin o'rtoq Yudin ham tashabbus ko'rsatdi, o'zini asradi.

Ularning gapiga quloq solib turganlar kulib yuborishdi va Krimov uning g'ijintiruvchi – iltifotli istehzo ohangini yana his qildi.





Odatda, Krimov safdagi komandirlar bilan yaxshi til topishib ketardi. shtabdagilar bilan muomalalari iliq, o'z birodarlari – siyosiy xodimlar bilan munosabati esa har doim ham samimiy, degulik emasdi, nimasidir jig'ga tegardi. Mana, hozir diviziya komissari uning jahlini qo'zitayapti: frontga kecha kelgan-u o'zini ko'pni ko'rgandek tutyapti, partiyaga ham urush arafasida kirgan, shekilli, ammo halitdan Engelsdan ko'ngli to'lmayapti.

Lekin, aftidan, Krimov ham nimasi bilandir diviziya komissari g'ashiga teggandi.

Adyutant unga tunash uchun joy hozirlatganda ham, keyin choy vaqtida ham shu sezgi Krimovni tark etmadi.

Deyarli, har bir harbiy qismda o'zining xos, boshqalardan farq qiladigan munosabatlar uslubi bor. Rodimsev diviziyasi shtabida har doim o'z navqiron generali bilan faxrlanishardi.

Krimov suhbatini tugatganidan so'ng, unga savollar bera boshlashdi.

Rodimsev yonida o'tirgan shtab boshlig'i Belskiy so'radi:

– O'rtoq ma'ruzachi, ittifoqdoshlar qachon ikkinchi frontni ochadilar?

Quvurning tosh qoplamasiga tutash tor katda yonboshlagan diviziya komissari turib o'tirdi, pichanni qo'li bilan yoydi va shunday dedi:

– Shoshadigan joyi yo'q. Meni bizning qo'mondonligimiz qanday harakatlanishga hozirlanayapti, degan savol ko'proq qiziqtiradi.

Krimov komissarga yoqinqiramay ko'z qirini tashlab, dedi:

– Sizning komissaringiz savolni shu tarzda qo'ygan ekan, bunga men emas, general javob qaytarishi lozim bo'ladi.

Hamma Rodimsevga qaradi – u shunday dedi:

– Bo'ydor odam bu yerda qaddini rostlay olmaydi. Bir so'z bilan aytganda: quvur. Mudofaa – nima ham derdik, – unda boshga ko'targulik xislat yo'q. Bu quvurdan hujum qilish esa mumkin emas. Qancha xohlasang-da, quvurda zahiralarni yig'a olmayсан.

Shu vaqtda telefon jiringladi. Rodimsev go'shakni ko'tardi.

Hamma unga ko'z tikdi.

Go'shakni qo'yar ekan, Rodimsev Belskiy tomon engashdi va bir necha so'zni sekin aytdi. U telefonga qarab uzandi, lekin Rodimsev telefon apparatiga qo'lini qo'ygancha, dedi:

– Nimaga?.. Sizga eshitilmayaptimi?

Shtolnyaning<sup>1</sup> zambarak o'qlari gilzasidan yasalgan, tutuni burqsagan chiroqlar yilt-yilt yoritgan tosh gumbazlari ostida ko'p narsa eshitilardi. Ketma-ket otilayotgan pulemyot o'qlari o'tirganlarning boshlari tepasida ko'prikdan o'tayotgan aravalardek qarsillardi. Vaqti-vaqti bilan portlayotgan qo'l granatalarining larzalari kelib urlardi. Quvur ichida tovushlar juda baland aks-sado taratardi.

Rodimsev goh u, goh bu shtab xodimini yoniga chaqirar, yana besabr telefon go'shagini qulog'iga tutardi.

U bir on o'zidan uncha uzoqda o'tirmagan Krimovning nigohini uchratib, yoqimli, tug'ishganlardek jilmayib, dedi:

– Volga ob-havosi avjga mindi, o'rtoq ma'ruzachi.

Telefon esa tinmasdan jiringlardi. Rodimsevning gap-so'zlarini tinglab, Krimov nimalar ro'y berayotganini taxminan anglardi. Diviziya komandirining o'rinbosari, navqiron polkovnik Borisov general yoniga keldi va Stalingrad xaritasi yoyib qo'yilgan yashik uzra engashib, kelishtirib, shiddat bilan tikkasiga, qalin qilib, sovet mudo faasining naq Volga daryosiga qadar davom etgan qizil nuqtali ifodasini kesib o'tuvchi ko'k chiziq o'tkazdi. Borisov qora ko'zlarini Rodimsevga ma'noli tikdi. Rodimsev g'ira-shira qorong'ilik ichidan o'zi sari shoshilayotgan yopinchiq-chodirli kishini ko'rib, birdan o'midan turdi.

Qadam olishiga va yuz ifodasiga qaralsa, uning qayerdan kelayotgani ayon bo'lardi – u ko'zga ko'rinmas, qizdirilgan bulutga burkangandek edi, tez harakatlanganida, shitirayotgan yopinchiq-cho-dir emas, balki bu odamda to'lib toshgan elektr chirsillayotgandek tuyilardi.

– O'rtoq general, – deb, arz-hol qilib qichqirdi u, – qisib qo'ydi meni it, jarlikka suqildi, Volgaga qapishtirdi. Meni kuchaytirish kerak.

– Qanchalik qimmatga tushsa-da, dushmanni o'zingiz to'xtating. Menda hech qanday zaxira yo'q, – dedi Rodimsev.

– To'xtatish, qanchalik qimmatga tushsa-da, – deb javob qildi yopinchiq-chodirli kishi va o'girilib, qaytib keta boshladi, shunda uning o'sha – qanchalik qimmatga tushadigan narsaning bahosini bilishiga hammaning aqli yetdi.

---

<sup>1</sup> *Shtolnya* – gorizontaal yoki qiyaroq kavlangan yerosti yo'li. – Tarj.

– Shu yerda, yaqindami? – deb so‘radi Krimov va xaritadaagi jarlikning egri-bugri taramlarini ko‘rsatdi.

Lekin Rodimsev unga javob berib ulgurmadi. Quvur og‘zida to‘pponchadan uzilgan o‘qlar sadosi yangradi, qo‘l granatalarining qizil shu‘lalari miltilladi.

Komandirning o‘tkir hushtagi quloqqa chalindi. Shtab boshlig‘i Rodimsevga qarab yugurib, qichqirdi:

– O‘rtoq general, dushman sizning komanda punktingizga yorib o‘tdi!..

Gap-so‘zi, ovozida xotirjamligini namoyish qilib, vaziyatning o‘zgarishini rangli qalam bilan belgilayotgan diviziya komandiri birdan g‘oyib bo‘lib qoldi. Tosh xarobalarida va burgan o‘sgan jarliklardagi urush xromlangan po‘lat, katod chiroq, radioapparatura bilan bog‘liq, degan tuyg‘u yo‘qoldi. Yupqa labli shum kishi qichqirdi:

– Qani, hey, diviziya shtabi! Shaxsiy qurolingizni tekshiring, granatalarni oling – mening ortimdan yuring, dushmanni daf qilamiz!

Uning Krimovning a‘zoyi badanidan tez, amr-farmo sirg‘alib o‘tgan tovushida to‘nglagan va o‘t yoquvchi spirt mo‘l edi. Bu odamning butun kuchi tajribada, xaritani bilishda emas, shafqatsiz va tiyiqsiz, quv ko‘nglida ekani bir on namoyon bo‘ldi!

Bir necha daqiqadan so‘ng shtab zobitlari, kotiblari, aloqachilari, telefonchilari qovushmay, shoshilib, turtinib, shtab quvuridan duvullashib chiqdilar, oldinda esa lipillayotgan jangovar olov shu‘lalari ostida, Rodimsev yengil qadamlar tashlab, portlashlar, o‘q ovozlari, qichqiriq va so‘kishlar toshgan jarlik sari yugurardi.

Krimov chopaverishdan dami qaytib, birinchilar qatorida jarlik yoqasiga yetgach, pastga qaradi va shunda, uning larzaga kelgan yuragi jirkanish, qo‘rquv, nafrat qorishiq bir tuyg‘uni his qildi. Qa‘rda, narida, berida noma‘lum sharpalar ko‘zga chalinardi, otilgan o‘qlar chaqnar va o‘chardi, goh yashil, goh qizil tuynuk yonardi, havoda esa hech tinmas temir hushtak muallaq edi. Baayni, Krimov bahaybat ilon iniga boqqanida, u yerda yuzlab bezovta zaharli maxluqlar ko‘zlari cho‘g‘lanib, quruq burganlar ichida shitirlab, tez o‘rmlab borardi.

Qahr, jirkanish, qo‘rquv hissi ko‘pirib, u qorong‘ilikda yonib miltiragan nuqtalarni, jarlik nishabida ildam siljiyotgan qoralarni mo‘ljallab, vintovkadan o‘q uzishga kirishdi.

Undan bir necha o‘n metr narida, jarlik qirrasida nemislar paydo bo‘ldi. Qo‘l granatalarining ustma-ust gumbur-gumburi havo va zaminni titratdi – nemislarning maxsus hujum guruhi yorib o‘tib, quvur og‘zini egallashga intilardi.

Odamlarning qoralari, o‘qlarning yolqinlari qorong‘ilikda lipillar, qichqiriqlar, ingroqlar goh kuchayar, goh susayardi. Go‘yoki, katta qora qozon qaynar, Krimov to‘lasicha, butun tanasi, butun jon-u dili bilan bu, qulqullayotgan, ko‘pirayotgan qaynoqqa cho‘mgan va endi avval his qilganidek his qilolmas, avval fikrlaganidek fikrlay olmas edi. Ba‘zan esa nazarida, o‘zi tushib qolgan girdobni boshqarayotgandek bo‘lar, goh uni halokat sezgisi qamrar, ba‘zan ko‘ziga, burun teshigiga zimistonning quyuyq qatroni quyilayotganini his etar, nafas olgani havo va boshi ustida yulduz to‘la osmon yo‘qday edi, faqat zulmat, jarlik va burgan orasida shitirayotgan dahshatli maxluqlar bor edi.


Go‘yoki, yuz berayotgan voqealar mag‘zini chaqishning imkoni mavjud emasdek edi va ayni vaqtda nishabda o‘rmlayotgan odamlar bilan aloqadorlik, yonma-yon turib o‘q otayotganlarning quvvati bilan qo‘shilgan o‘z kuchini uqish, qayerdadir, yaqinida Rodimsev borligidan quvonch tuyg‘usi ochiq-oydin ko‘rinib turgan, kunduz kundagidek yaqqollik uzviy edi.

Tungi jangda uch qadam naridagini farqlay olmaysan, yoningdagi kim – o‘rtoq yoki seni o‘ldirishga tayyor dushmanligini bilmaysan, shu vaziyatda qalqib chiqqan ajoyib tuyg‘u g‘aroyiblikda undan kami yo‘q va izohlash ilojisiz ikkinchi hissiyot – jangning umumiy jarayonini his qilish, askarlarga jangdagi kuchlarning haqiqiy o‘zaro nisbatini baholash, jangning qanday borishini oldindan bilish imkoniyatini baxsh etuvchi tuyg‘u bilan bog‘lanar edi.

## 11

Boshqalardan tutun, olov ajratib qo‘ygan, qulog‘i bitgan odamning jang qanday tugashini oldindan sezishi ko‘p vaqt shtab xaritasi ustida jang yakuni to‘g‘risida ilgari surilgan mo‘ljallardan adolatli-roq bo‘lib chiqadi.

Jangovar burilish onida ba‘zan g‘aroyib o‘zgarish yuz beradi, hujum qilayotgan, qariyb o‘z maqsadiga erishgan askar esankirab alanglaydi va maqsad sari harakatini birgalikda, ahillik bilan bosh-



lagan safdoshlarini ko'zi ko'rmay qoladi, hamma vaqt yolg'iz, zaif, ovsar deb hisoblagan dushmani ko'pga – yengib bo'lmasga aylanadi. Bu, ko'rgan-kechirganlarga ma'lum on uni sirdan payqab va anglab olishni istaganlarga sirli va izohlab bo'lmas jangovar burilishning idrok etilish jarayonida ruhiy o'zgarish vujudga keladi: dov-yurak, aqlli «biz» jur'atsiz, mo'rt «men»ga evriladi, ovda birdan bir o'lja deb o'ylangan omadsiz raqib esa qo'rqinchli va yovuz, bir jon-u bir tan bo'lib ketgan «ular»ga chevriladi.

Ilgarilari jangning barcha voqealari hujum qilayotganlar va qarshilikni muvaffaqiyatli yengayotganlar tomonidan ayrim tarzda: zambarak o'qining yorilishi... pulemyotning qatorasiga o'q uzishi... mana, u shu panadan otyapti, hozir u yugurib ketadi, u yugurib ketmasligi mumkin emas, chunki u yolg'iz, o'zining o'sha, alohida zambaragidan ayrim, o'zining o'sha, alohida pulemyotidan ayrim, o'sha, o'ziga qo'shni, alohida o'q uzayotgan askardan ayrim, men esa – bu, biz, men – butkul haybatli, hujumga kirgan piyoda askarlar, men – bu, menga madadkor artilleriya, men – bu, menga madadkor tanklar, men – bizning butun jangovar ishimizni yorituvchi raketa. Va ilkidan – men yakka o'zim qolaman, bo'lak-bo'lak – shuning uchun kuchsiz bo'lgan hamma narsa dushmanning miltiq, pulemyot, artilleriyadan o't ochuvchi alp birligiga aylanadi va menda bu birlikni yengishga yordam beruvchi kuch qolmaydi. Najot – mening qochishimda, boshimni yashirish uchun yelkamni, peshonamni, jag'imni berkitishimda.

Tun qorong'isida kutilmagan zarbaga uchrab, dastlab o'zini zaif va yolg'iz deb his qilganlar o'zlariga tashlangan yovning birligini bo'laklarga ajratishga kirishadilar va g'alaba kuchini mujassam etgan o'z birliklarini his qiladilar.

Ko'pincha bu o'tishni anglash zamirini harbiy ishning san'at deb atalishiga huquq beruvchi asos tashkil etadi.

Bu ayrimlik va ko'plikni his etishda, ongning ayrimlik tushunchasidan ko'plik tushunchasiga o'tishida nafaqat rejalar va batalyonlar tungi qattiq hujumlaridagi voqealar bog'liqligi, balki armiyalar va xalqlarning harbiy kuchi ham mujassamdir.

Yana bir tuyg'u ham borki, jang ishtirokchilari uni qariyb tamomila boy berishadi, bu vaqtni his qilishdir. Yangi yil kechasida tonggacha o'ynagan qiz ayni bazmda vaqtni qanday his qildi – uzoqmi yoki qisqami – javob qaytarolmaydi.

Yigirma besh yillik qamoq muddatini o'tagan shlisselburgchi: «Nazarimda, bu qal'ada abadiyatni boshdan kechirgandekman, lekin shu bilan birga, bu qal'ada qisqa haftalarni o'tkazgandekman», – deydi.

Qiz uchun bu kecha bir onli hodisalarga – nigohlarga, kuylarning maqomlariga, tabassumlarga, beixtiyor teginib ketishlarga to'la edi, ushbu hodisalarning har biri shu qadar tez kechgan ediki, ongda vaqtning davomdorligini sezishiga imkon qoldirmagandi. Lekin shu, bir onli hodisalarning barchasi inson hayotining bor quvonchlarini o'zida jamlagan katta vaqt hissiyotini baxsh etgan edi.

Shlisselburgchida buning teskarisi ro'y bergan edi – uning qamoqdagi yigirma besh yili vaqtning ertalabki yo'qlamadan kechki yo'qlamagacha, nonushtadan tushlikkacha qamragan toliqtiruvchi, uzun, alohida qismlaridan tarkib topgandi. Ammo bu nochor hodisalarning jami yangi hissiyotni hosil qildi: oylar va yillar almashuvining tussiz sidirg'aligida vaqt qisildi, burushdi... Shu tariqa qisqalik va intihosizlikni bir vaqtda sezish paydo bo'ldi, shu tariqa yangi yil kechasidagi odamlarda va qamoqdagi o'nyilliklar odamlarida bu tuyg'uning bir xilligi paydo bo'ldi. Har ikki holda ham hodisalar jami uzun va qisqalikning ayni vaqtdagilik tuyg'usini keltirib chiqaradi.

Jangdagi odam vaqt uzunligini va qisqaligini sezishining shaklan o'zgarishi ancha murakkab jarayon. Bu yerda ish ilgari siljiydi: bu yerda alohida, dastlabki hissiyotlar buziladi, qiyshayadi. Jangda soniyalar cho'ziladi, soatlar esa yassilanadi. Uzunlik hissi yashindek tez hodisalar – zambarak o'qlari va aviabombalar chinqiriqlari, otilgan o'qlar va portlashlarning o't olishlari bilan bog'lanadi.

Qisqalikni his qilish cho'ziqlik hodisalari – shudgor qilingan dadan olov ostida harakatlanish, panadan panaga emaklab o'tish bilan o'zaro bog'lanadi. Qo'l jangi vaqtdan tashqarida kechadi. Bu yerda qo'shuvchilarda va natijada noaniqlik namoyon bo'ladi, bu yerda yig'indi va har bir qo'shiluvchi shaklan o'zgaradi.

Bu yerda qo'shuvchilar esa haddan tashqari ko'pchilikdir.

Jangning davomdorligini his qilish, umuman, shaklan shu qadarli o'zgarganki, tamomila noaniqlikka do'nadi – u na uzoqlikka, na qisqalikka bog'lanadi.

Ko'zni qamashtiradigan nur va ko'zni qamashtiradigan zulmat, qichqiriqlar, portlashlar shovqini, avtomatlarning shitob o'q yog'dirishi qorishib ketgan o'ta tartibsizlikda Krimov aqlni shoshiradigan darajada yaqqol tushundi: nemislar yanchildi, nemislar yo'q qilindi. U – xuddi o'zi bilan bir safda turib o'q otgan kotiblar, aloqachilardek – buni ichki sezgi bilan tushundi.

## 12

Tun o'tdi. Jizg'inak burganlar orasida o'ldirilganlarning loshlari yotardi. Qirg'oq yoqalarida og'ir suv noxush va o'shshayib nafas olardi. Tilka-pora zaminni, yonib tugagan uylarning bo'sh qutilarini ko'rganda, yurakni g'am bosardi.

Yangi kun boshlandi va urush uni – tutun, shag'al, temir, kir, qonli bintlar bilan sila qilib to'ldirish uchun valine'matlarcha tayyorgarlik ko'rgan edi. O'rtda esa xuddi shunday kunlar edi. Dunyoda temir bilan shudgor etilgan shu yerdan, yong'in ichidagi osmondan boshqa hech narsa yo'q edi.

Krimov yashik ustida o'tirganicha, quvurning tosh qoplamasiga boshini qo'yib, mudrardi.

U shtab xodimlarining ilg'ash noo'ng'ay tovushlarini eshitardi, dastali piyolalarning jarangini eshitardi, diviziya komissari va shtab boshlig'i choy ichishar, uyquli ovozda gaplashardilar. Aytardilarki, qo'lga tushirilgan asir sapyor ekan; uning batalyoni bir necha kun oldin Magdeburgdan, samolyotlarda tashlangan. Krimovning miyasidan bolalar darsligidagi rasm yilt etib o'tdi – qalpoqlari uchli haydovchilar oldiga solib borayotgan ikki birday chuvur ot bir-biriga yopishgan yarimpallalarni ajratib tashlashga urinadi. Bolaligida ko'rgan o'sha zerikarli rasmga qaytadan duch kelganday edi.

– Bu yaxshi, – dedi Belskiy, – demak, zaxiralar yig'ilibdi.

– Ha, albatta, yaxshi, – deb ma'qulladi Vavilov, – diviziya shtabi qarshi hujumga bordi.

Shu payt Krimov Rodimsevning osoyishta ovozini eshitdi:

– Chechak, reza meva faslida ungay.

Krimov butun ruhiy kuchlarini shu tungi jangda sarflaganga o'xshardi. Rodimsevni ko'rish uchun boshini burishi kerak edi, lekin Krimov boshini burmadi. «Bor suvi tortib olingan quduq o'zini

shunchalik bo‘m-bo‘sh his qilsa, ehtimol», – deb o‘yladi u. Tag‘in mudradi, uncha baland bo‘lmagan tovushlar va portlashlar, otishma ovozlari bir xil g‘uvullashga o‘xshab qoldi.

Lekin Krimovning miyasiga yangi sezgi kirdi, xayol qildiki, u derazalari yopiq xonada yotibdi, gulqog‘ozdagi tong nuri jilvalarini kuzatyapti. Jilva devor ko‘zglasining qirrasigacha sirg‘alib borib, kamalakdek ochildi. Bola yuragi titradi, chakkalari oqargan, belida og‘ir to‘pponcha osilib turgan odam ko‘zini ochdi va qayrilib qaradi.

Quvur o‘rtasida, eski gimnastorka, yashil – frontcha yulduzchali pilotka kiygan cholg‘uvchi boshini egib turganicha, skripka chalardi.

Vavilov Krimov uyg‘onganini ko‘rib, u tomon engashdi-da, – dedi:

– Bu bizning sartaosh, Rubinchik – katta mutaxassis!

Ba‘zan kimdir beandishalikka borib, qo‘pol hazillashib, kuyni bo‘lar, ba‘zan kimdir cholg‘uvchini to‘xtatib qo‘yib, «Murojaat qilishga ruxsat etasizmi?» – deb so‘rar – shtab boshlig‘iga axborot yetkazardi, tunuka krujkada qoshiqcha chiqillar, kimdir cho‘zib esnar: «Oho-ho-ho-ho...» – va pichanni ko‘pchitardi.

Sartaosh ijro qilayotgan kuyi komandirlarga xalaqit bermayotibdimi? – istalgan lahzada uni bo‘lishga tayyor holda diqqat bilan kuzatib borardi.

Ammo nima uchun shu daqiqalarda Krimovning esiga kelib qolgan oq sochli, qora frakdagi Yan Kubelik shtab sartaoshiga tan berib, chekindi? Nima uchun kichik bir jilg‘acha kabi, soddagina qo‘shiqni kuylayotgan skripkaning nozik jaranglagan ovozi ayni zamonda inson qalbining butun erkinligi teranligini Bax va Motsartdan ham kuchliroq ifodalayotgandek edi?

Yana, minginchi marta Krimov yolg‘izlik dardini sezdi. Jenya uni tashlab ketdi.

Yana u yuragida dog‘ bilan o‘yladi, Jenyaning ketishi uning hayotining butun tilsimotini ifodaladi: u qoldi, lekin yo‘q bo‘ldi. Va u ketdi.

Yana, u o‘yladiki, o‘ziga o‘zi ayovsiz shafqatsizlik qilishi – ko‘p dahshatli narsalarni aytishi kerak... cho‘chish, niqoblanish – bas...

Musiqa unda vaqtni anglashni baxsh etgandek edi.



Vaqt – ochiq-oydin muhitki, unda odamlar paydo bo‘ladi, harakat qiladi, nom-nishonsiz yo‘qoladi... Vaqtda shahar bir butunligi paydo bo‘ladi va yo‘qoladi. Vaqt ularni keltiradi va olib ketadi.

Lekin unda vaqtni tamomila o‘ziga xos, o‘zgacha tushunish paydo bo‘ldi. Bu tushunishning ma‘nisi shunday: «Mening vaqtim... bizingning vaqtimiz emas».

Vaqt insonga va shohlik-davlatga oqib kiradi, ularda uya quradi va mana, vaqt ketadi, g‘oyib bo‘ladi, inson, shohlik esa qoladi... shohlik qoldi, uning vaqti esa ketdi... inson – bor, uning vaqti esa g‘oyib bo‘ldi. Qayerda u? Mana – inson, u nafas oladi, u fikrlaydi, u yig‘laydi, yagona, o‘ziga xos, faqat u bilan bog‘liq vaqt esa ketdi, suzib ketdi, oqib chiqib ketdi. Va u qoldi.

Eng qiyini – vaqtning o‘gay o‘g‘li bo‘lish. O‘z vaqtida yashamayotgan o‘gay o‘g‘ilning ko‘rgiligidan og‘iri yo‘q. Vaqtning o‘gay o‘g‘illarini kadrlar bo‘limida, rayon partiya qo‘mitasida, armiya siyosiy bo‘limlarida, tahririyatlarda, ko‘chada darhol tanib olishadi... Vaqt kimlarni o‘zi yetishtirgan bo‘lsa, o‘shalarni – o‘z bolalarini, o‘z qahramonlarini, o‘z mehnatkashlarini sevadi. U o‘tgan vaqtning bolalarini hech qachon, hech qachon sevmaydi, ayollar ham o‘tgan vaqt qahramonlarini sevmaydi, o‘gay ona ham begonalarning bolalarini sevmaydi.

Vaqt degani ana shunaqa – hamma ketadi, u esa qoladi. Hamma qoladi, faqat vaqt ketadi. Qanday oson, bildirmay ketadi vaqt. Kecha sen naqadar ishonchi komil, shod, kuchli: vaqt o‘g‘li eding. Bugun esa boshqa vaqt keldi, ammo sen buni hali anglaganing yo‘q.

Jangda abjag‘i chiqqan vaqt sartarosh Rubinchikning faner skripkasidan vujudga keldi. Skripka bir xillarga ularning vaqti kelganidan, boshqalarga ularning vaqti ketganidan xabar berdi.

«Ketdi, ketdi», – deb o‘yladi Krimov.

U komissar Vavilovning xotirjam, xushfe‘l, katta yuziga boqdi. Vavilov krujkadan choy ho‘plar, kolbasa qo‘yilgan nonni erinmay, mayda chaynab yer, uning sirli ko‘zlari quvur og‘zida jilvalanayotgan nur aksiga qaratilgan edi.

Junjikib, yelkasidagi yelvagay shineli yoqasini ko‘tarib qo‘ygan, sokin va ochiq chehrali Rodimsev cholg‘uvchiga e‘tiborini qaratib, tikilib qolgandi. Cho‘tir, oq sochli polkovnik, diviziya artilleriyasi boshlig‘i oldida yotgan xaritaga peshonasini tirishtirib qarar, shuning

uchun tund bashara ko'rinar, faqatgina g'amgin, yoqimli ko'zlari uning xaritaga qaramayotganligini, quloq solayotganligini ko'rsatib turardi. Belskiy armiya shtabiga jadallab axborot yozardi; faqat ish bilan bandga o'xshasa-da, lekin u boshini egib, qulog'ini skripachi tomonga qaratib olgandi. Nariroqda esa qizilarmiyachilar – aloqachilar, telefonchilar, kotiblar o'tirardilar, ularning tinkasi quriganini ayon qilib turgan chehralarida va ko'zlarida non chaynayotgan dehqon yuzida balquvchi bama'nilik zuhur etardi.

Nogohon, bir yoz kechasi – yosh kazak juvonning katta qora ko'zlari, o'tli shiviri Krimovning yodiga tushdi. Hayot baribir yaxshi!

Skripkachi chalishdan tinganida, asta shildirash bilindi – yog'och kat ostida suv oqib turardi, Krimov xayolida: endi uning ko'ngli – hov, ana o'sha ko'rinmas – bo'sh, qurigan quduq o'ziga sekin-sekin suv yig'ayotgandek edi.

Skripkachi yarim soat avval Krimovning soqolini qirtishlab oldi va odatda sartaroshxonaga keluvchilar ko'nglini xush qiladigan – o'ta jiddiy tusda, ustara qiynamadimi, deb so'radi, Krimovning yonoqlarini kafti bilan paypasladi – Krimov yonoqlari yaxshi qirildimi, deb tekshirdi. Zamin va temirning huvullagan saltanatini atir va upaning esni og'dirgudek g'alati, bema'ni va qayg'uli hidi tutdi.

Rodimsev ko'zlarini biroz qisib, atir sepilgan, upa surtilgan Krimovga mamnunlik bilan bosh silkib, dedi:

– Xo'sh, mehmonga vijdonan xizmat ko'rsatibsan. Endi meni sozlab qo'y.

Skripkachining katta qora ko'zlari baxtga to'ldi. Rodimsevning boshiga razm solib, oq qo'lsochiqni silkitib, dedi:

– Balki chakkalarni baribir sal to'g'rilarmiz, o'rtoq gvardiya general-mayori!

### 13

Neftsaqlagichdagi yong'indan keyin general-polkovnik Yermenko Stalingradga, Chuykovni yo'qlab, yo'lga otlandi.

Bu xavfli safar biron amaliy ahamiyatga ega emasdi.

Ammo u ko'ngilga, odamiylikka xos yuksak zaruriyat ediki, Yermenko kechuvni kutib, uch kunni yo'qotdi.

Qo'mondonning ertalabki sayrlari paytida Go'zal Bog'dagi blin-dajning rangi ochiq devorlari sokin ko'rinar, olmalarning soyalari yoqimli edi.

Stalingradning olis gumbur-gumburlari va alangalari barglar shovqini, qamishlarning mungli tebranishlari bilan qo'shilar va bu hosilada tasvirlashning iloji yo'q shunday bir og'ir narsa bor ediki, ertalabki sayrlari paytida qo'mondonning noroziligi oshib, nolir va so'kinardi.

Tongda, Yeremenko Stalingradga jo'nashini Zaxarovga bildirib, unga qo'mondonlikni o'z zimmasiga olishni buyurdi.

U dasturxon yozayotgan ofitsiant ayolga hazil-mutoyiba qildi, shtab boshlig'ining o'rinbosari ikki kunlik muddat bilan Saratovga uchishi uchun ruxsat etdi, cho'l armiyalaridan birining qo'mondoni general Trufanovning iltimosiga quloq solib, unga ruminlarning kuchli artilleriya tugunini bombalash va'dasini berdi. «Xo'p, xo'p, senga uzoqqa otadigan samolyotlardan yuboraman», – dedi u.

Adyutantlar qo'mondonning yaxshi kayfiyati sababini ax-tarishardi. Chuykovdan ezgu xabarlar keldimi? VCh telefonida ko'ngildagidek suhbat bo'ldimi? Uydan xat keldimi?

Lekin odatda barcha bunday va shunga o'xshash axborotlarni adyutantlar bilmay qolishmasdi – Moskva qo'mondonni chaqirgani yo'q, Chuykovdan kelgan xabarlar xursand qiladigan emasdi.

Nonushtadan keyin general-polkovnik paxtalik kiyim kiydi va aylanib kelishga chiqdi. Undan o'n qadamlar narida adyutant Par-xomenko borardi. Qo'mondon odatdagidek – shoshilmay qadam-lardi, bir necha marta sonini qashib-qashib qo'ydi va Volga tomon-ga nazar tashladi.

Yeremenko kotlovan qaziyotgan mehnat batalyoni jangchilariga yaqinlashdi. Bular yoshi qaytgan, oftobda yuraverib ensasi to'q ji-garrang tusga kirgan kishilar edi. Ularning yuzi g'amgin va noxush edi. Ular jimgina ishlashardi va kotlovan chetida bekor turgan yashil furajkali, to'la odamga achchig'lari kelib qarashardi.

Yeremenko so'radi:

– Aytinglar-chi, yigitlar, orangizda kim hammadan yomon ish-laydi?

Mehnat batalyoni jangchilariga bu savol qulay keldi, belku-rak silkitaverishdan zerikkan edilar. Jangchilar barchasi baravariga

cho'ntagini ag'darib, kaftiga jo'n tamaki chiqitlari va non uvoqlarini qoqayotgan birovg'a qaradilar.

– Ha, rosti, u, – dedi ikki kishi va boshqalarga qarashdi.

– Shunday, – dedi Yeremenko jiddiy, – demak, shu. Qulab, jarlik-da qolib ketgan.

Jangchi odob saqlab, tin oldi, pastdan yuqoriga qarab, Yeremenkoga beozor ko'zlarini tikdi va chamasi, so'rovchi ish yuzasidan emas, o'zicha, bee'tibor o'tib ketmaslik yoki nimagadir aniqlik kiritish uchun qiziqyapti, deb o'ylab, suhbatga qo'shilgisi kelmadi.

Yeremenko so'radi:

– Orangizda kim hammadan yaxshi ishlaydi?

Hamma oq sochli kishini ko'rsatdi: siyraklashgan sochlari nimjon o't-o'lanlar yerni quyosh nuridan saqlayolmagani kabi uning boshini oftobda qorayishdan asray olmasdi.

– Troshnikov, mana u, – dedi biri, – juda zo'r beradi.

– Ishlashga odatlangan, hech o'zini tiya olmaydi, – deb tasdiqlashdi boshqalar – Troshnikov uchun uzr aytganday.

Yeremenko shimining cho'ntagiga qo'lini tiqib, quyoshda yarqiragan oltin soatni oldi va zo'rg'a egilib, uni Troshnikovga uzatdi.

U tushunmay, Yeremenkoga qaradi.

– Ol, bu senga mukofot, – dedi Yeremenko.

U, Troshnikovdan nigohini uzmay dedi:

– Parxomenko, yorliq yozib, mukofotni rasmiylashtir.

U yo'lida davom etar ekan, ortida yangrayotgan hayajonli g'ovur-g'uvur ovozlarni tinglab borardi, yer qazuvchilar oh-voh qilardilar, tinmag'ur Troshnikovning g'aroyib omadidan suyunib kulardilar.

Front qo'mondoni kechuvni ikki kun kutdi. Bu kunlarda o'ng qirg'oq bilan aloqa qariyb uzilgan edi. Chuykov tomonga yorib o'tgan katerlar yo'lda, sanoqli daqiqalarda ellik-yetmish joyidan teshib, qirg'oqqa qonga botgan holda yetardi.

Yeremenko g'azablanar, g'ijinardi.

Oltmish ikkinchi kechuvdagi boshliqlar nemislar otishma boshlaganini eshitib, bomba va zambarak o'qlaridan emas, qo'mondonning g'azabidan qo'rqardilar. Yeremenko nazarida nemis minomyotlari, zambaraklari va aviatsiyasi beboshliklariga beg'am mayorlar va imirsiragan kapitanlar aybdor edi.

Tunda Yeremenko yerto'ladan chiqib, suv yaqinidagi qumloq tepalikda turdi.

Front qo'mondonining Go'zal Bog'dagi blindajida yoyig'lik urush xaritasi bu yerda gumburlardi, tutardi, hayot va o'lim bilan nafas olardi.

Nazarida, u oldingi jabhadagi, o'z qo'li bilan chizgan olovli nuqtali chiziqlarni tanirdi, pauluschilar Volgaga hujumlarining qalin ponalarini, o'zi rangli qalami bilan belgilagan mudofaa tugunlarini va o't ochish qurollari to'plangan joylarni tanirdi. Lekin stol ustida yoyig'lik xaritaga boqar ekan, front yo'nalishini harakatga keltirish, burishga qodirligini sezardi, u chap qirg'oqdagi og'ir artilleriyani birdan bo'kirib yuborishga majbur qilishi mumkin edi. O'sha yerda u o'zini xo'jayin, mexanik deb his qilardi.

Uni bu yerda mutlaqo boshqa tuyg'u qamrab oldi... Stalingrad ustidagi shu'lalar, osmonda asta-sekin ko'tarilayotgan guldurosalar – bularning bari o'zining ulkan, qo'mondon ixtiyoridan xoli ishtiyoqi va kuchi bilan hayajonlantirardi. O'qqa tutishlar va portlashlarning gumbur-gumburi orasida zavodlar tarafdin cho'ziq, lekin quloqqa chalinar-chalinmas tovush keldi: a-a-a-a-a...

Qarshi hujumga otilgan Stalingrad piyodalarining bu cho'ziq qichqirig'ida nafaqat dag'dag'ali, balki qayg'uli, yurakni siqadigan nimadir bor edi.

– A-a-a-a-a, – Volga uzra tarqaldi... Jangovar «ura» kuz osmoni yulduzlari ostidan, tungi sovuq suv ustidan o'tib borar ekan, go'yo ehtiros otashini yo'qotib, o'zgardi va unda nogohon shijoat emas, uchqurlik emas, baayni barcha azizlardan rozi-rizolik so'rovchi, baayni o'z yaqinlarini uyg'onishga, yostiqdan bosh ko'tarishga da'vat etuvchi, so'nggi marta ota, o'g'il, aka-uka ovozini eshitishni xohlovchi tamomila boshqa mohiyat – ko'ngil dardi ochildi...

General-polkovnik yuragini soldat hasrati ezdi.

Qo'mondon turtib yurgan urush, kutilmaganda, uni o'ziga tortdi, u olov va guldurosalarin larzaga kelgan yolg'iz soldat shu yerda, sohilda, to'plangan minglab va o'n minglab soldatlar kabi shu yerda, sochiluvchan qumda turardi va xalq urushi uning mahorati, uning izmi, uning irodasidan ortiqroq ekanini his qilardi. Ehtimol, urushni anglashda general Yeremenkoga nasib etgan eng yuksak maqom shu kechinmada namoyon edi.



Erta tongda Yeremenko o'ng qirg'oqqa o'tkazib qo'yildi. Telefonda ogohlantirilgan Chuykov suv bo'yiga kelib, zirhli katerning shiddatli sur'atini kuzatib turdi.

Yeremenko qirg'oqqa tashlangan kema narvonini o'z zalvori bilan egitirib, sekin-sekin tushdi, toshloq sohilda noo'ng'ay qadamlar tashlab, Chuykov oldiga bordi.

– Salom, o'rtoq Chuykov, – dedi Yeremenko.

– Salom, o'rtoq general-polkovnik, – deb javob qildi Chuykov.

– Sizlar bu yerda qanday yashayotganingizni ko'rgani keldim. Sen neft yong'inida kuymaganga o'xshaysan. O'shanday paxmoqsan. Ozganing ham yo'q. Biz seni baribir yomon boqmaymiz.

– Qandoq qilib ozay, kun-u tun blindajda o'tiraman, – deb javob qildi Chuykov va qo'mondonning: seni yomon boqmayapmiz, degan gapi ko'ngliga og'ir botgani uchun dedi: – Nega endi men mehmonni sohilda qabul qilayapman!

Darhaqiqat, Yeremenko: Chuykov «Stalingradga kelgan mehmon» deb ataganidan ranjidi. Chuykov: «Mening kulbanga marhamat qiling», – deganida, Yeremenko: «Menga shu yer, ochiq havoma'qul», – deb javob qildi.

Shu vaqtda Zavoljeda radiokarnay tilga kirdi.

Yong'inlar va raketalar, portlashlar yolqinlari yorishtirgan sohil ovloqni eslatardi. Yog'du goh so'nar, goh yonar, ba'zi onlov etib, ko'zni qamashtiruvchi oq nur taratardi. Yeremenko axborot yo'llari, blindajlar qazilgan sohil qiyaligini, suv bo'yidagi qorong'ilik ichida ko'zga tashlanuvchi yoki qorong'ilikka tez va o'ng'ay singib ketuvchi uyum-uyum toshlarni ko'zdan kechirdi.

Ulug'vor ovoz salmoqlab, salobat bilan kuylardi:

*To'lqindek qaynasin oliyjanob qasd,  
Xalq urushi borar, muqaddas urush...*

Qirg'oqda ham, qiyalikda ham odamlar ko'rinmaganligi uchun butun muhitni – zaminni ham, Volgani ham, osmonni ham alanga yoritayotgani uchun bu salmoqli qo'shiqni urushning o'zi kuylayotgandek, odamlarsiz kuylayotgandek, undan tashqari, zalvorli xarsanglar qalbga tushayotgandek edi.

Yeremenko ko'z o'ngida namoyon bo'lgan manzaraga qiziqib qolgani uchun o'zini noqulay sezardi: aslida, u xuddi Stalingrad xo'jayiniga mehmon bo'lib kelgandek edi. Chuykov, aftidan, uning Volgadan o'tib, bu yoqqa nima uchun kelganini – ko'ngli notinchligini anglagan, qo'mondon Go'zal Bog'dagi qurigan qamishlar shitirini tinglab, sayr qilganida qanchalik azob chekkanini bilgan, deb ichdan kuyinardi u.

Yeremenko shu, butun bir olov balosi vaqtida zaxiralar harakatlari qanday chaqqonlashtirilgani haqida, piyodalar va artilleriyaning birgalikdagi harakatlari haqida, nemislarning zavodlar deparasida to'planishi haqida xo'jayindan so'radi. U savollar berdi, Chuykov katta boshliqning savollariga munosib tarzda javob qildi.

Ular jim turib qoldilar. Chuykov: «Tarixdagi ulug'vor mudofaa – bu, lekin baribir hujum qanday bo'ladi», – deb so'rashni istardi.

Ammo u shunday deb so'rashga botinmadi: Yeremenko Stalingrad himoyachilarida chidam yetishmaydi, yelkalaridagi yukni olishni so'rashyapti, deb o'ylaydi.

To'satdan Yeremenko so'radi:

– Sening otang bilan onang Tula viloyatida, qishloqda yashaydilar-a?

– Tulada, o'rtoq qo'mondon.

– Qariya senga xat yozib turibdimi?

– Yozib turibdi, o'rtoq qo'mondon. Hali ishlayapti.

Ular bir-birlariga qarab qo'ydilar, Yeremenko ko'zoynagining shishalari yong'in olovidan qizarib ko'rindi.

Mana hozir Stalingradning sodda mohiyati borasidagi – ularning har ikkisiga ham zarur yagona suhbat boshlanadigandek tuyilardi. Lekin Yeremenko dedi:

– Sen, to'g'risi, front qo'mondoniga hamisha beriladigan: madad – ish kuchi va o'q-dorilar haqidagi savol bilan qiziqsang kerak?

Bu soatda ahamiyatli, birdan-bir suhbatga erishilmadi.

Nishab qirrasida turgan qorovul pastga qaradi va Chuykov zambarak o'qining hushtagiga diqqat qilarkan, yuqoriga boqib, dedi:

– Qizilarmiyachi, balki, o'ylayotgandir: suv bo'yida qanaqa ikkita g'alati odam turibdi?

Yeremenko pishillab, burnini kovladi.

Xayrlashish lozim bo'lgan fursat kelgandi. Odatda, yozilmagan odobiy qoidaga ko'ra, o'q ostida turgan boshliq o'z ixtiyoridagi

odamlar iltimos qilganlaridan keyingina ketadi. Lekin Yeremenko ning xavfga befarqligi shunchalik kuchli ediki, bunday gaplarni xayoliga ham keltirmasdi.

U uchib o'tgan minaning chiyildoq tovushi ortidan beparvolik va ayni vaqtda ziyraklik bilan boshini burdi.

– Xo'p, mayli, Chuykov, endi yo'limdan qolmay.

Chuykov uzoqlashayotgan katerni kuzatib, bir necha on qirg'oqda turdi, uning quyrug'i ortida qolgan ko'pikli iz xayrlashayotgan ayol silkitgan oq ro'molni eslatardi.

Yeremenko sahnda turib, zavolje qirg'og'iga qarar, u Stalingrad dan kelayotgan xira nurda to'lqinsimon chayqalar, kater sakrab borayotgan daryo esa toshtaxtaday qotgan edi.

Yeremenko o'kinganicha, bordan bortga o'tdi. Uning boshida odatdagi o'nlab fikrlar paydo bo'ldi. Endi asosiysi zirhli tanklarni to'plash, Stavka tomonidan unga topshirilgan chap qanot zarbasini tayyorlash edi. Chuykovga bu haqda og'iz ochmadi.

Chuykov esa o'z blindajiga qaytdi, Chuykovni og'ir qadamlashidan tanib, oyoqqa qalqqanlarning hammasi – kirishda turgan avtomatchi, poruchenets<sup>1</sup>, Gurev diviziyasidan chaqirilgan shtab boshlig'i – armiya qo'mondonining ta'bi xiraligini ko'rdilar. Ha, buning vaji bor edi.

Erib ketyapti, erib ketyapti diviziyalar axir hujumlar va qarshi hujumlar qarishuvida nemis ponasi har bir qarichi bebaho Stalingrad yerini kesib olib boryapti, axir. Germaniya ichkarisidan ikkita yangi piyodalar diviziyasi to'liq tartibda yetib keldi, Traktor zavodi rayonida yig'ildi va mudhishona harakatsiz turibdi.

Yo'q, Chuykov front qo'mondoni oldida o'zining barcha hadiklarini, xavotirlarini, qayg'uli o'ylarini aytmadi.

Lekin u ham, bu ham ayni uchrashuvdan nega qoniqmaganligini bilmasdi. Ularning uchrashuvida asosiysi har ikkisi-da ovoz chiqarib ayta olmagan, ishga aloqasi yo'q hollar edi.

## 14

Oktabr tongida mayor Beryozkin uyg'onib, xotini va qizi haqida, katta kalibrli pulemyotlar haqida xayol surdi, Stalingraddagi bir oy-

---

<sup>1</sup> «Poruchenets», «poruchenets v sensax», ya'ni «biror boshliqning ixtiyorida, uning xizmat bo'yicha topshiriqlarini bajaruvchi shaxs». – Tarj.



lik hayoti davomida ko'nikkani – gumburlashlarni tinglab turdi, avtomatchi Glushkovni chaqirib, yuvinishi uchun zarur narsalarni olib keltirtirdi.

– O'zingiz buyurganingizdek, suv sovuq, – dedi Glushkov kulib, Beryozkin ertalabki yuvinishdan yayrashiga payravlik qilib.

– Uralda, u yerda, xotinim va qizim bor, ehtimol, qor yog'gandir, – dedi Beryozkin, – ular menga xat yozishmayapti, tushunasanmi...

– Yozishadi, o'rtoq mayor, – dedi Glushkov.

Beryozkin artinib, gimnastyorkasini kiygunicha, Glushkov unga tongda sodir bo'lgan voqealarni so'zlab berdi.

– Oziq-ovqat blokiga uchma kelib urildi, omborchini o'ldirdi, ikkinchi batalyonda shtab boshlig'i yordamchisi hojatga chiqqanda, zambarak o'qining parchasi yelkasidan yaraladi; sapyorlar batalyonining jangchilari bombadan sulaygan sudakni tutishdi, besh kilo cha tosh bosadi, men borib ko'rdim, kombatga, o'rtoq kapitan Movshovichga sovg'a qilib olib borishdi. O'rtoq komissar yo'lakay kirib o'tdi, uyg'onsa, qo'ng'iroq qilsin, dedi.

– Tushunarli, – dedi Beryozkin. U dastali piyoladagi choyni ichdi, buzoq tuyoqlari ilvirasidan yedi, komissarga va shtab boshlig'iga qo'ng'iroq qildi, batalyonlarga borayotganini aytdi, paxtalikni kiydi va eshikka yo'naldi.

Glushkov sochiqni qoqib, mixga ildi, belidagi granatani paypaslab ko'rdi, cho'ntagini shapatiladi – tamaki xalta joyidami deb, tekshirdi va burchakdagi avtomatni olib, polk komandiri ortidan yo'lga tushdi.

Beryozkin g'ira-shira blindajdan chiqdi va kunduz yorug'idan ko'zlarini qisdi. Bir oy ichida tanish bo'lib qolgan manzara ko'z o'ngida yastanib yotardi: sertuproq to'kilma, qo'ng'ir rang qiyalikdagi soldat yerto'lalarini to'sib turgan: dog'-dug', tuz ko'pchigan yopinchiq-chodirlar, qo'lbola pechlarning tutagan mo'rilari. Yuqorida tomlari ko'chib ketgan zavod binolari qorayib ko'rinadi.

Chaproqda, Volga yaqinida, «Qizil oktabr» zavodi trubalari balandga bo'y cho'zib turardi, parovoz biqinida – o'ldirilgan boshlovchisining jasadi atrofni o'rab, dovdirab turgan poda singari yuk va gonlari qalashib yotardi. Undan nariroqda ruhsiz shahar xarobalari ning keng to'rlari ko'zga chalinardi va kuz osmoni oynalarning o'q o'ygan teshiklari orqali minglab zangori dog'larni yoritib ko'rsatardi.

Zavod sexlari o'rtasida tutun ko'tarilardi, alanga lipillard, ochiq havo cho'ziq shitir-shitir, goh quruq, maydalanib sochilayotgan taraq-turuqqa to'la edi. Zavodlar bor quvvati bilan ishlayotgandek tuyilardi.

Beryozkin o'zining uch yuz metrlik yerini – polk mudofaasini diqqat bilan ko'rib chiqdi – u ishchilar poselkasi o'rtasidan o'tardi. Ichki tuyg'u vayronalarni, ko'chalarni chalkashtirib yuborishdan saqlardi, qaysi uyda qizilarmiyachilar bo'tqa pishirayotganini, qay-sinisida nemis avtomatchilari dudlangan cho'chqa yog'i yeb, shnaps ichayotganligini aytib turardi.

Beryozkin boshini engashtirdi va so'kindi – havoda mina shitir-ladi.

Jarlikning u tomonidagi qiyalikda blindajlardan birining kirishini tutun qopladi va o'sha zahoti qarsillab portlash ro'y berdi. Qo'shni diviziyaning aloqa boshlig'i blindajdan boshini chiqarib qaradi – u kitelsiz, ikki yelka osha tortib qo'yilgan tasmada edi. Zo'rg'a qadam bosgan ediki, qaytadan chinqiriq yangradi: aloqa boshlig'i shoshilib chekindi va eshikni yopdi – mina o'n metrlar narida yorildi. Jarlik burchagi, Volga qiyaligida joylashgan blindaj eshigi oldida turgan Batyuk bu voqealarni kuzatardi.

Aloqa boshlig'i ilgoriga qarab yurmoqchi bo'lganda, Batyuk, xirillab, «O't och!» – deb o'shqirdi va nemis buyurtmani bajarganday minani qarsillatib qo'yib yubordi.

Beryozkinga ko'zi tushib, Batyuk xitob qildi:

– Omonmisiz, qo'shni?!

Cho'l so'qmog'idagi bu joydan o'tish, aslida, o'zini o'zi falokatga ro'baro' qilish, o'lim bilan teng ish edi – nemislar uxlab olib, fryushtik yegach, bu so'qmoqni alohida qiziqish bilan kuzatardi, o'q-dorini ayamay, huda-behudaga otaverardi. Beryozkin burilishlardan birida, pana uyumida turib, kenglikni ko'zlari bilan ayyorona chamlab, dedi:

– Qani, Glushkov, birinchi bo'lib yugur.

– Sizni qarang, shu mumkinmi, ularning mergani bor, – dedi Glushkov.

Xavfli yerdan birinchi bo'lib yugurib o'tish boshliqlarning imtiyozi deb hisoblanardi, nemislar, odatda, birinchi bo'lib yugurib borayotganga o'q uzib ulgurmasdi.

Beryozkin nemis uylariga bir qarab oldi, Glushkovga ko'z qisib qo'ydi-yu chopdi.

U nemis uylaridan ko'rinmaydigan ko'tarmagacha chopib borganida, yelkasi orqasida nimadir burro-burro chiyilladi, qarsilladi – nemis portlovchi o'q otgan edi.

Beryozkin ko'tarma ustida turganicha, cheka boshladi. Glushkov uzun, tez qadamlar bilan yugurdi. Qatorasiga uzilgan o'q uning oyog'i ostini tit-pit qildi – yerdan bir gala chumchuq uchib chiqqan-dek tuyildi. Glushkov chetga irg'idi, qoqindi, yiqildi, qaytadan irg'ib turdi va Beryozkinning oldiga yugurib yetdi.

– O'ldirishiga bir baxya qoldi, – dedi u va nafasini rostlab, tushuntirdi: – Men uning nima qilishini chamaladim, u sizdan quruq qoldi, alam qilganidan chekadi, desam, u kasofat, aftidan, chekuvchi emas ekan.

Glushkov egnidagi paxtalikning titilgan etagini paypasladi va nemisni ayamay so'kdi.

Ular batalyonning komanda punktiga yetganlarida, Beryozkin so'radi:

– O'q yalab o'tmadimi, o'rtoq Glushkov?

– U mening poshnamni g'ajib tashladi, yalangoyoq qilib qo'ydi ablah, – dedi Glushkov.

Batalyonkomanda punkti zax havosiga tuzlangan karam va olma isi singib qolgan zavod «Gastronom» do'koni podvalida edi.

Stol ustida zambarak o'qlari gilzalaridan yasalgan ikkita ingichka chiroq yonib turardi. Eshik tepasiga: «Sotuvchi va xaridor, o'zaro xushmuomala bo'ling» degan peshtaxta qoqib qo'yilgan edi.

Podvalda ikki batalyon – o'qchilar va sapyorlar shtablari joylashtirilgan edi. Ikki kombat, Podchufarov va Movshovich stol yoniga o'tirib, nonushta qilardilar. Eshikni ochar ekan, Beryozkin Podchufarovning jo'shqin ovozini eshitdi:

– Men suv qo'shilgan spiridonni xushlamayman, menga qolsa, uning boridan yo'g'i yaxshi.

Ikki kombat o'rmidan turdi, qad rostladi. Shtab boshlig'i qo'l granatalari uyumi ostiga choraktalik aroqni berkitdi, oshpaz esa o'z gavdasi bilan sudakni to'sdi – bir daqiqa oldin Movshovich u bilan shu baliq haqida so'zlashgan edi. Cho'qqayib o'tirib, o'z boshlig'i-ning ko'rsatmasiga binoan patefon lappagiga «Xitoy serenadasi»ni

qo'yishga chog'lanib turgan Podchufarov chopari shunchalik tez irg'ib turdiki, plastinkani olishga ulgurdi, xolos, patefon motorchasi esa behuda g'o'ng'illashda davom etardi: chopar jangovar soldatga xos to'g'ri va ochiq nazar bilan qarar ekan, ko'z qiri bilan Podchufarovning qahrli nigohini tutdi, o'sha onda la'nati patefon, ayniqsa, tirishqoqlik bilan jo'r bo'lib g'irillar, qitirlardi.

Har ikki kombat va bu nonushtaga aloqador boshqalar boshliqlarning bir bid'atini yaxshi bilardilar: kattalar hisoblardiki, batalyon kishilari yo jang olib borishlari, yo durbin orqali dushmanni kuzatishlari, yo xaritaga engashib, o'ylashlari lozim. Lekin odamlar yigirma to'rt soat davomida o'q otishlari, quyida va yuqorida turganlar bilan telefonda so'zlashishlari mumkin emas – ovqat yeyishlari ham kerak.

Beryozkin jig'illayotgan patefonga ko'z qirini tashladi va kulimsiradi.

– Shunday, – dedi u va qo'shib qo'ydi: – O'tiringlar, o'rtoqlar, davom ettiring.

Bu so'zlar to'g'ri ma'no emas, balki teskari ma'noga ham ega edi – Podchufarov yuzida ma'yuslik va pushaymonlik ifodalari paydo bo'ldi, alohida sapyorlar batalyoniga komandirlik qiluvchi va shuning uchun polk komandiriga bevosita bo'ysunmovchi Movshovich yuzida esa faqat ma'yuslik aks etdi, pushaymonlik ko'rinmadi. Uning qo'l ostidagilarning yuz ifodalarida ham shunday farq sezildi.

Beryozkin juda noxush ohangda davom etdi:

– Sizning besh kilogramm tosh bosadigan sudagingiz qani, o'rtoq Movshovich? Undan diviziyada hamma xabardor.

Movshovich o'sha, g'amginlik bilan dedi:

– Oshpaz, marhamat, baliqni ko'rsating.

Oshpaz – bu yerda o'zining to'g'ridan to'g'ri majburiyatlarini ado etayotgan yagona xodim – ochiqko'ngillik bilan dedi:

– O'rtoq kapitan unga yahudiycha qilib qiyma to'ldirishni buyurdi: qalampir, dafna yaprog'i bor, oq non esa yo'q, yerqalampir ham topilmaydi...

– Ha, tushunarli, – dedi Beryozkin, – men Bobruyskda, shunday qiyma tiqilgan baliqni yeganman, – Fira Aronovna degan pishirgan edi, – rostini aytsam, uncha yoqmagan.

Shunda, podvaldagi odamlar birdan angladilarki, achchig'lanish polk komandirining xayoliga ham kelmagan.

Podchufarov tunda nemislarni daf etgach, tongga yaqin tuproq ostida qolganini, chopar, «Xitoy serenadasi»ni sozlovchi uni qazib olar ekan: «Shubhalanmang, o'rtiq kapitan, qutqaraman...» – deb baqirganini xuddi biladiganga o'xshardi Beryozkin.

Movshovich sapyorlar bilan birgalikda, tanklar uchun xatarli ko'cha bo'ylab emaklaganicha, tank minalariga qarshi shohmot naqshini – ustiga tuproq va ezg'ilangan g'isht parchalari to'kib – yashirganini xuddi biladiganga o'xshardi u...

Ularning yoshligi yana bir tongdan quvonardi, yana bir marta tunuka krujkani ko'tarib: «Eh, sog' bo'l va shu kabilar»ni aytish, karam chaynash, papiros tutatish mumkin edi...

Aslini olganda, hech narsa bo'lmadi – podval egalari bir daqiqa katta komandir oldida tik turdilar, keyin uni o'zlari bilan ovqatlanishga taklif etdilar, polk komandiri karam yeyishiga mamnun boqdilar.

Beryozkin Stalingrad jangini urushning o'tgan yili bilan tez-tez qiyoslardi – u o'shanda ko'p narsani ko'rgan. U o'z ruhida tinchlik va osoyishtalik shunchalik chuqur ildiz surgani sababligina bunchalik tanglikka chidaganini uqqan. Va shuning uchun ham uncha-muncha odam telbalanib, qo'rquvga tushib, holdan toyib qoladigan kunlar va soatlarda qizilarmiyachilar sho'rva ichib, poyabzalini butlab, xotinlar haqida, yomon va yaxshi boshliqlar haqida suhbatlashib, qoshiqlar yasaganlar. U osoyishta ruhiy teranlikka ega bo'lmaganlar jangda qanchalik yovqurlik ko'rsatib, jon achchig'ida olg'a intilsalar-da, uzoqqa borolmaganlarini ko'rdi. Beryozkin jur'atsizlik, qo'rqqoqlik shamollash qabilidagi – tuzalishining iloji bor, muvaqqat holat deb o'ylardi.

Jasurlik va qo'rqqoqlik nima ekanligini u aniq bilmasdi. Urushning boshlarida, bir kuni boshliqlar Beryozkinni qo'rqqoq deb xo'p koyidilar – u o'z boshimchalik bilan polkni nemis o'qlari ostidan chetga olib chiqqandi. Stalingradga kelishidan sal avval Beryozkin batalyon komandiriga nemis bezori-minomyotchilari bekordan bekor o'qqa tutmasin, deb odamlarni balandlik yonbag'rining orqa tomoniga olib o'tish haqida buyruq bergan edi. Diviziya komandiri ta'na bilan dedi:

– Bu qanaqasi, o'rtiq Beryozkin, menga siz haqingizda jasur, bosiq odam deyishgandi.

Beryozkin sukut saqladi, tin oldi, balki, u haqda gapirganlar yanglishgandir.

Moviy ko'zlari pիրpiragan sap-sariq Podchufarov qoniga singib ketgan odatidan – tez, ilkisdan kulib yuborish va birdaniga jahllanishdan o'zini zo'rg'a tiyib turardi. Yuzi uzun, sekilli, qora sochlariga oq oralagan, ozg'in Movshovich Beryozkinning savollariga bo'g'iq tovushda javob berardi. U yon daftarchasini chiqarib, tank uchun xavfli hududlarni minalashtirishning o'zi taklif qilgan yangi nusxasini chizib ko'rsatdi.

– Shu chizmani menga esdalikka yirtib olib bering, – dedi Beryozkin, stolga engashib, pichirlab, dedi: – Meni diviziya komandiri chaqirdi. Armiya razvedkasi ma'lumotlariga ko'ra, nemislar shahar rayonidagi kuchlarini olib ketib, ularni bizga qarshi to'playdi. Tanklar ko'p. Tushunarlimi?

Beryozkin shu oradagi – podval devorlarini titratgan portlash ovozig a quloq solib, tabassum qildi.

– Sizlarda bu yer tinch. Mening jarligimda bu vaqt ichida armiya shtabidan kamida uch kishi kelib ketgan bo'lardi, albatta, turli komissiyalar tinmaydi.

Ana shu paytda yangi zarba binoni silkitdi, shiftdan suvoq ko'chib tushdi.

– Darhaqiqat, to'g'ri: tinch, hech kim ataylab bezovta qilmaydi, – dedi Podchufarov.

– Bezovta qilmaydi – hamma gap shunda, – dedi Beryozkin.

U ishonib, shivirlab, boshliq ekanini haqiqatan unutib gapirdi, chunki harbiy itoatga ko'nikkan va boshliqlik rasmiyatiga esa odatlanmagan edi:

– Bilasizmi, boshliqlar qanaqa? Nima uchun hujumga o'tmaysan? Nima uchun tepalikni egallamading? Nima uchun talafotlar bo'ldi? Nima uchun talafotlar bo'lmadi? Nima uchun axborot yetkazmaysan? Nima uchun uxlaysan? Nima uchun...

Beryozkin o'midan turdi.

– Yuring, o'rtoq Podchufarov, sizning mudofaangizni ko'rmoqchiman.

Ishchilar posyolkasining bu ko'chasidagi ochilib qolgan har xil gulqog'ozlar yopishtirilgan ichki devorlarda, tanklar shudgor qilib tashlagan bog'chalar va polizlarda, yolg'iz, unda-munda omon qolgan, Xudo bilsin, nima uchun gullayotgan kartoshkagullarda yurakni teshib o'tuvchi g'am-g'ussa bor edi.

Kutilmaganda Beryozkin Podchufarovga shunday dedi:

– Mana, o‘rtoq Podchufarov, xotinimdan xat kelmayapti. Men uni yo‘lda uchratib qoldim, endi esa yana xat yo‘q, qizim bilan birga Uralga ketishgan – bilganim faqat shu.

– Xat yozishadi, o‘rtoq mayor, – dedi Podchufarov.

Derazalariga g‘isht qalangan ikki qavatli uyning yarim podvalida tunni – xavfli joydan ko‘chirishni kutayotgan yaradorlar yotardi.

– Bular mudofaa sirti, – dedi Podchufarov, – oldingi qismga hali bor.

– Oldingi qismga ham boramiz, – dedi Beryozkin.

Ular dahliz orqali shifti o‘pirilib tushgan xonaga o‘tdilar va zavod idorasidan sex eshigigacha kelgan kishilar his qiladigan tuyg‘u ular ko‘nglini ham egalladi. Havoni multiqdori gazining xatarli va achchiq isi qoplagan, oyoq ostida pesi chiqqan, otilgan patronlar g‘ijillardi. Och sariq rangli bolalar aravachasiga tankka qarshi minalar solingan edi.

– Mana bu sho‘rlikni tunda nemis mendan tortib oldi, – dedi Podchufarov, deraza yoniga borib. – Juda achinarli; ajoyib uy, oynalari janubi-g‘arbga qaragan. Mening butun chap qismimni olov ostida ushlab turibdi.

Tor o‘yiqalar qoldirib g‘isht qalangan oynalarda dastgohli pulemyot turardi, boshiga tang‘ilgan bintni chang va dud bosgan, pilotkasiz pulemyotchi yangi tasmani hozirlardi, birinchi raqamli pulemyotchi esa yarim daqiqadan so‘ng qaytadan o‘q otishga tayyorlanib, oppoq tishlarini ko‘rsatib, bir bo‘lak kolbasani chaynardi.

Rota komandiri, leytenant keldi. Uning gimnastyorkasi cho‘n-takchasiga oq qo‘qongul qistirilgan edi.

– Burgut, – dedi Beryozkin kulib.

– Sizni ko‘rganim yaxshi bo‘ldi, o‘rtoq kapitan, – dedi leytenant, – tunda men sizga fikrimni bildirganimdek, aytganim keldi, ular tag‘in olti kasr bir raqamli uyga bordi. Rosa to‘qqizda boshladi, – va u soa-tiga qaradi.

– Bu yerda polk komandiri turibdi, unga axborot bering.

– Aybdorman, tanimabman, – deb harbiycha salomlashdi leytenant.

Olti kun oldin dushman polk rayonida bir necha uyni qirqib oldi va ularni nemischa puxtalik bilan kavshashga kirishdi. Sovet mudo-

faasi xarobalar ostida so'ndi, himoya qilayotgan qizilarmiyachilar hayoti bilan birgalikda so'ndi. Lekin zavodning podvali chuqur uylaridan birida sovet mudofaasi qarshilik ko'rsatishda davom etdi. Garchi ko'p joylarini zambarak o'qlari teshgan, minalar g'ajigan bo'lsa-da, mustahkam devorlar zarbalarga chidadi. Nemislar bu uyni havodan turib yer bilan yakson qilmoqqa urindi, torpedochi-samolyotlar unga uch marta vayronkor quroli bilan hujum qildi. Uyning burchak qismi butkul o'pirilib tushdi. Lekin xarobalar ostidagi podval butun saqlanib qoldi, mudofaachilar uni tozalab, pulemyotlarni, yengil to'plarni, minomyotlarni o'rnatishdi, nemislarni o'tkazishmadi. Bu uy baxtga yor bo'lib joylashgan edi, nemislar unga kirishning yashirin yo'llarini topa olmadi.

Beryozkinga axborot bergan rota komandiri shunday dedi:

– Tunda ular tomonga o'tishga harakt qilib ko'rdik – ishimiz o'ngmadi. Birimiz o'lib, ikkimiz jarohat bilan qaytdik.

– Yot! – dahshatli ovoz bilan qichqirdi qizilarmiyachi-kuzatuvchi va bir necha odam o'zini yerga otib, chalqanchasiga yoki yuz tuban yotdi, rota komandiri esa gapini tugatmay, sho'ng'imoqchiday qo'llarini tepaga silkitib, o'zini polga tappa tashladi.

Quloqni qomatga keltiruvchi uvlash kuchaygandan kuchaydi va birdan, qo'lansa va dimiqqan gumbur-gumburlari bilan yerni va ko'ngilni larzaga soluvchi portlashlarga aylandi. Yo'g'on qora to'nka polga qasirlab tushdi, sakrab ketdi, Beryozkinning oyog'i tagiga dumalab keldi va u buni portlash kuchi itqitib yuborgan g'o'la oyog'imga urilishiga sal qoldi, deb taxminladi.

Birdan ko'rsaki, u portlamay qolgan zambarak o'qi ekan. Bu soniyaning shiddatiga toqat yetmasdi.


Zambarak o'qi portlamadi ammo uning osmon va zaminni yutib yuborgan, o'tmishni to'sib qo'ygan, kelajakni kesib tashlagan qora ko'lankasi yitdi.

Rota komandiri oyoqqa turdi.

– Ana bu – taka, – dedi kimningdir noxush ovozi, boshqasi esa kuldi.

– Endi tamom deb o'ylagandim, evini topdi.

Beryozkin birdan peshonasiga tepchigan terni artди, poldan oq qo'qongulni ko'tarib oldi, undagi g'isht changlarini silkiб tushirdi va uni leytenant gimnastyorkasi cho'ntagiga qistirib, dedi:





– Ehtimol, sovg'a...– Podchufarovga tushuntirdi: – Nima uchun sizda baribir tinch? Boshliqlar kelmaydi. Boshliqlar sendan hamisha nimanidir istaydi: sening oshpazing yaxshi, sening oshpazingni olaman. Sening sartaroshing mohir yoki, tikuvchi – uni menga ber. G'irromlar! Sen o'zingga yaxshi blindaj qazib olibsan – undan chiq. Senda yaxshi tuzlangan karam bor – uni menga yubor. – U kutilmagan, leytenantdan so'radi: – Nima uchun ikki kishi orqaga qaytdi, qamaldagilarning yoniga bormadi.

– Ular yaralandi, o'rtoq polk komandiri.

– Tushunarli.

– Siz baxtlisiz, – dedi Podchufarov, ular uydan chiqib, poliz maydonlaridan o'tayotganlarida bu yerda, sarg'aygan kartoshka poyalari o'rtasida ikkinchi rotaning xandaqlari va yerto'lalari qazilgan edi.

– Kim bilsin, men baxtlimanmi, – dedi Beryozkin va xandaq tubiga sakradi. – Xuddi dala sharoitidagidek, – buni u «xuddi kurort sharoitidagidek» degan gap ohangida aytdi.

– Zamin urushga boshqa hammasidan yaxshi moslashgan, – deb tasdiqladi Podchufarov. – Ko'nikkan, – polk komandiri boshlagan gapga qaytib, qo'shimcha qildi: – Oshpaz nima bo'пти, boshliqlar xotinni tortib olgan hollar ham yo'q emas.

Butun xandaq yo'qlama hayajoniga to'lib, guvullar, vintovka otishmalaridan, avtomatlar va pulemyotlarning shiddatli o'q uzishlaridan qarsillar edi.

– Rota komandiri halok bo'ldi, siyosiy rahbar Soshkin komandirlik qilyapti, – dedi Podchufarov. – Mana, uning blindaji.

– Tushunarli, tushunarli, – dedi Beryozkin, blindajning yarim ochiq eshigiga nazar solib.

Pulemyotlar oldiga borganlarida, qizil yuzli, qora qoshli siyosiy rahbar Soshkin ularga yetib oldi va ayrim so'zlarni haddan tashqari qichqirib aytib, rota nemislarning «olti kasr bir» raqamli uyga hujum qilish uchun kuch to'plashiga yo'l qo'ymaslik maqsadida o't ochayotganligi haqida axborot berdi.

Beryozkin uning durbinini olib, o'q uzilganda chaqnagan qisqa o'tlarni, minomyot og'zidagi tili o'tkir alangalarni sinchiklab ko'rdi.

– Ana, uchinchi qavatdagi ikkinchi oyna, menimcha, u yerda mergan o'mashib olgan.

Shunday deyishi bilan u ko'rsatgan oynada olov yarq etdi, o'q chiyilladi, xandaq devoriga Beryozkin va Soshkin boshlari o'rtasiga kelib urildi.

– Siz baxtlisiz, – dedi Podchufarov.

– Kim bilsin, baxtlimanmi men, – deb javob qildi Beryozkin.

Ular xandaq bo'ylab shu rotaning kashfiyotini ko'rgani bordilar: tankka qarshi qurol arava g'ildiragiga omoch tishi bilan o'rnatilgan edi.

– Rotamizning o'z zenit to'pi, – dedi qattiq soqoliga chang ilashgan, ko'zlari bezovta serjant.

– Tank yuz metr narida, ko'k tomli uyda! – deb qichqirdi o'qitayotgan murabbiy ohangida Beryozkin.

Serjant g'ildirakni tez burdi, tankka qarshi qurolning uzun stvoli yerga engashdi.

– Dirkinning bir jangchisi bor, – dedi Beryozkin, – tankka qarshi qurolga mergan nishonga olgichini moslashtirgan va bir kunda uchta pulemyotni yo'q qildi.

Serjant yelka qisdi.

– Dirkinga qulay sexlarda o'tiradi.

Ular xandaq bo'ylab ilgariga yurishdi va Beryozkin aylanishga chiqishlarining avvalida boshlangan gapni davom ettirib, dedi:

– Men ularga juda yaxshi jo'natma yig'dim. Buni ko'ring, tushunayapsizmi, xotinim xat yozmayapti. Javob yo'q va yo'q. Balki og'rib qolishdimi? Xavfli joydan ko'chirish vaqtida biron ko'rgilikka yo'liqmadimi?

Podchufarov bexosdan esladi: qadim o'tgan zamonlarda Moskva-ga ishlash uchun borgan duradgorlar safari qarib, yana qishloqlariga yo'l olganlarida, xotinlariga, chollarga, bolalarga sovg'alar olishardi. Mana, ular uchun doimo qishloq hayot tarzi, uy-ro'zg'orning issiq tafti gavjum Moskvaning g'ovur-g'uvuri va tungi chiroqlariga nisbatan qadrliroq edi.

Yarim soatdan keyin ular batalyonning komanda punktiga qaytib keldilar, ammo Beryozkin podvalga kirib o'tirmay, Podchufarov bilan hovlida xayrlashdi.

– «Olti kasr bir» raqamli uyni hamma imkoniyatlardan foydalanigan holda qo'llab-quvvatlang. Ularning yoniga o'tamiz, deb urinmang, biz bu ishni tunda polk kuchi bilan qilamiz. – Shundan keyin u

dedi: – Endi bundoq... Menga sizning yaradorlarga bo‘lgan munosabatingiz yoqmayapti. Sizda, KPda divanlar bor, yaradorlar esa polda yotibdi. Endi bundoq. Yangi yopilgan non olib keltiraman demang, odamlar qoq non yesin. Bu – ikki. Endi bundoq. Sizning siyosiy rahbaringiz Soshkin g‘irt mast edi. Bu – uch. Endi bundoq...

Podchufarov: polk komandiri mudofaani ko‘zdan kechirish bilan birgalikda, shularning hammasini payqaganligiga ajablanib tinglar edi... Vzvod komandiri yordamchisi nemislar shimida... Birinchi rota komandiri qo‘lida ikki juft soat.

Beryozkin nasihatimiz dedi:

– Nemis hujum qiladi. Ravshanmi?

U zavodga qarab yurdi, poshnasini butlab, paxtalikdagi yirtiq-larni tikib ulgurgan Glushkov dedi:

– Uyga jo‘nadikmi?

Beryozkin unga javob qilmay, Podchufarovga dedi:

– Polk komissariga qo‘ng‘iroq qiling, unga aytingki, men zavodga, uchinchi sexga, Dirkinning yoniga ketdim, – ko‘z qisib qo‘ygach, qo‘shimcha qildi: – menga karam yuboring, xo‘pmi. Har holda, men ham boshliqlardanman.

## 15

Tolyadan xat yo‘q edi... Tongda Lyudmila Nikolayevna onasini va erini ishga, Nadyani maktabga kuzatdi. Dastlab mashhur Qozon sovungarlik zavodi laboratoriyasida kimyogar bo‘lib ishlaydigan onasi yo‘lga chiqardi. Kuyovining xonasi yonidan o‘tar ekan, odatda, Aleksandra Vladimirovna zavod ishchilaridan eshitgan hazilini takrorlardi: «Xo‘jayinlarga ish – oltidan, xizmatchilarga esa to‘qqizdan».

Undan keyin Nadya maktabiga jo‘nardi, jo‘nardi emas, yelib yugurardi, chunki uni vaqtida joyidan turg‘azish imkoniyatdan tashqari ish edi, u so‘nggi daqiqada irg‘ib turardi, paypog‘i, koftasi, kitoblari, daftarlariga yopishardi, nonushta qila turib, choyga tiqilardi, zinalardan chopib tusharkan, sharfini o‘rar va paltosini zo‘rg‘a cho‘zib ki-yardi.

Viktor Pavlovich nonushta qilishga o‘tirganida Nadya ketganidan so‘ng choynakdagi choy sovib qolgan edi, – uni yangilashga to‘g‘ri keldi.

Nadya: «Shu shayton olgur ovloqdan tezroq qutulsam edi», – deganida Aleksandra Vladimirovnaning jahli qo'zirdi. Nadya qachonlardir Qozonda Derjavin yashaganini, unda Aksakov, Tolstoy, Lenin, Zinin, Lobachevskiy yashaganlarini, bir vaqtlar Maksim Gorkiy Qozon bulkapazlari bilan ishlaganligini bilmas edi.

– Qanday qariyalarcha befarqlik, – derdi Aleksandra Vladimirovna va bir kampingning o'smir-qizga qaratilgan bu ta'nasini eshitish g'alati edi.

Lyudmila onasining odamlar va yangi ish bilan qiziq borayotganini ko'rib turar edi. Ayni vaqtda onasining ruhiy kuchiga qoyil qolish bilan birgalikda, unda butunlay boshqa tuyg'u ham yashar edi – g'am-alam ichida ekan, qanday qilib yog'larning gidrogenizatsiyasi, Qozon ko'chalari va muzeylari bilan qiziqishi mumkin.

Bir kuni Shtrum xotiniga Aleksandra Vladimirovnaning ruhan yoshligi haqida so'zlaganida, Lyudmila, o'zini tuta olmay, javob berdi:

– Bu onamdagi yoshlik emas – qarilik xudbinligi.

– Buvim xudbin emas, u – narodnik, – dedi Nadya va qo'shib qo'ydi: – Narodniklar yaxshi odamlar, lekin unchalik aqlli emaslar.

Nadya o'z fikr-mulohazalarini qat'iyon bildirar va ehtimol, har doim vaqti yetishmaganidan qisqa shaklda ifodalardi. «R»ga ko'p urg'u berib, «mura<sup>1</sup>», – der edi. U Sovinformbyuro ma'lumotlarini kuzatib borar, harbiy voqealardan xabardor, siyosatga doir suhbatlarga qo'shilar edi. Yozda kolxozga borib kelganidan keyin onasiga kolxoz mehnati unumdorligi yomonligining sabablarini tushuntirib berdi.

Maktabda olgan baholarini onasiga ko'rsatmasdi – faqat bir kuni parishonxotirlik bilan shunday deb qo'ydi:

– Bilasanmi, menga xulqim uchun to'rtni yopishtirishdi. Tasavvur qilasanmi, «matematichka» meni sinfdan haydadi. Men chiqa turib, «gud bay!» – deb o'shqirdim: hamma gurr etib kuldi.

Urushgacha moddiy yoki pishir-kuydir bilan bog'liq ishlarda tashvish chekmagan – o'ziga to'q oilalarga mansub ko'p bolalar kabi, Nadya xavfli joydan ko'chirish vaqtida payok, taqsimotchilarning fa-

---

<sup>1</sup> *Mura* – «чепуха», «yerunda», ya'ni «safsata», «bema'ni», «arzimagan ish» ma'nolarida. – Tarj.

zilatlari va kamchiliklari haqida tez-tez gapirardi, o'simlik moyining sariyog'dan afzalligini, yormaning kuchli va zaif tomonlarini, oq qandning shakarga nisbatan foydali jihatlarni bilardi.

– Bilasanmi, nima? – dedi u onasiga. – O'zim hal qildim: menga bugundan asal qo'shilgan choy o'rniga quyultirilgan sut qo'shilgan choy ber. O'ylaymanki, menga foydali, senga esa farqi yo'q.

Ba'zan Nadya o'shshayib olar, nafratli iljayib, kattalarga qo'pol gapirardi. Bir kuni u onasining oldida otasiga shunday dedi:

– Sen ahmoqsan. – Buni u shunday adovat bilan aytdiki, Shtrum dovdirab qoldi.

Ba'zan onasi Nadya kitob o'qib, yig'layotganini ko'rardi. U o'zini qoloq, omadsiz; nursiz, og'ir hayot kechirishga mahkum bir maxluq deb hisoblardi.

– Hech kim men bilan do'stlashishni istamaydi, esi pastman, birovga qizig'im yo'q, – dedi u bir kuni stol atrofida o'tirganlarida. – Meni hech kim olmaydi, dorixonachilikka o'qiyman-da, qishloqqa ketaman.

– Bir tupkadagi qishloqlarda dorixona yo'q, – dedi Aleksandra Vladimirovna.

– Erga tegish borasidagi bashorating o'ta tushkun. Borgan sari husningga husn qo'shilyapti.

– Tuplagandek gap, – dedi Nadya va otasiga yomon qaradi.

Tunda onasi qarasa, Nadya, ko'rpa ostidan chiqarib olgan ochiq, nozik qo'lida kitob ushlab, she'r o'qirdi.

Bir kuni, akademik taqsimotga binoan, ikki kilogramm sariyog' va katta qog'ozxaltada guruch solingan sumkani olib keldi. Nadya:

– Odamlar, jumladan, men ham, ablahlar va yaramaslar bularning hammasidan foydalanadi. Dadam iste'dodini sariyog'ga razilona almashtiradi. Go'yoki kasallar, yaxshi o'qimagan kishilar va bemador bolalar fizikani bilmaganlari yoki rejani uch yuz foiz qilib bajara olmasliklari sababli ochin-to'qin yashashlari kerak... Sariyog'ni imtiyozlilar paqqos tushurishlari mumkin.

Kechki ovqat mahalida esa g'ashni keltiradigan bir tarzda shunday dedi:

– Ona, menga ikki hissa asal va yog' ber-chi, men, axir, ertalab uxlab qoldim.

Nadya ko'p jihatdan otasiga o'xshardi. Lyudmila Nikolayevna Viktor Pavlovich qizining gap-so'zlari, xatti-harakatlaridagi o'zini eslatadigan jihatlardan, ayniqsa, ijirg'anishini fahmlab olgandi.

Bir kuni Nadya, otasining ohangini yaqqol takrorlab, Postoyev haqida dedi:

– Qo'ng'iz<sup>1</sup>, uquvsiz, olg'ir!

Shtrumning qahri keldi:

– Qanday qilib, sen – chalasavod maktab o'quvchisi – akademik haqida shunday deyishga botinasan?

Ammo Lyudmila xayoliga keldiki, Viktor talabaligida ko'plab mashhur akademiklar to'g'risida shunday derdi: «Bo'lmag'ur, no'noq, trepang<sup>2</sup>, amalparast!»

Lyudmila Nikolayevna Nadya hayoti o'ng'ay kechmayotganligini, uning fe'li odamovi va og'ir, juda chigal ekanligini tushunardi.


Nadya ketganidan so'ng Viktor Pavlovich choy ichib o'tirardi. U ko'zlarini g'ilay qilib, kitobga qarardi, yaxshi chaynamay yutardi, yuzida bema'nilarcha hayratlanish ifodasi aks etardi, stakanni barmoqlari bilan paypaslab ko'rardi, kitobdan ko'zini olmay, derdi: «Mumkin bo'lsa, menga issiqroq quy». U buning barcha qiliqlarini bilardi: goh boshini qashlab qolardi, goh labini cho'chchaytirardi, goh aftini bujmaytirib, tishini chuqulardi, shunda Lyudmila Nikolayevna derdi:

– Yo xudo, Viktor, tishingni qachon davolatasan?

Lekin Lyudmila Nikolayevna bilardiki, u boshi yoki burni qichiganida emas – aslo bunday emas, o'z ishi haqida o'ylaganida, qashinar, labini cho'chchaytirardi. Bilardiki, agar: «Vitya, sen men senga nima deyayotganimni ham eshitganing yo'q», – desa, u kitobga ko'zlarini g'ilay qilib qarashda davom etar ekan, derdi: «Men hammasini eshityapman, takrorlashim mumkin: «Vitya, tishingni qachon davolatasan?» – yana yuzida hayronlik ko'rinadi, yutinadi, shizofrenlarcha hurpayadi va bularning hammasi ayon qiladiki, u o'ziga tanish fizikning kitobini ko'rib chiqar ekan, ba'zi holatlarda u bilan kelishadi, qaysidir o'rinlarda esa u bilan kelishmaydi. So'ng Viktor Pavlovich qimir etmay uzoq o'tiradi, so'ng boshini qandaydir itoat-

<sup>1</sup> Bu so'z («juk») asliyat kesimida ko'chma ma'nolarni ham («mug'ombir», «ayyor») ifodalaydi. – Tarj.

<sup>2</sup> *Trepang* – ignatanli, umurtqasiz dengiz hayvoni, ovqatga qo'shiladi. – Tarj.



kor, qariyalarcha mahzun qimirlata boshlaydi, ehtimol, miya o'smasi bilan og'rib, azob chekayotgan kishilar yuzi va ko'zida shunday ifoda bo'ladi. Va yana Lyudmila Nikolayevna uqib biladi: Shtum onasi haqida o'ylayapti.

U choy ichib o'tirib, o'z ishi haqida o'ylaganida, g'amga botib zorlanganida, Lyudmila Nikolayevna uning o'zi o'pgan ko'zlariga, o'zi erkalab xillagan jingalak sochlariga, uning o'zini o'pgan lablariga, kipriklariga, qoshlariga, tirmoqlarini: «Oh, sen mening isqirtim», – deb, o'zi olib qo'ygan barmoqlari kichkina, kuchsiz qo'llariga boqardi.

Lyudmila Nikolayevna uning to'g'risida: uyqu oldidan, o'rnida yotganicha, bolalar kitoblarini o'qishini, tish tozalashga borayotganidagi qiyofasini, bayramona libosda, neytron nurlanishiga doir ma'ruzasini boshlar ekan, jaranglab, sal titrab yangragan ovozi – hammasini bilardi. U loviya solingan ukraincha borshechni suyishini bilardi, uyqusida u yonboshidan bu yonboshiga ag'darilib, ingrashini bilardi. Botinkasi chap poyining poshnasi tez yedirilishini, ko'ylagining yengi tez kirlanishini bilardi; u ikkita yostiq qo'yib uxlashni yoqtirishini bilardi; shahar maydonlarini ichki bir qo'rquv bilan kesib o'tishini bilardi, terisining hidini, paypoqlari yirtig'ining shaklini bilardi. Qorni ochib, tushlikni kutayotganida, qanday xirgoyi qilishini, oyoqlarining bosh barmoqlari tirmoqlari qaysi tarzda ekanligini bilardi, ikki yoshga kirgan chog'ida onasi uning nomini kichraytib, nima deb ataganini bilardi; yurganda, shaqirlagan tovush chiqarishini bilardi; yuqori tayyorlov sinfida o'qiganida, u bilan urishgan bolalarning ismlarini bilardi. Uning hazil-mazaxchiligini, Tolyaning, Nadyaning, o'rtoqlarining jig'iga tegish odatini bilardi. Shtum, hatto hozir, kayfiyati deyarli hamma vaqt og'ir ekaniga qaramay, o'rnini topib, yaqin tanishi – kam o'qiydigan Marya Ivanovna Sokolova bir kuni gap orasida Balzakni Flober bilan adashtirgani vajhidan, uning asabini o'ynadi.

U Lyudmilaning g'ashini keltirishga usta, shunday qiladiki, buning jahli hech qo'zimay qolmaydi. Endi Lyudmilaning ko'ngli og'rib, o'z dugonasini astoydil himoya qilib, unga jiddiy e'tiroz bildirdi:

– Sen hamisha menga yaqin odamlar ustidan kulasan. Mashenkaning bexato didi bor, unga ko'p o'qishning keragi ham yo'q, u har doim kitobni his qiladi.

– Albatta, albatta, – dedi u. – U aminki, «Maks va Morits»ni Anatol Frans yozgan.

Uning musiqaga muhabbatini, siyosiy qarashlarini bilardi. Bir kuni yig'layotganini ko'rdi, jini tutib, egnidagi ko'ylagini yirtganini va ishtoniga o'ralishib, mushtini do'laytirib, urib yuborishga tayyorlanib, o'zi tomon bir oyoqda sakrab kelganini ko'rdi. Uning qat'iy, mardonavor to'g'riligini, uning ilhomini ko'rdi; she'rlarni ifodali qilib o'qiyotganini ko'rdi; surgu dori ichayotganini ko'rdi.

U sezardiki, garchi o'zaro munosabatlarida hech nima o'zgar-magandek tuyulsa-da, eri undan xafa edi. Lekin o'zgarish ro'y bergan va bir narsada namoyon edi – u o'zi olib borayotgan ish-lar haqida gaplashmay qo'ydi. Tanish olimlarning xatlari haqida, oziq-ovqat va sanoat mollarining me'yoriy miqdorlari haqida u bilan so'zlashar edi. Ba'zan u institutdagi, laboratoriyadagi ishlar haqida, ish rejalarining muhokamasi to'g'risida gapirardi, xodim-lar xususida hikoya qilar edi: Savostyanov ishga tungi ichkilik-bozlikdan keyin keldi va uxlab qoldi, laborant qizlar zarurat os-tida kartoshka pishirdilar, Markov tajribalarning yangi qismlarini tayyorlamoqda.

Lekin o'z ishi haqida, butun yorug' olamda birgina Lyudmilaga izhor qiladigani – ichki sirlari to'g'risida so'z ochishdan to'xtadi.

U nimadandir afsuslanib, Lyudmila Nikolayevnaga ko'nglini ochib, o'z yozuvlarini, yakuniga yetkazilmagan fikr-mulohazalarini eng yaqin do'stlariga o'qib bersa ham ertasi kuni noxush bir tuyg'uni his qilishi – ish unga xiralashib qolganday tuyilishi, uni qaytadan qo'lga olishga qiynalishi haqida gapirgan edi.

Birgina odamga – Lyudmila Nikolayevnaga yurak-bag'rini ezgan shubhalarini, xayoliy va o'ta ishongan chamalarini aytar, hali sayqa-lini topmagan qaydlarini o'qib berar, lekin keyin bundan hech afsus chekmas edi.

Endi u bilan so'zlashmay qo'ydi.

Endi diqqati oshib, Lyudmilani ayblab, taskin topadi. U hami-sha va qat'iyat bilan onasi haqida o'ylar edi. U o'zi ilgari sira fikriga keltirmagan narsa – fikriga keltirishiga fashizm majbur qilgan narsa: o'zining yahudiyliги haqida onasining yahudiyliги haqida o'ylar edi.

U onamga munosabating sovuq, deb, Lyudmilaga xayolan ta'na qilar edi. Bir kuni unga shunday dedi:



– Agarda sen onam bilan chiqishib keta olganingda edi, u biz bilan Moskvada yashar edi.

U esa aqlini yugurtirib, Viktor Pavlovich Tolyaga nisbatan qilgan jami qo‘polliklarni va nohaqliklarni xillab chiqdi – yodida tutganlari bor edi, albatta.

Lyudmilaning ko‘ngli sovidi, chunki u o‘gay o‘g‘ilga shunchalik adolatsizlik qilgan, Tolyada qanchalik yomon narsalarni ko‘rgan, kamchiliklarini shunchalik qiyinchilik bilan kechirgan edi. Nadyaning qo‘polligini ham, dangasaligini ham, pala-partishligini va uy ishlarida onasiga yordamlashmasligini ham otasi kechiradi.

U Viktor Pavlovichning onasi haqida o‘yladi, – uning taqdiri dahshatli. Lekin Viktor Lyudmiladan Anna Semyonovna bilan do‘stlashishini qanday talab qila oladi – Anna Semyonovnaning Tolyaga munosabati yaxshi emas edi, axir. Uning har bir xati, Moskvaga har bir kelishi Lyudmilani betoqat qilar edi. Nadya, Nadya, Nadya... Nadyada Viktorning ko‘zlari... Nadya sanchqini xuddi Viktordek ushlaydi... Nadya beparvo, Nadya zukko, Nadya o‘ychan. Anna Semyonovnaning o‘g‘liga bo‘lgan mehri, muhabbati nevarasiga bo‘lgan mehri, muhabbati bilan qo‘shilib ketdi. Tolya esa sanchqini xuddi Viktordek ushlaymaydi, axir.

Shunisi qiziq ediki, u Tolyaning otasini, o‘zining birinchi erini ilgari dagilarga nisbatan ko‘proq eslardi. Uning qarindoshlarini, opasini izlab topishni istardi – ular Tolyaning ko‘zini ko‘rib quvonardilar, opasi Tolyaning ko‘zlarida, qiyshiq bosh barmog‘ida, katta burnida ukasi Abarchukning ko‘zi, qo‘li, burnini tanirdi.

Shuningdek, u Viktor Pavlovichning Tolyaga munosabatidagi barcha yaxshi jihatlarni yodga olishni qanchalik istamasa, hatto o‘zini emizikli bola bilan tashlab ketgan, Tolyaga Abarchuk familiyasi berilishini taqiqlagan Abarchukdagi barcha yomon jihatlarni shunchalik kechirardi.

Ertalab Lyudmila Nikolayevna uyda yolg‘iz qolardi. U bu soatni kutardi, yaqinlari unga xalal berardi. Jahondagi barcha voqealar, urush, opa-singillarining taqdiri, erining ishi, Nadyaning fe‘li, onasining sog‘ligi, yaradorlarga rahmi kelishi, nemis asirligida o‘lganlarni o‘ylab qayg‘urishi – hammasining sarchashmasi o‘g‘lini deb chekkan g‘am-alamlari, u bilan bog‘liq tashvishlarida edi.

U his qilardiki, onaning, erining, qizning tuyg‘usi tamomila boshqa rudadan eritib olinadi. Unga bularning Tolyaga bo‘lgan mehri

va muhabbati teran emasdek bo'lib tuyilardi. Uning uchun dunyo – Tolya edi, bular uchun Tolya dunyoning bir qismi edi, xolos.

Kunlar o'tardi, haftalar o'tardi, Tolyadan xat yo'q edi.

Har kuni radio Sovinformbyuro ma'lumotlarini o'qib eshittirardi, har kuni gazetalar urush bilan to'la edi. Sovet qo'shinlari chekinardi. Ma'lumotlar va gazetalarda artilleriya haqida yozilardi. Tolya artilleriyada xizmat qilardi. Tolyadan xat yo'q edi.

Nazarida: uning qayg'usini bir kishi – Marya Ivanovna, Sokolovning xotini chinakamiga tushunar edi.

Lyudmila Nikolayevna professorlarning xotinlari bilan do'stlashishni yoqtirmasdi, ularning erlari erishgan ilmiy muvaffaqiyatlar, liboslar, uy xizmatchilari haqidagi gaplari g'ashini keltirardi. Lekin, ehtimol, tortinchoq Marya Ivanovnaning muloyim fe'li o'zining fe'liga zidligi, Marya Ivanovnaning Tolyaga munosabati ko'nglini iydirib yuborgani uning Marya Ivanovnaga juda bog'lanib qolishiga yo'l ochdi.

Eri va onasiga qaraganda, Tolya haqida u bilan emin-erkin so'zlashardi, har gal o'zini osoyishta sezardi, ruhi yengil tortardi. Garchi Marya Ivanovna Shtrumlarlikiga qariyb har kuni kirsada, Lyudmila Nikolayevna nima uchun dugonam kelmayapti deb, ajablanib, Marya Ivanovnaning ozg'in jussasi, dilbar chehrasi ko'rinmayaptimi deb oynadan qarardi.

Tolyadan esa xat yo'q edi.

## 16

Aleksandra Vladimirovna, Lyudmila va Nadya oshxonada o'tirishardi. Vaqti-vaqti bilan Nadya o'quvchilik daftarining g'ijim betlarini pechga qalardi va so'nayotgan qizil nur kuchayardi, pechda omonat alanga gur etib yonardi.

Aleksandra Vladimirovna, qiziga zimdan qarab, dedi:

– Men kecha bir laborant ayolning uyiga kirdim, yo xudo, shunaqa tor, yo'qchilik, ochlik, biz bu yerda shohlardekimiz; qo'shnilar to'plandi, urushgacha kim nimani xush ko'rgani haqida gap ochildi: biri – buzoq go'shti, boshqasi – rassolnik<sup>1</sup>, deb aytdi. Haligi laborant ayolning qizi dedi: «Men hammasidan ham uxlab olishni yaxshi ko'rardim».

---

<sup>1</sup> *Rassolnik* – tuzlangan bodring solingan sho'rva. – Tarj.

Lyudmila Nikolayevna indamadi, Nadya esa gap qo'shdi:

– Buvi, bu yerdagi tanishlaringiz milliondan oshdi.

– Senda esa bitta ham yo'q.

– Mayli, xo'p bo'пти, – dedi Lyudmila Nikolayevna. – Vitya Sokolovnikiga tez-tez kiradigan bo'lib qoldi. U yerda har qanaqa qalang'i-qasang'ilar yig'iladi, men hech tushuna olmaymanki, Vitya va Sokolov bu kishilar bilan nimani soatlab gaplashishi mumkin... Nahotki, g'alvirda suv tashish jonlariga tegmaydi. Marya Ivanovna-ga sira rahmlari kelmaydi, unga osoyishtalik kerak, lekin bularning oldida u o'rninga kirib yotolmaydi, o'tirolmaydi ham, kamiga tinmay burqsitib chekishadi.

– Karimov, tatar, menga yoqadi, – dedi Aleksandra Vladimirovna.

– Bemazalar xilidan.

– Onam – xuddi o'zim, unga hech kim yoqmaydi, – dedi Nadya, – faqat Marya Ivanovna istisno.

– Sizlar g'aroyib odamlarsiz, sizlarning qanaqadir moskvacha muhitingiz bor – uni o'zingiz bilan birga olib kelgansiz. Poyezddagilar, klubdagilar, teatrdagilar – bular bari sizning muhitingiz emas, sizlarniki – siz bilan bir joyda dala hovli qurganlar, buni men Jenyada ham kuzatganman... Sizlar o'z muhitingiz kishilarini saralovchi ar-zimas belgilar bor: «Eh, u notavon, Blokni yaxshi ko'rmaydi, bu esa qoloq, Pikassoni tushunmaydi... Oh, bu unga billur idish hadya qildi. Bu didsizlik...» Mana, Viktor – demokrat, u bunday dekadentlikni umuman nazariga ilmaydi.

– G'ozu yo'q gaplar, – dedi Lyudmila. – Bu yerda dala hovliga balo bormi? Dala hovlili va dala hovlisiz meshchanlar bor, ular bilan uchrashishning hojati yo'q – ta'bingni tirriq qiladi.

Aleksandra Vladimirovna fahmladiki, borgan sari qizi o'ziga qarshi g'ashlanmoqda.

Lyudmila Nikolayevna eriga maslahatlar berar, Nadyaga nasihatlar qilar, nojo'ya ishlari uchun koyir va nojo'ya ishlarini kechirar, uni erkalatar va erkalatishni cheklar, xatti-harakatlariga onasining o'z munosabati borligini ham sezib turardi. Aleksandra Vladimirovna o'zining bu munosabatini tilga chiqarmagan, lekin u amal qilardi. Shunday daqiqalar uchrardiki, Shtrum qaynonasi bilan ko'z urishtirib olar va uning ko'zlarida istehzoli anglash ifodasi jilvalanardi, baayni u Aleksandra Vladimirovna bilan Lyudmila fe'lidagi g'alatiliklarni

avvaldan muhokama etgandek edi. Ular muhokama qilganmi yoki muhokama qilmaganmi – bu hech qanday ahamiyat kasb etmasdi, hamma gap shunda ediki, o'zining birgina mavjudligi bilanoq oila-dagi odatiy munosabatlarni o'zgartirib yuborgan yangi kuch yuzaga chiqqan edi.

Bir kuni Viktor Pavlovich Lyudmilaga: uning o'rnida bo'lsa, onasi o'zini mehmon emas, uy egasi deb hisoblashini istab, boshchilik mavqeyini unga topshirajagini aytdi.

Lyudmila Nikolayevnaga erining so'zi nosamimiy ko'rinib, hatto uning onasiga nisbatan o'zining alohida, samimiy munosabatini uqti-rishga intilayapti va bu bilan Lyudmilaning Anna Semyonovnaga sovuq munosabatini beixtiyor eslatayapti, degan gumonlarni xayoliga keltirdi.

U ba'zan Viktorni bolalardan, ayniqsa, Nadyadan rashk qilardi, buni o'ziga aytib, tan olish esa kulgili va uyatli bo'lur edi. Lekin ho-zir bu rashk emas edi. Boshpanasini yo'qotib, uyidan panoh topgan o'z onasi qonini qaynatib, og'irligi tushayotganini, hatto o'z-o'ziga qanday tan olib aytsin. Ha, bu, qonning qaynashi g'alati edi, axir u muhabbat bilan bir qatorda, agar kerak bo'lsa, Aleksandra Vladimi-rovna o'zining oxirgi ko'ylagini berish, oxirgi burda nonini ravo ko'rish bilan bir qatorda amal qilar edi.

Aleksandra Vladimirovna esa birdan his qildiki, goh hech sabab-siz yig'lagisi, goh o'lgisi, goh kechqurun uyga kelmay, xizmatdosh ayolnikida, pol ustida tunab qolgisi, goh birdan yig'ishtirilib, Sta-lingrad tomonlarga jo'nagisi, Sergeyni, Verani, Stepan Fyodorovich-ni izlab topgisi kelardi.

Aleksandra Vladimirovna aksar kuyovining xatti-harakatla-rini va fikrlarini ma'qullar, Lyudmila esa qariyb hamma vaqt uni ma'qullamas edi. Nadya bunga e'tibor qildi va otasiga dedi:

– Bor, onam seni xafa qilayotganini buvinga ayt.


Ana, endi Aleksandra Vladimirovna dedi:

– Siz boyqushdek yashaysiz. Viktor esa aqli raso odam.

– Bularning bari quruq gap, – dedi, yuzini burishtirib, Lyudmi-la. – Moskvaga jo'nash kuni kelganda esa siz Viktor bilan baxtli bo'lasiz.

Aleksandra Vladimirovna birdan dedi:

– Bilasanmi, azizam, Moskvaga jo'nash kuni kelganida, men shu yerda qolaman, menga Moskvada, sening uyingda joy yo'q. Senga



tushunarlimi? Jenyani bu yoqqa kelishga ko'ndiraman yoki o'zimiz unikiga, Kuybishevga boraman.

Bu ona va qiz munosabatlaridagi qiyin on edi. Aleksandra Vladimirovnaning yuragida tosh bo'lib yotgan hamma narsa Moskvaga borishni rad etishida ifodalangan edi. Bundan Lyudmila Nikolayevnaning yuragida tosh bo'lib yig'ilgan hamma narsa – xuddi tilga chiqarilganday – yaqqol bo'ldi. Lekin Lyudmila Nikolayevna – xuddi onasining oldida hech bir aybi yo'qday o'pkaladi.

Aleksandra Vladimirovna Lyudmilaning g'amgin yuziga boqib, o'zini aybdor deb his qildi. Kechalari Aleksandra Vladimirovna eng ko'p Seryoja haqida o'ylardi, – ba'zan uning tutaqishlarini, tortishishlarini xotirlardi, ba'zan uni harbiy libosda ko'z o'ngiga keltirardi, ehtimol, hozir uning ko'zi yanada kattaroq tuyilar axir u ozib, yuzlari kirtayib ketgandir. Dunyoda hamma narsadan ortiq yaxshi ko'rgani – baxtsiz o'g'lining o'g'li – Seryoja uning alohida mehrini qozongan edi... U Lyudmilaga shunday degan edi:

– Tolya to'g'risida bunchalik qayg'uraverma, ishon, men u haqda sendan kam qayg'urmayman.

Bu so'zlarida qiziga muhabbatini tahqirlovchi qandaydir qalbakilik bor edi – u Tolya haqida unchalik ham qayg'urmas edi. Mana, hozir har ikkisi, o'zlarining shafqatsiz to'g'riso'zligidan, dangalchiligidan qo'rqib ketishdi va voz kechishdi.

– «Haqiqat – ma'qul, muhabbat esa afzalroq». Ostrovskiyning yangi pyesasi, – dedi, so'zlarni cho'zib talaffuz qilib Nadya. Aleksandra Vladimirovna hali o'zi ham nimaligini anglab ulgurmagani narsaning mag'zini chaqib qo'ya olgan qizga, o'ninchi sinf o'quvchisiga xushlamay, hatto qandaydir cho'chib qaradi.

Tez orada Viktor Pavlovich keldi. U eshikni o'z kaliti bilan ochib, to'satdan, oshxonaga kirib keldi.

– Kutilmagan ko'ngilli hodisa, – dedi Nadya. – Biz Sokolovnikida allamahalgacha qadalib o'tirasan, deb o'ylagandik.

– Qarang-a, allaqachon hamma uyda, hamma pech yonida, juda xursandman, ajoyib, ajoyib, – deb u pech oloviga qo'lini uzatdi.

– Burningni art, – dedi Lyudmila. – Men payqamayapmanmi, nima ajoyib?

Nadya purkib tashlagandek onasining gap ohangiga taqlid qilib, dedi:

– Qani, burningni art, senga ruschalab aytayaptilar, axir.

– Nadya, Nadya, – ogohlantirgannamo so‘zladi Lyudmila Nikolayevna: u o‘z erini tarbiyalash huquqini hech kim bilan bo‘lishmas edi.

Viktor Pavlovich aytdiki:

– Ha, ha, juda sovuq shamol urib turibdi.

U xonaga o‘tib, stolga o‘tirdi – bu ochiq eshikdan ko‘rinib turardi.

– Dadam yana kitob muqovasiga yozayapti, – dedi kesib Nadya.

– Sening ishing emas, – dedi Lyudmila Nikolayevna va onasiga tushuntira boshladi: – Hamma uydaligini ko‘rgach u nima uchun quvonib ketdi? Savdoyiligi bor, agar kimdir uyda bo‘lmasa, bezovtalanaveradi. Hozir esa qaysidir fikrining chalasi bor: bezovtalanavermay, chalg‘iyvermay, bermalol davom ettiradi – shunga quvondi.

– Jim, unga haqiqatan xalaqit berayapmiz axir, – dedi Aleksandra Vladimirovna.

– Aksincha, – dedi Nadya, – qattiq gapirsang, u e‘tiborini qaratmaydi, shivirlab gaplashsang, yoningga kelib: «Nima deb pichirlashayapsizlar?» – deb so‘raydi.

– Nadya, sen otang haqida, xuddi hayvonlarning tabiiy sezgilari to‘g‘risida hikoya qilayotgan ekskursovoddek gapirasan.

Ular baravariga kulib yubordilar, ko‘z urishtirib oldilar.

– Ona, siz nima uchun meni shunchalik ranjitdingiz? – dedi Lyudmila Nikolayevna.

Onasi indamay, uning boshini siladi.

Keyin ular kechki ovqatni yedilar. Viktor Pavlovichning nazarida bu oqshom oshxona tafti qandaydir alohida latofat kasb etdi.

Uning hayoti asosini tashkil etgan niyat davom etardi. Keyingi vaqtlarda, laboratoriyada to‘plangan qarama-qarshi tajribalarga favqulodda tushuntirish berish fikri uning borlig‘ini egallagan edi.

U oshxona stoli yonida o‘tirib, baxtiyorlikning g‘aroyib besabr-ligini boshdan kechirardi, qo‘lining barmoqlari, istagini tiyib turgan kuchni yengib, qalam ushlagga undardi.

– Bugungi marjumak bo‘tqasi zo‘r chiqibdi, – dedi u bo‘sh tarelkani qoshiq bilan tiqillatib.

– Bu nimaga ishora? – deb so‘radi Lyudmila Nikolayevna.

Tarelkani xotiniga qarab surarkan, u so‘radi:

– Lyuda, sen Prout gipotezasini eslarsan, albatta?

Lyudmila Nikolayevna ajablanib, qoshiqni qo‘liga oldi.

– Bu elementlarning kelib chiqishi haqida, – dedi Aleksandra Vladimirovna.

– Ha, xo‘p, eslayman, – deb yubordi Lyudmila Nikolayevna, – barcha elementlar vodoroddan kelib chiqqan. Lekin bunga bo‘tqaning nima aloqasi bor?

– Bo‘tqa? – deb, qayta so‘radi Viktor Pavlovich. – Muddaoga kelsak, Prout bilan shunday hodisa yuz bergan: o‘sha davrda atom og‘irligini aniqlashda qo‘pol xatolar amal qilgan va bu u to‘g‘ri gipotezani olg‘a surishiga ko‘p jihatdan imkon yaratgan. Agarda atom og‘irligini uning davrida ham Dyuma va Stas erishgan darajadagi aniqlik bilan belgilaganlarida edi, u elementlarning atom og‘irliklari vodorodga karrali nisbatdadir, degan taxminni aytishga jur‘at eta olmas edi. Xato qilgani uchun haq bo‘lib chiqdi.

– Baribir bunda bo‘tqaning nima ahamiyati bor? – deb so‘radi Nadya.

– Bo‘tqa? – deb qayta so‘radi Shtrum hayron qolib, so‘ng, eslab, dedi: – Bo‘tqaning hech bir daxli yo‘q... Bu bo‘tqani fahmlab olish juda qiyin, fahmlash uchun yuz yil kerak bo‘ldi.

– Bu sizning bugungi ma‘ruzangizning mavzusimi? – deb so‘radi Aleksandra Vladimirovna.

– Yo‘q, shunchaki, men qishloqqa ham, shaharga ham ma‘ruza o‘qimayman, axir.


Xotining nigochini uchratib, sezdiki: ish ishtiyoqi uni yana jo‘shirayotganini anglabdi.

– Ahvoling qalay? – deb so‘radi Shtrum. – Marya Ivanovna keldimi? Balzakning «Madam Bovari» asarini senga o‘qib bergandir, balki?

– Bor-e, – dedi Lyudmila Nikolayevna.

Kechasi Lyudmila Nikolayevna eri o‘z ishlaridan so‘z ochishini kutdi. Lekin u indamadi, bu ham hech narsa haqida so‘ramadi.

Shtrumga o‘n to‘qqizinchi asr o‘rtasidagi fiziklarning g‘oyalari, Gelmgolsning fizika fani vazifalarini birgina masofa bilan bog‘liq tortish va itarish kuchlarini o‘rganishdan iborat, degan qarashlari qanchalik jo‘n tarzda gavdalandi.



Kuch maydoni – materiya joni! Quvvat to‘lqinlari va modda zararlarini birlashtiruvchi yagonalik... nur donadorligi... u nurli tomchilarning jalasimi yoki yashindek tez to‘lqinmi?

Kvant nazariyasi fizik o‘ziga xosliklarni boshqaruvchi qonunlarni, yangi qonunlarni – ehtimollik qonunlarini joy-joyiga qo‘ydi; Shtrungga o‘ziga xoslik tushunchasini ulotirib tashlab, faqat majmuiylikni inobatga oluvchi maxsus statistika qonunlari, o‘tgan asr fiziklari bilyard stoli atrofida tiqilishgan: yasama mo‘ylovli, ohorli yoqalari tik, qattiq yeng qaytarmali liboslardagi kishilarni eslatardi. Chizg‘ich va soat-xronometrlar bilan qurollangan fikri teran arboblardan qalin qoshlarini chimirib, tezlikni va tezlanishni o‘lchaydilar, olam fazosining yam-yashil movutini to‘ldirgan qayishqoq soqqalar xossalari aniqlaydilar.

Lekin metall tayoqchalar va chizg‘ichlar bilan o‘lchangan fazo, eng mukammal soatlar bilan hisoblangan vaqt birdan qiyshaya. cho‘zila va yassilana boshladi. Bularning buzilmasligi fan poydevori emas, balki uning qamoqxonasi panjaralari va devorlari bo‘lib chiqdi. Qiyomat qoyim fursati keldi, mingyillik haqiqatlar gumrohliklar deb e‘lon qilindi. Ko‘hna xurofotlarda, xatolarda, noaniqliklarda haqiqat xuddi pilla ichidagi g‘umbakday uxladilar.

Olam noevklidiy bo‘lib qoldi, uning handasaviy tabiatini massalar va ularning tezliklari shakllantirdi.

Jahonda, Eynshteyn mutlaq makon va zamon kishanlaridan ozod qilgan ilmiy harakat shiddatli ravishda o‘tib bordi.

Biri – Koinotlar bilan birgalikda intilayotgan, ikkinchisi – atom o‘zagiga kirishga intilayotgan ikki oqim – garchi har tomonga yugurayotgan bo‘lsa ham, biri parseklar<sup>1</sup> olamida yugurayotgan, boshqasi millimikronlarda o‘lchansa ham, biri boshqasidan adashib ketmaydi. Fiziklar atom qa‘ri sari qanchalik chuqurlashsalar, yulduzlarning yorug‘lik sochishini belgilovchi qonunlar shunchalik yaqqol ochildi. Olis galaktikalarning spektridagi yorug‘likka oid qarashlarning ajoyib tarzda ilgarilashi Koinotlarning bepoyon fazolarida yugurayotganlar haqidagi tasavvurni keltirib chiqardi. Lekin tezliklar va fazo massalari bilan qing‘irlashtirilgan asosiy yasmiqsimon<sup>2</sup>ning afzalligi

<sup>1</sup> Parsek – («parallaks» va «sekunda») so‘zlarining qisqartirilgan shakli.) Yulduzlar oraliqlari o‘lchov birligi (3,26 nur yiliga teng). – Tarj.

<sup>2</sup> Asosiy yasmiqsimon – «linza» tushuniladi. – Tarj.



gini e'tirof etish arzirdi, shunda o'z ortidan galaktikani ergashtirib borayotgan fazoning o'zi kengayish bilan qoplanganini tasavvur qilish mumkin edi.

Shtrum dunyoda olimdan baxtli odam yo'qligiga shubha qilmas edi... Ba'zan tongda, institut yo'lida, kechki sayrlar vaqtida, mana, bugun o'z ishi haqida o'ylaganida, uni baxt, tavoze va shavq tuyg'usi qamrab oldi.

Vodorod geliyga aylanganda, Koinotni yulduzlarning sokin nurlari bilan to'ldiruvchi kuchlar najot topdi.

Urushdan ikki yil oldin ikki yosh nemis atomning og'ir o'zaklarini neytron bilan parchaladi, sovet fiziklari ham tadqiqotlari davomida boshqa yo'llar bilan shunga mos natijalarga erishdilar va yuz ming yil avval g'or odami ilk gulxanini yoqqanida tuygan hisni o'z tanalarida sezidilar...

Albatta, yigirmanchi asrda fizika bosh yo'nalishni belgilaydi... Ana shunday, 1942-yilda Stalingrad Jahon urushining barcha frontlarida asosiy zarba yo'nalishi bo'ldi.

Lekin Shtrum ortidan shubha, azob-uqubat, umidsizlik taqalib, izma-iz keldi.

## 18

«Vitya, garchi men front chizig'ining ortida, yahudiylar gettosining tikanli simlari changalida bo'lsam-da, mening xatim sengacha yetib borishiga ishonaman. Sening javobingni hech qachon olmayman, men yo'q bo'laman.

Vitya, odamlarni chinakamiga anglash qiyin... yettinchi iyulda nemislar shaharga bostirib kirdi. Men qabulimga kelgan bemorlarni ko'rib bo'lganimdan keyin, poliklinikadan qaytmoqda edim, shahar bog'idagi radio so'nggi axborotni e'lon qilayotgan ekan, ayol suxandon janglar to'g'risidagi maqolani ukrain tilida o'qimoqda edi. Eshitay deb, to'xtadim. Olisdagi otishma ovozi qulog'imga chalindi, so'ng kishilar bog' ichidan qochib o'tishdi, men uyga qarab yurdim, havo trevogasi signalidan qanday bexabar qoldim deb, hayron edim. Kutilmaganda, ko'zinga tank ko'rindi, kimdir: «Nemislar yorib o'tdi!» – deb qichqirdi.

Men: «Vahima solmang», – dedim; kechagina shahar kengashi kotibiga uchragan edim, ketish borasida so'raganimda, uning jahli

chiqdi: «Bu haqda gapirishga erta, biz hali ro'yxat tuzganimiz ham yo'q». Qisqasi, bular nemislar edi. Tun bo'yi qo'shnilar biri birinikiga qatnadi, bolalar va men hammadan xotirjam edik. Hammaga nima bo'lsa, menga ham shu bo'ladi, degan qarorga keldim. Avvaliga men dahshatga tushdim, seni hech qachon ko'rmasligimni angladim, yana bir marta senga termilib qarashni, peshonangdan, ko'zingdan o'pishni yonib-o'rtanib istadim, keyin esa sening xavf-xatardan xoli ekaningni o'ylab, bu axir baxt, dedim.

Ertalabga yaqin uxladim, uyg'onganimda, ayovsiz g'am-g'ussa bosdi. Men o'z xonamda, o'z to'shagimda edim, lekin o'zimni g'urbatda, g'arib, yolg'iz his qildim.

Shu tongdayoq sovet hokimiyati yillarida unutilib yuborilgan narsa – yahudiyligim – pesh qilindi. Yuk mashinasida ketayotgan nemislar baqirardi: «Juden kaputt!»

Keyin esa bir qancha qo'shnilarim menga bu haqda eslatishdi. Hovli qarovchisining xotini oynam ostida turib, qo'shniga shunday derdi: «Xudoga shukur, jidlarning kuni bitdi». Qay go'rdan chiqdi bu gap? Uning o'g'li yahudiy qiziga uylangan, kampir o'g'linikiga mehmonga borib kelganida menga nabiralari haqida so'zlab bergan edi.

Mening qo'shnim tul xotin, 6 yoshli qizi bor, ko'zlari ko'k, ajib – Alenushka. Men senga qachonlardir u haqda yozgan edim, mening yonimga kirib, shunday dedi: «Anna Semyonovna, kechqurungacha boringizni yig'ishtirishingizni iltimos qilaman – men sizning xonangizga ko'chib o'taman», «Yaxshi, u holda, men siznikiga ko'chib o'taman». «Yo'q, siz oshxonadagi hujraga o'tasiz».

Men ko'nmadim, u yerda na oyna, na pechka bor.

Men poliklinikaga ketdim, qaytganimda esa ko'rdimki: xonamning eshigini buzishibdi, narsalarimni hujraga itqitib tashlashibdi. «Men divanni o'zimga olib qoldim, u baribir yangi tor xonangizga sig'maydi», – dedi menga qo'shnim.

Shunisi taajjubliki, u texnikumni tugatgan, marhum eri – Ukospilkada hisobchi, xo'b va vazmin odam edi. «Siz qonundan tashqaridasiz», – deb, shunday ohangda aytdiki. go'yo, bu unga juda foydalidek. Uning qizi Alenushka esa butun kech mening oldimdan jilmadi, men unga ertaklar aytib berdim. Bu mening uy to'yim edi, u borib uxlagisi kelmadi, onasi uni qo'lida ko'tarib olib ketdi. Keyin esa, Vitenka, bizning poliklinikamizni qaytadan ochishdi, meni va

yana bir vrach-yahudiyini ishdan bo'shatishdi. Men ishlagan oyimning haqini so'radim, lekin yangi bo'lim mudiri: «Sovet hokimiyati davrida ishlaganingiz uchun sizga Stalin haq to'lasin – Moskvaga, uning nomiga xat yozing», – dedi. Sanitar Marusya meni quchoqlab, sekin, yig'lagandek: «Parvardigor, Xudoyim, sizlarga nima bo'ladi? Sizlarning hammangizga nima bo'ladi?» Doktor Tkachev qo'limni siqdi. Hech aqlim yetmaydi, qaysinisi og'irroq: birovning baxtsizligidan sevinishmi yoki harom o'layotgan, qo'tir mushukka tashlangan ayanchli nigohlarmi? Mana shularni boshimdan o'tkazaman, deb sira xayolimga keltirmagan edim.

Ko'plar meni lol qoldirdi. Yovuzlar, quturganlar, g'ofillargina emas. Mana, 75 yoshga kirgan keksa o'qituvchi, pensioner, u hamisha sening to'g'ringda so'rab surishtirardi, salom aytib qo'yishimni iltimos qilardi, «U – bizning faxrimiz», – derdi. Bu sabil qolgur kunlarda menga duch kelganida, bir og'iz gapirmadi, teskari qarab o'tib ketdi. Keyin menga so'ylab berdilarki, u komendatura yig'ilishida: «Havo tozalandi, sarimsoq sasimayapti», – debdi. Bularning bari unga nima uchun kerak – bu so'zlar uning o'zini bulg'aydi-ku. O'sha yig'ilishda yahudiylar sha'niga qancha bo'htonlar yog'dirilgan... Lekin, Vitenka, bu yig'ilishga hamma borgan emas. Ko'plar bosh tortgan. Bilasanmi, mening nazarimda, antisemitizm chor zamonidan e'tiboran «Mixail Arxangel Birligi» ahlining ko'r-ko'rona vatanparvarligi bilan bog'langan. Bu yerda esa men: nemislar oldida o'zini yerga urib, Rossiyani nemisning o'ttiz tangasiga pullayman, deb, malayligiga kerilib, Rossiyani yahudiylardan qutqarish haqida qichqirayotganlarni ko'rdim. Shahar tevaragidagi nodon kishilar talonchilikka boradi, uylarni, ko'rpalarni, ust-boshlarni tortib oladi; vabo isyonlari vaqtida vrachlarni shunaqa kimsalar o'ldirgan bo'lsa, ehtimol. Ruhan lanj odamlar ham bor: ularni hokimiyatdan norozi deb shubhalanishmasa, bas – har qanday yomonlikni ma'qullab turaveradilar.

Tanishlar – yangiliklarni aytish uchun, – to'xtovsiz ravishda yonimga kelib-ketib turadilar, hammasining ko'zi telbalarfikidek, odamlar alahsirayotganga o'xshaydi. Ajabtovur ibora paydo bo'ldi: «narsalarni qaytadan yashirish». Qo'shning uyi ishonchliroq ekan. Narsalarni qaytadan yashirish menga o'yin bo'lib tuyilardi.

Tez orada yahudiylarning ko'chirilishini e'lon qildilar, kishi boshiga 15 kilogramm og'irlikdagi yuk olib ketilishiga ruxsat etildi.

Uylarning devorlariga e'lonchalar osildi: «Barcha jidlarga 15-iyul 1941-yil soat kechki oltigacha Eski shahar rayoniga ko'chib o'tish taklif etiladi». Ko'chib o'tmaganlar otiladi.

Ana endi, Vitenka, men ham yo'l tadorikini ko'rdim. Yostiq, biroz kiyishga, yotishga zarur narsalar, qachonlardir sen menga sovg'a qilgan dastali piyola, qoshiq, pichoq, ikkita tarelka oldim. Odamga ko'p narsa kerakmi? Bir nechta tibbiy asbob oldim. Sening xatlaringni, marhuma onamning va David amakining hamda o'sha, sen dadang bilan tushgan fotosuratlarni oldim, Pushkin kitobini, «Lettres de mon moulin», Mopassanning «Une vie» kiritilgan kitobini, lug'atcha, Chexovning «Zerikarli voqea» va «Arxiyerey» kiritilgan kitobini oldim – shu bilan savatim butunlay to'ldi-qoldi. Bu shift ostida xayolga cho'mib, men senga qancha xatlar yozdim, kechalari necha soatlab yig'ladim, endi senga o'z yolg'izligim haqida so'zlayapman.

Uy, bog'cha bilan xayrlashdim, bir necha daqiqa daraxt tagida o'tirdim, qo'shnilar bilan xayrlashdim. Ba'zilarni ko'rib, taajjublanasan. Ikki qo'shni ayol mening oldimda kim stullarni, kim yozuv stolini oladi, deb, talashishdi, ular bilan xayrlasha boshlaganimda esa har ikkisi yig'ladi. Qo'shnimiz – Basankolardan o'tinib, agarda sen urushdan so'ng meni yo'qlab kelib qolsang, bor gapni butun tafsilotlari bilan aytib berishlarini so'radim – xo'p, deb, va'da qilishdi. Hovlimizdagi kuchukcha – Tobik e'tiborimni tortib, so'nggi oqshom menga allaqanday boshqacha erkalandi.

Agar kelsang, kekxa yahudiy xotinga yaxshi munosabatda bo'lgani uchun sen uni to'ydir.

Men yo'lga o'tlanib, savatimni Eski shahargacha qanday ko'tarib boraman, deb turganimda, kutilmaganda, bemorlarimdan biri – badqovoq, menga qahri qattiqdek ko'ringan Shchukin kelib qoldi. U eltib berish uchun yukimni qo'limdan oldi, menga uch yuz so'm berdi va haftada bir marta to'siq yoniga non keltirib berishini aytdi. U bosmaxonada ishlaydi – ko'zi kasalligi sababli frontga olishmagan. Urushgacha u menda davolangan, mabodo: hojatbaror, ko'ngli toza odamlarni eslab, hisoblab chiqing, desalar, o'nlab nomlarni atardim, lekin uni emas. Bilasanmi, Vitenka, u kelganidan keyin men o'zimni yana inson deb his qildim: demak, men bilan hovlidagi kuchukchadan boshqalar ham odamiy munosabatda bo'lishi mumkin ekan.

U menga soʻzlab berdiki, shahar bosmaxonasida buyruq bosilayapti: yahudiylarga yoʻlkalardan yurish taqiqlanadi, ular koʻkraklarida olti qirrali yulduz shaklidagi sariq yamoq bilan yuradilar, ularning transportdan foydalanish, hammomga, ambulatoriyalarga, kinoga borish huquqi yoʻq, sariyogʻ, tuxum, sut, meva, oq non, goʻsht, sabzavotlar (bundan kartoshka istisno) sotib olishlari man etiladi; bozordan xarid qilishlariga soat kechki oltidan keyin (dehqonlar bozordan qaytgandan soʻng) ruxsat etiladi. Eski shahar tikanli sim bilan oʻraladi va undan tashqari chiqish taqiqlanadi, faqat qurolli soqchilar nazorati ostida majburiy ishlarga olib borilishi mumkin. Rusning xonadonida yahudiy borligi aniqlansa, bu partizanni yashirishga tenglashtirilib, uy xoʻjayini otiladi.

Shchukinning qaynotasi, shu yaqindagi Chudново degan joydan kelgan dehqon chol qoʻllariga tugunlar, jomadonlar koʻtarib olgan mahalliy yahudiylarni oʻrmonga qarab yalpisiga haydaganlarini oʻz koʻzi bilan koʻribdi, u yoqdan kun boʻyi oʻq ovozlari va dahshatli faryodlar eshitilib turibdi, bironta odam qaytib kelmabdi. Qaynotaning uyida turgan nemislar kechqurun, allamahalda mast-alas boʻlib kelib, kamiga tagʻin ertalabgacha ichgan, qoʻshiq aytgan va choling koʻz oʻngida toʻgʻnagʻichlarni, uzuklarni, bilaguzuklarni oʻzaro boʻlishgan. Bilmayman, bu zoʻravonlik tasodifiymi yoki taqdirimizdagi bizni kutayotgan koʻrgiliklarning xabarimi?

Oʻrta asrlar gettosi sari yoʻlim qanchalik qaygʻuli boʻldi, jon oʻgʻlim. Men oʻzim 20 yil ishlagan shahar boʻylab borar edim. Biz avval kimsasiz Svechnaya koʻchasidan yurdik. Lekin Nikol'skiy koʻchasiga oʻtganimizda, bu laʼnati gettoga qarab joʻnagan yuzlab odamlarni koʻrdim. Koʻcha tugunlar, yostiqlardan tus olib, oqargandek edi. Bemorlarni qoʻltiqlab olishgandi. Doktor Margulisning shol boʻlib qolgan otasini choʻshabga solib koʻtarib olishgan edi. Bir yigit bir kampimi qoʻliga koʻtarib olgan, uning ortidan tugunlarni ortmoqlab, xotini va bolalari qatorlashib ketishardi. Egnida moʻyna yoqali palto, oʻzi yoʻgʻon, harsillab borayotgan kishi – boqqollik doʻkonining mudiri Gordonning yuzidan ter yogʻilar edi. Bir yigit meni hayron qoldirdi: uning hech narsasi yoʻq, ochiq kitobni koʻz oʻngida ushlagan holda, boshini tik tutib odimlardi, yuzida dimogʻdorlik va xotirjamlik ifodasi aks etgandi. Ammo uning qatorida qoʻrquvga tushib, aqlidan adashganlar qancha edi.

Biz toshyo'ldan borardik, yo'lkalarda esa kishilar to'planib, qarab turishardi.

Bir necha payt Margulislar bilan yonma-yon yurganimda, ayollarning hamdardlik bilan xo'rsinishini eshitdim. Qishki palto kiyib olgan Gordon ustidan kulishardi, garchi, ishon, u kulgili emas, qo'rqinchli edi. Ko'p tanish chehralarni ko'rdim. Bir xillar yengil bosh irg'ab, xayrlashdilar, boshqalar yuzlarini o'girdilar. Nazarimda, bu tomoshabinlar orasidan bironta ko'z loqayd boqmas edi: qiziquvchanlari bor edi, shafqatsizlari bor edi, lekin bir necha marta yig'idan qizargan ko'zlarni ham ko'rdim.

Men e'tibor berdim – ikki to'da, yahudiylar – palto, telpak kiygan, ayollari issiq ro'mol o'ragan, yo'lkadagi ikkinchi to'da esa yozgi kiyimda. Ayollarning rangi ochiq koftalari ko'zga tashlanadi, erkaklar – ko'ylakchan, ba'zilar kashtali ukrain ko'ylaklarini kiygan. Menga shunday tuyildiki, hozir shu ko'chadan o'tayotgan yahudiy-larga quyosh allaqachondan beri nur sochmay qo'ygan, ular dekabr tunining qattiq sovuqlari ichida yurib borishayapti.

Gettoga kiraverishda men hamrohim bilan xayrlashdim, u menga tikanli sim to'siq oldidagi bir joyni ikkimiz shu yerda uchrashamiz, deb ko'rsatdi.

Bilasanmi, Vitenka, tikanli sim ichiga tushganimda, men nimani his qildim? Men vahimaga tushaman, deb o'ylagandim. Lekin tasavvur qil, bu mol qo'tonida ruhim ancha yengil tortdi. Qullik bandasi bo'lganim uchun emas – bu o'yni xayolingga keltirma. Yo'q. Yo'q. Atrofimdagilar – men bilan taqdiri bir odamlar va men gettoda, xuddi otdek, toshyo'ldan yurishim kerak emas, adovatli nigohlarga ham duch kelmayman, tanish odamlar mening ko'zimga boqadi, men bilan uchrashishdan qochmaydi. Ushbu qo'tonda hamma har birimizga fashistlar bosgan muhrni olib yuradi, shuning uchun bu yerda ayni muhr ko'nglimni unchalik lovullab achishtirmaydi. Bu yerda men o'zimni huquqsiz hayvon deb emas, baxtsiz inson deb his qildim. Shundan men yengillik sezdim.

Men o'zimning hamkasbim, doktor-terapevt Shperling bilan ikki xonali loysuvoq uychada joylashdim. Shperlinglarning ikki bo'y yetgan qizi va o'n ikki yoshlardagi o'g'li bor. Men uning oriq yuzchasiga va g'amgin katta ko'zlariga uzoq tikilib qarayman; uning ismi – Yura, men ikki martacha Vitya deb yubordim, u: «Men – Yuraman, Vitya emasman», – deb gapimni tuzatdi.

Odamlarning fe'llari qanchalik har xil! Ellik sakkiz yoshli Shperling quvvatga to'la. U to'shaklar, kerosin qidirib topdi, o'tin keltirdi. Tunda uychaga bir qop un va yarim qop loviya olib kelishdi. U o'zining har bir yutug'iga xuddi yaqinda uylangan yigitdek quvonda. Kecha u gilamchalarni osdi. «Hech nima emas, hech nima emas, buni ham o'tkazamiz», – deb takrorlaydi u. – Asosiysi, oziq-ovqat va o'tinni g'amlab olish».

U menga gettoda maktab tashkil qilish kerakligini aytdi. Hatto Yuraga fransuz tilini o'rgatsam, har bir dars evaziga bir tarelka sho'rva taklif qildi. Men rozi bo'ldim.

Shperlingning xotini, semiz Fanni Borisovna uf tortib: «Hamma ado bo'ldi, biz ado bo'ldik», – deydi, lekin ayni paytda katta gizi – mehribon va dilbar Lyuba kimgadir bir hovuch loviya yoki bir burda non berib qo'ymasin deb nazorat qiladi. Kichkinasi, onasining suyuqlisi – Alya esa do'zaxdan chiqqan baloning o'zi: hukmini o'tkazadigan, sershubha, qizg'anchiq; u otasiga, opasiga o'shqiradi. U urushdan oldin Moskvadan mehmonga kelib, ketolmay qolgan.

Yo Xudo, atrofda qanchalik muhtojlik! Agarda yahudiylarning boyligi, ularning hamisha qora kunga yig'inib qo'yishlari haqida gapiradiganlar bizning Eski shaharni bir ko'rsalar edi. Mana, u qora kun ham keldi, bundan qararog'i bo'lmas. Axir Eski shaharda nafaqat 15 kilogramm yuk bilan kelganlar istiqomat qiladilar, bu yerda hamisha hunarmandlar, chollar, ishchilar, sanitar ayollar yashaganlar. Ular dahshatli darajada tor joylarda tiqilishib yashaganlar va yashayptilar. Yeyishlari qanday! Sen bu yarim xaroba, yerga qapishgan kulbachalarni ko'rsang edi.

Vitenka, men bu yerda ko'plab yomonlarni – ochko'z, qo'rzoq, ayyor, hatto sotqinlikka tayyor odamlarni ko'ryapman, bu yerda qaysidir polyak shaharchasidan kelib, bizga qo'shilib qolgan Epshteyn degani bor, u yengiga bog'ich bog'lab, nemislar bilan birga tintuvga boradi, so'roqlarda ishtirok etadi, ukrain politsaylari bilan ichkilik-bozliklarda qatnashadi, uni uyma-uy yurib, qo'rqitib, aroq, pul, oziq-ovqat undirib kelishga jo'natishadi. Men uni ikki marta ko'rdim – bo'ydor, kelishgan, egnida – bashang, oq-sariq libos, hatto pidjagiga tikilgan sariq yulduz sariq xrizantemaga o'xshab ko'rinadi.

Men senga boshqa narsani ham aytmogchiman. Men hech qachon o'zimni yahudiy deb his qilmaganman, bolaligimdan rus dugonala-

rim orasida o'sganman, barcha shoirlardan Pushkinni, Nekrasovni ko'proq yaxshi ko'rganman va Stanislavskiy sahnaga qo'ygan «Van-ya amaki» rus zemstvo vrachlari syezdi, butun tomosha zali bilan birgalikda men yig'lab ko'rgan pyesa – shu. Qachonlardir, o'shanda o'n to'rt yoshli qizcha edim, Vitenka, bizning oilamiz Janubiy Amerikaga ko'chishga hozirlandi. Men dadamga: «Rossiyadan boshqa yoqqa ketmayman, undan ko'ra, suvga cho'kib o'lganim yaxshi», – dedim. Ketmadim.

Mana bu dahshatli kunlarda esa mening yuragim ona mehri bilan to'lib, uni yahudiy xalqiga sog'indi. Ilgari bu muhabbatni bilmas edim. U menga senga bo'lgan muhabbatimni eslatadi, aziz o'g'lim.

Men bemorlarni ularning uylariga borib ko'raman. Torgina xonada o'nlab odamlar: ko'zi ojiz chollar, emizikli bolalar, homiladorlar tiqilishgan. Men insoniy ko'zlarda kasallik alomatlarini izlashga ko'nikkanman: ko'ksuv, katarakta. Men endi odamlarning ko'zlariga bunday qarolmayman – ko'zlarda ko'ngil ifodasini ko'raman, xolos. Ezgu ko'ngilni, Vitenka! Qayg'uli va mehrlri, istehzoli va zavoli muqarrar, zulmdan yengilgan va ayni paytda zulm ustidan tantana qilayotgan ko'ngilni. Kuchli ko'ngilni, Vitya!

Chollar va kampirlar mendan sen haqingda qanday e'tibor bilan so'raganlarini ko'rsang edi. Men biror og'iz dardimni aytib zorlanmagan, ahvoli menikidan mushkulroq odamlar qanday samimiyat bilan menga tasalli beradilar.

Ba'zan xayolimga keladiki, men bemorlarni ko'rgani bormayman, aksincha, rahmdil xalq vrachi mening ruhimni davolaydi. Menga davolaganim uchun bir burda non, bir bosh piyoz, bir siqim loviya berishlari ko'ngilni qanchalik iydirdi.

Ishon, Vitenka, bu yo'qlaganimning haqi emas! Keksa ishchi qo'limni siqib, sumkachamga bir-ikkita kartoshka solib: «Xo'p, xo'p, doktor, men sizdan iltimos qilaman», – deganida, mening ko'zlarimga yosh keladi. Bunda qandaydir toza, otalarcha sadoqat, ezgulik bor – men buni senga so'z bilan tushuntira olmayman.

Bu vaqtda hayotim oson kechdi, deb senga taskin bermoqchi emasman, sen mening yuragim alamdan yorilib ketmaganiga qoyil qol. Lekin meni ochlikdan qiynalgan, deb o'ylab, o'zingni qiynama, men shu vaqt ichida biron marta och qolganim yo'q. Va yana: men o'zimni yolg'iz deb his qilmadim.



Odamlar haqida senga nima dey, Vitya? Odamlar meni yaxshi va yomon ekanligi bilan ajablantiradi. Garchi hammasi bir taqdimni boshdan kechirayapti, lekin ular haddan tashqari har xil. Ammo tasavvur qil, momaqaldiroq gulduraganda, ko'pchilik o'zini sharros yomg'irdan panaga oladi, biroq bu hamma odamlar bir xil degani emas. Zotan har kim yomg'irdan o'zicha yashiradi...


Doktor Shperlingning ishonchi komil: yahudiylarning ta'qib qilinishi – vaqtincha, urush tugaguncha. Unga o'xshaganlar oz emas, lekin men ko'rayapmanki, odamlarning nekbinligi ko'paygan sari ular maydakashlikka, xudbinlikka ruju qo'yishayapti. Agar tushlik chog'ida kimdir kelsa, Alya va Fanni Borisovna yegulikni darhol berkitadilar.

Shperlinglarning menga munosabatlari yaxshi, ayniqsa, men oz yeyman, iste'mol qilganimdan mo'lroq oziq-ovqat keltiraman. Lekin men ularning yonidan ketishga qaror qildim, chunki ularni jinim suymaydi. O'zimga biron burchakni izlayapman. Odamning g'ami qancha oshsa, omon qolishiga qancha kam ishonsa, u shunchalik kengroq, mehribonroq, yaxshiroq bo'ladi.

Halokatga mahkum etilgan qashshoqlar, tunukasozlar, tikuvchilar ul-bul oziq-ovqatlarni g'amlash evini topganlardan ko'ra olijanobroq, kengroq va aqlliroq. Yosh muallimalar, keksa o'qituvchi va shaxmatchi – sal g'alatiroq Shpilberg, muloyim kutubxonachi ayollar, gettoni qo'lbola granatalar bilan qurollantirishni orzu qilayotgan o'zi boladay ojiz injener Reyvich – bular: g'aroyib, ishda no'noq, qadrli, g'amgin va yaxshi odamlar.

Bu yerda men shohid bo'layapmanki, umid qariyb hech vaqt aql bilan bog'liq emas, u – ma'nodan xoli, o'ylaymanki, uni tug'ma histuyg'u dunyoga keltirgan.

Vitya, odamlar xuddi oldinda uzoq yillar borligini bilib turganday yashaydilar. Bu nodonlikmi yoki donolikmi – anglash qiyin, u shunchaki mavjud, xolos. Bu yerga do'stim uqtirgan joydan ikki ayol keldi – uning hikoyasining aynan o'zini aytib berdilar. Nemislar shu tevarak-atrofdagi barcha yahudiylarni – bolalarni, chollarni ayamay yo'q qilmoqda. Nemislar va politsarlar mashinada kelib, bir necha o'nlab erkaklarni dala ishlariga jalb etadi, ular chuqurlar qaziydi, ikki-uch kundan keyin nemislar yahudiy aholisini shu chuqurlar tomon haydaydi va barchasini yalpisiga qiradi. Bizning shahrimiz deparasidagi hamma joyda shunday – yahudiy go'rtetalari urchimoqda.



Qo'shni uyda Polshadan kelgan qiz yashaydi. Va hikoya qiladi-ki, u yerlarda qotillik doimiy ravishda davom etadi, nemislar yahudiylarni bitta qo'ymay qirg'in qiladi, yahudiylar bir necha gettoda – Varshavada, Lodzida, Radomda uchraydi, xolos. Bularning hammasini o'ylab ko'rganimdan keyin, menga yaqqol ayon bo'ldiki, bu yerda bizni Belovej qo'riqxonasidagi zublardek saqlash uchun emas, o'ldirish uchun to'plagan. Reja bo'yicha, bir-ikki haftadan so'ng bizning navbat ham keladi. Lekin tasavvur qil, shuni anglagan holda, bemorlarni davolayveraman va deyman: «Agarda ko'zingizni bir tartibda dori bilan yuvsangiz, ikki-uch haftadan keyin sog'ayib ketasiz». Ko'zidagi kataraktani yarim-bir yildan keyin olib tashlash mumkin bo'ladigan qariyani ham nazoratimda tutaman.

Men Yuraga fransuz tilidan dars o'taman, uning noto'g'ri talaffuzidan ranjiyman.

Shu yerning o'zida nemislar gettoga bostirib kirib, talonchilik qiladi, soqchilar tikanli sim ortidan bolalarga o'q uzib, dimog'ini chog'laydi, har doim yangi, yangi odamlar bizning taqdirimiz istalgan damda hal etilishi mumkinligini tasdiqlaydilar.

Ana shunday ishlar ro'y beradi – odamlar yashashda davom etadi. Bizda, bu yerda kuni kecha hatto to'y ham bo'ldi. O'nlab ovozalari tarqaladi. Goho, qo'shnimiz, xursandchilikdan nafasi qisilib, bizning qo'shinlarimiz hujumga o'tgani, nemislar qochayotgani xabarini aytadi. Goh, kutilmaganda, sovet hukumati va Cherchill nemislarga qat'iy talab e'lon qildi, Gitler yahudiylarni o'ldirmaslikka buyruq berdi, degan gap yoyiladi. Goh, yahudiylarni nemis harbiy asirlariga almashtiriladi, deb ma'lumot yetkazishadi.

Ma'lum bo'lishicha, boshqa hech qayerda gettodagidan ko'p umid yo'q. Jahon voqealarga to'la, barcha voqealar, ularning mohiyati, sabablari hamisha bitta – yahudiylarni qutqarish. Qanchalar umid boyligi!

Bu umidlarning manbasi – yagona: biz, hammamiz nom-u ni-shonsiz o'lib ketishimizga – shu, dahshatli zaruriyatga mantiqdan tashqari bir tarzda qarshilik ko'rsatuvchi hayotiy, tug'ma his-tuyg'u. Qarayman-u ishonmayman: nahotki, biz hammamiz – hukm etilganlarmiz, o'lim jazosini kutayotganlarmiz? Sartaroshlar, etikdo'zlar, tikuvchilar, vrachlar, pechkachilar – hamma ishlaydi. Hatto kichik tug'uruqxona, to'g'risi, shunga o'xshash joy ochildi. Ich kiyim qu-

riydi, kir yuviladi, tushlik tayyorlanadi, bolalar 1-sentabrda maktabga qatnaydilar va onalar o'qituvchilardan bolalarning baholarini so'rab-surishtiradilar.

Qariya Shpilberg bir necha kitobni muqovalatishga topshirdi. Alya Shperling ertalablari jismoniy tarbiya bilan shug'ullanadi, uyqu oldidan esa jingalak qilish uchun sochini yoyib tashlaydi, otasi bilan gap talashadi, o'ziga qandaydir, bir juft yozgi kiyimlik talab qiladi.

Men tongdan kechgacha bandman – bemorlardan xabar olaman, dars beraman, yamayman, kir yuvaman, qishga hozirlik ko'rib, kuzgi paltomni paxtalik qilaman. Men yahudiylar boshiga yog'ilgan jazolar to'g'risidagi hikoyalarni eshitaman: huquqiy maslahatchining xotinini – tanishimni, farzandiga o'rdak tuxumi sotib olgani uchun hushidan ketgunicha urishdi; dori tayyorlovchi Sirotaning o'g'lini – yosh bolani dumalab ketgan to'pni olaman deb tikanli sim tagidan o'tmoqchi bo'lganida o'q uzib, yelkasidan yaralashdi. Keyin esa yana ovozarlar, ovozarlar, ovozarlar.

Mana, bunisi – ovozarlar emas. Bugun nemislar saksonta navqiron erkakni ishga, go'yoki, kartoshka kovlashga haydab ketdi, ba'zilar, qarindoshlariga ozroq kartoshka olib kelishning ilojini topishar, deb quvonishdi. Lekin men qanday kartoshka to'g'risida gap ketayotganini tushundim.

Gettoda tun – mustasno vaqt, Vitya. Bilasanmi, do'stim, men seni hamisha haqiqatni aytishga o'rgatganman, o'g'il onasiga hamisha haqiqatni aytishi kerak. Lekin ona ham o'g'liga haqiqatni aytishi kerak. Onangni kuchli odam, deb o'ylama, Vitenka. Men kuchsizman. Men og'riqqa chidamayman, tish vrachi o'rindig'iga o'tirganimda, yuragim qinidan chiqib ketadi. Bolaligimda momaqaldiroqdan, qorong'ilikdan qo'rqardim. Kampirlardan qo'rqardim, kasalliklardan, yolg'izlikdan qo'rqardim, og'rib qolsam, ishlayolmayman, senga og'irligim tushadi, sen buni menga sezdirasan, deb qo'rqardim. Men urushdan qo'rqardim. Endi kechalari, Vitya, meni vahima bosadi, undan yuragim muzlaydi. Meni zavol kutyapti. Seni yordamga chaqirgim keladi.

Qachonlardir, bolaligingda, tirgak istab, yonimga chopib kelarding. Endi behollik daqiqalarida boshimni sening tizzalaringga bosib yashirgim keladi, chunki sen aqllisan, kuchlisan, uni berkit, qo'riqla. Men nafaqat ruhan kuchliman, kuchsizman ham. Aksar o'z jonimga



qasd qilish haqida o'ylayman, lekin meni o'zlikmi, yoki kuchlilikmi, yoki aqldan tashqari umidmi – bilmayman, qaysi biri to'xtatib qoladi.

Lekin yetar. Men uxlayman va tushlar ko'raman. Bot-bot marhuma onamni ko'raman, u bilan gaplashaman. Bugun tunda tushimda Parijda birga yashagan mahallarimizdagi Sashenka Shaposhnikovni ko'rdim. Garchi har doim, hatto ayovsiz iztiroblar ezgan daqiqalarda ham xayolimdan ko'tarilmasang-da, lekin seni biror marta tushimda ko'rmadim. Uyg'onaman, birdan chekinga nima tushganini fahmlayman, bizning zaminimizdagi nemislarni, men o'zim moxov ahvoliga tushib qolganimni eslayman va tuyiladiki, men uyg'onganim yo'q, aksincha, uyqudaman, tush ko'rayapman.

Lekin bir necha daqiqa o'tadi, Alya Lyuba bilan quduqqa borish kimning navbati deb bahslashayotganini eshitaman, tunda qo'shni ko'chada nemislar bir cholning boshini urib yorgani haqidagi gaplarni eshitaman.

Pedtexnikumda o'qiydigan tanish qiz kelib, bir bemorni ko'rib qo'yishimni so'radi. Ma'lum bo'ldiki, u yelkasidan yarador, ko'zlarini olov yalagan bir leytenantni yashiribdi. Bu istarasi issiq, azob chekkan yosh yigit volgaliklarga xos, «o»lovchi shevada so'zlaydi. U kechasi tikanli simdan o'tib, gettodan boshpana topibdi. Uning ko'zlari unchalik zararlanmagan ekan, men dori-darmon qilib, yiringlashni to'xtatdim. U janglar, qo'shinlarimizning qochgani haqida ko'p hikoya qildi, hasratim ustiga hasrat qo'shildi. Dam olgach, front chizig'idan o'tib ketmoqchi. Bir necha yoshlar u bilan ketadi, o'shalarning bittasi mening o'quvchim bo'lgan edi. Eh, Vitenka, ular bilan birga borsam, koshki edi! Bu yigitga yordamim tekkanidan shunchalik quvondimki, men fashizm bilan urushda qatnashayotgandek bo'ldim.

Unga kartoshka, non, loviya olib kelishdi, qaysidir buvi esa jun paypoq to'qib berdi.

Bugungi kun shiddatlar bilan o'tdi. Bundan sal ilgari Alya o'zining bir rus tanishi orqali kasalxonada o'lgan bir rus qizining pasportini oldi. Tunda Alya ketadi. Bugun biz getto to'sig'i yonidan o'tayotgan tanish dehqondan bildikki, kartoshka kovlashga jo'natilgan yahudiyalar shahardan to'rt chaqirim narida, aerodrom yaqinida, Romanovka yo'lida chuqur zovurlar qazishmoqda. Bu nomni eslab qol, Vitya, sen u yerdan sening onang yotgan qardoshlik mozorini topasan.

Hatto Shperling hammasini tushundi, kun bo'yi rangi oqarib, lablari titrab, esankirab, meni savolga tutadi: «Mutaxassislarni omon qoldirishlaridan umid bormi?» Darhaqiqat, hikoya qilishlaricha, bir qancha joylarda yaxshi tikuvchilarni, etikdo'zlarni va vrachlarni qatl etishmagan.

Shunga qaramay, kechqurun Shperling pechkachi cholni chaqirdi, u un va tuzni yashirin saqlashga joy qilib berdi. Men kechqurun Yura bilan «Lettres de mon moulin»ni o'qidim. Yodingdami, men yaxshi ko'rgan hikoya – «Les vieux»ni ovoz chiqarib o'qirdik, bir-birimizga qarab olardik, kulishardik, ikkimizning ko'zlarimiz ham yoshga to'lardi. So'ng men Yuraga ertadan keyingi darslarni yozdirdim. Shunday qilish kerak. Lekin o'quvchinning g'amgin yuziga, grammatikadan berilgan topshiriqlarning paragraflarini daftariga yozib olayotgan qo'llariga boqqanimda, zirqiratuvchi bir tuyg'uni sezmoqda edim.


Bunday bolalar qancha: ko'zlari maftunkor, qora sochlari jingalak, ehtimol, ularning orasida bo'lg'usi olimlar, fiziklar, tibbiyot professorlari, musiqachilar, balki, shoirlar bor.

Tongda ularning maktabga qarab yugurganlarini kuzatib qolaman: ko'zlari bolalarnikiga sira o'xshamaydi – jiddiy, kattalashgan, fojeiy. Ba'zan esa ular gurpaklashib o'ynashadi, yoqalashishadi, xaxolashadi, lekin bundan ko'ngil yayramaydi – uni dahshat qoplaydi.

Bolalar – bizning kelajagimiz, deydilar, ammo bu bolalar haqida nima deya olasan? Ular musiqachilar, etikdo'zlar, bichiqchilar bo'la olmaydilar. Men bugun tunda ko'z oldinga yaqqol keltirdimki, soqolini silagan, tashvishli otaxonlar, ezma buvilar, asalli shirin kulcha, burama qand pishirib sotuvchilar, to'y marosimlari olami, maqol-matallar, shanba bayramlari serg'ovur olami yer ostiga butunlay kirib ketadi, urushdan keyin esa hayot qaytadan qaynaydi, biz esa bo'lmaymiz, atsteklar<sup>1</sup> g'oyib bo'lgandek g'oyib bo'lamiz.

Mozor hozirlanayotgani haqida xabar keltirgan dehqonning aytishicha, tunda uning xotini yig'labdi, sannabdi: «Ular tikadilar, etikdo'zlik qiladilar, terini oshlaydilar, soat tuzatadilar, dorixonada dori-darmon sotadilar... Ularning hammasini o'ldirsa, keyin nima bo'ladi?»

<sup>1</sup> Atstek – Meksika hindularining nisbatan yirik elati va unga mansub shaxs. – Tarj.



Men shuni aniq ko'rdimki, xarobazor yonidan o'ta turib, kimdir shunday deydi: «Eslaysanmi, qachonlardir bu yerda yahudiylar, pechkachi Borux yashardi; shanba kuni kechqurunlari uning kampiri o'rindiqda o'tirar, oldida esa bolalar o'ynardi». Ikkinchi suhbatdosh deydi: «Anovi qari olmurut tagida, odatda, familiyasini unutdim, qachonlardir men unda ko'zimni davolatgandim, ayol-doktor o'tirardi, u har doim ishdan keyin to'qima stulini olib chiqar, qo'lida kitob bilan o'tirardi». Shunday bo'ladi, Vitya.

Go'yoki vahimali nimadir esib, yuzlarga tegib o'tdi, hamma muddat yaqinlashayotganini sezdi.

Vitenka, men senga aytmoqchimanki... yo'q, unday emas, unday emas.

Vitenka, men o'z maktubimni tamomlayapman va uni getto to'sig'iga olib borib, do'stim qo'lga topshiraman. Bu maktubni uzib qo'yish oson emas, bu – sen bilan oxirgi suhbatim, maktubni jo'natgach, sendan tamomila ketaman, mening so'nggi soatlarim haqida hech qachon bila olmaysan. Bu bizning eng so'nggi xayrlashuvimizdir. Vidolashar ekan, mangu ayriliq oldidan men senga nima deyman? Bu kunlarda, butun hayotim davomidagidek, sen mening quvonchim bo'lding. Kechalari men seni, bolalikdagi kiyimlaringni, o'qigan birinchi kitoblaringni yodga oldim, birinchi xatingni, birinchi marta maktabga borgan kuningni yodga oldim, hayotingning birinchi kunlaridan to sendan kelgan eng keyingi xabarlargacha, 30-iyunda olingan telegrammagacha – hammasini, hammasini yodga oldim. Men ko'zimni yumdim: nazarimda, bosib kelayotgan baloni menga yo'latmading, yo'lini to'sding, do'stim. Atrofimda nimalar ro'y berayotganini o'ylaganimda esa mening yonimda emasligingga sevinardim – bu mudhish taqdir seni chetlab o'tsin.

Vitya, men hamisha yolg'iz edim. Uyqusiz tunlarda alamimdan yig'lardim. Buni hech kim bilmas edi, axir. O'z hayotim haqida senga so'ylab beraman, deb o'ylardim, shu fikr menga taskin berardi. Sening otang bilan nima uchun ajrashganimiz, nima uchun shuncha uzoq yillar yolg'iz yashaganim haqida hikoya qilib beraman. Onasi xatolarga yo'l qo'rganini, aqlsizlarcha ish tutganini, rashk qilganini, uni ham rashk qilganlarini, hamma yoshlarga o'xshagan bo'lganini bilsa, Vitya hayron qolardi, deb tez-tez o'ylardim. Lekin hayotni sen bilan bo'lishmay, yolg'iz tugallash mening taqdirimdir. Ba'zan

o'zinga, sendan olisda yashashim noto'g'ridek tuyilardi, chunki seni hamma narsadan ortiq sevardim, muhabbat menga qarigan chog'larimda sening qanoting ostida yashash huquqini baxsh etadi, deb o'ylardim. Ba'zan sen bilan birga yashashim kerak emas, chunki seni hamma narsadan ortiq sevaman, deb o'ylardim.

Xo'p, enfin... Sevganing, atrofingda seni ko'rib, sendan o'rgilib, onangdan yaqinroqqa aylangan bilan hamisha baxtli bo'l. Meni kechir.

Ko'chadan xotinlarning faryodi, politsiyachilarning so'kinishi eshitilyapti, men esa bu sahifalarni nazardan o'tkazyapman, baayni, men azob-uqubatlarga to'la mudhish olamdan muhofaza etilgandekman.

Maktubimni qanday tugallashim kerak? Kuchni qayerdan olay, jon o'g'lim? Mening senga bo'lgan muhabbatimni ifodalovchi insoniy so'z bormi? Seni, sening ko'zlaringni, sening peshonangni, sochlaringni o'paman.

Yodingda tut, baxtli kunlarda ham, qayg'uli kunlarda ham – ona muhabbati hamisha sen bilan, uni o'ldirishga hech kimning qurbi yetmaydi.

Vitenka... Mana, senga onang yozgan so'nggi xatning so'nggi so'zlari. Yasha, yasha, mangu yasha... Onang».


## 19

Urushgacha Shtrum hech qachon o'zining yahudiy ekani, onasining yahudiy ekani haqida o'ylamagan edi. Bolaligida ham, talabalik yillarida ham onasi u bilan bu xususda gaplashmagan edi. Moskva universitetida o'qigan davrida birorta talaba, professor, seminar rahbari unga hech qachon bu haqda og'iz ochmagan edi.

Urushgacha institutda, Fanlar akademiyasida unga hech qachon bu haqdagi gaplarni eshitishga to'g'ri kelmagandi.

Nadyaga onang – rus, otang – yahudiy deb tushuntirib, bu haqda so'zlashish istagi unda hech qachon, biron marta paydo bo'lmagandi.

Eynshteyn va Plank asri Gitler asri bo'lib chiqdi. Gestapo va ilmiy Uyg'onish bir vaqtda tug'ilgan. Yigirmanchi asr bilan qiyoslaganda, go'l fizika davri, o'n to'qqizinchi asr qanchalik insoniy – yigirmanchi asr uning onasini o'ldirdi. Fashizm tamoyillari bilan zamonaviy fizika tamoyillari o'rtasida benihoyat monandlik bor.



Fashizm alohida o'ziga xoslik tushunchasidan, «inson» tushunchasidan voz kechdi va ulkan mujassamotlar bilan ish ko'rdi. Zamonaviy fizika u yoki bu mujassamotdagi fizik individuumlarni ko'rishlarining katta va kichik ehtimolliklari haqida gapiradi. Natijasi, fashizm o'zining dahshatli mexanikasida kvant siyosati, siyosiy ehtimolliklar qonuniga asoslanmaydi?

Fashizm aholi, milliy va irqiy birlashmalar butun bir qatlamlarini yo'q qilish g'oyasiga bu qatlamlar va nim qatlamlarda boshqa guruhlar hamda qatlamlarga nisbatan yashirin va ochiq qarshi harakatlarni ehtimolliklari yuqoriligi asosida keldi. Ehtimolliklar va insoniy mujassamotlar mexanikasi.

Lekin, albatta, yo'q! Fashizm, hech shubhasiz, ajal topadi, chunki u atomlar va chag'irtoshlar qonunini insonga qo'llashni tusab qoldi!

Fashizm va inson birga mavjud bo'la olmaydi. Fashizm yenganda, inson amal qilishdan to'xtaydi, ichdan tamomila o'zgargan, inson shaklidagi maxluqlar qoladi, xolos. Lekin ozodlik, aql va ezgulikka ega bo'lgan inson yenganda, fashizm halokatga uchraydi va bo'ysundirilganlar qaytadan insonga aylanadilar.

Bu, o'zi shu yozda munozaraga kirishib, inkor etgan – ko'pchigan xamir haqidagi chepijincha fikrlarning e'tirofi emasmi? Chepijin bilan suhbatlashgan vaqti unga tuganmas darajada uzoq bo'lib ko'rinardi, Moskvada kechgan yozgi oqshom va bugungi kun o'rtasida o'nyilliklar yotganga o'xshardi.


Hayajonlanib tinglagan, qizg'in, o'ziga ishonib bahslashgan Shtrum emas, boshqa odam Trubnoy maydoni bo'ylab borayotgandek tuyilardi.

Onasi... Marusya... Tolya...

Ba'zi daqiqalarda fan unga hayotning telba va shafqatsizligini ko'rishga xalaqit beradigan yolg'ondek tuyilardi. U o'zini qanchalar yolg'iz his qildi. O'z fikrlari bilan o'rtoqlashadigan hech kim yo'q edi. Chepijin uzoqda edi. Postoyevga bularning bari g'alati va qiziq emas.

Sokolov qaysarona shafqatsizlik, adolatsizlik qarshisida g'ayri-tabiiy kuchlarga, qandaydir g'alati diniy itoatkorlikka moyil.

Uning laboratoriyasida ikki ajoyib olim – ilmiy tajriba o'tkazuvchi fizik Markov va ichkilikboz, aqlli Savostyanov. Lekin Shtrum ular bilan shularning bari haqida so'zlashsa, uni savdoyi deb hisoblardilar.





U stolining tortmasidan onasining xatini chiqarib oldi va yana o'qidi.

«Vitya, garchi men front chizig'ining ortida, yahudiylar gettosining tikanli simlari changalida bo'lsam-da, mening xatim sengacha yetib borishiga ishonaman... Kuchni qayerdan olay, jon o'g'lim?»

Va sovuq tig' yana uning tomog'iga urildi...

## 20

Lyudmila Nikolayevna pochta qutisidan harbiycha xatni chiqarib oldi.

U katta qadamlar bilan xonaga kirdi va konvertni yorug'ga solib ko'rib, dag'al konvert qog'ozini chetidan yirtirdi.

Bir on unga konvertdan hali bo'ynini tutmagan, yostiqlarning ustida ayiqlamikedek oyoqlarini ko'tarib, yalang'och yotgan, lablari cho'chchaygan kichkintoy – Tolyaning fotosuvratlari to'kiladigandek tuyildi.


U maktab ko'rmagan savodxonning chiroyli yozuvi bilan bitilgan satrlardagi so'zlarni tushunarsiz bir tarzda go'yo o'qib emas, shimib, so'rib olarkan, uqdi: tirik, hayot!

U o'qib bildiki, Tolya ko'krigidan va biqinidan og'ir yaralangan, ko'p qon yo'qotgan, bemador, o'zi yoza olmaydi, to'rt haftadan buyon harorati tushmayapti... Lekin bir lahza avval bosib turgan mislsiz noumidlik yo'qoldi – uning ko'zlarini baxtli yoshlar to'ldirdi.

U zinaga chiqdi, xatning birinchi satrlarini o'qidi va tinchlanib, o'tinxonaga kirdi. O'sha yerda, sovuq nim qorong'ida xatning o'rtasi va oxirini o'qidi va bu xat – men bilan uning o'lim oldidagi vidolashuvi, deb o'yladi.

Lyudmila Nikolayevna qopchiqqa o'tin sola boshladi. Garchi Moskvaning Gagarin tor ko'chasida joylashgan SeKUBU<sup>1</sup> poliklinikasida uni davolayotgan doktor uch kilogrammdan ortiq yuk ko'tarmaslikni, faqat ohista, shoshmasdan harakat qilishni buyurganiga qaramay, Lyudmila Nikolayevna dehqonlarcha inqillab, ho'l tarashalar bilan to'la qopchiqni yelkasiga ortib, bir zumda ikkinchi qavatga ko'tarildi. U qopchiqni polga tushurganda, stol ustidagi idishlar bir-biriga urilib, jaranglab ketdi.

<sup>1</sup> Olimlarning turmush sharoitini yaxshilash bo'yicha markaziy komissiya.



Lyudmila paltosini kiyib, boshiga ro'molini o'radi va ko'chaga chiqdi.

Odamlar undan jadallab ilgarilar, keyin o'girilib qarardi.

U ko'chani kesib o'tdi, tramvay ilkisdan qo'ng'iroq chaldi, haydovchi unga mushtini ko'rsatib, po'pisa qildi.

Agar o'ngga burilsa, onasi ishlayotgan zavodga tor ko'cha orqali borishi mumkin.

Agar Tolya halok bo'lsa, otasi bundan bexabar qoladi – uni qaysi lagerdan izlash kerak, balki, allaqachon o'lgan...

Lyudmila Nikolayevna institutga, Viktor Pavlovich tomon yo'l oldi. Sokolovlar uyi yonidan o'ta turib, hovliga kirib, oynani taqillatdi, lekin parda tushurilganicha turaverdi – Marya Ivanovna uyda yo'q edi.

– Viktor Pavlovich hozirgina o'z xonasiga kirdi, – dedi kimdir, u minnatdorchilik bildirdi, ammo – tanishmi, notanishmi, erkakmi, ayolmi – kim bilan gaplashganini anglamadi, har doimgidek, hech kim ish bilan shug'ullanmayotganga o'xshab ko'rinadigan laboratoriya zalidan yurib boraverdi. Odatda, shunday tuyiladiki, laboratoriyada erkaklar yoki gap sotishadi, yoki, chekkanicha kitobga tiki-ladilar, ayollar esa hamisha band: kolbalarda choy qaynatishadi, tirnoqlari sayqallarini eritgich bilan yuvishadi, to'qishadi.


U ikir-chikirlarni, o'nlab ikir-chikirlarni, laborant papiros o'ra-yotgan qog'ozni eslab qoldi.

Viktor Pavlovich xonasida uni olqishlab kutib oldilar, Sokolov, qo'lida katta oq konvertni o'ynatib, u tomonga tez yurib keldi, qariyb yugurib keldi va dedi:

– Bizni umidvor qilishyapti, Moskvaga, o'z joyimizga barcha ashqol-dashqollar va apparatlar bilan oilalar bilan ko'chirish istiq-boli, rejasi bor. Yomon emas, a? To'g'ri, hali muddatlari mutlaqo ko'rsatilmagan. Lekin baribir!

Uning hayajonli yuzi, ko'zlari jirkanarli bo'lib tuyildi. Nahotki, Marya Ivanovna ham uning oldiga shunday shodon yugurib kelardi? Yo'q, yo'q. Marya Ivanovna darhol hammasini tushunardi, hammasi-ni uning yuzidan o'qib olardi.

Shuncha baxtiyor chehralarni uchratishini bilganida edi, u, al-batta, Viktorning huzuriga kelmas edi. Viktor ham xursand, uning xursandligi kechqurun uyga yetib boradi – Nadya baxtli bo'ladi, ular nafratni qo'zg'otadigan Qozondan jo'nab ketishadi.



Hamma odamlar – ular qancha bo‘lsalar ham, – yosh nasl qoni evaziga sotib olingan shu shodlikka arziydimi?

U eriga ko‘zini ta’na aralash tikdi.

Uning ma’yus ko‘zlariga buning hamdard, tashvishga to‘la ko‘zlari boqib turardi.

Ikkovlari qolganlarida, kirib kelishing bilanoq, darhol, baxtsizlik yuz berganini angladim, dedi u.

U xatni o‘qib chiqqach, qayta-qayta takrorladi:

– Nima qilish kerak, ey Xudo, nima qilish kerak.

Viktor Pavlovich paltosini kiydi va chiqishga tomon yurdilar.

– Men bugun qaytib kelmayman, – dedi u urfdagi keng, lekin barvasta yelkalariga torligi sezilib qolgan pidjak kiygan, dumaloq boshli, uzun bo‘yli kishi – yangi, yaqinda tayinlangan kadrlar bo‘limi boshlig‘i Dubenkov yonida turgan Sokolovga.

Shtрум, Lyudmilaning qo‘lini bir on qo‘yib yuborib, Dubenkovga past ovoz bilan dedi:

– Biz Moskvaga ro‘yxatlar tuzishni boshlamoqchi edik, ammo bugun bunga ilojim yo‘q, men keyin tushuntiraman.

– Tashvishlanmang, Viktor Pavlovich, – dedi do‘rillagan ovozda Dubenkov. – Hozircha shoshiladigan yeri yo‘q. Bu kelgusiga atalgan rejalashtirish, barcha qoralama ishlarni o‘z zimmamga olaman.


Sokolov qo‘l silkib, boshini qimirlatdi va Shtрум uqdiki, u Shtрум yangi xafagarchilikka uchraganini fahmladi.

Sovuq shamol ko‘chalar bo‘ylab yelar, changni to‘zg‘itar, goh uni arg‘amchiday aylantirar, goh birdan irg‘itar, yaroqsiz qora yor-madek sochardi. Bu ayozda, bir-biriga urilgan shoxlarning suyakday taqillashida, tramvay relslarining muz bosgan ko‘k tusida shafqatsiz badjahlilik bor edi.

Azob-uqubattan yoshargan, ozgan, sovqotgan xotini unga yuzini burdi, sinchiklab, o‘tingandek tikildi Viktor Pavlovichga.

Qachonlardir ularning yosh mushugi bor edi, birinchi mar-ta tug‘ishi edi – mushukvachchasini tug‘a olmadi, o‘lar ekan, Shtрумning poyiga sudralib keldi, chinqirdi, katta ochilgan nurli ko‘zlari bilan unga termildi. Lekin bu bepoyon bo‘m-bo‘sh os-monda, bu rahmsiz changigan zaminda kimdan so‘raladi, kimga yolvoriladi?

– Men ishlagan gospital mana shu, – deb qoldi u.



– Lyuda, – dedi birdan u, – gospitalga kir, bu yerda senga dala pochtasini bilib berishadi, axir. Nega bu avvalroq esimizga kelmadi.

Lyudmila Nikolayevna zinalardan ko'tarilib, qorovul bilan gaplashayotganini ko'rdi.

Shtrum burilishgacha borib, yana gospitalga kirish joyiga qaytdi. Yo'lovchilar uning yonidan yugurgilab o'tardilar, qo'llaridagi to'r xaltalarida esa ko'kimtir makaronlar va kartoshkalar suzgan ko'kimtir sho'rva quyilgan shisha bankalar ko'rinar edi.

– Vitya, – deb chaqirdi uni xotini.

Ovozining yangrashidan angladiki, u o'zini qo'lga olibdi.

– Demak, shunday, – dedi u. – Bu – Saratovda. Bosh vrach o'rinbosari yaqinda u yerga borib kelibdi. U menga ko'chani va uy raqamini yozib berdi.

Birdaniga ko'p ishlar, savollar o'rta qo'ldi – kema qachon jo'naydi, qanday qilib patta xarid qilish mumkin, narsalarni, oziq-ovqatni tayyorlash zarur, qarzga pul topish kerak, qandaydir xizmat safari yo'llanmasi olish darkor.

U faqat kuzning qorong'i oqshomida onasi, eri, Nadya bilan xayrlashuvi xotirasini olib ketdi. Kema sirtida qora to'lqinlar guvullardi, pastdan esadigan shamol urilardi, uvullardi, daryo suvining tomchilarini yig'ishtirib olib ketardi.

## 21

Ukrainaning nemislar tomonidan bosib olingan viloyatlaridan biri partiya qo'mitasi kotibi Dementiy Trifonovich Getmanov Uralda tashkil qilingan tank korpusi komissari etib tayinlandi.

Xizmat joyiga jo'nashdan oldin Getmanov «Duglas»da xavfli yerdan ko'chirilgan oilasi o'rnatilgan Ufaga uchdi.

O'rtoqlar, ufalik xodimlar uning oilasiga g'amxo'rlik ko'rsatdilar: maishiy va turar joy sharoitlarini yomon deb bo'lmasdi... Getmanovning xotini, urushgacha moddalarning nojo'ya almashuvi sababli to'laligi bilan ajralib turgan Galina Terentyevna ozmabdi, hatto ko'chirilgandan so'ng bir muncha to'lishibdi. Ikki qizi va kichkina, hali maktabga bormagan o'g'li sog' ko'rinar edi.

Getmanov Ufada besh kun bo'ldi. Jo'nab ketishidan oldin yaqin odamlari: xotining ukasi, Ukraina xalq komissarlari kengashi ish boshqarmasi boshlig'ining o'rinbosari; Getmanovning eski o'rtog'i,

xavfsizlik organlari xodimi, kiyevlik Mashchuk; va Dementiy Trifonovichning bojasi, Ukraina MK targ'ibot bo'limi mas'ul xodimi Sagaydak u bilan xayrlashgani kirdilar.

Sagaydak soat o'n birlarda, bolalar uxlab qolgan vaqtda, kirdi va past ovozda suhbatlashishdi. Getmanov o'ychanlik bilan dedi:

– Moskva yonilg'isidan bir qultumdan ichmaymizmi, o'rtoqlar?

Getmanovda hamma narsa alohida ravishda katta edi, – oqarayotgan sochlari tikkaygan kalla-bosh, keng, enlik peshona, go'shtdor burun, kaftlar, barmoqlar, yelkalar, yo'g'on, baquvvat bo'yin. Lekin uning o'zi katta va salmoqli qismlarning jamuljami baland bo'yli emas edi. Shunisi g'alatiki, uning katta yuzidagi kichkina ko'zlari, ayniqsa, e'tiborni tortardi va esda qolardi: ular tor bo'lib, bo'rtib chiqqan qovoqlar ostida zo'rg'a ko'rinardi. Ularning rangini ajratish qiyin – ko'kimtirliги ko'pmi yoki moviyliги – farqlolmaysan. Lekin ularda ko'p o'tkirlik, jonli, qudratli o'tkirlik mujassam edi.

Galina Terentyevna o'zining og'ir gavdasini yengil ko'tarib, xonadan chiqdi, erkaklar esa stolga ichkilik keltiriladigan paytda qishloqdagi uyda yoki shaharda o'tayotgan ulfatchilikda aksar takrorlanadigandek gap-so'zdan to'xtashdi. Tezda Galina Terentyevna patnis ko'targan holda qaytdi. Uning semiz qo'llari bir necha daqiqalarda shuncha konserva bankalarini ochgani, shuncha idishlarni topib, to'plagan qiziq tuyilardi.

Mashchuk ukrain plaxtalari<sup>1</sup> osilgan devorlarga ko'z yugurtirib, keng katga, mehmondo'st shishalarga va konserva bankalariga qarab, dedi:

– Men sizlarning uyingizdagi bu katni taniyman, Galina Terentyevna, uni olib kelishni eplabsiz, qoyilman, turgan gapki, tashkilotchilik qobiliyatingiz bor.

– Sen shuni hisobga ol, – dedi Getmanov, – ko'chirilish mahalida men uyda yo'q edim – hammasini o'zi qilgan!

– Uni nemislarga tashlab kelib bo'larmidi, yurtdoshlar, – dedi Galina Terentyevna. – Dima ham unga o'rganib qolgan, obkom byurosidan keladi-yu darhol katga ag'anab, hujjatlarni o'qishga tushadi.

<sup>1</sup> *Plaxta* – qo'lda to'qiladigan yo'l-yo'l yoki katak-katak ukraincha gazlama. – Tarj.

– Qanday qilib: o'qiydi! Uxlaydi, – dedi Sagaydak.

U yana oshxonaga chiqib ketdi, Mashchuk Getmanovga yuzlanib, past ovozda ayyorona dedi:

– Oh, men bizning Dementiy Trifonovich tanishadigan ayol-doktorni, harbiy vrachni tasavvur qilaman.

– Ha, u tinch qo'yib bo'пти, – dedi Sagaydak.

– Yetar, sizlarni nima jin urdi, – abgorman!

– Qanaqasiga, – dedi Mashchuk, – Kislovodskda tungi soat uchda palataga qaytgan kim edi?

Mehmonlar xaxolab kulishdi, Getmanov xotiniining ukasiga birrov, lekin sinchkovlik bilan nazar tashladi.

Galina Terentyevna kirdi va kulayotgan erkaklarga qarab, so'zlandi:

– Hali xonadan xotiniining qadami uzilgani yo'g'-u, jin ursin, bu-lar mening sho'rlik Dimamni nimalarga o'rgatishayapti.

Getmanov qadahlarga aroq quya boshladi va hamma o'z g'amini yeb, gazak tanlashga kirishdi.

Getmanov Stalinning devorda osig'liq turgan portretiga qarab, qadah ko'tardi va dedi:

– Qani, o'rtoqlar, birinchi qadahni bizning otamiz uchun ko'taramiz, u biz uchun sog' bo'lsin.

U bu so'zlarni biroz dag'alroq, o'rtoqlarcha ovoz bilan aytdi. Bu sodda ohangning mohiyati shunda ediki, Stalinning ta'sir doirasiga hammaga ma'lum edi, lekin stol atrofida yig'ilgan kishilar, avvallo, uning siymosida oddiy, kamtar va ziyrak odamni sevib, shuning uchun qadah ko'tarmoqda edilar. Portretdagi Stalin ham ko'zini qisib, dasturxonga va Galina Terentyevnaning to'lg'in ko'kragiga qarab, shunday deyayotgandek tuyilardi: «Mana, yigitlar, trubkamni chekib olay, so'ng sizlarga yaqinroq o'tiraman».

– To'ppa-to'g'ri, bizning otaxonimiz yashasin, – dedi uy bekasining ukasi, Nikolay Terentyevich. – Usiz biz hammamiz nima qila olar edik?

U qadahni og'zi oldida tutib turgan holda, biror narsa qo'shadimi, deb, Sagaydakka o'girildi, lekin Sagaydak portretga nigohini qaratib: «Yana nima ham derdik, ota, sen hammasini bilasan», – dedi va ichdi. Hamma ichdi.

Dementiy Trifonovich Getman asli Voronej viloyatidagi Liven-dan, lekin uning ukrain o'rtoqlar bilan aloqalarining ildizi chuqur,

zero u uzoq yillar Ukrainada partiyaviy ish olib borgan edi. Galina Terentyevnaga uylanishi uning Kiyev bilan aloqalarini mustahkamladi, xotining ko'plab qarindoshlari Ukraina partiya va sovet tashkilotlarida muhim o'rinlarni egallagan edilar.

Dementiy Trifonovichning hayoti zohiriy hodisalarga boy emas, anchagina kambag'al edi. U grajdanlar urushida qatnashmagan. Uni jandarnlar ta'qib etmagan, chor sudi hech qachon Sibirga surgun qilmagan. U odatda konferensiyalar va syezdlarda ma'ruzalarini qo'lyozmadan o'qirdi. Ma'ruzalarni o'zi yozmagan bo'lsa-da, tutilmay, ifodali qilib, yaxshi o'qirdi. To'g'ri, ularni o'qish oson edi, chunki ular katta harflar bilan satrlar oralig'ini ikki marta orttirib, Stalin nomini alohida ajratib qizil harflarda yozilgan edi. U qachonlardir bama'ni, intizomli yigitcha edi, mexanika institutida o'qishni xohlardi, lekin uni xavfsizlik organlarida ishlashga safarbar etishdi, tez orada u o'lka kompartiyasi kotibining shaxsiy qo'riqchisiga aylandi. Shunda u nazarga tushdi va partiyaviy o'qishga yuborildi, so'ng esa partiya apparatiga dastlab o'lka partiya qo'mitasining tashkiliy-instruktorlik bo'limiga, keyin Markaziy Qo'mita kadrlar boshqarmasiga ishga qabul qilindi. Bir yil o'tgach, u boshqaruvchi kadrlar bo'limi instruktori bo'ldi. Tez orada, o'ttiz yettinchi yildan so'ng, viloyat partiya qo'mitasi kotibiga, yoki boshqacha aytganda, viloyat xo'jayiniga aylandi.

Uning so'zi universitet kafedra mudiri, injener, bank direktori, kasaba uyushmasi raisi, dehqon jamoa xo'jaligi, sahna asari taqdirini hal qilishi mumkin edi.

Partiya ishonchi! Getmanov bu so'zlarning ulug' ahamiyatini bilardi. Partiya unga ishonch bildirdi! Uning ulug' kitoblar, mashhur kashfiyotlar, g'alaba qozonilgan janglardan xoli bo'lmish butun hayotiy mehnati shiddatli, sobitqadam, o'ziga xos, hamisha qizg'in, zo'r mehnat edi. Bu mehnatning asosiy va oliy maqsadi shunda umumlashardiki, u partiya talabi va partiya manfaatlari zahirida vujudga kelardi. Bu mehnat uchun yagona – asosiy va oliy mukofot partiya ishonchi edi.


Gap bolalar uyiga jo'natilayotgan go'dakning taqdiri haqidami, universitetning qayta tashkil etilayotgan biologiya kafedrasini haqidami, plastmassa ishlab chiqaruvchi artelni kutubxonaga tegishli binodan chiqarib yuborish haqidami – har qanday holatda uning qarorlari

partiyaviylik ruhi, partiya manfaatlari bilan sug'orilgan bo'lishi kerak. Rahbarning ishga, kitobga, rasmga munosabati partiyaviylik ruhi bilan sug'orilgan bo'lishi kerak, modomiki, shunday ekan, qanday qiyin bo'lmasin, agarda partiya manfaatlari o'z shaxsiy xayrxohligi bilan zid kelsa, u hech ikkilanmay odatiy ishdan, sevimli kitobidan voz kechishi zarur. Ammo Getmanov bilardi: partiyaviylikning nisbatan oliyroq darajasi amal qiladi; uning mohiyati shundaki, odam umuman partiyaviylik ruhiga qarama-qarshi boruvchi biron maylga, biron xayrxohlikka ega bo'lmaydi, partiyaviy rahbar ko'ngliga yaqin va aziz narsa – u partiyaviylik ruhini ifodalagani uchun ham yaqin va azizdir.

Gohida Getmanov partiyaviy ruh nomi bilan shafqatsizlarcha, johillarcha qurbonliklar qilardi. Bu yerda hamyurtlar, yoshlikdan ko'ngilni minnatdorlik, qarzdorlik hissi bilan to'ldirgan o'qituvchilar deb andishaga borilmaydi, bu yerda muhabbat, rahmdillik bilan hisoblashilmaydi. Bu yerda «yuz o'girdi», «qo'llab-quvvatlamadi», «juvonmarg qildi», «xoinona ish tutdi» kabi so'zlar bezovta etmaydi... Lekin partiyaviy ruh shunda namoyon bo'ladiki, qurbonlik begumon va hojati ham yo'q, shuning uchun hojati ham yo'qki, muhabbat, do'stlik, yurtdoshlik – tabiiy, shaxsiy tuyg'ular, agar ular partiya-viy ruhga zid kelsa, saqlana olmaydi.

Partiya ishonchini qozongan odamlarning mehnati ko'zga ko'rinmaydi. Lekin bu mehnat ulkan – aqlni va qalbni to'lasicha, saxiylik bilan bag'ishlash kerak. Partiyaviy rahbarning kuchi olimlik iste'dodini, adiblik salohiyatini talab qilmaydi. U iste'dod uzra, salohiyat uzra o'rin egalladi. Garchi Getmanov kuylashni, royal chalishni, teatrda sahna asari yaratishni bilmaganidan tashqari, fan, she'riyat, musiqa, tasviriy san'at asarlarini did bilan, teran idrok etishni ham bilmasdi, lekin Getmanovning rahbarlik, hal qiluvchi so'zini tadqiqot yaratish, kuylash, kitoblar yozish salohiyatiga ega yuzlab odamlar yutoqib tinglardilar... Uning hal qiluvchi so'zining kuchi shunda ediki, partiya o'zining madaniyat va san'at sohasidagi manfaatlarini unga ishongan edi. U viloyat partiya tashkiloti kotibi ega bo'lgan ko'lamdagi hokimiyatga xalq kurashchisi, mutafakkir ega bo'lishi ehtimoldan uzoq edi.

Getmanovga tuyilardiki, «partiya ishonchi» tushunchasining eng teran mohiyati Stalinning fikri, sezgisi, munosabatida ifodalanar edi.





Partiya yo'lining mohiyati uning o'z safdoshlari, xalq komissarlari, marshallarga bo'lgan ishonchida edi.

Mehmonlar asosan Getmanovning kelgusidagi yangi harbiy ishi to'g'risida gapirdilar. Ular tushunardilarki, Getmanov bundan yuqoriroq vazifaga umid bog'lashi mumkin edi, chunki, odatda, uning partiyaviy mavqeyidagi odamlar harbiy ishga o'tganlarida, armiya, ba'zan esa front Harbiy kengashi a'zosi lavozimini egallardilar.

Getmanov, korpusga ishga tayinlangach, tashvishlanib, ranjib, o'z do'stlaridan biri – MK Tashkiliy byurosi a'zosi orqali yuqorida o'ziga qarshi norozilik bor – yo'qligini surishtirdi. Lekin xavotirli hech narsa sezilmadi.

Shunda Getmanov, tasalli axtarib, bu vazifaga tayinlanishining yaxshi tomonlarini topa boshladi axir tank qo'shinlari urush taqdirini hal qilishlari lozim, ular hal qiluvchi yo'nalishlarda jang olib borishlari lozim. Tank korpusiga har kimni ham jo'natishavermaydi, tank korpusidan ko'ra, frontning ikkinchi darajali bir qismidagi abgor armiya Harbiy kengashi a'zosi qilib yuborishni afzal bilishadi. Partiya ishonchini unga shu tarzda bildirdi. Lekin u baribir ranjigan edi, harbiy kiyimni kiyib, oynaga qarab: «Armiya Harbiy kengashi a'zosi, brigada komissari Getmanov» deyish unga juda yoqardi.

Nima uchundir unda korpus komandiri polkovnik Novikov o'ta noxushlik uyg'otardi. Polkovnikning o'zini hali biron marta ko'rgani yo'q, lekin Getmanov nimaniki eshitgan, bilgan bo'lsa, hammasi uning didiga o'tirishmasdi.

Bir stol atrofida o'tirgan do'stlari kayfiyatini tushunardilar, ular yangi ishi borasida aytgan gaplar yoqimli edi.

Bu korpusning Stalingradga yuborilish ehtimoli ko'proq, o'rtoq Stalin Stalingrad fronti qo'mondoni general Yeremenkoni grajdanlar urushi, aniqrog'i, Birinchi otliq armiya davridan biladi, VCh telefoni orqali u bilan tez-tez gaplashib turadi, Moskvaga kelgan vaqtida esa o'rtoq Stalin uni qabul qiladi... Yaqinda qo'mondon o'rtoq Stalinning Moskva atrofidagi dala hovlisida bo'ldi, o'rtoq Stalinning u bilan suhbatlari ikki soat davom etdi. O'rtoq Stalin shunchalik ishonch bilan qaraydigan odamning qo'mondonligi ostida jang qilishning xosiyati bor, – dedi Sagaydak.

Keyin, Getmanovni Nikita Sergeyevich o'zining Ukrainadagi ish davri bo'yicha bilishi va Nikita Sergeyevich Harbiy kengash

a'zosi bo'lgan frontga yuborilishi Getmanovning omadi ekani haqida so'zladilar.

– Tasodif emaski, – dedi Nikolay Terentevich, – o'rtoq Stalin Stalingradga Nikita Sergeyeovichni yubordi, hal qiluvchi front, boshqa kimni ham yuborish mumkin?

Galina Terentyevna qizg'inlik bilan dedi:

– Nima, o'rtoq Stalin mening Dementiy Trifonovichimni tank korpusiga yuborishi tasodifmi?

– Ha-ya, – dedi ochiqko'ngil bilan Getmanov, – mening korpusga borib tushishim viloyat partiya tashkiloti kotibligidan rayon partiya tashkiloti kotibligigacha o'sishdek bir gap. Ko'p xursand bo'lgulik emas.

–Yo'q, yo'q, – dedi Sagaydak jiddiy. – Bu tayinlanishda partiya ishonchi ifodalangan. Raykom, ha, oddiy emas, qishloq emas, balki Magnitogorskiy, Dneprodzerjinskiy. Korpus, ha, oddiy emas – tank korpusi!


Getmanov komissar bo'lib borayotgan korpus komandiri yaqinda tayinlanibdi, u ilgari birlashmalar ustidan komandirlik qilmagan. Buni shu kunlarda Ufaga kelgan front maxsus bo'limi xodimi aytdi, dedi Mashchuk.

– U menga, mana, tag'in nimalarni aytdi, – dedi Mashchuk va so'zini o'zi bo'lib, qo'shimcha qildi: – Siz tagiga yetmagan gap bormi, Dmitriy Trifonovich, siz uning haqida uning o'zidan ham ko'proq bilsangiz kerak.

Getmanov shusiz ham tor, o'tkir, aqlli ko'zlarini qisdi, go'shtdor burun teshiklarini jiyirdi va dedi:

– Ko'proq emish.

Mashchuk sezilar-sezilmas istehzoli kulimsirab qo'ydi, stol atrofiga o'tirganlarning barchasi uning istehzoli kulimsirashini ko'rdilar. G'alati, hayratlanarli ish: – garchi u Getmanovlar oilasining o'z odami va qadrmoni bo'lsa-da, garchi Mashchuk oilaviy uchrashuvlarda sipo, muloyim, kulgini xush ko'radigan odam bo'lsa-da, baribir Getmanovlar uning mayin, tinch oqar ovozigacha quloq solib, qora, xotirjam ko'zlari va rangpar, cho'ziq yuziga qarab, o'zlarida qandaydir tanglikni his qilardilar. Getmanovning o'zi, buni his qilib, hayron bo'lmasdi, qandaydir bir narsani, gohida Getmanov ham bexabar qolgan narsani bilguvchi Mashchuk orqasida turgan kuchni anglardi.



– Qanaqa odam ekan? – deb so‘radi Sagaydak.

Getmanov lutfan javob qildi:

– Shunaqa bir odam, urush davrida ko‘tarilganlardan, urushgacha biron xislati bilan ajralib turmagan.

– Alohida ro‘yxatda turganmi? – dedi uy bekasining ukasi kulib.

– Be, alohida ro‘yxat deydi-ya, – Getmanov qo‘lini siltadi. – Lekin kerakli odam, aytishlaricha, yaxshi tankchi. Korpus shtabi boshlig‘i – general Neudobnov. Men u bilan partiyaning o‘n sakkizinchi syezdida tanishganman. Bama‘ni odam.

Mashchuk dedi:

– Neudobnov, Illarion Innokentevich? Xuddi o‘zi. Men uning qo‘l ostida ish boshlaganman, keyin taqdir ajratdi. Urush arafasida men u bilan Lavrentiy Pavlovich qabulxonasida uchrashib qoldim.

– Xo‘p, ajratdi, – dedi Sagaydak kulib. – Sen dialektik ravishda yondosh, qarama-qarshilik emas, aynanlik va birlik axtar.

Mashchuk dedi:

– Urush davrida hammasi telba-teskari, – qandaydir korpusdagi komandir, Neudobnov esa uning yetovida ketayapti.

– Harbiy tajribasi yo‘q. Hisoblashishga to‘g‘ri keladi, – dedi Getmanov.

Mashchuk esa borgan sari taajjublanardi:

– Hazil gapmi, uning bir og‘iz so‘zi nimalarga qodir edi! Staji inqilobdan avvalroq boshlangan partiya a‘zosi, harbiy va davlat ishida to‘plangan katta tajriba! Bir paytlar, u hay‘at a‘zosi bo‘ladi, deb o‘ylagandilar.

Qolgan mehmonlar uni qo‘llab-quvvatlashdi.

Ayni paytda ular Neudobnovga hamdardlik orqali Getmanovga xayrxohliklarini o‘ng‘ay ifodalamoqda edilar.

– Ha, urush ishkali qildi, tezroq tugasa edi, – dedi uy bekasining ukasi.

Getmanov barmoqlarini kergan holda qo‘lini Sagaydak tomonga havolatib, dedi:

– Siz Kiyevga MK lektorlar guruhida kelib, xalqaro ahvol to‘g‘risida ma‘ruza qilgan moskvalik Krimovni bilarmidingiz?

– Urushdan ilgari kelganmidi? Haligi og‘machimi? Qachonlardir Kominternda ishlagan?

– To‘g‘ri, o‘sha. Mening manovi korpus komandirim uning sobiq xotiniga uylanishga jazm etgan.

Bu yangilik hech kim Krimovning sobiq xotinini, unga uylanmoqchi bo‘lgan korpus komandirini ham bilmasa-da hammaning kulgisini qistatdi.

Mashchuk dedi:

– Ha, bu ichidan pishganning zuvalasi bizning idorada iylangan. Uylanishini ham biladi.

– To‘g‘risini aytamiz, chog‘i bor, – dedi Nikolay Terentevich.

– Bo‘lmasa-chi... Oliy Bosh qo‘mondonlik boqibeg‘amlarni ayaamaydi.

– E, yo‘q, bizning Getmanov boqibeg‘am emas, – deb qo‘ydi Sagadak.

Mashchuk xuddi o‘zining xizmat xonasiga o‘tib qolganday, jiddiy va odatdagidek tarzda dedi:

– Krimov deganlarini u Kiyevga kelgan paytlardanoq bilaman – mujmal. Uning aloqalari o‘nglar bilan ham, trotskiychilar bilan ham eng boshidan boshlab chirmashib ketgan. Hammasini aniqlash uchun esa shunisi ma‘qulki...

U sodda va ochiq-oydin gapirardi, xuddi to‘qimachilik fabrikasi direktori yoki texnikum o‘qituvchisi o‘z ishini sodda qilib tushuntirayotgandek bo‘lib tuyilardi. Lekin hamma anglab turardiki, uning so‘zlari faqat sirtidan sodda va erkin ko‘rinardi, aslida, u nimani aytish mumkin-u nimani aytish mumkin emasligini har kimdan ham ko‘proq bilardi. Hamsuhbatini jur‘ati, soddaligi va samimiyligi bilan qoyil qoldirishga ishqiboz Getmanov esa zohirdagi qizg‘in, bevosita suhbat zamirida sukut saqlayotgan pinhon teranlikni yaxshi bilardi.

Odatda, boshqa mehmonlarga qaraganda ishi ko‘p, sertashvish va jiddiy ko‘rinadigan Sagaydak kayfiyatidagi yengillik ta‘sirida Getmanovga quvnoqlik bilan tushuntirdi:

– Xotini yetarli darajada sinalmagan deb, tashlab ketgan uni.

– Shuning uchun bo‘lsa, mayli edi, – dedi Getmanov. – Lekin men fahmlashimcha, mening korpus komandirim tamomila yot odamga uylanayapti.

– Uylansa – uylansin, dardingni olay, – dedi Galina Terentyevna.  
– Asosiysi, bir-birini sevishsin.



– Muhabbat, albatta, asosiysi – buni hamma biladi va esida saqlaydi, – dedi Getmanov, – lekin, bundan tashqari, ba’zi bir sovet kishilari unutadigan narsalar ham bor.

– Mana bu to’g’ri, – dedi Mashchuk, – biz esa hech nimani unutmasligimiz kerak.

– Keyin nima uchun MK tasdiqlamadi, nima uchun u, nima uchun bu emas deb, ajablanishadi. O’zlari esa ishonchni oqlashmaydi.

Birdan Galina Terentyevna hayratlanganomuz, ohangdor qilib aytdi:

– Sizlarning suhbatingizni eshitishning o’zi g’alati, – xuddi urush yo’q, turgan-bitgan tashvish: bu korpus komandiri kimga uylanadi va uning bo’lg’usi xotining sobiq eri kim, degan gapdan iborat. Dima, sen kimga qarshi urushga chog’landing?

U erkaklarga istehzoli qaradi, shunda uning go’zal, jigarrang ko’zlari nimasi bilandir, balki o’tkirligi bilan bo’lsa kerak, erining qisiq ko’zlariga o’xshab ketgandek tuyildi.

Sagaydak g’amgin ovozda dedi:

– «Urushni unutish» degani nimasi... Hamma yerdan – eng chet kolxozdagi kulbadan to Kremlgacha – bizning og’alarimiz va o’g’illarimiz urushga ketayapti. Urush ham ulug’, ham Vatan urushi.


– O’rtoq Stalinning o’g’li – Vasiliy, qiruvchi-uchuvchi, keyin o’rtoq Mikoyanning o’g’li aviatsiyada jang qilayapti, eshitishimcha, Lavrentiy Pavlovichning o’g’li ham frontda, faqat qaysi qo’shin turida ekanini bilmayman. Keyin Timur Frunze leytenant, chamasi, piyoda askarlar safida... Keyin Dolores Ibarrurining o’g’li Stalingrad ostonalarida halok bo’ldi.

– O’rtoq Stalinning ikki o’g’li frontda, – dedi uy bekasining ukasi. – Ikkinchi o’g’li – Yakov artilleriya batareyasiga komandirlik qildi. To’g’risi, u – birinchi, Vaska – kichik, Yakov – katta. Sho’rlik yigit asirga tushib qoldi.

U katta o’rtoqlarning fikriga ko’ra, teginib bo’lmaydigan mavzuda so’z ochganini his qilib, jimidi.

Sukutni oradan ko’tarish uchun Nikolay Terentevich ochiq ko’ngillilik va beparvolik bilan dedi:

– Darvoqe, nemislar Yakov Stalin ularga go’yoki o’zi xohlab ma’lumotlar berayotgani haqidagi boshdan oyoq yolg’on varaqalarni yog’dirib yotipti.



Lekin uning atrofida yuzaga kelgan bo'shliq yanada noxushroq tus oldi. U xoh chin, xoh hazil esga olinmaydigan, og'iz ochish joiz hisoblanmaydigan narsa haqida valaqlagan edi. Iosif Vissarionovichning xotini bilan munosabatlari to'g'risidagi mish-mishlar kimningdir g'azabini qo'zg'asa, bu, mish-mishlarni samimiy ravishda inkor etuvchining xatosi shu mish-mishlarni tarqatuvchining xatosidan kamroq tosh bosmas edi, chunki u yo'l qo'yib bo'lmaydigan gap edi.

Getmanov, birdan xotiniga qarab, dedi:

– O'rtoq Stalin ishni o'z qo'liga olganda, ustiga-ustak, shu qadar mahkamlik bilan olganda, u yoqda nemislar tashvishga tushib tipirchilasin, jonginam.

Nikolay Terentevich esa Getmanov nigohini o'zining aybdorlaricha nigohi bilan qarshiladi.

Lekin stol atrofida o'tirganlar chakana odamlar emas edi va ular yuzaga kelgan noqulaylikdan jiddiy voqea – ish qo'zg'ash uchun uchrashmagan edi.

Sagaydak samimiy va o'rtoqlarcha so'z qotib, Nikolay Terentevichni Getmanov oldida qo'llab, dedi:

– Mana bu to'g'ri, biz esa o'z o'rnimizda noma'qulchiliklar keltirib chiqarmaslik payida bo'laylik.

– Behuda gapirmaylik ham, – deb qo'shimcha qildi Getmanov.

U o'z ta'nasini ichiga yutmay, qariyb dangaliga aytgani – Nikolay Terentevichni kechirganidan dalolat edi, – Sagaydak va Mashchuk buni ma'qullab bosh silkib qo'ydilar.

Nikolay Terentevich bu puch va yanglish hodisa unutilishini bilardi, lekin tamoman unutilmasligini ham bilardi. Qachondir, birdan, kadrlar haqida, ishda ko'tarilish haqida, alohida mas'uliyatli topshiriq haqida so'z ochilganda va Nikolay Terentevich nomi atalganda, Getmanov ham, Sagaydak ham, Mashchuk ham bosh qimirlatadilar-da, salgina kulimsiraydilar va sinchkov suhbatdoshning savoliga: «Bal-ki, jinday yengiltakroqdir», – deb jimjilog'ining uchini ko'rsatadilar.

Hamma ich-ichidan tushunardiki, Yakov xususida nemislar ko'p ham yolg'onlayotgani yo'q. Lekin xuddi shuning uchun bu mavzuga teginmaslik kerak edi.

Bunday ishlarda, ayniqsa, Sagaydak uquv bilan ish ko'rardi. U uzoq yillar gazetada ishladi, dastlab axborot bo'limini, keyin qishloq xo'jalik bo'limini boshqardi, undan so'ng ikki yilcha respubli-

ka gazetasining muharriri bo'ldi. U o'z gazetasining bosh maqsadi turli-tuman, ko'pincha tasodifiy voqealar borasida chalkash, sara-lanmagan xabarlar berish emas, o'quvchilarni tarbiyalash, deb hisoblardi. Agar muharrir Sagaydak qandaydir hodisani chetlab o'tish, shafqatsiz hosilsizlik haqida sukut saqlash, g'oyaviy noizchil doston, shaklbozlikdan iborat rasm, molga tekkan o'lat, zilzila, linkor halokati, kutilmaganda yer yuzidan minglab odamlarni yuvib ketgan ummon to'lqinlarining kuchini, kondagi katta yong'inni ko'rmaslik maqsadga muvofiq degan qarorga kelsa, bu hodisalar uning uchun ahamiyatsiz, o'quvchilar, jurnalistlar va yozuvchilar aqlini band qilishga arzimaydigan bo'lib tuyilganidan dalolat edi. Ba'zan unga muayyan hayotiy hodisani alohida yo'sinda tushuntirish ehtiyoji vujudga kelardi, goho bu tushuntirish favqulodda jur'atli, noodatiy, maishiy tasavvurlarga qarama-qarshi kelardi. Nazarida, uning muharrirlik kuchi, tajribasi, mahorati o'quvchilar ongiga kerakli, tarbiyaviy maqsadlarga yaroqli qarashlarni yetkazish uquvida edi.

Yalpisiga kollektivlashtirishni o'tkazish davrida qo'pol qing'ayishlar ro'y berganda, Stalinning «Yutuqlardan esankirash» maqolasi e'lon qilingunicha, quloqlar g'allalarni qasddan ko'mib tashladi, qasddan non yemadi va shu sababdan shishdi, davlatga qasddan yosh bolalar, chollar va kampirlar bilan birgalikda butun qishloqlar o'ldi, shuning uchun yalpisiga kollektivlashtirish davrida ochlik kelib chiqdi, deb yozdi.

Va shu yerning o'zida u kolxozlar yaslilarida bolalar har kuni tovuq sho'rva, somsalar va guruchli kotletlar berib boqilayotgani to'g'risidagi maqolalarni joylashtirdi.

Urush boshlandi, bu ming yillik hayoti davomida Rossiyaning chekiga tushgan eng shafqatsiz va dahshatli urushlardan biri edi. Va mana urushning birinchi haftalari, oylarining nihoyatda ayovsiz sinovlari davomida uning qirib bitiruvchi olovi hodisalarning mavjud, haqiqiy, muqarrar oqimini birinchi o'ringa chiqardi, urush barcha taqdirlarni, hatto partiya taqdirini belgiladi. O'sha mahaldayoq dramaturg Korneychuk o'zining «Front» pyesasida urushning muvaffaqiyatsizliklari hech qachon yanglishmaydigan qo'mondonning, Oliyning ko'rsatmalarini bajara olmagan g'o'r generallar bilan bog'liq ekanini tushuntirdi.

Bu oqshomda ko'ngilsiz lahzalarga duch kelish birgina Nikolay Terentevichning emas, boshqalarning peshonasiga ham yozilgan edi.

Mashchuk qalin karton varaqlariga fotosuratlar yopishtirilgan charm muqovali katta albomni varaqlar ekan, birdan qoshlarini shunday ifodali chimirdiki, hamma beixtiyor albomga intildi. Bu urushgacha viloyat partiya tashkiloti kotibi Getmanovning o'z ishxonasida olingan fotosurati edi, u cho'lday keng yozuv stoli oldida, yarimharbiy tusdagi gimnasterkada o'tirar, uning tepasida Stalinning faqatgina viloyat partiya tashkiloti kotibi xonasidagina bo'lishi joiz hisoblangan juda katta portreti osig'liq turardi. Portretidagi Stalinning yuzi rangli qalamlar bilan chaplab bo'yab tashlangan, iyagiga ko'm-ko'k qisqa qirqilgan cho'qqi soqol chizilgan, quloqlariga moviy sirg'alar taqilgan edi.

– Bu qanaqa bola o'zi! – deb qichqirdi Getmanov va hatto ayollarga o'xshab, qo'llarini bir-biriga urdi.

Galina Terentyevna ichi kuyib ketdi, mehmonlarga mo'tirab, shunday deb takrorlardi:

– Bilasizlarmi, kecha uyquga yotishdan oldin: «Men Stalin amakini dadamday yaxshi ko'raman», – degan edi axir.

– Bolalarcha sho'xlik, – dedi Sagaydak.

– Yo'q, bu sho'xlik emas, ashaddiy bezorilik, – deb tin oldi Getmanov.

U Mashchukka ko'zlarini sinovchan tikdi. Bu daqiqada har ikkisi urushgacha ro'y bergan bir voqeani eslashdi – ularning hamyurtining jiyani, talaba-politexnik yotoqxonada havo kuchi bilan ishlaydigan miltiqdan Stalinning portretiga o'q uzgan.

Ular galvars talaba hech qanday siyosiy, buzg'unchilik maqsadlarini ko'zlamaganini, maynabozchilik qilganini bilardilar. Hamyurti, ajoyib odam, MTS direktori – Getmanovdan – jiyanining joniga oro kirishni so'radi.

Getmanov viloyat partiya tashkiloti byuro majlisidan so'ng Mashchuk bilan shu haqda gaplashdi.

Mashchuk dedi:

– Dementiy Trifonovich, biz bolalar emasmiz axir – aybdor, aybdor emas, buning qanday ahamiyati bor... Agarda men bu ishni to'xtatsam, ertaga Moskvaga, ehtimol, Lavrentiy Pavlovichning shaxsan o'ziga xabar qilishadi: Mashchuk ulug' Stalinning portretiga o'q uzganga murosasozlik bilan munosabatda bo'ldi. Bugun men ushbu xonadaman, ertaga qamoqxona changiga aylanaman.



Mas'uliyatni o'z zimrangizga olishni istaysizmi? Siz to'g'ringizda ham shunday deb aytishadi: bugun portretini otsa, ertaga o'zini otadi, Getmanovga bu yigitning nimasi ma'qul yoki uning qilgan ishi yoqadimi? Labbay? Zimrangizga olasizmi?

Bir yoki ikki oydan so'ng Getmanov Mashchukdan so'radi:

– Haligi o'qchining ahvoli qalay?

Mashchuk, unga xotirjam nazar tashlab, dedi:

– U haqida so'rashning hojati yo'q, quloq bachkisi bo'lib chiqdi ablah, tergovda tan oldi.

Endi Getmanov Mashchukka sinchkovlik bilan boqib, takrorladi:

– Yo'q, bu sho'xlik emas.

– Unchalik emas, yigitcha beshga kiryapti, yoshini baribir e'tiborga olish kerak.

Sagaydak shunday odamjonlik bilan gapirdiki, so'zlarining tafti hammaning ko'nglini iltidi:

– Sizlarga to'g'risini aytaman, bolalarga kelganda, qat'iylikka kuchim yetmaydi... Qat'iylik kerak, ammo ruhim sustlik qiladi. Men umid bog'layman: sog' bo'lishsa edi...

Hamma Sagaydakka qayishib, e'tiborini qaratdi. U baxtsiz ota edi. Katta o'g'li – Vitaliy to'qqizinchi sinfda o'qiyotganida yomon qiliqlar chiqardi, bir kuni restoranda urish-janjalga aralashib, militsiya qo'liga tushdi, otasi ichki ishlar xalq komissarining o'rinbosariga qo'ng'iroq qilib, taniqli odamlar – generallar, akademiklarning o'g'illari, bir yozuvchining qizi, dehqonchilik xalq komissarining qizi ishtirok etgan mojaroni suvashiga to'g'ri keldi. Urush davrida yosh Sagaydak armiyaga ko'ngilli bo'lib borishni tusab qoldi va otasi uni ikki yillik artilleriya bilim yurtiga joylashtirdi. Vitaliyini intizomsizligi uchun u yerdan haydashdi va madad uchun ajratilgan rota bilan frontga jo'natamiz, deb qo'rqitdilar.

Endi, bir oydirki, yosh Sagaydak minometchilar bilim yurtida o'qiyapti va u bilan hog'liq biron voqea yuz bergani yo'q – ota va ona quvonishyapti, umid qilishyapti, lekin ularning ichida xavotir bor.

Sagaydakning ikkinchi o'g'li – Igor ikki yoshida bolalar sholligi kasali bilan og'ridi va shuning oqibatida uni nogironga aylantirishdi, qurigan, qiltiriq oyoqchalari majolsiz – u qo'ltiqayoqlarda harakat qiladi. Igor maktabda o'qiy olmadi, o'qituvchilar uning uyiga qatnaldilar – u astoydil va tirishib o'qidi.

Nafaqat Ukrainada, balki Moskva, Leningrad, Tomskda ham Sagaydaklar Igor xususida maslahatlashmagan birona peshqadam-nervopatolog qolmadi. Sagaydak chet eldagi har bir yangi dorini savdo vakolatxonasi yoki elchixonasi orqali topib keltirardi. Bilardi ota-onalik mehri ham me'yoridan oshmasin deb, unga tanbeh berishlari mumkin va kerak. Lekin ayni vaqtda shuni ham bilardi: gunohi kechirilmas gunoh emas. Axir u ba'zi viloyat xodimlarining kuchli otalik tuyg'usiga to'qnash kelib, yangi xil odamlar o'z bolalarini nihoyatda teran sevishlarini uqib oldi. Bilardi – Igorni davolatishga bir tabib ayolni Odessadan samolyotda, Uzoq Sharqdagi kashish bobodan shifobaxsh o'tni toptirib, Kiyevga feldyeger<sup>1</sup> xaltasida keltirganlari ham kechiriladi.

– Bizning dohiylarimiz alohida odamlar, – dedi Sagaydak, – men o'rtoq Stalin haqida gapirayotganim yo'q, bu haqda so'z bo'lishi mumkin emas, lekin uning yaqin yordamchilari ham... Ular bu masalada ham partiyani otalik tuyg'usidan yuqori qo'yishadi.

– Ha, ular tushunishadi: bunaqasini har kimdan talab etib bo'lmaydi, – dedi Getmanov va MK kotiblaridan biri aybga qolgan o'g'liga ravo ko'rgan qattiqqo'llikka ishora qildi.

Bolalar borasidagi suhbat yangicha, samimiy va sodda tus oldi.

Bu odamlarning ichki kuchlari, ularning butun quvonish qobiliyati faqat Tanechkalari va Vitaliklari yuzining qizilligiga, maktabdan yaxshi baholar olib kelishlariga, Vladimirlari va Lyudmilalari bosqichdan bosqichga muvaffaqiyatli o'tishlariga bog'liqqa o'xshab tuyilardi.

Galina Terentyevna o'z qizlari to'g'risida so'zladi:

– Svetlankaning sog'ligi to'rt yoshigacha hech o'nnglanmadi, – kulunjar, kulunjar, qizgina bukilib qoldi. Uni faqat bir narsa – qirilgan xom olma bilan davoladik.

Getmanov gap qo'shdi:

– Bugun maktabga ketishidan oldin u menga shunday dedi: «Sinfda Zoya bilan meni generallarning qizlari, deydilar». Zoya uyatsiz, shunday deb kuladi: «Buni qarang-a, generalning qizi katta obro'mi! Bizning sinfimizda marshalning qizi bor – bu, maqtangulik!»

<sup>1</sup> *Feldyeger* – harbiy yoki davlat xizmatidagi maxsus chopar. – Tarj.

– Ko‘rdingizmi, – dedi quvnoqlik bilan Sagaydak, – ularning ko‘nglini topish qiyin. Igor kun bo‘yi menga bir gapni qayta-qayta aytdi: «Uchinchi kotib – buni qarang-a, uncha katta qush emas».

Mikola ham o‘z bolalari haqida ko‘p kulgili va quvnoq voqealarni so‘zlab berishi mumkin edi, lekin u Sagaydaklar Igori va Getmanovlar qizlari topqirligi to‘g‘risida gap ketganda, o‘z bolalari topqirligi xususida so‘zlash joiz emasligini bilardi.

Mashchuk o‘ychanlik bilan dedi:

– Bizning otalarimiz, qishloqda, bolalar bilan ko‘p ham urinmasdilar.

– Baribir bolalarni yaxshi ko‘rishardi, – dedi uy bekasining ukasi.

– Yaxshi ko‘rardilar, albatta, lekin savaldardilar ham, men o‘zimni nazarda tutayapman.

Getmanov dedi:

– Esimga tushdi, marhum otam o‘n beshinchi yilda urushga ketdi. Hazil gap emas, u unter-ofitser darajasigacha yetishdi, ikkita Georgiysi bor edi. Onam uni yo‘lga hozirladi, qopga paytavalalar, fufayka, qattiq pishirilgan tuxumlar, non soldi, biz esa singlim bilan katda yotibmiz va tongda, so‘nggi marta stol yonida o‘tirishini tomosha qilyapmiz. Pichan ichida turgan kichkina bochkaga suv keltirdi, o‘tin yorib qo‘ydi. Onam keyin bularning hammasini xotirladi.

U soatiga qaradi va dedi:

– O-ho...

– Demak, ertaga, – dedi Sagaydak va o‘rnidan turdi.

– Samolyot soat yettida uchadi.

– Grajdanlar aeroportidanmi? – deb so‘radi Mashchuk.

Getmanov bosh silkib qo‘ydi.

– Bu yaxshi, – dedi Nikolay Terentevich va o‘rnidan qo‘zg‘oldi, – harbiy aeroportgacha o‘n besh kilometr chiqadi.

– Soldatga buning nima ahamiyati bor, – dedi Getmanov.

Ular yana xayrlasha boshladilar, yana g‘ovur-g‘uvur qilishdi, kulishdi, quchoqlashishdi, mehmonlar paltosini va telpagini kiyib, uy yo‘lagida turganlarida, Getmanov dedi:

– Soldat hamma narsaga ko‘nikishi mumkin, soldat tutunda isinadi, bigizda soqolini oladi. Lekin soldat bolalari bilan ayriliqda yashashga ko‘nika olmaydi.

Uning ovozi, yuz ifodasi, jo'navotganlarning unga qarashidan bilsa bo'lardiki, bu yerda endi hazillashayotganlari yo'q edi.

22

Tunda Dementiy Trifonovich harbiy libosda, stol yonida o'tirib, yozar edi. Xalat kiyib olgan xotini uning biqinidagi stoldan joy olganicha, qanday yozayotganini kuzatardi. U xatni qo'liga olib, dedi:

– Bu o'lka sog'liqni saqlash bo'limi mudiriga, maxsus davolanishing va maslahatga borishing kerak bo'lib qolsa, taqdim etasan. Ruxsatnoma olishga ukang ko'maklashadi, u esa yo'llanma beradi, xolos.

– Limit olishga ishonchnoma yozdingmi? – deb so'radi xotini.

– Buning keragi yo'q, – dedi u, – viloyat partiya tashkiloti ishlar boshqarmasi boshlig'iga, yana ham yaxshisi, to'g'ri Puzichenkoning o'ziga qo'ng'iroq qil, kerakli ishni bitkazadi.

U bir dasta xatlar, ishonchnomalar, qisqa yozishmalarni xillab, dedi:

– Xo'p, hammasi bo'ldi, shekilli.

Ular jim bo'lib qolishdi.

– Sendan xavotirdaman, qo'shog'im, – dedi u. – Urushga ketyapsan axir.

U o'rmidan turdi, so'z qotdi:

– O'zingni ehtiyot qil, bolalarni ehtiyot qil. Konyakni chemodanga soldingmi?

U dedi:

– Soldim, soldim. Esingdami, ikki yilcha oldin, hozirgidek, menga ishonchnomalar yozib berib, tongda Kislovodskka uchgan eding?

– Endi Kislovodskda nemislar yuribdi.

Getmanov xona bo'ylab qadamladi, quloq soldi:

– Uxlashyaptimi?

– Albatta, uxlashayapti, – dedi Galina Terentyevna.

Ular bolalarning xonasiga o'tishdi. Bu ikki to'la, yirik jussa yarimqorong'ilikda ovoz chiqarmay harakatlanayotgani qiziq tuyilar edi. Uxlayotgan bolalarning boshlari oq yostiqlar ustida qorayib ko'rinar edi... Getmanov ularning nafasini eshitib turdi.

U yuragimning qattiq dukuri uxlayotganlarni bezovta qilmasin deb, kaftini ko'kragiga bosdi. Bu yerda, yarimqorong'ilikda, bolalar-

ga nisbatan mehr, xavotir, rahmning ezgin va keskir tuyg'usini sezdi u. O'g'lini, qizlarini quchoqlab, ularning uyquli yuzlaridan o'pishni juda-juda xohlardi. Bu yerda u nochor mehri, bemulohaza muhabbatni his qildi, bu yerda u gangib, dovdirab, kuchsizlanib qoldi.

Uni qarshisidagi, o'zi uchun yangi ish bilan bog'liq o'ylar xavotirga solmas, qo'rqitmas edi. Har gal zimmasiga yangi ish tushganida, u to'g'ri yo'nalishni, haqiqatan ham asosiy yo'nalishni hech qiynalmay topar edi. U tank korpusida ham shu yo'nalishni amalga oshira olishini bilardi.

Lekin bu yerda metin qattiqqo'llikni, qat'iylikni na qonunni, na yo'nalishni biladigan mehr bilan, muhabbat bilan qanday bog'lash mumkin.

U xotiniga nazar tashladi. U qishloqchasiga – qo'lini betiga tirab turardi. Nimqorong'ilikda, yuzi ozganday, yosharganday tuyilardi, to'ylaridan keyin birinchi marta dengiz bo'yida, qirg'oq jarligi tepasidagi «Ukraina» sanatoriysida yashaganlarida, u shunday ko'rinar edi.

Oyna ostida avtomobilning ishoraday sezilar-sezilmas tovushi yangradi – viloyat partiya tashkiloti mashinasi kelgan edi. Getmanov yana bolalari tomon o'girilib, yelkasini qisdi, bu xatti-harakatda uning, jilovlashga qurbi yetmayotgan tuyg'u oldidagi ojizligi ifodalangan edi.

U xayrlashuv so'zlari va o'pichlaridan keyin pochapo'stini, telpagini kiyib, mashina haydovchisi jomadonlarini olib chiqqunicha, yo'lakda turdi.

– Ana endi, dedi u va birdan boshidan telpagini olib, xotiniga qarab yurdi. uni qaytadan quchdi. Bu yangi, so'nggi xayrlashuvda, yarimochiq eshik orqali ko'chaning nam va sovuq havosi kirib, uy taftiga aralashganida, pochapo'stinning dag'al, oshlangan terisi xalatning muattar ipagiga teginganida, o'zlarining yagonaday tuyilgan hayotlari birdan bo'linib ketganini har ikkalasi sezdi va ularning yuragini alam o'rtadi.

Yevgeniya Nikolayevna Shaposhnikova Kuybishevda ancha vaqtlar oldin Shaposhnikovlar uyida tarbiyachi bo'lib xizmat qilgan nemis kampir Jenni Genrixovna Genrixson uyida joylashdi.

Yevgeniya Nikolayevnaga o'zining Stalingraddan keyin ikki o'rim sochli kichkina qizaloqning rasmana ayolga aylanib qolgani-  
dan tinmay hayratga tushayotgan kampirning yoniga – tinchgina xo-  
naga kelib qolishi taajjubli tuyilardi.

Jenni Genrixovna qachonlardir katta savdogar uyida oqsochlarga  
ajratilgan nimqorong'i xonachada yashardi. Endi har xonada bir oila  
yashardi va uxlanadigan, yeb-ichiladigan, mehmon kutiladigan, bir  
joyda yotib qolgan cholga tibbiy hamshira ukol qiladigan bu xona  
to'sqichlar, pardalar, gilamlar, burchakka tiralgan divan suyanchig'i  
va pechka yoni bilan bo'linardi.

Oshxona kechki mahallar bu yerda yashovchilarning ovozlari-  
dun guvullardi.

Shiftini qurum bosgan bu oshxona, kerosinkalarning qizg'ish-  
qoramtir olovi Yevgeniya Nikolayevnaga yoqar edi.

Arg'amchilarda quriyotgan ichkiyimlar, choyshablar orasida  
xalat, paxtali kamzul, gimnasterka kiygan yashovchilar g'ovur-  
g'uvuri eshitar, pichoqlar yaltillardi. Yuvilayotgan kirlarning  
bug'lari jomlar va tog'oralar ustida aylanardi. Keng plita hech qa-  
chon yoqilmas, uning kafellangan, oqarib ko'ringan yonlari o'tgan  
geologik davrda so'ngan vulqonning qorli qiyaliklari kabi sovuq  
tuslanardi.

Bu uyda frontga ketgan ishchi-yukchi oilasi, vrach-ginekolog, no-  
merli zavodning injeneri, taqsimlovchilarning kassiri – yolg'iz ona,  
frontda o'ldirilgan sartaroshning bevasi, pochta komendanti, sobiq  
mehmonxona – eng katta xonada esa poliklinika direktori yashardi.

Bu uy shaharday keng edi, hatto uning o'z savdoyisi – ko'zlari  
yoqimtoy, muloyim kuchukchani ko'zlarini eslatuvchi yuvosh qa-  
riyagina bor edi.

Bu uydagi odamlar tiqilishib, lekin tarqoq, nodo'stona, arazla-  
shib, yarashib, bir-biridan o'z hayotini yashirib va shu asnodayoq o'z  
hayotining barcha hol-ahvolini qo'shnilar bilan baralla va saxiylar-  
cha bo'lishib yashardilar.

Yevgeniya Nikolayevna bu uydagi narsalarni emas, yashovchilar-  
ni emas, balki ko'nglida ular uyg'otgan tuyg'uning rasmini chizgisi  
kelardi.

Bu tuyg'u murakkab va mashaqqatli edi, uni ifodalash ulug'  
rassomning qo'lidan ham kelmaydiganga o'xshardi. U xalq va dav-

latning qudratli harbiy kuchi va shu qorong'i oshxona, qashshoqlik, yolg'on-yashiq, nazari pastlik qo'shilmasidan, yorib tashlovchi harbiy po'latning oshxona kastrullari, kartoshka po'stloqlari bilan qo'shilmasidan vujudga kelardi.

Bu tuyg'uning ifodasi chiziqlarni qiyshaytirardi, qiyofalarni buzardi, parchalangan timsollar va nur o'ynagan joylarning qandaydir sirdan bema'no ko'rinuvchi gardishiga quyilardi.

Kampir Genrixson tortinchoq, beozor va hojatbaror zot edi. U ensiz oq yoqali qora ko'ylak kiyar, hamisha ochin-to'qin yursa-da, yuzlari har doim qirmizi edi.

Uning boshida birinchi sinfdagi Lyudmilaning qiliqlari, kichkina Marusya aytgan kulgili so'zlar, ikki yoshli Mitya oshxonaga fartukda kirib, qo'llarini bir-biriga urib: «Bavqat, bavqat!» – deb qichqirgani haqidagi xotiralar yashar edi.

Hozirda Jenni Genrixovna bir ayol-tish vrachining oilasida qatnab ishlovchi uy xizmatchisi edi – bekaning onasiga qarardi. Uy bekasi shahar sog'liqni saqlash bo'limi yo'llanmasi bilan besh-olti kunlab rayonga ketar, shunda Jenni Genrixovna yaqindagina insultni boshdan kechirgan, oyog'ini zo'rg'a sudrab bosadigan nochor kampirga yordam berish uchun uning uyida yotib qolardi.

Unda umuman egalik hissi yo'q edi, hamma vaqt Yevgeniya Nikolayevna oldida kechirim so'rar, uch rangli kekxa mushugining ahvolini hisobga olgan holda, darchani ochishiga ruxsat berishini iltimos qilardi. Uning asosiy intilishlari va tashvishlari, ishqilib, shu mushukni qo'shnilar xafa qilmasin, degan maqsaddan iborat edi.

Qo'shni xonada yashovchi sex boshlig'i, injener Dragin uning ajin bosgan yuziga, qizlarnikidek tik, qurigan qaddiga, qora ipda osilib turgan pensnesiga o'qrayib, masxaraomuz qarardi. Uning avomlarcha tabiati kampir o'tmish xotiralariga sodiq qolganidan, «madam» o'zining inqilobgacha bo'lgan tarbiyalanuvchilarini yengil soyabonli aravada o'ynatgani olib chiqqanlari, ularni Venetsiyaga, Parijga va Venaga kuzatib borganlari haqida ovsarnoma xushbaxt tabassum bilan hikoya qilishidan junbishga kelardi. U e'zozlagan «kichkina»larning ko'plari denikinchi, vrangelchilar saftariga kirib, qizil yigitlar tomonidan o'ldirilgandi, lekin kampirni kichkintoylar-

ning qizilcha, bo'g'ma, qulunj bilan og'riganlari to'g'risidagi xotiralar qiziqtirardi, xolos.

Yevgeniya Nikolayevna Draginga dedi:

– Men bunday ko'ngli bo'sh, yuvosh odamni boshqa uchratmaganman. Ishoning, bu uyda yashaydigan hamma odamlarning ichida undan yaxshirog'i yo'q.

Dragin Yevgeniya Nikolayevnaning ko'zlariga sinchkov, erkaklarcha dangal va beorlarcha tikilib, dedi:

– Vijirla, qaldirg'ochim, vijirla. Turar joy deb, siz nemislarga sotildingiz, o'rtoq Shaposhnikova.

Jenni Genrixovna sog'lom bolalarni sevmas edi, shekilli. U Yevgeniya Nikolayevnaga o'zining eng kasalmand tarbiyalanuvchisi, yahudiy-fabrika egasining o'g'li haqida, ayniqsa, tez-tez so'zlab berardi, uning daftarlarini, chizgan rasmlarini saqlab yurardi va har gal gap bu qobil bolaning o'limi tafsilotiga yetganida, yig'lardi.

Shaposhnikovlarnikida u ancha yillar avval yashagandi, lekin barcha bolalarning nomlarini va laqablarini eslardi, Marusyaning o'lganini bilib, yig'lab yubordi; u Qozonga, Aleksandra Vladimirovnaga jo'natish uchun qing'ir-qiyshiq yozuvi bilan xat boshlab qo'rgan, ammo uni hech tugata olmas edi.

Cho'rtanbaliq uvuldirig'ini u «og'izda erir» deb atardi va Jenyaga inqilobgacha bo'lgan tarbiyalanuvchilari nonushtada bir dastali piyolada quyuq bulyon ichib, bir parcha bug'u go'shti yeganlarini so'zlab berar edi.

U «Mening azizim, kumush bolam», deb, erkalaydigan mushugini o'z payogi bilan boqardi. Mushugi uni deb har narsa qilardi, bu battol, hurpaygan maxluq kampirni ko'rishi bilan butunlay o'zgarar, yoqimtoy, erka bo'lib qolardi.

Dragin uning Gitlarga munosabatini bilish uchun qayta-qayta so'rardi: «Xudo haqi, ayting»; lekin ayyor kampir o'zini antifashist deb e'lon qilib, fyureni odamxo'r deyardi.

Uning hech narsaga uquvi yo'q edi, kir yuvishni, ovqat pishirishni bilmasdi, do'konga borib, gugurt xarid qilganida esa sotuvchi shoshib-pishib, ta'minot varaqasidan, bir oylik qand yoki go'sht chekini, albatta, qirqib olib qolar edi.

Hozirgi bolalar ilgarigi – u «beozor» deb ataydigan tarbiyalanuvchilarga sira o'xshamas edi. Hamma narsa, hatto o'yinlar



o'zgargandi – «beozor» davrning qizlari serso<sup>1</sup> o'ynardilar, bog'ichli, loklangan dasta bilan urib, rezina to'pni otishardi, xol-xol bo'yoqli, bo'shtobroq to'plarni ham o'ynardilar va ularni oq to'r – to'rxaltada olib yurishardi. Hozirgilar voleybol o'ynaydilar, quloch otib suzadilar, qishda esa chang'ichi shimini kiyib, xokkey o'ynaydilar, qichqirishadi va hushtak chalishadi.

Ular bola oldirishlar, alimentlar, qalloblik bilan qo'lga kiritilgan va birkutirilgan ishchi ta'minot varaqalari, birovlarning xotinlariga frontdan moylar va konservalar keltirgan katta leytenantlar va podpolkovniklar bilan bog'liq voqealarni Jenni Genrixovnanadan ko'proq bilishardi.

Yevgeniya Nikolayevna o'zining bolalik yillari, otasi, Jenni Genrixovna, ayniqsa, yaxshi eslab qolgan ukasi – uning enagalik vaqtida ko'kyo'tal va bo'g'ma bilan og'rigan Dmitriy haqida nemis kampir hikoya qilib berishlarini xush ko'rardi.

Bir kuni Jenni Genrixovna dedi:

– O'n yettinchi yildagi – so'nggi xo'jayinlarim mening esimga tushadi. Mese – moliya vazirining o'rtog'i – oshxona bo'ylab yurib, gapirar edi: «Hammasi barbod bo'ldi, mol-mulk yoqilayapti, fabrikalar to'xtadi, valuta puchga chiqdi, seyflar o'g'irlandi». Mana, hozir sizlarda ro'y berganidek, butun oila bo'linib ketdi. Mese, madam va mademuazel Shvetsiyaga ketishdi, men tarbiyalagan o'g'li ko'ngilli bo'lib Kornilov armiyasiga qo'shildi, madam esa: «Har kuni xayrlashganimiz xayrlashgan, oxirzamon bo'ldi», – deb yig'lardi.

Yevgeniya Nikolayevna ma'yus jilmayardi-yu hech nima demasdi.

Bir kuni kechqurun hudud militsioneri paydo bo'lib, Jenni Genrixovnaga chaqiriqnoma berdi. Nemis kampir oq gulli shlapasini kiydi, Jenyadan mushugini to'ydirib qo'yishni so'radi va militsiyaxonaga jo'nadi, u yerdan ishga – tish vrachi onasining xizmatiga borishini aytib, bir kundan so'ng qaytib kelishga va'da berdi. Yevgeniya Nikolayevna ishdan qaytganida, xona xarob edi, qo'shnilar unga Jenni Genrixovnani militsiya olib ketganini aytishdi.

Yevgeniya Nikolayevna uning holidan xabar olgani bordi. Militsiyaxonada kampir nemislar eshelonida shimolga ketishini bildirishdi.

---

<sup>1</sup> Serso – iring'itilgan halqani chillak yoki dasta bilan tutib olish o'yini. – Tarj.

Oradan bir kun o'tib, hudud militsioneri va uy boshqaruvchisi ke-  
lib, muhrlangan – eski latta-luttalar, sarg'ayib ketgan fotosuratlar va  
sarg'ayib ketgan xatlarga to'la savatni olib ketishdi.

Jenya – kampirga issiq ro'molini berish yo'lini bilay deb,  
NKVDga bordi. Darcha oldidagi odam Jenyadan so'radi:

– Siz o'zi kimsiz, nemismisiz?

– Yo'q, men rusman.

– Uyingizga boring. Gap so'rab, odamlarni ovora qilmang.

– Men qishlik narsalarni aytayapman, axir.

– Sizga tushunarlimi? – deb, darcha oldidagi odam shuncha-  
lik muloyim ovozda so'radiki, Yevgeniya Nikolayevna qo'rqib  
ketdi.

Shu kuni kechqurun bu uyda yashovchilarning gaplarini eshitib  
qoldi – o'zi haqida so'zlashishayotgan edi ular.

Bir ovoz dedi:

– Baribir yaxshi ish qilmadi.

Ikkinchi ovoz javob berdi:

– Menimcha, esa aqli butun. Avval bir oyog'ini qo'yib oldi, keyin  
kampir to'g'risida kerakli joyga xabar yetkazdi, uning dumini tugdi  
va endi xonaning xo'jayini bo'lib oldi.

Erkak ovozi dedi:

– Qanaqa xona: xonacha.

To'rtinchi ovoz dedi:

– Ha, bunaqasi hech o'zini xafa qildirib qo'ymaydi, bunaqasi bi-  
lan hech o'zingni xafa qildirib qo'ymaysan.

Mushukning taqdiri ayanchli ekan. Odamlar uni qayerga olib bo-  
rib tashlash ustida bahslashayotganlarida, mushukning o'zi oshxona-  
da behafsala, uyqusirab turardi.

– Bu nemisni jin ursin, – derdi ayollar.

Kutilmaganda, Dragin: mushukni boqsalingiz, men ham qara-  
shaman, deb qoldi. Lekin mushuk Jenni Genrixovnadani so'ng uzoq  
yashamadi – qo'shni xotinlardan biri yo tasodifan, yo qasddan usti-  
dan qaynoq suv quyib yubordi va u o'ldi.

Kuybishevda, yolg'izlikda kechayotgan hayoti Yevgeniya Niko-  
layevnaning o'ziga yoqar edi.

U hech qachon hozirgidek erkin bo'lmaganga o'xshaydi. Hayotning og'irligiga qaramay, unda yengillik va erkinlik hissiyoti vujudga keldi. Uzoq vaqt, propiskadan o'tmaguncha, u ta'minot varaqasiga erisha olmadi, kuniga bir marta tushlik taloni bilan oshxonada ovqatlanib yurdi. U tongdanoq oshxonaga kiradigan vaqtini, o'ziga beriladigan bir tarelka suyuq oshni o'ylardi.

U bu davrda Novikov haqida kam o'yladi. U Krimov haqida tez-tez va ko'p, qariyb to'xtovsiz o'yladi, lekin bu fikrlarning yurakni yoritish kuchi yetarli emas edi.

Novikov to'g'risidagi xotirasi yalt etardi-yu so'nardi, tinkasini quritmasdi.

Lekin bir kuni ko'chada baland bo'yli, uzun shinelli harbiyni uzoqdan ko'rib qoldi, unga bu odam bir on Novikov bo'lib tuyildi. Uning nafas olishi qiyinlashdi, oyoqlari bo'shshdi, u o'zini qamragan baxtiyor tuyg'udan gangidi. Bir lahzadan so'ng yanglishganini tushundi va o'sha damdayoq hayajonlarini unutdi.

Tunda esa ilkidan uyg'onib ketdi va o'yladi:

«U nega xat yozmayapti, manzilni biladi-ku axir?»

U bir o'zi yashardi, yonida na Krimov, na Novikov, na jigarlari bor edi. Unga bu erkin yolg'izlik baxt bo'lib tuyildi. Lekin bu shunday bo'lib tuyilmoqda edi, xolos.

Bu vaqtda Kuybishevda Moskvadagi ko'pgina xalq komissarliklari, muassasalar, Moskva gazetlari tahririyatlari bor edi. Bu – diplomatik korpuslari bilan, Katta teatr baleti bilan, mashhur yozuvchilar bilan, Moskva konferanselari bilan, chet ellik jurnalistlar bilan birlikda Moskvadan ko'chirilgan, muvaqqat poytaxt edi.

Bu minglab Moskva ahlining hammasi uychalarda, mehmonxonalar nomerlarida, yotoqxonalarda o'tmashib, o'z odatiy ishlari – bo'lim mudirliklari, boshqarma va bosh boshqarma boshliqliklari bilan shug'ullanardilar, xalq komissarlari o'z qo'l ostidagi odamlar va xalq xo'jaliklarini boshqarardilar, favqulodda va muxtor elchilar hashamatli mashinalarda sovet tashqi siyosati rahbarlari qabullariga borardilar; Ulanova, Lemeshev, Mixaylov balet va opera tomoshabinlarini quvontirardilar; «Yunayted Press» agentligi vakili janob Shapiro matbuot anjumanlarida Sovinformbyuro boshlig'i Solomon Abramovich Lozovskoyga ilmoqli savollar berardi; yozuvchilar mamlakatning o'zidagi va chet eldagi gazetalar hamda radioga ma-

qolalar yozardilar; jurnalistlar gospitallarda to'plangan ma'lumotlar bo'yicha harbiy mavzularda yozardilar.

Lekin Moskva ahlining turmushi bu yerda tamomila o'zgardi – Buyuk Britaniya favqulodda va muxtor elchisining xotini ledi Krips mehmonxona restoranida talon bo'yicha olgan kechki ovqatini tanovul etganidan keyin, yeyilmay qolgan nonni va bir chaqmoq qandni gazeta qog'oziga o'rab, xonasiga olib ketardi; jahon gazetolari agentliklari vakillari yaradorlar orasida turtinib, bozor kezardilar, sinab ko'rish uchun o'zlari o'ragan papiroslarni barmoqlari bilan aylantirib, qo'lbola tamaki sifatini uzoq muhokama etardilar yoki o'z salmog'ini goh u, goh bu oyog'iga solib, hammomga navbatda turardilar; mehmondo'stligi ta'rifi yozuvchi ahli esa olamshumul masalalar, adabiyot taqdiri borasida bir qadah qo'lbola araq ustida, payok nondan gazak qilib, mulohaza yuritardilar.

Katta tashkilotlar Kuybishevda tor qavatlarga tiqilinch joylashtirilgan edi; yetakchi sovet gazetolari rahbarlari o'z huzurlariga kelgan odamlarni xizmat vaqtidan so'ng bolalar dars tayyorlaydigan xotin-qizlar esa bichish-tikish bilan shug'ullanadigan stollar yonida qabul qilardilar.

Bu davlat haybati va ko'chirilish beparvo muhtojligining duragayida qandaydir jozibadorlik mavjud edi.

Yevgeniya Nikolayevna propiskadan o'tgunicha, ko'p tashvish tortishiga to'g'ri keldi.

Sokin ovozi zo'rg'a eshutiluvchi, baland bo'yi odam – u ishlay boshlagan konstruktorlik byurosi boshlig'i, podpolkovnik Rizin birinchi kunlardan oq, propiskadan o'tmagan xodimni qabul qilgan boshliqning mas'uliyatini afsuslangannamo eslab qo'yadigan bo'lib qoldi. Rizin uni militsiya idorasiga yo'llab, qo'liga ishga olingani haqidagi ma'lumotnomani berdi.

Rayon militsiya bo'limi xodimi Yevgeniya Nikolayevnaning pasporti va ma'lumotnomasini olib, uch kundan keyin javobini bilishga kelishni buyurdi.

Yevgeniya Nikolayevna belgilangan kunda kelib, nimqorong'i yo'lakka kirdi, bu yerda qabul navbatini kutib o'tirganlar yuzida faqat pasport va propiska ishi bilan yurgan odamlarda uchraydigan alohida bir ifoda bor edi. U darcha yoniga bordi. Tirmoqlariga qora-qizil

lok surtilgan ayol qo'li unga pasportini uzatib, osoyishta ovoz bilan dedi:

– Sizga rad javobi berilgan.

U pasport stoli boshlig'i bilan gaplashish uchun navbatga tur-di. Navbatdagi odamlar shivirlab so'zlashardilar, yo'lak bo'ylab o'tuvchilar – lablari bo'yalgan, paxtalik va etik kiyib olgan xiz-matchi qizlarga o'girilib qarardilar. Yengil palto va kepka kiyib ol-gan, bo'ynidagi ensiz sharfi ostidan harbiy gimnasterkasining yoqa-si ko'rinib turgan bir odam etiklarini g'ichirlatib, shoshilmay o'tdi, eshikdagi yo inglizcha, yo fransuzcha qulfga kalit solib, ochdi, bu – pasport bo'limi boshlig'i Grishin edi. Qabul boshlandi. Yevgeniya Nikolayevna bir narsaga e'tibor berdi: navbati kelgan odamlar, odat-da, uzoq kutishlardan keyin ro'y berganidek, quvonib ketmasdilar, balki, ochib kiradigan eshigiga yaqinlasharkan, so'nggi daqiqada qochishga hozirlangandek, alanglardilar.

Yevgeniya Nikolayevna kutish mahalida onalarining uylariga ro'yxatga qo'yilmagan qizlar, ukasining uyida qayd etilishiga ruxsat qilinmagan shol, urush nogironini parvarishlashga kelganiga qara-may, hisobga olinmagan kishi haqidagi hikoyalarni rosa eshitdi.

Yevgeniya Nikolayevna Grishinning xonasiga kirdi. U indamay, o'tirgani joy ko'rsatdi, uzatgan qog'ozlarini ko'rib, dedi:

– Sizga rad javobi berilgan, nima istaysiz?

– O'rtoq Grishin, – dedi u ovozi titrab, – tushuning, shuncha vaqtdan beri menga ta'minot varaqasi berishmayapti, axir.

Grishin unga kiprik qoqmay boqdi, uning cho'ziq, navqiron yuzi-da o'ychan befarqlik aks etardi.

– O'rtoq Grishin, – dedi u ovozi titrab, – nimalar bo'layapti, o'zingiz o'ylang. Kuybishevda Shaposhnikov nomida ko'cha bor. U mening otam, Samaradagi inqilobiy harakatlarni boshlaganlardan biri, siz esa uning qizi propiskadan o'tishiga ruxsat bermayapsiz...

Grishinning xotirjam ko'zlari unga boqib turardi: nima degan bo'lsa, hammasini eshitmoqda edi.

– Chaqiriq kerak. Chaqiriqsiz ro'yxatdan o'tkazmayman.

– Men axir harbiy muassasada ishlayapman, – dedi Jenya.

– Sizning ma'lumotnomalaringizda bu narsa aks etmagan.

– Buning yordami tegadimi?

– Ehtimol.

Tongda Yevgeniya Nikolayevna ishga kelib, Rizinga o'zining propiskadan o'tishiga ruxsat berishmaganini aytdi, – u yelkalarini qisib, sekingina dedi:

– Eh, tentaklar, nahotki, tushunishmaydi, siz ilk kunlardanoq bizga zaruriy xodim bo'lib qoldingiz, siz mudofaa ahamiyatiga molik ishni bajarayapsiz.

– Ana, ana, – dedi Jenya. – U bizning muassasa Mudofaa xalq komissarligiga qarashli ekani to'g'risida ma'lumotnoma kerakligini aytdi. Sizdan juda o'tinib so'rayman, shunday ma'lumotnoma yozib bering, uni kechqurun militsiya idorasiga olib boraman.

Ancha vaqtdan keyin Rizin Jenya yoniga kelib, aybdorlarcha bir ohangda dedi:

– Tashkilotlar yoki militsiya rasmiy talab yuborishi kerak. Rasmiy talab bo'lmasa, mening bunday ma'lumotnomani yozishim taqiqlangan.

Kechqurun u militsiya idorasiga bordi, navbati kelgach, iltifotlab tabassumlari uchun o'zini yomon ko'rib, Grishindan Rizin ma'lumotnoma yozishi uchun rasmiy talab yuborishini so'ray boshladi.

– Hech qanday rasmiy talab yozmoqchi emasman, – dedi Grishin. Rizin Grishinning rad javobini eshitib, uf tortib, dedi:

– Bilasizmi, hech bo'lmasa, qo'ng'iroq qilib, rasmiy talabini aytishini so'rang.

Kelasi oqshom Jenyaning qachonlardir otasi bilan oshnachilik qilgan moskvalik adabiyotchi Limonov bilan uchrashuvi bor edi. U ishdan chiqishi bilanoq militsiya idorasiga borib, navbat kutib o'tirganlardan, pasport bo'limi boshlig'i huzuriga «bor-yo'g'i bir daqiqaga» kirib, bir og'iz gapni so'rab olay, deb, o'tindi. Odamlar yelka qisib qo'yishdi-yu ko'zlarini olib qochishdi. U ranjib dedi:

– Shundaymi, mayli, oxiri kim?..

Jenyaning bu kungi militsiya idorasi bilan bog'liq xotiralari, ayniqsa, og'ir bo'ldi. Oyoqlari shishgan xotin pasport bo'limi boshlig'i xonasiga kirganida, jazavasi tutib: «Men sizga yolvoraman, men sizga yolvoraman», – deb qattiq qichqirdi. Qo'li cho'loq bir odam Grishinning xonasida so'kindi, undan keyin kirgan ham shovqin soldi, «Ketmayman!» – degan so'zlari quloqqa chalindi. Lekin u juda tez jo'nab qoldi. Bunday shovqin-suron davomida birgina Grishin-

ning ovozi eshitilmadi, xolos, go'yoki, u yo'q edi – odamlar yolg'iz, o'zlari o'zlariga qichqirishmoqda, po'pisa qilishmoqda edi.

U bir yarim soat navbatda o'tirdi va tag'in, o'zining xushmuomalalik balqqan yuzidan va «o'tiring» ma'nosidagi bir imoga javoban shoshilib aytgan «katta rahmat»idan nafratlanib, Grishindan o'z boshlig'iga qo'ng'iroq qilishini iltimos eta boshladi: Rizin, dastlab, yozma rasmiy talab yuborilmasa, raqamlangan, muhr bosilgan ma'lumotnoma berishga huquqi bor yoki yo'qligini o'ylab, ikkilandi, lekin keyin roziligini bildirdi, u: «Sizning falon oy, falon kungi og'zaki talabingizga asosan», – deb ko'rsatib, ma'lumotnoma yozadi.

Yevgeniya Nikolayevna Grishinning oldiga avvaldan tayyorlab olgan qog'ozini qo'ydi, unda katta harflar bilan Rizinning telefon raqami, ismi, otasining ismi, unvoni, lavozimi va mayda qilib, qavs ichida «Tushlik tanaffus ... dan ... gacha» deb yozilgan edi. Lekin Grishin oldiga qo'yilgan qog'ozga qaramasdan, dedi:

– Men hech qanaqa talab qilmayman.

– Lekin nima uchun? – deb so'radi u.

– Mumkin emas.

– Podpolkovnik Rizin deydiki, u rasmiy talabsiz, hech bo'lmasa, og'zaki talabsiz, ma'lumotnoma yozishga haqli emas.

– Haqi yo'q ekan, yozmasin.

– Lekin men nima qilishim kerak?

– Men qayerdan bilaman.

Jenya uning xotirjamligidan dovdirab qoldi. – agarda, u, muncha uquvsiz ekansiz, deb, ranjisa, jahli chiqsa, sal yengilroq tuyilarmidi, kim bilsin. U esa yarim o'girilib, kiprik qoqmay o'tirardi, hech yoqqa shoshmasdi.

Erkaklar Yevgeniya Nikolayevna bilan gaplashganlarida, uning go'zalligini hamisha payqardilar, u buni sezardi. Lekin Grishin uni ham, ko'zlari yoshlangan kampir-u nogironlarni ham birday ko'rardi – uning xonasiga kirishi bilan, u odam yosh ayol bo'lmay qolgan, ari-zachi edi, xolos.

U o'zining kuchsizligidan, buning temirbeton kuchi kattaligidan kalovlandi. Yevgeniya Nikolayevna ko'cha bo'ylab borarkan, Limonov huzuriga bir soatdan ko'proq kechikayotgani uchun shoshilardi, ammo shoshilsa-da, bo'lajak uchrashuvdan quvonmasdi. U militsiya yo'lagi hidini his qilar, ko'z o'ngida esa kutuvchilarning qiyofalari,

Stalinning elektr nuri xira yoritib turgan portreti va uning yonidagi Grishin gavdalanardi. Xotirjam, sodda, o'zining o'larjonida davlat qoyatoshining har narsaga qodirligini jamlagan Grishin.

Yo'g'on va bo'ydor, kallasi katta, boshining sochi to'kilgan joyi atrofini o'smirlarnikidek bevosh jingalaklar qoplagan Lisunov uni quvonch bilan kutib oldi.

– Siz kelmaysizmi deb, qo'rqan edim, – dedi u Jenyaga paltosini yechishda yordamlashib.

U Aleksandra Vladimirovna haqida so'rab-surishtira boshladi:

– Sizning onangiz talabalik chog'imdanoq men uchun mardona qalbli rus ayolining namunasiga aylangan. Men hamisha kitoblarimda u haqida yozaman, ya'ni shaxsan u haqida emas, tushunasizmi, qisqasi, umuman.

Ovozini pastlatib va eshikka qarab qo'yib, u so'radi:

– Dmitriy to'g'risida biron xabar bormi?

Keyin ular tasviriy san'atdan so'z ochishdi va har ikkalasi Repin-ni koyib ketishdi. Limonov elektrplittkada tuxumquymoq pishirishga kirishdi, butun mamlakatda quymoqning eng zo'r ustasi – menman, «Natsional» restorani oshpazi mendan o'rgangan dedi.

– Qalay? – Jenyani mehmon qilar ekan, xavotirlanib so'radi u va tin olib, qo'shib qo'ydi: – Iqorman, to'yib yeyishni yaxshi ko'raman.

Militsiya taassurotlarining ruhiy azob-uqubatlari qanchalik og'ir edi! Limonovning issiq, kitoblar va jurnallarga to'la xonasiga kelib, bu yerga tez orada, yana, yoshi o'tinqiragan, zakiy, san'atsevar ikki kishi kirib keldi, u muzlayotgan yuragi bilan Grishinni har on his qilardi.

Lekin erkin, aqlli so'z ulug' kuchga ega va Jenya ba'zi daqiqalarda Grishinni, navbat kutib o'tirgan ma'yus qiyofalarni unutdi. Hayotda Rublev haqidagi, Pikasso haqidagi, Axmatova va Pasternak she'rlari, Bulgakov dramalari haqidagi gaplardan boshqa hech narsa yo'qday tuyilardi.

U ko'chaga chiqdi va darhol hamma aqlli gaplar yodidan ko'tarildi.

Grishin, Grishin... Uyda hech kim u bilan propiskadan o'tgani to'g'risida so'zlashmadi, hech kim ro'yxatdan o'tganini tasdiqlovchi to'rtburchak muhr bosilgan pasportini ko'rsatishini talab qilmadi. Ammo bir necha kunlardan beri unga, uy boshlig'i – uzun burunli,



hamisha muloyim, uddaburon, ayyorona, g'irt yasama ovozi ayol – Glafira Dmitriyevna o'zini kuzatayotgandek bo'lib tuyilardi. Har gal Glafira Dmitriyevnaga duch kelib, uning qora, ayni paytda muloyim va xo'mraygan ko'zlariga boqqanida, Jenya qo'rqardi. Nazarida, o'zi yo'g'ida, Glafira Dmitriyevna kerakli kalitni topib, eshikni ochib, xonasiga kirayotgandek, qog'ozlarini titayotgandek, militsiyaga yozgan arizalaridan nusxalar olayotgandek, xatlarini o'qiyotgandek edi.

Yevgeniya Nikolayevna eshikni ovoz chiqarmasdan ochishga intilar, uy boshlig'ini uchratib qolishdan cho'chib, yo'lakda oyoq uchida yurardi. Ana endi u shunday deb qoladi: «Nima uchun siz qonunlarni buzayapsiz, men sizni deb javob berishim kerakmi?»

Tongda Yevgeniya Nikolayevna Rizinning xonasiga kirib, unga o'zining pasport stolidagi navbatdagi omadsizligini so'zlab berdi.

– Men Qozonga ketmoqchiman, kemaga patta xarid qilishimda yordam bering, aks holda, pasport tartibini buzganim uchun meni torf qazishga haydashsa, ajab emas.

Shundan keyin unga ma'lumotnoma to'g'risida og'iz ochmadi, istehzoli, zardali so'zlardi.

Sokin ovozi, uikan, kelishgan odam, o'z tortinchoqligidan uyalib, unga boqardi. U har doim o'ziga ternilgan shu g'amgin, nozik qarashni his qilardi, u buning yelkalarini, oyoqlarini, bo'ynini, ensasini nazaridan o'tkazar va bu yelkalari, ensasi bilan shu sabotli, maftun qarashni sezardi. Lekin kiruvchi va chiquvchi hujjatlarning harakatini belgilovchi qonun kuchi, chamasi, hazilakam kuch emas edi.

Kunduzi Rizin Jenyaning yoniga kelib, indamay, chizma varag'i ustiga orzudagi ma'lumotnomani qo'ydi.

Jenya ham unga indamay qaradi va ko'zlariga yosh tepchidi.

– Men maxfiy bo'lim orqali rasmiy talab so'radim, – dedi Rizin, – lekin umid qilganim yo'q edi, kutilmaganda boshliqning roziligini oldim.

Xodimlar uni tabriklab, «Nihoyat, qiyinchiliklaringiz tugadi», – dedilar.

U militsiya idorasiga bordi. Navbatdagi odamlar unga bosh irg'ab qo'yishdi, tanish bo'lib qolganlar: «Ishlaringiz qalay?...» – deb so'rashdi.

Bir qancha ovozlari shunday deyishdi: «Navbatsiz kiravering... ishingiz bir lahzada bitadi, yana ikki soat kutib nima qilasisiz?»

Idora stoli, yog'och-taxta ostidagi chaplanganday bo'yoqlari oralariga jigarrang yuritilgan, yonmaydigan javon unga avvalgidek be-fayz, siyqa bo'lib ko'rinmadi.

Jenyaning shoshqin barmoqlari o'z oldiga kerakli qog'ozni qan-day qo'yayotganini kuzatar ekan, Grishin boshini sezilar-sezilmas, qoniqqandek qimirlatib qo'ydi.

– Xo'p, mayli, pasportni, ma'lumotnomalarni qoldiring, uch kun-dan keyin, qabul soatlarida hujjatlarni ro'yxatxonadan olasiz.

Uning ovozi odatdagidek yangrardi, lekin Jenya nazarida Grishin-ning nurli ko'zlari xushmuomalalik bilan jilmayayotgandek ko'rindi.

U uyi sari borarkan, Grishin hammaga o'xshagan odam bo'lib chiqdi, bir yaxshi ish qildi va jilmaydi, deb o'ylardi.

Pasport stoli boshlig'i haqida yomon xayollarga borganligini es-lab, u bag'ritosh emas ekan, deb, o'z-o'zidan o'ng'aysizlanardi.

Uch kundan keyin ayol kishining tirmoqlariga qora-qizil lok sur-tilgan katta qo'llari unga darchadan ichiga batartib joylashtirilgan qog'ozlar bilan birgalikda pasportini uzatdi. Jenya aniq-tiniq yozil-gan qarorni o'qidi: «Mazkur turar joyga aloqasi yo'qligi sababli, propiskadan o'tishi rad etilsin».

– Itdan tarqagan, – dedi baland ovoz bilan Jenya va o'zini to'xtatishga kuch topolmay, davom etdi: – Xo'rovchi, berahm zo-lim!

U propiskadan o'tkazilgani haqida belgi qo'yilmagan paspor-tini havoda o'ynatib, navbatda o'tirgan odamlarga qarata, ularning qo'llab-quvvatlashini istab, baland ovozda gapirardi, lekin ular o'ziga teskari qaraganlarini ko'rdi. Unda bir on isyonkorlik ruhi, umidsizlik va g'azabkorlik ruhi lov etib yondi. O'ttiz yettinchi yil navbatlari-da Butir qamoqxonasining nimqorong'i qabul zalida, Sokolnikidagi Matros Sukunatida – o'zaro xat yozishuv huquqidan mahrum etil-ganlar to'g'risida ma'lumotnoma olish ilinjida kutib turgan tushkun, es-hushi o'zida yo'q xotinlar nogohon mana shunday qichqirardilar.

Yo'lakda turgan militsioner Jenyaning tirsagidan ushlab, uni eshik tomonga itara boshladi.

– Meni qo'yib yuboring, teginmang! – deb, u qo'lini tortib oldi, uni o'zidan nariroqqa surib tashladi.

– Fuqaro, – dedi u bo'g'iq tovush bilan, – bas qiling, o'n yil olib berishga majbur etmang!

Unga militsionerning ko'zlarida xayrixohlik, rahmdillik ifodasi yilt etgandek tuyildi.

U tez chiqib keta boshladi. Ko'chada uni turtganicha, odamlar o'tib borardi, ularning hammasi propiskadan o'tgan, ta'minot varaqalari taqsimlovchilarga birlashtirilgan edi...

Kechasi tushida yong'inni ko'rdi, u yuzini yerga bosib yotgan yador odam ustiga egildi, uni olib ketishga urindi, yuzini ko'rmasada, bu Krimov ekanini bilardi.

U horg'in, ruhsiz holda uyg'ondi.

«U tezroq kela qolsa edi, – deb o'ylardi, kiyinar ekan, o'zicha so'zlanardi: – Qo'lla meni, qo'lla meni».

U ehtiros, suyakni sirqiratuvcchi bir azob ichra o'rtanib, tunda o'zi qutqargan Krimovni emas, Novikovni – yozda, Stalingradda uchratgan holida ko'rgisi keldi.

Bu propiskasiz, ta'minot varaqasisiz, huquqsiz hayot, hovlibon, uy boshqaruvchisi, uy boshlig'i Glafira Dmitriyevnadan har daqiqa qo'rqib kun ko'rish og'ir edi, buning azobiga toqat yetmasdi. Jenya oshxonaga hamma uxlaganda kirardi, tongda esa boshqalar uyg'onguncha, yuz-qo'lini yuvib olishga urinardi. Mabodo bu uyda yashovchilar u bilan gaplashib qolishsa, nazarida, o'zining ovozi naf-ratlantiruvchi bir muloyimlik kasb etardi – boshqanikidek, baptist xotinning tovushidek bo'lib tuyilardi.

Kunduzi Jenya ishdan bo'shshasi haqida ariza yozdi.

U pasport stolida rad javobi berilganidan keyin hudud militsioneri kelib, uch kun ichida Kuybishevdan chiqib ketishi haqida tilxat olishini eshitgan edi. Tilxatda: «Pasport tartibini buzishda aybdor shaxslarga... qo'llaniladi». Jenya «qo'llaniladi»ga duch kelishni istamasdi. U Kuybishevdan chiqib ketishi kerakligiga ko'ndi. Birdan ko'ngli xotirjam bo'ldi, Grishin haqidagi, Glafira Dmitriyevna haqidagi, uning irigan zaytunlarday yumshoq ko'zlari haqidagi fikrlar qiynamay, qo'rqitmay qo'ydi. U qonunsizlikdan voz kechdi, qonunga bo'ysundi.

U arizani yozib, Rizinga olib borib topshirishga chog'langanida, telefon oldiga chaqirib qolishdi – Limonov qo'ng'iroq qilmoqda edi.

U: «Ertaga kechqurun bo'shmisiz, Toshkentdan bir odam keldi, u yerdagi hayot to'g'risida kulgili hikoyalar aytib bermoqda, – dedi, – Limonovga Aleksey Tolstoydan salom keltiribdi». Unga yana o'zga bir hayotning nafasi urdi.

Jenya, o'zi istamagani holda, Limonovga propiska bilan bog'liq ishlarini ham so'zladi.

Limonov uning so'zlarini bo'lmay, eshitdi, so'ng dedi:

– Buni qarang, juda qiziq: Kuybishevda otasining o'z ko'chasi bor, qizini esa haydab chiqarishyapti, propiskadan o'tkazishlarini so'rasa, rad javobi berishyapti. Ajoyib. Ajoyib.

U biroz o'ylab turib, dedi:

– Endi mundoq, Yevgeniya Nikolayevna, siz arizangizni bugun topshirmang, men kechqurun viloyat partqo'm kotibi majlisiga boraman, unga sizning ishingiz haqida aytaman.

Jenya tashakkur bildirdi, lekin Limonov telefon go'shagini qo'yishi bilan, meni esidan chiqaradi deb, o'yladi. Lekin baribir arizasini Rizinga topshirmadi, faqat, undan, Harbiy okrug shtabi orqali Qozongacha kema pattasi olishda, menga yordam qila olasizmi, deb, so'radi.

– Bundan osoni yo'q, – dedi Rizin va qo'llarini yozdi. – Chatog'i – militsiya idorasi bilan bitadigan ish. Ha, nimayam qilardik. Kuybishev maxsus tartibga olingan, alohida ko'rsatma bor.

U so'radi:

– Siz bugun kechqurun bo'shmisiz?

– Yo'q, bandman, – dedi u zarda qilib.

U uyga qaytar ekan, tez orada onamni, singlimni, Viktor Pavlovichni, Nadyani ko'raman, Qozonda, Kuybishevga qaraganda, ishlarim o'ngidan keladi deb, o'ylardi. Nima uchun shunchalik qayg'urganiga, militsiya idorasiga kirganda, qo'rqib, yuragini hovuchlaganiga endi o'zi hayron qolardi. Rad etishdi – sadqayisar... Mabodo Novikov xat yuborsa, qo'shniladan iltimos qiladi – Qozonga jo'natishadi.

Tongda, hali ish boshlashga ulgurmay, uni telefonga chaqirishdi, kimningdir iltifotli ovozi pasport stoliga borib, propiskangizni rasmiylashtiring deb, iltimos qildi.

Jenya shu uyda yashovchilardan biri – Sharogorodskiy bilan tanishib qoldi. Sharogorodskiy ilkis o'g'irilganida, uning katta, oq sochli, ganchlangandek og'ir boshi ingichka bo'ynidan uzilib, polga gursullab tushadiganday tuyilardi. Jenya chol yuzining rangpar terisi

mayin moviylik bilan tuslanayotganini payqadi. Jenyani teri moviyli-gi va ko'zlarning sovuq moviyli-gi birlashib ketishi qiziqtirib qo'ydi; chol asli oliy dvoryanlar naslidan edi va qariyani moviy rang bilan chizish kerak, degan fikr uning kulgisini qistatdi.

Vladimir Andreyevich Sharogorodskiy urushgacha, urush davri-dagiga nisbatan yomon yashardi. Hozir unga ba'zi bir ishlar topildi. Sovinformburo unga Dmitriy Donskoy, Suvorov, Ushakov haqi-da, rus ofitserlari an'analari haqida, o'n to'qqizinchi asr shoirlari – Tyutchev, Baratinskiy haqida maqolalar yozishi uchun buyurtmalar berdi...

Vladimir Andreyevich Jenyaga: onam tomonidan Romanovlarga nisbatan ancha qadimiyroq kenaslarga borib bog'lanaman, deb aytdi.

U yoshligida gubernazemstvosida xizmat qildi va zamindorlar o'g'illari, qishloq o'qituvchilari, yosh ruhoniylar orasida borib turgan volterchilik va chaadayevchilikni targ'ib etdi.

Vladimir Andreyevich Jenyaga o'zining gubernazemstvosida boshlig'i bilan qirq to'rt yil avvalgi suhbatini hikoya qilib berdi. «Siz Rossiyadagi eng qadimiy urug'lardan birining vakili mujiklarga ke-lib chiqishingiz maymunga borib taqalishini isbotlamoqchisiz. Mujik sizdan so'raydi: ulug' kenaslar-chi? Valiahd shahzoda-chi? Malika-chi? Podshohning o'zi-chi?..»

Vladimir Andreyevich aqllarni dovdiratishda davom etdi va ish shu bilan tugadiki, uni Toshkentga badarg'a etishdi. Bir yil o'tib, kechirishdi va u Shveysariyaga ketdi. O'sha yerda u ko'plab inqilo-biy arboblardan uchrashdi – g'alatiroq kenasni bolsheviklar ham, mensheviklar ham, eserlar ham, anarxistlar ham bilishardi. U bahs-larga va o'tirishlarga borardi, ayrimlar bilan dilkash edi, lekin hech kim bilan murosa qilmasdi. O'sha vaqtlarda u talaba-yahudiy, qora-soqolli bundchi Lipets bilan do'stlashdi.

Birinchi jahon urushi boshlanishidan sal ilgari, Vladimir Andreyevich Rossiyaga qaytib, o'z yer-mulkida o'rnamashdi, ahyon-ahyonda «Nijegorodskaya listka»da tarixiy va adabiy mavzularda maqolalar e'lon qildi.

U xo'jalik ishlari bilan shug'ullanmasdi, yer-mulkni onasi bosh-qarardi.

Yer-mulkiga dehqonlar daxl etmagan yagona zamindor – Sharogorodskiy bo'ldi. Kambag'allar qo'mitasi hatto unga yetkazib berish

uchun o'tin va qirq bosh karam ajratdi. Vladimir Andreyevich uydagi birgina isitiladigan va oyna qo'yilgan xonada o'tirib, o'qir va she'rlar yozardi. U Jenyaga bir she'rini o'qib berdi. U «Rossiya» deb atalardi:

*Telba beg'amlik ayon  
To'rt tomonda har bir zum.  
Tekisliklar. Bepoyon.  
Qarg'alar qag'illar shum.*

*Aysh-ishrat. Yong'inlar. Sir.  
Shunday befarqlik – vahshat.  
Bori – o'ziga xosdir,  
Ulug'vorligi dahshat.*

U har bir so'zni ehtiyot qilib, nuqtalar, vergullarni o'z o'rnida qo'llab, baroq qoshlarini chimirib – baland ko'tarib o'qirdi, lekin bundan uning keng peshonasi torayib qolmasdi.

1926-yili Sharogorodskiy rus adabiyoti tarixi bo'yicha ma'ruzalar o'qishni istab qoldi, Demyan Bedniyni inkor etdi va Fetni ko'klarga ko'tardi, o'sha vaqtda urf bo'lgan hayot go'zalligi va haqiqati to'g'risidagi munozaralarda so'zga chiqdi, u o'zini har qanday davlatning dushmani deb e'lon qildi, marksizmni cheklangan ta'limot deb e'lon qildi, rus qalbining fojeiy taqdiri haqida gapirdi, shunchalikkacha so'zladiki, shunchalikkacha bahslashdiki, yana davlat hisobidan Toshkentga ketdi. U o'sha yerda nazariy munozaralarda jo'g'rofiy dalillarning kuchiga hayron qolib yashab yurdi, 1933-yilning oxirlaridagina Samaraga, opasi Yelena Andreyevna yoniga ko'chib borishga ijozat oldi. U urushdan sal ilgari vafot etdi.

Sharogorodskiy o'z xonasiga hech qachon taklif qilmas edi. Lekin bir kuni Jenya kenasning xonasiga mo'raladi: burchaklardagi kitoblar va eski gazetalar uyumlari tepalarday ko'rinardi, biri birining ustiga qalashtirilgan ko'hna o'rindiqlar shiftga yetay deb qolgandi, zarhal romli portretlar polda turardi. Qizil baxmal bilan sirilgan divanda paxtalari osilgan ko'rpa mijg'aloq bo'lib yotardi.

Bu ko'ngli bo'sh, kundalik turmushda qo'lidan hech nima kelmaydigan odam edi. Shunday kishilar haqida bolafe'l odam, adashib qolgan farishta, deydilar. Lekin u och-nahor bola yoki bir burda non tilab, qo'l cho'zib turgan, ust-boshi juldur kampir yonidan o'zi yax-

shi ko'rgan she'mi ming'irlab takrorlaganicha, beparvo o'tib ketishi mumkin edi.

Sharogorodskiy so'zlariga quloq solar ekan, Jenya o'zining birinchi eri, kominternchi, Fet va Vladimir Solovyovning keksa muxlisiga sira o'xshamaydigan Krimovni tez-tez eslardi.

Rus tabiati va rus ertaklari, Fet va Tyutchev she'rlari latofatiga ishtiyoqsiz Krimov, xuddi qariya Sharogorodskiy kabi rasmana rus kishisi ekani uni taajjublantirardi. Krimov yoshligidan rus hayotida aziz deb bilgan, Rossiyani ularsiz tasavvur qila olmaydigan narsalar, nomlar Sharogorodskiy uchun ahamiyatsiz, ba'zan esa g'animdek edi.

Sharogorodskiy uchun Fet Xudo edi, eng avvalo, rus Xudosi edi. Shuningdek, Finist Porloq Lochin haqidagi ertaklar, Glinkaning «Shubha»si uning uchun ilohiy edi. U Dantega qanchalik tahsin aytmasin, nazarida, Dante rus musiqasiga, rus she'riyatiga xos ilohiylikdan mahrum edi.

Krimov esa Dobrolyubov va Lassal, Chernishevskiy va Engels o'rtasidagi farqlarni o'ylab ko'rmas ham edi. Uning uchun Marks barcha rus daholaridan yuksak edi, uning uchun Betxoven «Qahramonlik» simfoniyasining yakka o'zi rus musiqasiga nisbatan ustuvorlik kasb etib, tantana qilgan edi. Balki, uning uchun birgina istisno Nekrasov edi, uni jahonning birinchi shoiri deb, bilardi. Ayrim daqiqalarda Yevgeniya Nikolayevnaga Sharogorodskiy nainki Krimovni, balki uning Nikolay Grigoryevich bilan munosabatlari taqdirini anglashga ham yordam berayotganga o'xshardi.

Jenyaga Sharogorodskiy bilan so'zlashish yoqar edi. Odatda, gap tashvishli ma'lumotlardan boshlanar, keyin Sharogorodskiy Rossiya taqdirini muhokama qilishga kirishib ketardi.

– Rus dvoryanligi, – derdi u, – Rossiya oldida aybdor, Yevgeniya Nikolayevna, lekin u Rossiyani sevishga yaradi. O'sha, birinchi urushda bizni sirayam kechirishmadi, neki bor – har birini qatorga tirkashdi: tentaklarimizni ham, takasaltanglarimizni ham, uyqusiragan mechkaylarimizni ham, Rasputinni ham, polkovnik Myasoyevovni ham, jo'ka xiyobonlarini ham, beparvolikni ham, qora kulbalarni ham, chillak o'yinlarimizni ham... Mening opamning olti o'g'li Galitsiyada halok bo'ldi, mening akam, qari, kasalvand odam jangda o'ldirildi, lekin tarix buni hisobga olmadi... Hisobga olishi kerak edi.

Jenya ko'pincha uning adabiyot haqidagi zamonaviy qarashlarga mos kelmaydigan fikrlarini tinglar edi. U Fetni Pushkin va Tyutchevdan yuqori qo'yar edi. U Fetni shunchalik bilardiki, albat, Rossiya da hech kim unchalik bilmasa kerak, ehtimol, umrining oxirlarida Fetning o'zi ham Vladimir Andreyevich uning to'g'risida bilganlarining hammasini xotirasida saqlamagandir.

Lev Tolstoy ni u o'ta voqeiy deb hisoblardi, undagi nafosatni tan olardi, lekin qadrlamasdi. U Turgenevni qadrlardi, ammo uning iste'dodini yetarli darajada teran emas, deb baholardi. Unga rus nasrida Gogol va Leskov hammadan ko'ra ko'proq yoqardi.

U rus she'riyatini birinchi bo'lib juvonmarg etganlar – Belinskiy va Chernishevskiy deb hisoblardi.

U Jenyaga, rus she'riyatidan tashqari, bir xil harf bilan boshlanadigan uch narsani – qandni, quyoshni, qushuyquni yaxshi ko'rishini aytdi.

– Nahotki, biron she'rim chop etilganini ko'rmas, o'lib ketsam? – deb so'radi u.

Bir kuni xizmatdan qayta turib, Yevgeniya Nikolayevna Limonovni uchratdi. U qishki paltosining oldi ochiq, bo'ynida rangdor xol-xol sharfi o'ynab, serko'z tayoqqa tayanganicha, ko'cha bo'ylab borardi. Kuybishev oddiy odamlari o'rtasida boyonlar qunduz telpagini kiygan bu ulkan kishi g'alati ko'rinardi.

Limonov Jenyani uyiga kuzatib qo'ydi. U ichkari kirib, choy iching, deb, taklif etdi, u Jenyaga sinchkovlik bilan qarab, dedi: «Xo'p, mayli, rahmat, aslida-ku, propiska evaziga sizdan yarim litr joiz edi», – og'ir nafas olib, zinadan chiqqan boshladi.

Limonov Jenyaning kichikkina xonasiga kirmas, dedi: «E-ha, bu yer mening g'avdamga tor-u, shoyad fikrlaringa kenglik bag'ishlar».

U birdan Jenya bilan qandaydir notabiiy ovozda so'zlashishga kirishdi, unga o'zining muhabbat, ishqiy munosabatlar nazariyasini tushuntira boshladi.

– Avitaminoz, ruhiy avitaminoz! – harsillab dedi u. – Bilasizmi, xuddi tuzsiragan buqalardagidek, sigirlardagidek, bug'ulardagidek – ana shunday qudratli ochlik. Mening o'zimda yo'g'ini, mening yaqinlarimda yo'g'ini, mening xotimimda yo'g'ini o'z muhabbatim matlubasidan izlayman. Xotin – avitaminoz sababi! Erkak yillab, o'n



yillab xotinidan topmaganini o'z mahubasidan topish ishtiyoqida yonadi. Tushunarlimi sizga?

U Jenyaning qo'lini ushladi va uning kaftini silay boshladi, keyin uning yelkasini silay boshladi, keyin bo'yni, ensasiga tegindi.

– Siz tushunayapsizmi meni? – ayyorona so'rardi u. – Hammasi juda oddiy. Ruhiy avitaminoz!

Jenya tirnoqlari sayqallangan katta oq qo'l yelkasidan ko'kragi tomon qanday sayohat qilayotganiga kulayotgan va xijolatga to'la ko'zlari bilan qarab:

– Avitaminoz nafaqat ruhiy, balki jismoniy ham bo'ladi, shekilli. – dedi va birinchi sinf muallimasining nasihatimiz ohangida qo'shib qo'ydi, – Menga changal solish kerak emas, rostdan. kerak emas.

U Jenyaga dovdirab qaradi va uyalish o'rniga, kula boshladi. Jenya ham unga qo'shilib, kula boshladi.

Ular choy ichishdi va rassom Saryan haqida suhbatlashishdi. Eshikni qariya Sharogorodskiy taqillatdi.

Ma'lum bo'ldiki, Limonov Sharogorodskiy nomini kimningdir qo'lyozma esdaliklari va kimningdir bisotida saqlanayotgan xatlardan bilar ekan. Sharogorodskiy Limonov kitoblarini o'qimagan, lekin familiyasini eshitgan, odatda gazetalar harbiy-tarixiy mavzularda yozuvchilarni eslaganida, uning nomini ham keltiradi.

Ular gapga tushishdi, oradagi yaqinlikni his qilib, hayajonlanishdi, quvonishdi, suhbatlarida Solovyov, Merejkovskiy, Rozanov, Gippius, Belyi, Berdyayev, Ustryalov, Balmont, Milyukov, Yevreinov, Remizov, Vyacheslav Ivanov nomlari quloqqa chalindi.

Jenya, baayni, bu ikki odam kitoblar, rasmlar, falsafiy tizimlar, sahna asarlaridan iborat cho'kib ketgan bir olamni qa'rdan ko'tardi, deb o'yladi...

Limonov esa kutilmaganda uning fikrini ovoz chiqarib takrorladi:

– Biz siz bilan. baayni, Atlantidani dengiz qa'ridan ko'tardik.

Sharogorodskiy ma'yuslik bilan bosh silkidi:

– Ha, ha, siz rus Atlantidasining tadqiqotchisi, xolos, men esa uning yashovchisiman, u bilan birgalikda ummon qa'riga tushganman.

– Qarangki, – dedi Limonov, – urush kimnidir Atlantidadan yuzaga chiqardi.

– Ha, ayon bo‘ldiki, – dedi Sharogorodskiy, – Kominternni tuzganlar urush payti «muqaddas rus yeri» deb takrorlashdan yaxshiroq narsani o‘ylab topolmadilar.

U tabassum qildi.

– Shoshmang, urush g‘alaba bilan tugasin, ana shunda baynalmilalchilar: «Butun olamga boshchi bizning ona-Rossiya», – deb, e‘lon etadilar.

G‘alati hol, Yevgeniya Nikolayevna sezardiki, ular nafaqat uchrashganlari, umumiy mavzu topganlari uchun bu qadar qizg‘in, gapni cho‘zib, zarofat bilan so‘zlashayaptilar. Fahmlardiki, har ikkisiga yo‘qardi – juda keksasi ham, nihoyatda qariyotgani ham – suhbatlarini u tinglayotganini his qilib turardi. Bularning bari qanday g‘alati. Shunisi ham g‘alati, bu narsalar uning parvoyiga kelmaydi, hatto kulgili ko‘rinadi, ayni vaqtda tamomila qadrsiz emas, balki yoqimli.

Jenya ularga boqib, xayol surardi: «O‘zni anglash – imkonsiz, axir... Nima uchun o‘tgan umr meni qiynaydi, nima uchun Krimovga qayg‘uraman, nima uchun tinmay u haqda o‘ylayman?»

Shuningdek, qachonlardir unga Krimovning kominternchi nemislari va inglizlari begona tuyilganidek, bugun Sharogorodskiy kominternchilar to‘g‘risida kinoya bilan gapirganida, buni ko‘nglida bir qo‘msash va g‘ayirlik bilan tingladi. Bu yerda mohiyatni uqishga limonovcha avitaminoz nazariyasi ham yordam bermaydi. Ha, bu ishlarning nazariyasi yo‘q...

U tuyqusdan o‘zim qariyb eslamaydigan boshqa odamni qo‘msayotganim uchungina Krimovni hamma vaqt o‘ylab, tashvishini tortayapman, shekilli, degan xayolga bordi.

«Nahotki, men chindan ham uni sevsam?» – deb, hayratlandi u.

## 26

Tunda Volga ustidagi osmon bulutlardan tozalandi. Qalin zulmat jarlari bo‘lib tashlagan tepalar yulduzlar ostida ohista suzardi.

Ahyon-ahyonda uchar yulduzlar jimirlab o‘tardi; Lyudmila Nikolayevna ovoz chiqarmay duo qildi: «Ishqilib, Tolya omon qolsin».

Bu uning yagona niyati edi, u ko‘kdan boshqa hech narsani so‘ramasdi...

Bir vaqtlar, fizmatda o'qir ekan, Astronomiya institutida hisobchilik qilgan edi. Shunda u uchar yulduzlar perseidlar, orionidlar, yana, yanglishmasa, geminidlar, leonidlarga – yer bilan turli oylarda uchrashuvchi oqimlarga aylanib harakatlanishini bilib olgan edi. Oktabr, noyabr oylarida uchar yulduzlarning qaysi oqimi yer bilan uchrashishi yodidan ko'tarilgan... Lekin, ishqilib, Tolya omon bo'lsin!

Amakivachchasi Viktori lagerdan chiqarib, surgunga jo'natishayotganda, u o'z uylarida Vikorning bir kecha qolishiga ruxsat etmadi, uy boshqaruvi bundan xabar topadi deb qo'rqdi. Otasi o'lganida, Lyudmila Gasprada yashagan, ammo dam olish kunlarini ko'zi qiyamay, Moskvaga dafn marosimidan ikki kun keyin kelgan – buni onasi bilishidan va haligacha unutmaganidan u voqif.

Onasi ba'zan u bilan Dmitriy haqida so'zlashardi, o'g'lining boshiga tushgan kundan dahshatga kelardi.

«U rostgo'y, to'g'ri bola edi, umr bo'yi shunday bo'lib qoldi. Birdan josuslik, Kaganovich va Voroshilovni o'ldirishga tayyorgarlik... Vahshat, dahshatli yolg'on, kimga kerak u? Sofdil, vijdonli odamni juvonmarg qilish kimga kerak?..»

Bir kuni u onasiga dedi: «Sen Mityaning kafilligini to'lasicha bo'yingga ololmaysan. Begunohlarni qamashmaydi». O'shanda onasi o'ziga qanday qaragani haligacha uning yodidan chiqmagan.

Bir gal u onasiga Dmitriyning xotini haqida shunday dedi:

– Butun umr unga toqat qilolmaganman, senga ochiq aytay, men unga hozir ham toqat qilolmayman.

Onasining javobi hanuz esida:

– Eriga chaquv qilmagani uchun xotinini o'n yilga qamash – bu nima ekanligini sen qayerdan tushunarding?!

Shundan so'ng yodiga tushdi: u qachondir bir kuchukni ko'chadan topib uyiga keltirdi, Viktor bu kuchukni saqlab olgisi kelmadi, javoban u shunday deb qichqirdi:

– Sen berahm odamsan!

U esa bunday dedi:

– Eh, Lyuda, men sening yosh va go'zal bo'lishingni istamayman, men bir narsani istayman: ko'nglingdagi mehmi faqat mushuk va itlarga bag'ishlab, shu bilan kifoyalanib qolmasang, bas.



Hozir, kema sahnida o'tirib, u o'z umri davomida eshitgan ach-chiq gaplarni ilk marta o'zini sevmay, boshqalarni ayblashni xohlamay xotirladi... Eri qachondir telefonda gaplashganida kulib: «Biz mushukvachcha saqlab olganimizdan beri, men xotinimning muloymim ovozi tinglayapman», – degan edi...

Bir kuni onasi unga shunday degan edi: «Lyuda, sen qanday qilib gadoyning qo'lini quruq qaytarasan axir, o'ylab ko'r, och sendan, to'qdan tilanyapti...»

Lekin u xasis emasdi. U mehmonlarni yaxshi ko'rardi, tanishlari orasida uning ziyofatlari mashhur edi.

Uning tunda kema sahnida o'tirib, qanday yig'laganini hech kim ko'rmadi. Mayli, mayli, u bemehr, o'qiganlarini butkul unutgan, hech narsaga layoqati qolmagan, allaqachondan buyon hech kimga yoqmaydi. semirdi, sochlari oqarib, kulrang tusga kirdi, qon bosimi ham baland, eri uni sevmaydi, shuning uchun uni to'g'ri anglamay, bag'ritosh deb, hisoblaydi. Lekin, ishqilib, Tolya omon bo'lsin!

Nima uchun u hamma vaqt o'zining birinchi erini eslaydi? U qayerda, uni qanday topish mumkin? Nima uchun uning Rostovdagi opasiga xat yozmadi, endi yoza olmaysan, sababi – nemislar. Opasi unga Tolya haqida xabar berardi.

Kema mashinasining shovqini, kema sahnining titrashi, suvning shovullashi, osmondagi yulduzlarning miltirashi – hammasi aralashib, qo'shib ketdi va Lyudmila Nikolayevnaning ko'zi ilindi.

Tong otish vaqti yaqinlashdi. Volga uzra tuman chayqalar, jonli nimaiki bor – bari unga cho'kkanday edi. Birdan quyosh chiqdi, xuddi umid alangasi gurulladi! Osmon suvda aks etdi, kuzgi qoramtir suv tin oldi, baayni quyosh daryo to'lqinlarida hayqirdi. Tungi ayoz qirg'oq nishabini obdan tuzlagan edi, qirov bosgan qizg'ish daraxtlar qandaydir o'zgacha xursandlik bilan boqardilar. Shamol esdi, tuman tarqadi, olam nihoyatda tiniq oynaga aylandi, na ravshan quyoshda, na suv va ko'kning moviyligida taft bor edi.

Yer ulkan edi, hatto undagi o'rmon cheksiz emas edi, uning boshi va oxiri ko'rinib turardi, yer esa cho'zilardi, tortilardi.

Qayg'u, xuddi yer kabi, ulkan va boqiy edi.

U birinchi toifadagi maxsus xonalarda – egnida pistoqi rangli burmabel mo'yna chakmon, boshida polkovniklar urficha, kulrang

qorako'l telpak – Kuybishevga ketayotgan xalq komissarliklari rahbarlarini ko'rdi. Ikkinchi toifali maxsus xonalarda martabasiga ko'ra kiyintirilgan, xuddi xotinlarga alohida, xotinning onasiga va erning onasiga xos liboslar joizdek, mas'ul xotinlar, mas'ul qaynanalar ketmoqda edilar. Xotinlar mo'yna po'stinlar kiyib, tivit ro'mollar o'rab, qaynanalar va onalar qora qorako'l yoqali ko'k movut po'stinlar kiyib, jigarrang ro'mollar o'rab olgandilar. Ularning yonidagi bolalarning ko'zlarida zerikish, norozilik sezilardi. Xonalarning oynalaridan bu yo'lovchilarga tegishli oziq-ovqatlar ko'rinardi, ko'rgankechirgan Lyudmilaning ko'zlari qoplarning ichidagi narsalarni hech qiynalmay aniqladi; xaltachalarda, kavsharlab bekitilgan bankalarda, bo'g'izlari surg'uchlangan qora katta shishalarda asal, eritilgan yog' Volga oqimi bo'ylab suzib borardi. Kema sahnida sayr qilib yurgan toifali yo'lovchilarning quloqqa chalinib qolgan gaplariga qaraganda, Kuybishev orqali kelayotgan Moskva poyezdi ular xayolini band etib, hayajonlantirardi.

Lyudmila nazarida: xotinlar yo'lkalarda o'tirgan qizilarmiyachilarga va leytenantlarga befarqlik bilan qarardilar – xuddi urushda ularning o'g'illari va aka-ukalari yo'qday edi.

Tonggi «Sovet Informbyurosidan» axboroti berilganda, ular qizilarmiyachilar, kema matroslari bilan birgalikda karnay ostida turib eshitmadilar, radiokarnayga uyquli ko'zlarini qisganicha qarab qo'yib, o'z ishlariga urindilar.

Lyudmila matroslardan bilib oldiki, butun kema mas'ul xodimlarning Kuybishev orqali Moskvaga qaytayotgan oilalariga berilgan, harbiy boshliqlarning buyrug'iga ko'ra, Qozonda unga harbiy qismlar va oddiy fuqarolarni chiqarganlar. Qonuniy yo'lovchilar janjal ko'targan, harbiylarning kemaga chiqishlariga qarshilik ko'rsatgan, Davlat Mudofaa Qo'mitasi vakiliga sim qoqqan.

Stalingrad ostonalariga borayotgan va qonuniy yo'lovchilarni qisib qo'yanlarini sezayotgan qizilarmiyachilarning aybdorona yuzlarida ifodalab bo'lmas qandaydir g'alatilik bor edi.

Lyudmila Nikolayevnaga bunday osoyishta ayol ko'zlariga toqat qilishning iloji yo'qdek tuyuldi. Buvilar nevaralarini chaqirardilar va gaplarini davom ettira turib, odatga aylangan harakat bilan ularning og'izlariga pecheniy solib qo'yardilar. Burunda joylashgan maxsus

xonadan kolonok<sup>1</sup> po'stin kiygan past bo'yli kampir ikkita bolani kema sahnida sayrga olib chiqqanida unga ayollar shoshilib ta'zim qildilar, tabassum bilan boqдилar, davlat arboblarning yuzlarida mayin va bezovta ifoda ko'rindi.

Hozir radio ikkinchi frontning ochilishi, Leningrad qamali yorib o'tilgani haqida e'lon qilsa, ularning hech biri qilt etmaydi, lekin ularga biron kimsa Moskva poyezdida xalqaro vagon bekor qilindi desa, yumshoq va qattiq platskartalarning ulug' ehtirolari urushning barcha voqealarini yutib yuboradi.

Ajabo! Lyudmila Nikolayevna o'z kiyinishi bilan – kulrang qorako'l po'stini, tivit ro'moli bilan birinchi va ikkinchi toifali yo'lovchilarga o'xshaydi, axir. Yaqinda, Viktor Pavlovich Moskvaga safar qilganida, yumshoq vagonga patta berishmadi deb, uning o'zi ham platskarta ehtirolarini ko'nglidan kechirgan, g'azablangan edi, axir.

U leytenant-artilleriyachiga o'zining leytenant-artilleriyachi o'g'li og'ir yaralanib, Saratov gospitalida yotganini aytdi. U betob kampir bilan Marusya haqida va Vera haqida, istilo etilgan hududda yo'qolgan qaynanasi haqida gaplashdi. Uning qayg'usi xuddi ushbu kema sahnida oh tortayotgan qayg'uday, hamisha gospitalardan, front mozorlaridan qishloq kulbalari, nomsiz xarobazordagi raqamsiz barak sari o'z yo'lini topuvchi qayg'uday edi.

U uyidan chiqar ekan, non ham, krujka ham olmagandi; go'yo, butun yo'l bo'yi yemaydigandek, ichmaydigandek edi.

Lekin kemada tongdanoq tamaddi qilgisi kelib qiynaldi va Lyudmila ahvoli tangligini angladi. Safarining ikkinchi kuni qizilarmiyachilar o'tyoquvchilar bilan kelishib, mashina bo'limida tariqli suyuq ovqat pishirib, Lyudmilani chaqirdilar va dekchaga quyib berdilar.

Lyudmila bo'sh yashik ustida o'tirib, birovning dekchasidan birovning qoshig'ida og'izni kuydiruvchi suyuqni ho'plardi.

– Yayrab ichdik! – dedi unga oshpazlardan biri, lekin Lyudmila Nikolayevna jim turgani uchun qiziqqonlik bilan so'radi: – Shunday emasmi, seryog' emasmi?

---

<sup>1</sup> Kolonok – suvsarsimonlarga mansub yirtqich sutemizuvchi hayvon va uning qimmatbaho mo'ynasi. – Tarj.

Xuddi mana shu beg'uborlikda – qizilarmiyachi o'zi tuz bergan odamdan maqto'v talab qilishida ochiqko'ngillikning kengligi sezilardi.

U bir jangchiga buzilgan avtomatining prujinasini o'rnatishda yordam berdi, bu ishni hatto «Qizil Yulduz» ordenli starshina ham qila olmagan edi.

Lyudmila Nikolayevna leytenant-artilleriyachilarning bahsiga quloq solib turib, qo'liga qalam oldi va ularga trigonometrik formula chiqarishga ko'maklashdi.

Shungacha unga «fuqaro» deb murojaat qilayotgan leytenant birdan qanday atay: ismingizni, otangizning ismini to'liq ayting deb so'radi. Tunda esa Lyudmila Nikolayevna kema sahnida aylanib yurdi.

Daryo muzlagan sovuq nafas olardi, qorong'ilik ichidan pastki, shafqatsiz shamol yopirilardi. Bosh ustida yulduzlar miltirardi, uning baxtsiz boshi ustida turgan bu, ayovsiz, olov va muzdan iborat ko'kda tasalli va orom yo'q edi.

## 27

Muvaqqat harbiy poytaxtga yaqinlashishlaridan oldin, kapitanga belgilangan yo'nalishni Saratovgacha davom ettirish, Saratov gos-pitalaridagi yaradorlarni kemaga chiqazib olish haqida farmoyish berildi.

Maxsus xonalarda kelayotgan yo'lovchilar tushishga hozirlanib, jomadonlarini, xaltalarini tashib chiqib, kema sahniga qo'ya boshladilar.

Fabrikalar, temir tomli uylar, baraklarning qoralari ko'zga chalindi, quyruq ortidagi suv boshqacha shovulladi, kema mashinasi o'zgacha, g'ulg'ulali taqillay boshladi.

Kuybishevda tushadigan yo'lovchilar kema yon devorida turar-dilar.

Qirg'oqqa tushganlar hech kim bilan xayrlashmadilar, qolgan-lar tomonga bosh igr'amadilar, yo'lda tanish-bilish orttirmagan edilar.

Kolonok po'stinli kampirni va uning ikki nabirasini «ZIS-101» avtomobili kutib turardi. Generalcha urfdagi movut burmabel mo'yna chakmon kiygan sariq yuzli odam kampirga harbiycha salom berdi, bolalar bilan qo'l berib so'rashdi.

Bir necha daqiqa o'tgach, bolalarni yetaklagan, jomadonlar, xal-tachalar ko'targan yo'lovchilar ko'zdan yo'qoldi, xuddi ular umu-man bo'lmaganday edi.

Kemada shinellar, paxtaliklar qoldi, xolos.

Lyudmila Nikolayevna endi, o'z nazarida, yagona taqdir, mehnat, qayg'u birlashtirgan odamlar orasida yengil va yaxshi nafas oladi-gandek edi.

Ammo u yanglishgandi.

## 28

Saratov Lyudmila Nikolayevnani qo'pol va shafqatsizlarcha qar-shiladi.

Bandargohga qadam bosishi bilan shinel kiygan, mast – qan-daydir odamga to'qnashdi; u qoqinib, uni turtib yubordi va shaloq so'zlar bilan so'kdi.

Lyudmila Nikolayevna tik, chag'irtosh to'shalgan ko'cha bo'ylab tepaga chiqa boshladi va to'xtab, og'ir nafas olib, atrofga boqdi. Kema bandargohdagi kulrang omborlar o'rtasida oqarib ko'rinar va go'yo uni tushunib, karnay orqali, ohista, bo'lib-bo'lib xitob qilardi: «Bor endi, bor». U yo'lida davom etdi.

Tramvayga chiqishda yosh-yosh ayollar keksalar va kam-quvvatlarni he yo'q, be yo'q, bor kuchlari bilan itarib tashlardilar. Qizilarmiyachilar telpagini kiygan, ehtimol, gospitaldan yaqinda chiqqan bir ko'r kishi, so'qirligini yolg'iz o'zi qanday eplashni bil-may, shoshib-pishib qadamlab, og'irligini dam u, dam bu oyog'i-ga tashlab, tayog'ini yuradigan yeriga tez-tez urib to'qillatardi. U bolalarcha yopishqoqlik bilan, bir yoshi o'tinqirab qolgan ayolning yengidan ushlab oldi. U ayol qo'lini tortib olib, ilgariladi – etigining nag'ali chag'irtoshga tegib, sadolanardi, ko'r kishi esa uning yengiga tirmashganicha, hovliqib tushuntirdi:

– Gospitaldan chiqdim, ketib olishimga yordam bering.

Haligi ayol qarg'andi, ko'rni itarib tashladi, u muvozanatini yo'qotib, ko'chaga o'tirib qoldi.

Lyudmila ayolning yuziga qaradi.

Bu noinsoniy qiyofa qayerdan paydo bo'ldi: bolaligida bosh-dan kechirganlari – 1921-yildagi ochlikdanmi, 1930-yildagi o'lat-danmi?



Ko'r bir on hushini yo'qotdi, keyin sakrab turib, qush ovozida chinqirdi. Uning ko'r ko'zlari, ehtimol, o'zining telpagini qiyshaytirib, tayog'ini ma'nosiz silkitib borayotganini odamzod toqati yetmaydigan bir o'tkirlik bilan ko'rdi.

Ko'r havoga tayog'ini urdi, u bu aylanma siltamlari bilan shafqatsiz, ko'zi ko'radigan olamga o'z nafratini bildirar edi. Odamlar bir-birini turtib, surib vagonga kirdilar, u esa yig'laganicha, qichqirganicha qolaverdi. Lyudmila umid va muhabbat bilan, mehnat ehtiyoj, ezgulik va qayg'u oilasiga birlashtirgan odamlar esa o'zlarini noinsoniy tutishga kelishib olganlari aniq edi. Ular, mehnatda kiyimini moy, qo'lining kaftini qadoq bosganiga qarab, bu odamning yuragi ezgulikka to'la ekanini oldindan, ishonch bilan belgilash mumkin, degan qarashning noto'g'riligini isbotlashga kelishib olganlari aniq edi.

Lyudmila Nikolayevnaga simillatuvchi, qorabosdi bir nima tegin-di, teginishi bilanoq uni minglab chaqirimli, qashshoq rus kengliklari-ning sovug'i va qorabosdisi, hayotiy tundrasining noilojlik tuyg'usi bilan to'ldirdi.

Lyudmila konduktor ayoldan qayerda tushishi kerakligini qayta so'radi, u bemalol shunday dedi:

– Men e'lon qildim. nima balo, karmisan?

Tramvayning o'tish joyida turib olgan yo'lovchilar tushish-tushmasliklarini so'ralganda, tosh qotganday, qimirlagilari kelmasdi.

Qachonlardir Lyudmila Saratov qizlar gimnaziyasining tayyorlov – «alifbe» sinfida o'qirdi. Qish tongida u stol yonida o'tirib, oyoqlarini o'ynatib, choy ichardi, u sidqidildan yaxshi ko'rgan otasi bir parcha issiq oq nonga yog' surtib beradi... Katta samovarning yon tomoniga chiroq aksi tushardi, uning esa otasining issiq qo'lidan, issiq nondan, samovar issig'idan nari jilgisi kelmasdi.

O'sha vaqtlarda bu shaharda noyabr shamoli, o'z joniga qasd qiluvchilar, kasalxonalarda o'layotgan bolalar yo'g'-u, faqat issiq, issiq, issiq bordek edi.

Bu yerdagi qabristonga uning opasi, krupdan<sup>1</sup> o'lgan Sonya qo'yilgan edi, Aleksandra Vladimirovna uni Sofya Lvovna Perovskaya sharafiga Sonya deb atagan edi. Shu qabristonga bobosi ham dafn etilgan edi, shekilli.

<sup>1</sup> *Krup* – tomoq yallig'lanishi va uning natijasida nafas siqilishi. – Tarj.

U uch qavatli maktab binosiga yetib keldi, bu Tolya yotgan gospital edi.

Eshik oldida soqchi yo‘q edi, u buni yaxshi alomat deb bildi. Dimog‘iga gospital havosi urildi, u shunday yopishqoq va yelimdek ediki, hatto ayozda adabini yegan odamlar ham buning issig‘idan quvonmasdi, yana ayozga chiqib ketgisi kelib qolardi. U «o‘g‘il bolalar uchun», «qiz bolalar uchun» deb yozilgan taxtachalari saqlangan hojatxonalar yonidan o‘tdi. U yo‘lak bo‘ylab yurdi, unga oshxona hidi gupullab urdi, nariroqqa qarab boraverdi, terlab yotgan oynalar orqali nazar tashlab, ichki hovlida taxlangan to‘g‘riburchakli yashik-tobutlarni ko‘rdi, yana o‘z dahlizida qo‘lida ochilmagan konvertni ushlab turganidagidek, «Yo Xudoyim, agar hozir o‘lib yiqilsam», – deb o‘yladi. Lekin u katta qadamlar tashlab, yurishda davom etdi, yo‘lning gilam to‘shalgan qismiga yetdi, xona o‘simliklari – o‘ziga tanish asparaguslar, filodendronlar qo‘yilgan tumbochkalar yonidan o‘tib, «to‘rtinchi sinf» taxtachasi qatorida, qo‘lda «ro‘yxatxona» deb yozilgan eshikka yetdi.

Lyudmila eshik tutqichini ushlaganida quyosh nuri bulutlarni yorib o‘tib, oynaga urildi va butun atrof nurlanib ketdi.

Bir necha daqiqalardan so‘ng, quyoshda jilvalanayotgan uzun yashikdagi kartochkalarni birma-bir ko‘zdan kechirarkan, sergap ko‘tib unga derdi:

– Shunday, shunday, demak, Shaposhnikov A. Ve... Anatoliy Ve... shunday... omadingizni qarangki, komendantimizni uchratmabsiz, paltongizni yechmay, ichkariga kirishingizga hayotda yo‘l qo‘ymasdi... shunday, shunday... mana endi, demak, Shaposhnikov... Ha-ha, uning o‘zi, leytenant, to‘ppa-to‘g‘ri.

Lyudmila uzun faner yashikdan bir kartochkani chiqarib olayotgan barmoqlarga tikilardi, nazarida. Xudoning huzurida turgandek edi, unga hayot so‘zini yoki o‘lim so‘zini aytish o‘zining ixtiyorida edi, mana, u bir onga javobini hayallatdi, uning o‘g‘li yashaydimi yoki o‘ladimi – hali bir qarorga kelmadi.

Lyudmila Nikolayevna Saratovga yetib kelishidan bir hafta avval Tolya yana – uchinchi marta operatsiya qilingan edi. Ikkinchi toifali harbiy vrach Mayzel operatsiyani amalga oshirgandi. Tolya

besh soatdan ko'proq umumiy narkoz ostida asralgan, bu uzoq davom etgan murakkab jarrohlik jarayonida ikki marta ko'ktomirdan geksonal yuborishga to'g'ri kelgan. Saratovdagi jarrohlarning hech biri na gospitaldagi harbiylar, na universitet klinikasidagilar bunday operatsiyaga qo'l urmagandi. U matbuot manbalaridan ma'lum edi, amerikaliklar 1941-yili harbiy-tibbiy jurnalda uning batafsil bayonini yoritgandilar.

Doktor Mayzel bu operatsiyaning nihoyatda qiyinligini e'tiborga olib, navbatdagi rentgen tekshiruvidan keyin leytenant bilan uzoq va ochiq gaplashdi. U leytenantga qattiq jarohatlanganidan so'ng tanida ro'y bergan g'ayritabiiy jarayonlar xususiyatlarini tushuntirdi. Shu bilan birga, jarroh bu operatsiyaning xavf-xatarsiz kechmasligini ochiq aytdi. U dediki, o'zaro maslahatlashgan vrachlarning fikri bir xil emas, kekxa klinika vrachi professor Rodionov operatsiyaga qarshi chiqdi. Leytenant Shaposhnikov doktor Mayzelga ikki-uch savol berdi va, biroz o'ylab ko'rib, shu yerning o'zida – rentgen xonasida-yoq operatsiyaga rozilik bildirdi. Besh kun operatsiyaga tayyorgarlik bilan o'tdi.

Operatsiya ertalab soat o'n birda boshlanib, soat to'rtida nihoyasiga yetdi. Operatsiyada gospital boshlig'i harbiy vrach Dimitruk qatnashdi. Operatsiyani kuzatgan vrachlarning baholariga ko'ra, u muvaffaqiyatli o'tdi.

Mayzel, shu yerning o'zida, jarrohlik ish stoli oldida turgan holda, jurnaldagi maqolada e'tibordan chetda qolgan, kutilmagan qiyinchiliklarni to'g'ri hal etdi.

Operatsiya vaqtida bemorning ahvoli qoniqarli, tomir urishi me'yoriy darajada saqlandi.

Kunduzi soat ikkilarda o'rta yashar, semiz doktor Mayzel o'zini yomon his qildi va ishini majburan, bir necha daqiqqa to'xtatdi. Doktor-terapevt Klestova unga validol berdi, shundan keyin Mayzel oxirigacha tanaffus qilmadi. Lekin operatsiya tugaganidan, leytenant Shaposhnikov alohida xonaga olib o'tilganidan so'ng, hayal o'tmay, doktor Mayzel og'ir stenokardiya xurujiga uchradi. Faqat badaniga takroran kamfara yuborilishi va suyuq introglitserin qabul qilishi, tunga borib, tomirlar qisilishini tarqatdi. Aftidan, xasta yurakka haddan ortiq yuk orilishi, asablarning qo'zg'alishi bu xurujni keltirib chiqargandi.

Shaposhnikov yonida navbatchilik qilayotgan tibbiy hamshira Terentyeva, ko'rsatmaga binoan, leytenantning ahvolini kuzatib borardi. Alohida xonaga Klestova kirdi, hushsiz yotgan leytenantning tomir urishini tekshirdi. Shaposhnikovning ahvoli qoniqarli edi, doktor Klestova hamshira Terentyevaga dedi:

– Mayzel leytenantga hayot yo'llanmasini taqdim etdi, o'zi esa o'lishiga sal qoldi.

Hamshira Terentyeva javob berdi:

– Eh, faqat bu leytenant Tolya tirmashib chiqsa, koshki edi!

Shaposhnikovning nafas olishi qariyb eshitilmasdi. Uning yuzi qilt etmas, ingichka qo'llari va bo'yni bolalarnikiga o'xshar, dala mashg'ulotlari va cho'llardan o'tish mahalida oftob qoraytirgan joylari rangpar terisi uzra tushgan sezilar-sezilmas soyalarday ko'rinardi. Narkozning bartaraf etilmagan harakatlaridan og'ir karaxt, ruhiy va jismoniy kuchlari bemador Shaposhnikovning ahvoli hushsizlik va uyqu oralig'ida edi.

Bemor ayrim so'zlarni va ba'zan butun jummalarni g'o'ng'irlab aytardi. Terentyevaga, uning: «Yaxshiyamki, sen meni shu holda ko'rmading», – deb tez aytgani eshitingandek tuyuldi. Shundan keyin u tinchgina yotdi, lablarining burchaklari salqilashdi, go'yo u hushsiz holida yig'lardi.

Kechki soat sakkizlarda bemor ko'zini ochdi va tushunarli qilib – tibbiy hamshira Terentyeva quvondi va hayratlandi – suv so'radi. Hamshira Terentyeva bemorga unga suv ichish mumkin emasligini aytdi va operatsiya ajoyib o'tganini va bemor sog'ayib ketishini qo'shib qo'ydi. Hamshira undan o'zini qanday his qilayotganini so'radi, bemor, javoban, biqinida va yelkasida ozgina og'riq borligini bildirdi.

Hamshira uning tomir urishini qaytadan tekshirdi, so'ng lablari va peshonasidan ho'l sochiq yurgizib chiqdi.

Shu paytda xonaga sanitar Medvedov kirib, jarrohlik bo'limi boshlig'i harbiy vrach Platonov hamshira Terentyevani telefon orqali chaqirayotgani haqidagi xabarni yetkazdi. Hamshira Terentyeva qavat navbatchisi xonasiga kirib, go'shakni ko'tarib, harbiy vrach Platonovga bemor uyg'onganligini, og'ir operatsiyani o'tkazganlar uchun odatiy ahvolda ekanini ma'lum qildi.

Hamshira Terentyeva o'zini almashtirishlarini so'radi, u eri tomonidan berilgan pul tavsianomasini yangi manzilga ko'chirishdagi

yanglishlik munosabati bilan shahar harbiy komissariatiga borishi kerak. Harbiy vrach Platonov uning iltimosiga rozilik bildirdi, faqat o'zi borib ko'rgunicha, Shaposhnikovni kuzatib turishni buyurdi.

Hamshira Terentyeva xonaga qaytdi. Bemor chiqib ketayotganida qanday bo'lsa, o'sha holatida yotar, lekin yuzida azob ifodalari unchalik aniq ko'rinmasdi, labining burchaklari asl holiga qaytgan, chehrasi sokin, kulimsirayotgandek tuyulardi. Doimiy azob ifodasi, chamasi, Shaposhnikov yuzini qarimsiq ko'rsatardi, hozir esa kulimsirayotganida, u hamshira Terentyevani tong qoldirdi, ozg'in yuzi, biroz do'rdaygan, qalin, rangsiz lablari, bironta ajinsiz keng peshonasi katta yoshli odamga emas, hatto o'smirga ham emas, balki bolaga tegishli dey tuyulardi. Hamshira Terentyeva bemordan o'zini qanday sezayotganini so'radi, lekin u javob qilmadi, balki uyquga ketgandi.

Hamshira Terentyevani uning yuz ifodasi biroz sergaklantirdi. U leytenant Shaposhnikovning qo'lini ushlab ko'rdi, tomir urishi sezilmadi, qo'lning xuddi yaqindagina yoqilgan va allaqachon yonib bo'lgan pechlar tonggi vaqtlar o'zlarida saqlab qolgan, zo'rg'a seziladigan, jonsiz taftga monand andak tafti bor edi.

Garchi tibbiy hamshira Terentyeva bir umr shaharda yashagan bo'lsa-da, u tizzalab o'tirib, tiriklarni bezovta qilmaslik uchun sekin-gina, qishloqchasiga uvullay boshladi:

– Jonajonimiz bizning, ochilgan gulimiz bizning, bizni tashlab, qayoqqa ketding?

### 30

Leytenant Shaposhnikovning onasi kelgani haqidagi xabar butun gospitalga tarqaldi. O'lgan leytenantning onasini gospital komissari, batalyon komissari Shimanskiy qabul qildi. Shimanskiy talaffuzi kelib chiqishi polyak ekanidan shohidlik berib turuvchi, kelishgan odam Lyudmila Nikolayevnani kutar ekan, qovog'i soliq edi, nazarida, uning ko'z yosh to'kishi, ehtimol, hushidan ketishi muqarrar edi. U yaqindagina qo'ygan mo'ylovini tili bilan yaladi, o'lgan leytenantga rahmi keldi, uning onasiga rahmi keldi va shuning uchun o'lgan leytenantdan ham, uning onasidan ham xafa bo'ldi, agar har bir o'lgan leytenantning onasiga qabul uyushtirilsa, shuncha asabni qayerdan topasan?

Shimanskiy Lyudmila Nikolayevnani o'tirg'izgach, gap boshlashdan avval, suv to'la grafinni u tomonga surib qo'ydi, u esa dedi:

– Sizga tashakkur bildiraman, mening suv ichгим yo'q.

U Shimanskiyning operatsiya oldidan o'tkazilgan konsilium haqidagi (batalyon komissari bir ovoz operatsiyaga qarshi bo'lganini unga aytish shart emas, deb hisobladi), operatsiyaning qiyinchiliklari haqidagi, operatsiyaning yaxshi o'tganligi haqidagi hikoyasini tingladi; jarrohlar bu operatsiyani leytenant Shaposhnikovnikiga o'xshash og'ir yaradorliklarni davolashda qo'llash kerak, deb hisoblashmoqda. Uchinchi toifali harbiy vrach, patologoanatom Boldirevning xulosasiga ko'ra, Shaposhnikov o'limi yurak falaji sababli kelib chiqqan, bu favqulodda ishkalni oldindan ko'rish va bartaraf etish vrachlarning ixtiyoridan tashqarida edi, dedi u.

Shundan keyin batalyon komissari yuzlab bemorlar gospitalda yotib, davolanib ketadi, lekin ular orasida leytenant Shaposhnikov kabi xodimlar mehrini qozonganlari kam, u ongli, madaniy va tortinchoq bemor edi, hamisha biror narsani so'rashga iymanardi, xodimlarni qiynab qo'yishni istamasdi, dedi.

Vatan uchun hayotini fidoiylik bilan vijdonan bag'ishlagan o'g'ilni tarbiyalagan ona g'ururlanishi kerak, dedi Shimanskiy.

So'ng Shimanskiy undan, gospital qo'mondonligiga iltimoslaringiz bormi? – deb so'radi.

Lyudmila Nikolayevna komissarning vaqtini olayotgani uchun uzr so'radi va sumkasidan bir varaq qog'ozni chiqarib, o'z iltimoslarini o'qiy boshladi.

U: «Menga o'g'lim dafn etilgan joyni ko'rsatinglar», – dedi.

Batalyon komissar jimgina bosh silkidi va yondaftarchasiga yozdi.

U doktor Mayzel bilan gaplashmoqchi ekanini aytdi.

Batalyon komissari dediki, uning kelganini bilgach doktor Mayzelning o'zi u bilan uchrashish niyatida yuribdi.

U hamshira Terentyeva bilan uchrashtirishlarini so'radi.

Komissar bosh silkidi va o'z yondaftarchasida belgiladi. U esdalik uchun o'g'lining narsalarini olishga ruxsat so'radi.

Komissar buni ham qayd etdi.

Keyin u o'g'liga keltirgan sovg'alarini yaradorlarga berishlarini so'radi va stol ustiga ikki quti shprot, bir xaltachada konfet qo'ydi.

Uning ko'zlari komissar ko'zlari bilan uchrashdi va uning katta moviy ko'zlari balqishidan komissarning ko'zlari beixtiyor qisildi.

Shimanskiy Lyudmiladan ertasi kuni tonggi soat to'qqiz-u o'ttizda gospitalga kelishini iltimos qildi – uning barcha iltimoslari bajariladi.

Batalyon komissari yopilgan eshikka qaradi, Shaposhnikov yaradorlarga qoldirgan sovg'alarga qaradi, o'z qo'lining tomir urishini paypaslab ko'rdi, lekin tomirini topa olmadi, qo'l siltadi va suhbat avvalida o'zi Lyudmila Nikolayevnaga taklif qilgan suvni icha boshladi.

### 31

Lyudmila Nikolayevnaning bo'sh daqiqasi yo'qdek tuyulardi. Kechasi u ko'chalarni kezib yurardi, shahar bog'idagi o'rindiqalarda o'tirardi, isinib olgani vokzalga kirardi, yana shaharning kimsasiz ko'chalarida shitob, ishchan qadam tashlab borardi.

U nimalarni so'ragan bo'lsa, Shimanskiy hammasini to'la bajardi.

Tongda, soat to'qqizdan o'ttiz daqiqa o'tganda, tibbiy hamshira Terentyeva Lyudmila Nikolayevnani kutib oldi.

Lyudmila Nikolayevna undan Tolya haqida nima bilsa, hech nimanı qoldirmay, so'zlab berishini so'radi.

Terentyeva bilan birgalikda Lyudmila Nikolayevna, xalat kiyib, ikkinchi qavatga ko'tarildi, o'g'lini jarrohlik xonasiga ko'tarib eltishgan yo'laklardan yurib, bir kishilik xona – boks eshigi oldida turdi, bu tongda bo'sh turgan koykaga ko'z tashladi. Hamshira Terentyeva burnini ro'molchasi bilan artganicha, har doim u bilan yonma-yon yurdi. Ular qaytadan birinchi qavatga tushdilar va Terentyeva u bilan xayrlashdi. Tez orada qabul xonasiga, og'ir nafas olib, oq sochli, qora ko'zlari ostiga qora xaltachalar tushgan semiz kishi kirdi. Jarroh Mayzelning ohorlangan, ko'zni oladigan xalati uning qoramag'iz yuzi, o'qraygan qora ko'zlariga qiyosan yanada oqroq ko'rinardi.

Mayzel Lyudmila Nikolayevnaga professor Rodionov nima uchun bu operatsiyaga qarshilik ko'rsatganini hikoya qildi. U Lyudmila Nikolayevna o'zidan nimalar to'g'risida so'rashini avvaldan bilganday edi. U operatsiya oldidan leytenant Tolya bilan qilgan suhbatini aytib berdi. Lyudmilaning holatini anglagan holda, u operatsiya qanday o'tganini ayovsiz rostgo'ylik bilan bayon etdi.

Keyin u leytenant Tolyaga qariyb otalik mehri bilan qaraganligi to'g'risida so'z ochdi va jarrohning do'rillagan ovozi shisha ingichka, mungli zirilladi. U Mayzelning qo'llariga birinchi marta qaradi, ular o'zgacha edilar, bu ko'zlari hazin odamdan alohida yashardilar, katta, kuchli qoramag'iz barmoqlari qahri qattiq, og'ir edi.

Mayzel qo'llarini stol ustidan oldi. Va go'yo uning fikrlarini o'qiyotgandek:

– Men imkondagi hamma ishni qildim, lekin shunday bo'lib chiqdiki, mening qo'llarim uning o'limini yengmadi, balki yaqinlashtirdi, – dedi va qo'llarini yana stol ustiga qo'ydi.

U Mayzel aytganlarining hammasi haqiqat ekanini anglardi.

Bu Tolya haqidagi u yutoqib, istab kutgan har bir so'z ko'ngilni ezar va kuydirardi. Lekin suhbatlarining yana bir toliqtiruvchi qiyinchiligi bor edi, jarroh uni emas, balki o'zini o'ylab, uchrashmoqchi bo'lganini u sezib turardi. Va shu narsa unda Mayzelga nisbatan noxush tuyg'u qo'zg'agandi.

Jarroh bilan xayrlashar ekan, u o'g'limni qutqarish uchun imkonda bor hamma ishni qilganingizga ishonaman, dedi. Mayzel og'ir tin oldi, Lyudmila Nikolayevna unga so'zlari yengillik bag'ishlaganini sezdi va: «Yana bir marta uqdimki, – deb xayolidan o'tkazdi, – mendan shu so'zlarni eshitish huquqini his qilib, men bilan uchrashmoqchi bo'ldi va men bilan uchrashdi».

U ta'na aralash o'yladi: «Nahotki, men ularga taskin ham berishim kerak?»

Jarroh ketdi, Lyudmila esa telpakli odam, komendant oldiga bordi. U harbiychasiga salomlashib, komissar qabristonga yengil mashinada borib kelinglar, deb buyurgani, kartochkalar byurosiga yollanib ishlovchilar ro'yxati jo'natilgan mashina o'n daqiqaga kechikayotgani to'g'risida bo'g'iq tovushda axborot berdi. Leytenantning narsalari hozirlab qo'yilgan, ularni mozordan qaytgandan so'ng olish qulayroq.

Lyudmila Nikolayevna nimalarni so'ragan bo'lsa, hammasi harbiychasiga, puxta va to'g'ri bajarilgan edi. Lekin komissarning, hamshiraning, komendantning munosabatlari – bu odamlar ham undan qandaydir yupanch, kechirim, taskin istayotganlarini sezdirardi.

Komissar gosspitalda odamlar o'layotganini o'z aybi deb bilardi. Shaposhnikova kelgunicha, bu uni tashvishlantirmasdi – urush vaq-



tidagi gospital, axir. Tibbiy xizmatning yo'lga qo'yilishi bo'yicha boshliqlardan tanbeh eshitishmagan. Siyosiy ishlar yetarli darajada tashkil etilmagan, yaradorlarning kayfiyatlari xususidagi ma'lumotlar yomon, deb uning suvini siqib ichishdi.

U yaradorlarning bir qismidagi g'alabaga ishonchsizlik, yaradorlarning qoloq qismidagi dushmanlik xurujlari, jamoa xo'jaligi tartibiga g'animlik kayfiyatiga qarshi yetarli darajada kurashmadi.

Shimanskiyni harbiy okrugning sanitariya boshqarmasi harbiy bo'limiga chaqirdilar va agar yana maxsus bo'limga gospital mafkurasiidagi tartibsizliklar haqida xabar qilsalar, uni frontga jo'natishga va'da berdilar.

Endi, komissar o'lgan leytenantning onasi oldida o'zini aybdor his qilmoqda, chunki kecha uch bemor o'ldi, u esa kecha dush qabul qildi, oshpazga o'zi yaxshi ko'radigan – dimlangan tuzlama karamdan bigos buyurdi, Saratov shahar savdo boshqarmasi orqali topilgan bir bidonchadagi pivoni ichdi. Terentyeva o'lgan leytenantning onasi oldida shuning uchun aybdor ediki, uning eri, harbiy muhandis armiya shtabida xizmat qilar, jangovar harakatlar bo'layotgan hududlarga bormagan edi, Shaposhnikovdan bir yosh katta o'g'li esa aviatsiya zavodi konstruktorlik byurosida ishlardi. Komendant ham o'z aybini bilardi – u keksa harbiy, uyiga yaxshi gabardin gazmol va tishli piymalar yubordi, o'lgan leytenantdan onasiga esa boshqa kiyilmaydigan formali kiyim-kechak qoldi.

O'lgan bemorlarni ko'mishga boshchilik qiluvchi labi qalin, quloqlari go'shtdor starshina ham qabristonga o'zi bilan birga borayotgan ayol oldidagi aybini his qilardi. Tobutlar yupqa, yaroqsizga chiqarilgan taxtalardan qilinardi. Mayyitlar tobutga ichki kiyimida solinardi, oddiy askarlarni qardoshlik mozorlariga zich joylashtirardilar, mozorlardagi bitiklar randalanmagan taxtachalarda, tez o'chib ketadigan ranglarda, badxatlarcha yozilardi. To'g'ri, diviziya tibbiy-sanitariya batalyonlarida o'lganlarni chuqur qazib, tobutsiz ko'mib yuborardilar, yozishga esa birinchi yomg'irdayoq yuvilib ketadigan siyoh qalam ishlatardilar. Jangda, o'rmonlarda, botqoqliklarda, jar-jur joylarda, ochiq dalalarda halok bo'lganlarni ba'zan ko'muvchilar topa olmasdilar, ularni qum, quruq barg, quyunlar ko'zdan yashirardi.

Lekin starshina mashinada yonma-yon o'tirib, o'lganlar qanday dafn etiladi, birgalikdami, mayyitlarga nima kiydiriladi, qabr tepasi-

da so'nggi so'z aytiladimi kabi savollar so'rayotgan ayol oldidagi o'z aybi, har holda, yog'och-taxtalarining sifatsizligi, deb his qilardi.

Uning o'ng'aysizlanayotgani vajhi: jo'nashlaridan avval, og'aynisining kapyorkasiga<sup>1</sup> g'izillab kirib, suv qo'shilgan bir banka spirtni ichib, non-u piyozdan gazak qilgan edi. U nafasidan tussiz zahar aralash tarqagan araq isi mashinani tutib ketganidan xijolat tortardi, lekin u qanchalik xijolat tortmasin, tin olmaslikning evini topa olmasdi.

U mashina haydovchisining tepasidagi oynaga xo'mrayib qaradi, bu to'rtburchak oynada haydovchining starshinani izza qilayotgan – kulayotgan ko'zlari aks etardi.

«Battar bo'l, bo'kibsan, starshina», – derdi haydovchining ayovsiz, xushchaqchaq, yosh ko'zlari.

O'g'lini urushda yo'qotgan ona oldida barcha odamlar aybdordirlar va insoniyat tarixi davomida uning oldida o'zini oqlashga behuda urinadilar.

## 32

Mehnat batalyoni jangchilari yuk mashinasidan tobutlarni tushirardilar. Ularning churq etmasligi, shoshilmasligi odatdagi ishning havosini olganlarini ko'rsatardi. Biri yuk mashinasi kuzovida turib, tobutni uning qirg'og'i tomon surar, boshqasi unga yelkasini tutib, dast ko'tarar, shunda uchinchi jimgina kelib, tobutning ikkinchi chetini yelkasiga olardi. Muzlagan yerda botinkalarini g'irchillatib, ular tobutni keng qardoshlik mozoriga eltishar, tobutni chuqurning chetiga qo'yib, yuk mashinasiga qaytishardi. Bo'sh yuk mashinasi shaharga ketgach, jangchilar ochiq mozor chekkasida turgan tobut ustiga o'tirib, kattagina qog'ozga ozgina tamaki solib, papiros o'ray boshlardilar.

– Bugun bemalolroqqa o'xshaydi, – dedi biri va juda bop chaqmoqtoshdan olov chiqara boshladi, – pilik o'rnida chiyratma ip mis gilzaga tushirilgan, chaqmoqtosh esa gardish ichiga tiqib qo'yilgan edi. Jangchi pilikni silkidi, dud havoda muallaq turib qoldi.

---

<sup>1</sup> *Kapyorka* – kaptenarnus (harbiy qismlarda oziq-ovqat, kiyim-kechak va qurol-aslaha olish, saqlash va berish bilan shug'ullanadigan, qurol-yaroqlarni boshqaradigan va saqlaydigan xizmatchi) omborxonasi. – Tarj.

– Starshina aytdiki, bitta mashinadan ko‘p bo‘lmaydi, – dedi ikkinchisi va papirosini tutatib oldi, bo‘ralatib tutun chiqardi.

– Shunaqa ekan, tamom, mozorni bitkazamiz.

– Rost, darhol qilingani – o‘ng‘ay, u ro‘yxatni keltirib, tekshirib ko‘raveradi, – dedi uchinchi – chekmaydigan va cho‘ntagidan bir burda non chiqarib, uni qoqdi, salgina pufladi va kavshay boshladi.

– Sen starshinaga ayt, bizga misrang bersin, yerning qariyb cho-ragini sovuq qopladi, kim bilsin, ertaga bizga yana qanaqa qiliqlar ko‘rsatadi, shunaqa yerni belkurak bilan qanday qaziysan, axir?

Haligi, olov chiqargan odam kafti bilan qattiq urib, yog‘och mushtukdan papiros qoldig‘ini tushirdi, tobut qopqog‘ini mushtuk bilan tiqirlatdi.

Xuddi bir narsani eshitayotgandek, uchovining uni o‘chdi. Jimjit edi.

– Mehnat batalyoniga tushlikni quruq payok qilib berilarmish, shu rostmi? – deb so‘radi non kavshayotgan jangchi go‘yo tobutlardagi o‘liklarni ularga qizig‘i yo‘q gap bilan bezovta qilmaslik uchun ovozi pastlatib.

Ikkinchi chekuvchi uzun, dud bosgan qamish mushtukdan papiros qoldig‘ini tushirdi, uni yorug‘ga tutib ko‘rdi, boshini qimirlatdi.

Yana jimjitlik qo‘ndi...

– Shamolni aytmasa, bugun kun yomon emas.

– Eshit, mashina keldi, buni qara. tushlikkacha ishdan qutulamiz.

– Yo‘q, bu bizniki emas, bu – yengil mashina.

Mashinadan ularga tanish starshina, uning orqasidan ro‘mol o‘ragan ayol tushdi va cho‘yan to‘siq tomonga yurdi, u yerga o‘tgan haftagacha mayyitlar qo‘yilgan, keyin esa joy yo‘qligidan ko‘mish to‘xtatilgan edi.

– Ming-minglab ko‘miladi, lekin hech kim kuzatmaydi, – dedi biri. – Tinchlik vaqtida bu yerda qanday edi, bilasanmi, bitta tobut uning orqasidan, balki yuz odam gul ko‘tarib kelardi.

– Bularga ham yig‘lashadi, – shag‘alni dengiz sayqallagandek, yo‘g‘on yassi tirnoqlarini mehnat charxlagan jangchi taxtani ohista taqillatdi. – Faqat bu ko‘z yoshlar bizga ko‘rinmaydi... Qara, starshina yolg‘iz o‘ralashib yuribdi.

Ular yana cheka boshlashdi, bu gal uchovi ham tutatdi. Starshina ular oldiga kelib, ko‘ngilchanlik bilan dedi:



– Hammamiz chekyapmiz, yigitlar, bizning o‘mimizga kim ishlaydi?

Ular indamasdan uchta tutun bulutini chiqardilar, keyin biri, – chaqmoqtoshdan o‘t chiqaruvchi po‘lat parchasi egasi, – dedi:

– Bu yerda chekib bo‘psan, quloq sol, yuk mashinasi kelyapti. Men uni motori ovozidan taniyman.

### 33

Lyudmila Nikolayevna mozor do‘ngligiga yetib bordi va o‘z o‘g‘lining faner taxtachaga yozilgan ismini va harbiy unvonini o‘qidi.

U aniq sezdi, ro‘moli ostida sochlari qo‘zg‘aldi, ularni kimningdir sovuq qo‘llari harmoqlari orasidan o‘tkazdi.

Shu qatorda, o‘ngda va chapda, to to‘siqqacha – o‘t-o‘lan, gul o‘smagan, faqat qabr tuprog‘idan to‘g‘ri yog‘och dasta chiqib turgan shunday kulrang do‘nglar enlab olgan edi. Bu dastaning tepa tomonida odam ismi yozilgan fanerchalar bor edi. Fanerchalar ko‘p edi, ularning bir xilligi va zichligi dalani to‘ldirib-toshirgan g‘alla paykalini eslatardi...

Mana, nihoyat, u Tolyani topdi. Ko‘p marta uning qayerdaligini, nima qilayotganini, nima o‘ylayotganini o‘ylab topishga urindi: kichkintoyi xandaq devoriga tirilib mudrayaptimi, yo‘lda ketib borayaptimi, bir qo‘lida krujka, bir qo‘lida bir chaqmoq oq qand ushlab, choy ho‘playaptimi, dalada, o‘q ostida yugurib boryaptimi... Yonida bo‘lgisi kelardi, unga kerak edi, yonida bo‘lsa, choy quyib berardi, «tag‘in non yeysanmi» derdi, poyabzalini yechardi, lat yegan oyog‘ini yuwardi, bo‘yniga sharfini o‘rardi... U har gal g‘oyib bo‘lar, uni topa olmay qolardi. Mana, Tolyani topdi, lekin endi unga keragi yo‘q edi.

Bundan nariroqda inqilobgacha bo‘lgan davrga tegishli grauit xochli mozorlar ko‘rinardi. Mozor toshlari hech kimga keragi yo‘q, hammaga farqsiz bir to‘da chollardek turardi, bir xillari yonboshiga qulagan, boshqalari daraxtlar tanasiga bemajol suyangan.

Baayni, osmon qandaydir havosiz bo‘lib qolgan, undan havoni so‘rib olishganday, bosh ustida esa, quruq chang bilan to‘lg‘azilgan bo‘shliq turardi. Osmondan havoni so‘rib chiqarib tashlagan ovoz-siz qudratli nasos esa tinmay ishlardi, ishlardi va Lyudmilaga allaqachondan beri nainki osmon, ishonch va umid ham qolmagan edi,

bepoyon havosiz bo'shliqda to'nglagan kesaklar uyumi – kichkina do'ng yer qolgan edi, xolos.

Butun tiriklik – onasi, Nadya, Viktorning ko'zlari, harbiy axbotlar – barchasi amal qilishdan to'xtadi.

Jonli jonsizga aylandi. Butun jahonda birgina jonli – Tolya edi. Lekin atrofni qanchalik jimjitlik qoplagan edi. Kelganini u bilarmikan endi...

Lyudmila, o'g'lini bezovta qilmaslik uchun ohista tizzalab o'tirdi, uning ismi yozilgan taxtachani to'g'riladi, mashg'ulotlariga kuzatayotganda, kurtkasining yoqasini to'g'rilasa, u doim jahllanardi.

– Mana, men keldim, sen nega onam kelmayapti, deb o'y-lagandirsan, to'g'rimi?..

U qabrston to'sig'i ortidagi odamlar eshitib qolishidan qo'rqib, ovozini pastlatib gapirdi.

Shossedan yuk mashinalari o'tardi, asfalt bo'ylab qora granit yatma izg'irin aylanardi, changitardi, fatilalar yasar, chiyillardi... Bidon ko'targan, soldatcha etiklarini to'qillatgan sut sog'uvchi ayollar, qop orqalagan odamlar o'tardilar, paxtalik va soldatcha qishki telpak kiygan maktab o'quvchilari yugurardilar.

Lekin harakatga to'la kun unga mavhum xayolot bo'lib tuyulardi. Naqadar jimjitlik.

U o'g'li bilan so'zlashdi, uning o'tgan umrining tafsilotlarini es-ladi, faqatgina o'zining ongida saqlangan bu xotiralar butun muhitni bola ovozi, ko'z yoshlari, rasmi kitoblarning varaqlangandagi shi-tirlashlari, qoshiqchanning oq likopcha qirg'og'iga tekkandagi chiqil-lashi, qo'lbola radiopriyomniklarning g'o'ng'illashi, chang'ilarning g'ijirlashi, dala hovli sun'iy ko'lida qayiqlar eshkak quloqlarining g'ichirlashi, konfet qog'ozlarining shitirlashi, ko'z o'ngidan o'g'il bola yuzi, yelkasi va ko'ksining lip-lip o'tishi bilan to'ldirdi.

Uning ona chorasizligi jonlantirgan ko'z yoshlari, ranjlari, yaxshi va yomon muomalalari yaqqol, sezilarli tarzda amal qilardi.

O'tganning xotiralari emas, haqiqiy hayotning tug'yonlari chulg'adi uni.

Butun tun bo'yi shunday xira yorug'da o'qish nima uchun kerak, shunday yosh chog'idan ko'zoynak taqish – bu nimasi...

Mana u xomsurpdan tikilgan yengil ko'ylakda, yalangoyoq yotibdi, yer tamomila muzlagan, kechalari qattiq ayoz – nima uchun ko'rpa berishmabdi.

Birdaniga Lyudmilaning burnidan qon keldi. Dastro'moli og'irlashib, jiqqa ho'l bo'ldi. Uning boshi aylandi, ko'z o'ngi qorong'ilashdi, qisqa bir lahza hushini yo'qotgandek tuyuldi. U ko'zlarini yumdi, ko'zlarini ochganda esa uning alamlari jonlantirgan dunyo allaqachon g'oyib bo'lgan, faqat shamol uchirgan kulrang chang mozorlar ustida aylanardi: goh u, goh bu mozor ustida chang to'zirdi.

Muz yuzasida sharillab oqqan va Tolyani zulmat qa'ridan olib chiqqan hayot suvi badar ketdi, ko'zdan yo'qoldi, ona chorasizligi yaratgan bir on kishanlarini sindirib, o'zi haqiqiy voqelikka aylanishni istagan dunyo, o'sha dunyo qaytadan chekindi. Uning chorasizligi xuddi Xudo kabi leytenantni qabrdan ko'tardi, bo'shliqni yangi yulduzlar bilan to'ldirdi.

Bu o'tgan lahzalarda dunyoda u bir o'zi yashadi, boshqa hamma uning sharofati bilan bor bo'ldi.

Lekin onaning qudratli azmi odamlarning ulkan to'dalarini, dengizlarni, yo'llarni, zaminni, shaharlarni o'lik Tolyaga tobelikda ushlab turolmadi.

U dastro'molini ko'ziga olib bordi, ko'zi quruq edi, dastro'moli esa qondan ho'l edi. U yuzi yelimshak qonga belanganini sezdi, Tolya yo'qligini anglashga ko'nib, o'z ixtiyoridan tashqari, arzimas, ilk harakatlarni qilib, bukchayib o'tirardi.

Gospitaldagi odamlarni uning osoyishtaligi, savollari hayron qoldirdigandi. Ular o'zlariga ochiq-oydin narsani – tiriklar orasida Tolyaning mavjud emasligini u nega his qilmayotganini tushunmas edilar. O'g'liga mehri shunchalik kuchli ediki, ro'y bergan hodisaning qudrati unga bas kela olmadi – bu mehr yashayverdi.

U majnuna edi, buni hech kim payqamadi. Nihoyat u Tolyani topdi. Mushuk o'zining o'lik mushukvachchasini topganida shunday quvonib, uni yalab-yulqaydi.

Ko'ngil o'zidan ko'p iztiroblarni o'tkazadi, yillab, ba'zan o'n yillab, tosh ustidan tosh qo'yib, asta-sekinlik bilan o'z do'ng go'rini tiklaydi, mangu yo'qotish tuyg'usiga o'z-o'zicha yetib keladi, ro'y bergan hodisaning kuchiga tan beradi.

Ishlarini tugatib, mehnat batalyoni jangchilari ketishdi, quyosh ketishga shaylandi, mozor fanerlaridan tushayotgan soyalar ham cho'zildi. Lyudmila yolg'iz qoldi.

U Tolyaning o'lgani to'g'risida uydagilarga, lagerdagi otasiga xabar berish kerak, deb o'yladi. Otasiga, albatta. O'z otasiga. U operatsiya oldidan nimalarni o'yladi? Uni qanday ovqatlantirishdi, qoshiq bilanmi? U biroz bo'lsa-da, uxlab oldimi, yonboshlab yoki chalqancha yotdimi? U limon va shakar solingan suvni yoqtiradi. U hozir qanday yotibdi, sochi olinganmi?

Ehtimol, toqat yetmas ruhiy azob bois atrofni tobora zulmat, zulmat bosayotir.

Uni o'z qayg'usining manguligi haqidagi fikr hayratga soldi – Viktor o'ladi, uning qizining nevaralari o'ladi, u esa qayg'urishdan to'xtamaydi.

Hasrat tuyg'usi bardosh yetmas bir holga yetishganda, yurak uni ko'tara olmay qolganda, voqelik va Lyudmila qalbida yashayotgan olam o'rtasidagi chegara qaytadan yo'qoldi, mangulik uning muhabbati qarshisidan chekindi.

Tolyaning o'limi haqida o'z otasiga, Viktorga, barcha yaqinlarga xabar berish nima uchun kerak, axir hozircha hech narsa ma'lum emasga o'xshaydi. Yaxshisi, kutish, balki, yana hammasi mutlaqo boshqacha bo'lar.

U shivirlab dedi:

– Sen ham hech kimga aytma, hali hech narsa ma'lum emas, hali hammasi yaxshi bo'ladi.

Lyudmila palto etagi bilan Tolyaning oyoqlarini yopdi. U boshidan ro'molini olib, o'g'lining yelkasiga tashladi.

– Ey, Xudo, bunday qilish kerak emas, axir nima uchun ko'rpa berishmadi. Hech yo'qsa, oyoqlarini yaxshiroq o'rab qo'y.

U o'zini bilmay, yarimuyquda o'g'li bilan so'zlashishda davom etdi, xatlaring muncha qisqa, deb koyidi. Uyg'onib, uning ustiga shamol tashlagan ro'molni to'g'riladi.

Qanday yaxshi, faqat ikkovlari, ularga hech kim xalal bermaydi. Uni hech kim sevmasdi. Hamma u kelishgan emas derdi, lablari qalin, do'rdaygan. o'zini g'alati tutadi, arzimagan narsaga jahli qo'ziydi, ginachi derdi. O'zini ham hech kim sevmasdi, o'zidan ham kamchilik topishardi, xolos... Mening sho'rlik o'g'lim, tortinchoq, qovushmagan, yaxshi o'g'lim... Meni birgina u sevardi, endi, tunda, qabristonda birgina u men bilan, hech qachon yolg'iz qoldirmaydi u meni, birovga keragi yo'q kampir bo'lganimda ham u sevadi

meni... hayotga naqadar moslashmagan u. Hech qachon hech narsa so'ramaydi, tortinchoq, kulgili; maktabda u hammaga kulgi bo'ldi, uning jig'iga tegishardi, achchig'ini keltirishardi, u esa kichkina boladay yig'lardi. Tolya, Tolya, meni yolg'iz qoldirma.

Keyin esa kun keldi, Volgabo'yi cho'llari uzra qirmizi, to'nglagan shafaq lovulladi. Shosse bo'ylab yuk mashinasi gurullab o'tdi.

Majnunalik ketdi. U o'g'lining qabri yonida o'tirardi. Tolyaning jasadi tuproqqa ko'milgan. U yo'q.

U o'zining kirlangan barmoqlarini yerda yotgan dastro'molini ko'rdi, oyoqlari uvushib qolibdi, yuzi belanganini sezdi. Tomog'i qichishdi.

Unga hammasi baribir edi. Unga kimdir: urush tugadi, qizig o'ldi, desa, oldida bir stakan issiq sut, bir burda issiq non paydo bo'lib qolsa, qimirlamasdi, qo'lini uzatmasdi. U tashvishsiz, fikrsiz holda o'tirardi. Uning uchun hamma narsa befarq, keraksiz edi. Faqat bir raso azob yuragini qisardi, chakkalarini lo'qillatardi. Gospitaldagi odamlar, oq xalatli vrach Tolya haqida nimalardir deyishdi, ularning og'zi ochilganini ko'rardi-yu, lekin so'zlarini eshitmasdi. Yerda, unga gospitaldan jo'natilgan, paltosi cho'ntagidan tushib qolgan xat yotardi, uni olib, changini qoqqisi kelmasdi. Ikki yoshli Tolya bir joydan ikkinchi joyga sakrayotgan chigirtkani sabr va qunt bilan maymoqlanib, chayqalib quvlab borayotgani va u o'z umrining so'nggi kuni, tongda, operatsiya oldidan yonboshlab yoki chalqancha yotganmidi – shuni hamshiradan so'ramagani haqidagi fikrlar ham yo'q edi. U kunning yorug'ini ko'rardi, uni ko'rmasligi mumkin emasdi.

Birdan uning yodiga keldi: Tolya uch yoshga to'lgan edi, kechqurun shirin pirog bilan choy ichardilar, shunda u so'radi: «Ona, nega qorong'i, axir bugun tug'ilgan kun-ku?»

U daraxt shoxlarini, quyosh ostida o'ngib ketgan silliq qabr toshini, o'g'lining nomi bor taxtachani ko'rdi – «Shaposhn» yirik yozilgan, «ikov» harflari esa mayda qilib yasalgan edi. U o'ylamadi, uning ixtiyori yo'q edi. Unda hech vaqo yo'q edi.

U turdi, xatni yerdan oldi, paltosiga ilashgan tuproqni qotib qolgan qo'llari bilan qoqdi, tozaladi, tufisini artdi, ro'molini u yana oqargunicha uzoq silkitdi. U boshiga ro'molini o'radi, uning uchi bilan qoshlaridagi gardni sidirib tashladi, lablarini artdi, iyagidan qon



dog'ini yo'qotdi. U orqasiga qayrilmay, imillamay, shoshilmay darvoza tomon yo'naldi.

Lyudmila Nikolayevna Qozonga qaytganidan so'ng oza boshladi va o'zining talabalik yillarida tushgan fotosuratlaridagi yosh qi-yofasiga o'xshab qoldi. U taqsimot bo'yicha oziq-ovqatlarni topib kelib, tushlik tayyorlar, pechga o't yoqar, pollarni tozalar, kir yuvar-di. Unga kuz kunlari juda uzoq bo'lib tuyilardi, ularning bo'shlig'ini hech nima bilan to'ldira olmasdi.

Saratovdan qaytgan kuni o'z jonajonlariga o'z safari haqida, yaqinlari oldidagi ayblarini o'ylab ko'rgani haqida hikoya qilib berdi, gospitalga borgani haqida hikoya qilib berdi, xaltani ochib, o'g'lining qonli, o'qlar titib tashlagan formali kiyim-kechagini yoy-di. U so'zlayotganida Aleksandra Vladimirovna og'ir nafas oldi, Nadya yig'ladi, Viktor Pavlovichning qo'llari qaltiray boshladi, stol ustidagi bir stakan choyni olishga uning majoli yetmadi. Lyudmila Nikolayevnadan hol-ahvol so'rayman deb, shoshilib yetib kelgan Marya Ivanovnaning rangi oqarib ketdi, uning og'zi yarim ochildi, ko'zlarida ezik ifoda qalqdi. Faqat birgina Lyudmila Nikolayevna charaqlagan moviy ko'zlarini katta ochib, xotirjamlik bilan gapirardi.

Umr bo'yi zo'r bahschi bo'lganiga qaramay, u endi hech kim bilan bahslashmasdi; ilgari kimgadir vokzalgacha qanday borish zarur-ligi aytilsa, Lyudmila to'lqinlanib, jahli qo'zib, mutlaqo u ko'chalar, u trolleybuslar bilan borish mumkin emasligini isbotlashga kirishardi.

Bir kuni Viktor Pavlovich undan so'radi:

– Lyudmila, kechalari sen kim bilan gaplashasan?

U dedi:

– Bilmayman, balki xayolimda biron nima ko'ringandir.

U bundan boshqasini so'rab o'tirmadi, lekin Aleksandra Vladimi-rovnaga Lyudmila qariyb har kecha jomadonlarni ochadi, burchakda turgan divanchaga choyshabni siradi, bezovtalanib, sekingina ovoz chiqarib deydi:

– Shuni sezayotgandekmanki, go'yo u kunduzi men bilan, Nadya bilan, uyqusida siz bilan, kechalari esa urushgacha bo'lganidek, uning ovozi jo'shqin, – dedi u. – Nazarimda, u og'rib qoldi, boshqa odamga aylanyapti.

– Bilmayman, – dedi Aleksandra Vladimirovna. – Biz hammamiz qayg'udamiz. Hamma baravar va har biri o'ziga xos.

Eshik taqillab, ularning gapi bo'lindi. Viktor Pavlovich o'rnidan turdi. Lekin Lyudmila Nikolayevna oshxonada turib qichqirdi:

– Men ochaman.

Nima uchunligi ma'lum emasdi, lekin uydagilar payqagan edi-larki, Saratovdan qaytganidan so'ng Lyudmila Nikolayevna pochta qutisida xat bor-yo'qligini kuniga bir necha marta tekshirardi.

Qachon kimdir taqillatsa, u eshik sari shoshilib tashlanardi.

Hozir ham, uning shoshilinch, qariyb yugurib tashlanayotgan qadamlari sadosiga quloq solib, Viktor Pavlovich va Aleksandra Vladimirovna bir-biriga qarab qo'ydi.

Ular Lyudmila Vladimirovnaning asabiylashgan ovozini eshi-tishdi:

– Yo'q, yo'q bugun hech narsa, bunaqa tez-tez kelavermang, men sizga ikki kun ilgari yarim kilo non berdim.

### 35

Leytenant Viktorovni shtabga, zaxiradagi qiruvchi uchuvchi polk komandiri mayor Zakabluk huzuriga chaqirishdi. Shtab bo'yicha navbatchi leytenant Velikanov mayor U – 2 da havo armiyasi shta-biga, Kalinin rayoniga uchib ketganini va kechqurun qaytishini ayt-di. Viktorov nega chaqirishganini so'raganida, Velikanov ko'zi bilan imo qilib, balki oshxonadagi mastlik va mashmasha bilan bog'liq ishdir, dedi.

Viktorov yopinchiq-chodirdan qilingan pardaga va unga qadab qo'yilgan paxta ko'rpaga qaradi, o'sha yoqdan yozuv mashinkasi-ning chiq-chiqi eshitilardi. Devonxona boshlig'i Volkonskiy Vikto-rovni ko'rib, uning savoliga iltifot bilan, dedi:

– Yo'q, xat yo'q, o'rtoq leytenant.

Mashinistka, yollanma xodim Lenchka leytenantga nazar tash-ladi, halok bo'lgan uchuvchi Demidov hadyasi – urib tushirilgan ne-mis samolyotidan olingan o'lja oynachaga bir qarab oldi, pilotkasini to'g'riladi, o'zi ko'chirib yozayotgan ro'yxat ustidagi chizg'ichni surdi va yana mashinka tugmalarini bosishda davom etdi.

Lenchkaning devonxona boshlig'iga birgina va o'sha g'amgin sa-volni bergan yuzi katta leytenant ma'yuslantirdi.

Viktorov aerodromga qaytib borar ekan, o'rmon yoqasi tomon burildi.

Mana, bir oydirki, janglardan keyin, polk moddiy qismini, o'rmi bo'shab qolgan uchuvchilar tarkibini to'ldiryapti.

Bir oy oldin Viktorovga bu sirli shimoliy o'lka o'zgacha bo'lib tuyulgan edi. O'rmon, tik tepaliklar orasidan chaqqonlik bilan yugurayotgan navqiron daryo hayoti, chirigan narsalar, qo'ziqorinlar isi, daraxtlarning g'uvullashi uni tun-u kun hayajonlantirardi.

Parvozlari vaqtida, zamin hidlari qiruvchi kabinasigacha kirib borday bo'lardi. Bu o'rmon, ko'llar Viktorov urushgacha kitoblardan o'qigan Qadimgi Rus hayoti bilan nafas olardi. Bu yerda, ko'llar, o'rmonlar o'rtasida eski yo'llar yastanib yotardi, tik o'sgan daraxtlardan uylar, cherkovlar qurilardi, kema machtalari yo'nilardi. Shu yerlardan kulrang bo'ri yo'rtib o'tgan va endi Viktorov harbiy savdo oshxonasiga qatnayotgan ushbu qirg'oqda Alyonushka yig'lagan mahallardayoq qadim zamon o'ygaga tolga va jim bo'lib qolgan. Uning nazarida, o'tib ketgan zamon qandaydir go'l, sodda, norasida edi, nainki ko'shklarda yashagan qizlar, balki oppoq soqolli savdogarlar, dyakonlar, buzurglar bu o'rmonga mayor Zakabluk aviapolki bilan birga kelgan uchuvchilardan, ildam mashinalar, avtomat to'plar, dizellar, kino va radio olamiga mansub, hayotda pishib ketgan yigitlardan ming yosh kichik edi. O'rmon yashilligi, moviy va qizil rangli gullar og'ushidagi, qirg'oqlari alvon-alvon, chaqqon, ozg'in Volga bu o'tgan yoshlik bilan tanish edi...

Harbiy yo'l bo'ylab qadamlayotgan leytenantlar, serjantlar va unvonsiz oddiy yigitlar – ular qancha ekan? Ular o'zlariga belgilangan miqdordagi papirosni chekadilar, tunuka tovoqni oq qoshiq bilan tiqillatadilar, vagonda qarta o'ynaydilar, shaharda cho'pli muzqaymoqni maza qilib yeydilar, yo'talib, yuz grammlig qadahdagi o'zlariga yetarli ulushlarini ichadilar, dala telefoniga qichqirib gapiradilar, kimdir kichik kalibrli to'pachadan otadi, kimdir bosh kalibrdan qar-sillatadi, kimdir o'ttiz to'rtinchi raqamli tank akseleratori tepkisini bosib, shunday bir narsa deb baqiradiki...

Yer etiklar ostida g'ichirlardi, xuddi eski prujinali to'shak kabi, bosilib-tiklanardi, bular tepkilanib yotgan, sirdan qaraganda, yengil, mo'rt, xazon holidam ham bir-biridan ko'rimli yaproqlar edi, bir necha yillar ilgari kurtak yozgan, jalada shovullagan, yomg'irdan so'ng qu-

yoshda yarqiragan hayotning kuli – oxiri qovjirab, ezilib-qo‘shilib ketgan, shilt deb sadolanuvchi bo‘tqa esa ular tagida qolgandi. Chirib bitgan, qariyb vaznsiz shox-shabbalar qadam yetganda uvalanardi. Sokin nur yaproq yorug‘ tutgichi yoyilgan o‘rmon zaminigacha yetib borardi. O‘rmon havosi tinch, quyuq edi, buni samoviy quyunlarga odatlangan qiruvchi-uchuvchi o‘zgacha his qilardi. Qizdirilgan, terlagan daraxtdan yog‘ochning dirkillama namchilligi anqirdi. Lekin o‘lik daraxtlar va quruq shoxchalar isi tirik o‘rmonning isini bosib ketardi. Qoraqarag‘ay turgan yerlarda o‘tkir hidli baland ohang juda past yo‘g‘on ovozga yorib kirardi. Tog‘terak chuchmal chuchuk bo‘y taratardi, qandog‘och achchiq tin olardi. O‘rmon boshqa dunyodan ayrim yashardi, Viktorov nazarida, u hamma narsasi tashqaridagiga o‘xshamaydigan uyga kirib qolgandek tuyulardi: hidlar ham, yopib qo‘yilgan pardalar orqali tushayotgan nur ham, tovushlar ham bu devorlar ichida boshqacha taralardi, o‘rmondan chiqmaguningcha, yaxshi tanish bo‘lmagan odamlar davrasidagidek, o‘zingni odatdigidan boshqacha sezasan. Baayni ostdan, o‘rmon havosining balanddagi, qalin qatlami orqali yuqoriga qarasang, yaproqlar titraydi va pilotkadagi yashil yulduzchaga chirsillab yopishayotgan o‘rgimchak ini havzaning tubi va yuzasi o‘rtasida muallaq suv o‘tlari bo‘lib ko‘rinadi. Ko‘zga chalinadiki, ildam, boshi katta pashshalar, shoxlar orasida tovuqlardek urishayotgan karqurlar suzgichlarini qimir-latishadi, ular baliq suvdan yuqoriga chiqa olmaganday hech qachon o‘rmondan tepaga ko‘tarila bilmaydi; agar hakka tog‘terak uchiga pirillab uchsa, o‘sha zahotiyiq qaytib, shoxlar aro sho‘ng‘iydi, quyoshda baliqning oq yoni bir on yiltiraydi va qaytadan suvga shaloplab tushadi. O‘rmon tubidagi g‘ira-shirada, moviy, ko‘k, so‘layotgan yo‘sin uzra shudring qatralari qanchalik g‘alati tuyuladi.

Bu tinch yarimqorong‘ilikdan tuyqusdan yorug‘ yalanglikka chiqib qolish yaxshi, hammasi – issiq zamin, quyosh qizdirgan qora archaning isi, jo‘shqin havo, binafsharang ma‘dandan quyilgan, egilgan katta qo‘ng‘iroq gullar, poyalari yopishqoq, yelimli yovvoyi chinnigullar darhol boshqacha tus oladi. Ko‘ngildan g‘am ariydi, o‘rmondagi yalanglik qashshoq hayotdagi baxtli kunga aylanadi. Aftidan, oq sariq kapalaklar, qoramtir-moviy silliq qo‘ng‘izlar, o‘t-o‘lanlar ichra g‘imirlayotgan chumolilar faqat o‘zini o‘ylamay, hammasi birgalikda yagona umumiy ishni ado etishadi. Yuzga mayda

barglar bilan qoplangan oqqayin novdasi tegdi; chigirtka sakradi, daraxt poyasi deb odamga duch keldi, uning belidagi tasmaga tirmashdi, ko'k sonlarini erinmay taranglashtirib, qo'ynikidek miqtiturqini ko'rsatib, dumaloq charm ko'zlarini tikib o'tirdi. Harorat, yertutning kechikkan gullari, quyosh tafti urgan tugmalar va kamar to'qasi. Ehtimol, bu yalanglik ustidan hech qachon Yu-88 ham, tungi «xeynkel» ham uchib o'tmagan.

### 36

Ko'pincha u kechalari Stalingrad gospitalida o'tkazgan oylarini xotirlardi. Terdan ho'l bo'lib ketgan ko'ylagi, ko'ngilni behuzur qiluvchi sho'rroq suv, tinkasini quritgan og'ir hid yodida yo'q edi. Gospitalda kechgan bu kunlar, nazarida, baxt edi. Bu yerda, o'rmonda, daraxtlarning g'uvullashiga quloq solar ekan, u: «Nahotki, men uning qadam tovushlarini eshitdim?» – deb o'yladi.

Nahotki, shu o'ngi edi? U buni quchdi, sochlarini siladi, u yig'ladi va bu uning ho'l, sho'rtob ko'zlarini o'pdi.

Ba'zan Viktorov qanday qilib «Yak»da Stalingradgacha borishini, – bir necha soat kifoya, – Ryazanda nafas rostlab olish mumkin, keyin Engelsgacha yetib oladi, o'sha yerda unga tanish bir yigit mas'ul navbatchi bo'lib ishlaydi. Xo'p, keyin otib tashlashsa ham mayli.

Eski bir kitobda o'qigan edi – o'sha voqea esiga tushdi: og'a-inilar, feldmarshalning o'g'illari, boy-badavlat Sheremetyevlar o'zlarining o'n olti yoshli singillarini kenas Dolgorukiya erga beradilar, to'ygacha qiz uni bir marta ko'rgan edi, shekilli. Og'a-inilar kelinga katta sep-sidirg'a berdilar, hadya etilgan kumush uch xonani to'ldirdi. To'ydan keyin ikki kun o'tgach Pyotr II o'ldi. Dolgorukiyni, uning yaqin kishisini qo'lga oldilar va shimolga eltdilar, yog'och minoraga qamab qo'ydilar. Yosh xotin o'gitlarga ko'nmadi, aslida u bu nikohni buzishi mumkin edi, eri bilan ikki kungina yashagan edi, xolos. U eri orqasidan bordi, o'rmonli xilvat o'lkada, qishloq kulbasidan boshpana topdi. U o'n yil davomida har kuni Dolgorukiy o'tirgan minoraga qatnadi. U bir kuni tongda kelib qarasaki, minoraning darchasi ochiq, eshigi yopilmagan. Yosh kenas xonim ko'chada yugurib yurdi, kim uchrasa, dehqonmi, o'qchimi qarshisida tiz cho'kib, yalindi, erining qayerdaligini so'radi. Odamlar Dolgorukiyni Nijniy

Novgorodga olib ketishganini aytishdi. U yayov yo'l bosib, ko'p qiyinchiliklarni ko'rdi. Nijniyda esa Dolgorukiy to'rt bo'lib qatl qilganini bildi. Shunda Dolgorukaya monastirga kirishni istab, Kiyevga jo'nadi. Monaxlikni qabul qiladigan kuni Dnepr sohillarida uzoq kezdi. Lekin Dolgorukaya erkinlikdan voz kechayotganiga achinmasdi, monaxlikni qabul qilar ekan, u nikoh uzugini barmog'idan chiqarishi kerak edi, lekin undan ajralgisi kelmasdi... U necha soat qirg'oqda kezdi, so'ng esa quyosh bota boshlaganda, barmog'idan uzukni olib, uni Dneprga otdi va monastir darvozasi sari yo'l oldi.

Bolalar uyida tarbiyalangan, StalGRES mexanik ustaxonasida chilangarlik qilgan havo kuchlari leytenanti xayolidan kenas xonim Dolgorukayaning butun hayoti o'tmoqda edi. U o'rmon bo'ylab borar va ko'z o'ngiga shu narsa kelardi: mana, endi u yo'q, ko'mishdi, frits urib tushirgan, tumshug'i bilan yerga kirib ketgan samolyot zang bosib, sochildi, ustida o'tlar ko'kardi, shu joylardan Vera Shaposhnikova odimlaydi, to'xtaydi, qiyalikdan Volga bo'yiga tushadi, suvga tikiladi... Ikki yuz yil ilgari esa bu yerlarda yosh Dolgorukaya yurgandi, yalanglikka chiqadi, zig'irlarni oralab o'tadi, qo'llari bilan qizil reza mevalari shig'il tuplarni ikki yoqqa qayiradi. Uning joniga og'riq kirdi, yuragi achidi, ham umidsizlikni, ham xushnudlikni sezdi.

O'rmon bo'ylab eski gimnastyorka kiygan yelkasi kambar leytenant boradi – unutilmas davrda ularning qanchasi unutilgan.

### 37

Viktorov aerodromga yaqinlashar ekan, qandaydir muhim hodisalar ro'y berganini angladi. «Beze»<sup>1</sup> mashinalari yozgi maydon bilan aylanib yurardi, aerodom xizmati batalyoni texniklari, motorchilari niqob to'rlar ostida turgan samolyotlar oldida kuymalanardilar. Odatda, sukut saqlaydigan ratsiya dvijogi aniq va shaxt bilan tiqilardi.

«Tushunarli», – deb o'yladi Viktorov qadamini tezlashtirar ekan.

Shu yerning o'zida hammasi tasdiqlandi, unga yonog'ida qizg'ish kuyuk dog'lari qolgan leytenant Solomatin duch keldi va dedi:

– Zaxiradan chiqyapmiz, buyruq – bor.

– Frontgami? – deb so'radi Viktorov.

<sup>1</sup> Benzin quyuvchilar (asliyat muharriri izohi).

– Bo'lmasa, qayerga, Toshkentgami? – deb so'radi Solomatin va qishloq tomonga ketdi.

Aftidan, Solomatinning yuragiga qil sig'masdi – ijarada turgan uyining bekasi bilan jiddiy bir ishni boshlab qo'yishgandi, hozir uning yoniga shoshilib ketayotganga o'xshaydi.

– Solomatin bo'lishadi: kulbani kampirga qoldirib, sigimi o'zi oladi, – Viktorovga shu atrofdan tanish ovoz eshitildi. So'qmoqdan Viktorovning sherigi – leytenant Yeryomin kelayotgandi.

– Qayoqqa jo'natishadi, Yeryoma?

– Balki Shimoliy-Sharqiy hujumga kirar. Hozir diviziya komandiri Er-beshinchida keldi. Havo shtabida, menga tanish «duglas» uchuvchisi bor, so'rash mumkin. U hammasini biladi.

– So'rashning hojati yo'q, o'zlari aytishadi.

Lekin allaqachon nafaqat shtab va aerodromdagi uchuvchilarga, balki qishloqqa ham g'uluv tushgan edi. Polkdagi eng yosh uchuvchi, leytenant – qora ko'zli, qalin labli Korol yuvilgan va dazmollangan ichkiyimni qo'lida ko'targanicha ko'chadan ketib borardi, ichkiyim ustidagi tugunchaga kovrijka<sup>1</sup> va reza mevalar qoqi solingan edi.

Uy bekalari – ikkita tul kampir ermak qilib, kovrijkalar berib, taytaytirishgan deb, Korolni kulgi qilardilar. Topshiriq bilan ketganida, kampirlar aerodromga borib, yarim yo'lda kutib olardilar: biri uzun bo'yli, tik, boshqasining beli bukik, u jahli chiqqan, xijolat, erka bola esa ikkisining o'rtasida borardi, uchuvchilar: Korol undov belgisi va so'roq belgisi bo'linmasida ketyapti, derdilar.

Eskadrilya komandiri Vanya Martinov shinelini kiyib, uydan chiqdi, u bir qo'lida jomadonchasini, boshqasida, g'ijimlanib qolishidan hadiksirab, jomadonchaga joylashtirmagan parad furajkasini ko'tarib olgan edi. Xo'jayinning ro'molsiz, sochlarini o'zi jingalak qilib olgan sariq qizi uning ortidan shunday nigoh bilan termilardiki, unisi haqida ham, bunisi haqida ham hikoya qilishga hojat yo'q edi.

Viktorovga u bilan bir uyda ijarada turgan siyosiy rahbar Golub va leytenant Vanya Skotnoy narsalarini olib ketganlari to'g'risidagi axborotni bir oqsoqroq bola yetkazdi.

Viktorov bu uyga bir necha kun oldin ko'chgandi, o'shangacha u Golub bilan birgalikda peshonasi keng, do'ng va sarg'ish ko'zlari

<sup>1</sup> Kovrijka – asal qo'shilgan pryantik.

irg'ib chiqqan – bu ko'zlarga qaragan odamning esi og'ardi – fe'li yomon xotinning xonadonida ijarada turgandi.

Ijarachilardan qutulay deb u kulbani tutunga to'ldirardi, bir kuni esa choylariga kul sepib qo'ydi. Golub Viktorovni bu beka haqida polk komissariga arz qil deb, undadi, ammo Viktorov arz qilishni istamadi.

– E, xo'p, kasofati o'ziga ursin, – deb, uning fikriga qo'shildi Golub va bolalikda onasidan eshitgan so'zlarni esladi: – Kim bizning qirg'oqqacha dorisa, yaxshi bo'lsa oshini, yomon bo'lsa boshini yesin.

Ular boshqa uy topib, o'rmasishdi, bu yer ularga jannat bo'lib ko'rindi. Lekin, mana, hech qancha vaqt o'tmay, jannatni tark etishga to'g'ri kelyapti.

Tez orada Viktorov ham narsalari solingan qopni va bosib to'ldirilgan jomadonini ko'tarib, baland, xuddi ikki qavatlidek kulrang kulbalar yonidan o'tib borardi, uning qavatida ketayotgan oqsoq bola esa irg'ishlar, Viktorov sovg'a qilgan o'lja to'pponcha qinini tovuqlarga, o'rmon ustida aylanayotgan samolyotlarga o'qtalib, nishonga olardi. Yevdokiya Mixeyevna tutunga to'ldirganda nafasi qaytib, dimiqqan kulba yaqinidan odimlarkan, xira oyna orqasidagi o'sha ayolning ruhsiz yuzini ko'rdi. Quduqdan, ikki yog'och paqirda suv olib kela yotib, damini rostlagani to'xtaganida u bilan hech kim gaplashmasdi. Uning na sigiri, na qo'yi, na tomi ostida jarqaldirg'ochi bor edi. Golub uning ildizi quloqlarga bog'lanadi deb, o'ylab, so'rab-surishtirdi, lekin u kambag'al oiladan chiqqan ekan. Ayollar u eri o'lganidan keyin baayni merovsirab qolganini: kuzning sovuq kunlari ko'lga tushib, kecha-yu kunduz qo'zg'almay o'tirganini aytib berishdi. Erkaklar uni suv ichidan zo'r bilan olib chiqishdi. Lekin ayollar u eri o'lgunicha ham, erga chiqqunicha ham «ichimdagini top» edi, deyishdi.

Mana, Viktorov o'rmon qishlog'ining ko'chasi bo'ylab bormoqda, u bir necha soatdan so'ng bu yerdan batamom uchib ketadi, bularning bari – guvullagan o'rmon, polizlariga bug'ular kiradigan qishloq, qirqquloqlar, daraxt tanasidan oqqan sariq yelim, daryo, kakular – uning uchun amal qilishdan to'xtaydi. Chollar, qizchalar, kollektivlashtirishni qanday o'tkazganlari haqidagi gaplar, xotinlarning qo'lidagi malinali savatlarni tortib olgan ayiqlar, qora ilon boshini



yalang tovoni bilan bosgan bolalar haqidagi hikoyalar barham topadi... Nazarida, g'alati va odatdan tashqari o'zi tug'ilib o'sgan ishchilar qo'rg'oni qanchalik zavodga qarashli bo'lsa, butunlay o'rmonga bog'liq bu qishloq ham xayolidan ko'tariladi.

Keyin esa qiruvchi yerga qo'nadi va bir onda yangi aerodrom, o'z kampirlari, qizchalari, o'z ko'z yoshlari va hazillari, burunlarini chandiqlar toz qilib tashlagan mushuklari, o'tmish haqidagi, yalpisiga kollektivlashtirish to'g'risidagi o'z hikoyalari, ijaraga qo'yilgan uylarining o'z yomon va yaxshi bekalari bor qishloq yoki zavod qo'rg'oni paydo bo'ladi, borliqqa aylanadi.

Va barno yigit Solomatin yangi joyda, bo'sh vaqtlarida furajkasini kiyadi, ko'chada yurib, gitarasini chalib, kuylaydi va qizlarning aqlini oladi.

Polk komandiri – yuzi bug'doymag'iz, qirilgan boshi rangsiz – mayor Zakabluk beshta «Qizil Yulduz» ordenini jaranglatib, salmog'ini qiyshiq oyoqlarining goh unisiga, goh bunisiga tashlab, uchuvchilarga zaxiradan chiqish haqidagi buyruqni o'qib eshittirdi, blindajlarda tunash buyurilganini va amal qilish tartibi aerodromda parvoz oldidan e'lon qilinishini aytdi.

Keyin u bildirdiki, qo'mondonlik aerodrom blindajlaridan chiqishni taqiqlaydi va bu taqiqni buzganlar bilan hazillashib o'tirilmaydi.

– Men deymanki, ochiq havoda tunashmasin, parvoz oldidan to'yib uxlab olishsin, – deb tushuntirdi u.



16 6 35, 05 20m

Rus adabiyoti durdonalari

---

*Adabiy-badiiy nashr*

**VASILII SEMYONOVICH GROSSMAN**

**HAYOT VA QISMAT**

*Romandan parchalar*

Rus tilidan **Muhammadali Qo'shmoqov** tarjimasida

Nashr uchun mas'ul *A. Boboniyozov*

Nashrga tayyorlovchi *D. G'aybullayeva*

Muharrir *D. G'aybullayeva*

Rassom-dizayner *B. Zufarov*

Texnik muharrir *Y. Stepanova*

Kichik muharrir *M. Salimova*

Musahhih *Sh. Hojiyeva*

Kompyuterda tayyorlovchi *Z. Hamidullayeva*

Nashriyot litsenziyasi AI № 158, 14.08.2009.

Bosishga 2021-yil 3-noyabrda ruxsat etildi.

Bichimi 60×90<sup>1/16</sup>. Ofset qog'oz. «Times New Roman» garniturasida  
ofset usulida bosildi. Shartli bosma tabog'i 10,0.

Nashr tabog'i 9,73. Adadi 10 000 nusxa. Buyurtma № 21-440.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20

Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: [uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz](mailto:uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz).

[www.iptd-uzbekistan.uz](http://www.iptd-uzbekistan.uz)





**V.S. Grossman**

«O'ZBEKISTON»

ISBN 978-9943-7606-4-6

